

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

HAMROYEV HALIM RAJABOVICH

Soliqlar va soliqqa tortish

Darslik

Oliy o`quv yurtlarining noiqtisodiy ta'lim yo`nalishlari
talabalari uchun

Oliy va o`rta maxsus ta'lim vazirligining 2009 yil 27
oktyabrdagi 373-sonli buyrug`i.

Buxoro-2011

Darslik amal qilayotgan o`quv dasturiga muvofiq tayyorlangan. Unda o`quv dasturida nazarda tutilgan soliqlar va boshqa majburiy to`lovlar, ularning nazariy, huquqiy, tashkiliy va uslubiy asoslari, ularni hisoblab chiqarish, to`lash, undirish, hisobotlarini tuzish va taqdim etish tartiblari yoritilgan. U ko`plab ko`rgazmali va boshqa didaktik materiallar-chizmalar, grafiklar, jadvallar, hisob-kitob shakllari, misollar, qisqacha xulosalar, nazorat va muhokama uchun savollar, mustaqil ishi topshiriqlari, testlar, reyting savollari, nazorat ishi variantlari, soliqlar va boshqa majburiy to`lovlarning umumlashtirilgan tavsifnomasi, asosiy tushunchalar lug`ati bilan boyitilgan.

Darslik oily o`quv yurtlarining barcha noiqtisodiy ta`lim yo`nalishlari talabalari uchun mo`ljallangan.

Учебник подготовлен в соответствии с действующей учебной программой. В нем освещены предусмотренные в учебной программе налоги и другие обязательные платежи, их теоретические, правовые, организационные и методические основы, порядок их исчисления, уплаты и взимания, составления и представления отчетов. Он обогащен множеством наглядных и других дидактических материалов-схем, графиков, таблиц, форм расчетов, примеров, кратких выводов, заданий для самостоятельной работы, вопросов для контроля и обсуждения, тестов, вопросов рейтинга, вариантов контрольных работ, обобщенной характеристикой налогов и других обязательных платежей, словаря основных понятий.

Учебник предназначен для студентов всех неэкономических направлений обучения высших учебных заведений.

This textbook is prepared according to the operating educational programe. Taxes and other obligatory payments, their theoretical, legal, organizational and methodic bases, order of their calculation, payment and leving, composition and presentation of reports envisaged by the educational programe are elucidated in it. It is enriched by a set of visual didactic materials-schemes, diagrams, tables, calculation forms, brief conclusions, key notions, examples, tests, tasks for independent work, questions for the control and discussion, questions of rating, variants control work, generalize characteristic of taxes and other obligatory payments, dictionary of main concepts.

This textbook is intended for students of all not economic directions of higher educational establishments.

Taqrizchilar:

Navro`zzoda B.N.– BuxDU iqtisodiyot nazariyasi kafedrası mudiri, iqtisod fanlari doktori, professor

Ravshanov Ya.H.- Buxoro viloyat davlat soliq boshqarmasi boshlig`ining birinchi o`rinbosari

Hamroyev H.R. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. Buxoro Davlat universiteti, Buxoro, 2010, 280 bet.

Kirish

Soliqlar aholi farovonligi, korxona va tashkilotlar faoliyatiga kuchli ta'sir etuvchi pul munosabatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Shuning uchun ular mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti va iqtisodiyotni tartibga solishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning ta'kidlashicha, bozor iqtisodiyoti sharoitida ham soliqlar iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda eng muhim boshqaruvchi omil bo'lib qoladi. Bu fikrning hayotiyligini va soliqlarning iqtisodiyotni tartibga solishda muhim vosita ekanligini jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi yaqqol namoyon qildi. Shu boisdan ham O'zbekistonning Inqirozga qarshi choralar dasturida soliqlar salmoqli o'rin egallagan. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining iqtisodiyot va aholi farovonligiga salbiy ta'sirini yumshatish maqsadida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, yakka tartibdagi tadbirkorlarga solinadigan qat'iy belgilangan soliq, ayrim korxonalar uchun yagona soliq to'lovi va boshqa ayrim soliqlarning stavkalari pasaytirildi, iqtisodiyotning ustuvor sohalari va yo'nalishlarida soliq imtiyozlari kengaytirildi, soliq tizimini modernizatsiya qilish va boshqa chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hozirgi bosqichida amalga oshirilayotgan iqtisodiyotni isloh etish, erkinlashtirish va modernizatsiya qilish, uning tarkibiy tuzilishini diversifikatsiya qilish jarayonlari soliq munosabatlarini ham qamrab olishi tabiiydir. Soliq islohotlari va soliq tizimini modernizatsiya qilishning asosiy maqsadi, bir tomondan, mamlakat byudjetini mablag' bilan ta'minlashni yaxshilash bo'lsa, ikkinchi tomondan, to'lovchilar uchun soliq yukini kamaytirish hisoblanadi. Bu yo'nalishdagi muhim vazifalar soliq siyosatini erkinlashtirish, soliq qonunchiligini takomillashtirish, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish hamda unifikatsiya qilish va natijada soliq tizimini shakl va mazmun-mohiyat jihatdan mamlakatda barpo etilayotgan ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti tamoyillariga mos darajaga ko'tarishdan iborat.

Respublikada qurilayotgan demokratik fuqarolik jamiyati va ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni, shu jumladan, soliq munosabatlarini yuksak ma'rifiy, ma'naviy, madaniy darajaga ko'tarishni talab qiladi. Mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar va modernizatsiya jarayonlari barcha aholining ongli va faol ishtirok etishini taqazo qiladi va shunday ishtirokiga tayanadi. Bu esa mazkur munosabatlar va jarayonlarda ishtirok etuvchi aholining ular to'g'risida, soliqlar haqida qanday tasavvurga ega bo'lishiga bog'liqdir.

Soliqlar davlatning korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, uy xo'jaliklari, fuqarolar bilan o'zaro pul munosabatlari bo'lib, har birining daromadlarini shakllantirishda bevosita ishtirok etadi va sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun barcha aholining soliqlar to'g'risida ma'lum tasavvurga ega bo'lishi soliq ishlarini tashkil etish va amalga oshirish, soliq munosabatlarini takomillashtirishda ijobiy rol o'ynashi shubhasizdir. Aholining ma'rifiy-ma'naviy ilg'or vakillari hisoblangan oily va o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lgan

mutaxassislar esa soliqlar to'g'risida to'liqroq va chuqurroq bilimga, yaxshiroq tasavvurga va aniqroq ko'nikmaga ega bo'lishlari maqsadga muvofiq. Bunday intellektual salohiyatga ega bo'lish nafaqat iqtisodiyot, balki barcha ta'lim yo'nalishlarini bitiruvchilari uchun zarur. Ana shunday zaruriyatdan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi va O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi 2008-2009 o'quv yilidan boshlab respublika oily o'quv yurtlari va kollejlarning barcha noiqtisodiy ta'lim yo'nalishlarida "Soliqlar va soliqqa tortish" fanini o'qitish to'g'risida qaror qabul qildilar. Mazkur qarorga muvofiq oily o'quv yurtlarining barcha noiqtisodiy ta'lim yo'nalishlariga "Soliqlar va soliqqa tortish" maxsus kursi kiritildi va shu kurs uchun o'quv dasturi tayyorlanib, o'quv jarayoniga joriy etildi.

Maxsus kursning asosiy maqsadi oily o'quv yurtlarining noiqtisodiy ta'lim yo'nalishlari talabalarida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar, ularning nazariy, huquqiy, tashkiliy va uslubiy asoslari to'g'risida ilmiy tasavvur hosil qilish va ularni hisoblash, to'lash, undirish ko'nikmalarini shakllantirish hisoblanadi. Bu maqsadni ro'yobga chiqarishda o'quv adabiyotlari muhim o'rin egallaydi. Tavsiya etilayotgan darslik ham shu maqsadga erishishga mo'ljallangan va shunga muvofiq uning vazifalari belgilangan: Oliy ta'lim standartlari, o'quv dasturi, zamon talablari darajasida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar, soliqqa tortishning nazariy huquqiy, tashkiliy va uslubiy asoslari to'g'risida yaxlit bilimlar tizimini shakllantirish; mamlakatning soliq siyosati, tizimi va amaliyoti, ularning yutuqlari, muammolari, istiqbollari to'g'risida aniq va to'liq tasavvur hosil qilish; soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish, to'lash, undirish bo'yicha zarur ko'nikmalar shakllantirish. Bu vazifalarni samarali amalga oshirish uchun darslik amal qilayotgan o'quv dasturiga muvofiq mamlakat Prezidentining iqtisodiy va soliq munosabatlarini isloh qilish, soliq tizimini modernizatsiya qilish borasidagi ko'rsatmalari va tavsiyalari hamda yangi Soliq kodeksi asosida tayyorlandi. Unda o'quv dasturida nazarda tutilgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar, ularning nazariy, huquqiy, tashkiliy, tarkibiy, tavsifiy, uslubiy, ob'yekt-sub'yekt asoslari, ularni hisoblab chiqarish, to'lash, undirish, hisobotlarini tuzish va taqdim etish tartiblari yoritilgan. Kursni talabalar tomonidan osonroq idrok etish va yaxshiroq o'zlashtirish uchun darslik ko'pgina ko'rgazmali va boshqa didaktik materiallar bilan boyitilgan: chizmalar, grafiklar, jadvallar, hisob-kitob shakllari berilgan, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish bo'yicha tenglamalar tuzilgan va misollar keltirilgan, har bir mavzu bo'yicha qisqacha xulosalar va tayanch tushunchalar, nazorat va muhokama uchun savollar, talabalarning mustaqil ishlariga oid topshiriqlar, mashq qilish uchun test topshiriqlari, reyting savollari, nazorat ishi variantlari, asosiy tushunchalar lug'ati keltirilgan.

Mazkur o'quv adabiyoti oliy o'quv yurtlarining noiqtisodiy ta'lim yo'nalishlari talabalariga mo'ljallangan birinchi darslik hisoblanadi.

1.«Soliqlar va soliqqa tortish» maxsus kursi to`g`risida. Soliqlarning mohiyati, ahamiyati va huquqiy asoslari

1.1.«Soliqlar va soliqqa tortish» maxsus kursini o`qitishning zaruriyati va maqsadi, kursning predmeti va vazifalari

Soliqlarning paydo bo`lishi va rivojlanishi, soliq tizimi va soliqqa tortish jarayonlarining takomillashib borishi, iqtisodiyot va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning yuksalib borishi soliqlar to`g`risidagi ilmiy tasavvurlarning taraqqiyotiga olib keldi. Bu esa soliqlar to`g`risida maxsus fanlar shakllanishiga asos bo`lib xizmat qildi. Shunday fanlardan biri «Soliqlar va soliqqa tortish» fanidir.

Ma`lumki, «Soliqlar va soliqqa tortish» fani oliy o`quv yurtlarining iqtisodiy ta`lim yo`nalishlarida asosiy fanlar qatorida o`qitib kelingan. Endilikda uni barcha noiqtisodiy ta`lim yo`nalishlarida ham o`qitish joriy qilindi. Albatta, bunday qarorga ob`yektiv zaruriyat taqazosi asosida kelishgani shubhasizdir.

O`zbekistonda qurilayotgan demokratik fuqarolik jamiyati va rivojlangan bozor iqtisodiyoti jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni, shu jumladan, soliq munosabatlarini yuksak ma`naviy-madaniy darajaga ko`tarishni talab qiladi. Shu yo`nalishda mamlakatda amalga oshirilayotgan jamiyatni erkinlashtirish va modernizatsiya qilish, soliq islohotlari bu jarayonlarda butun aholining ongli va faol ishtirok etishini taqozo etadi va shunday ishtirokiga asoslanadi. Bu esa mazkur munosabatlar va jarayonlarda ishtirok etuvchilarda soliqlar to`g`risida shakllangan tasavvur va ko`nikmalarga bog`liqdir.

Soliqlar korxonalar, tashkilotlar, uy xo`jaliklari va davlatning o`zaro pul munosabatlari bo`lib, ularning daromadlarini shakllantirishda bevosita ishtirok etadilar. Har bir kishi vaqti kelib soliq munosabatlari ishtirokchisi bo`ladi, soliqning ta`sirini bevosita sezadi va albatta ular bilan qiziqadi. Shuning uchun barcha aholining soliq to`g`risida ma`lum tasavvurga ega bo`lishi maqsadga muvofiq. Aholining ma`rifiy ilg`or tabaqasi, vakillari hisoblangan oily va o`rta maxsus ma`lumotli mutaxassislar esa soliq to`g`risida to`liqroq bilimlarga va aniqroq ko`nikmalarga ega bo`lishlari zarur. Bunday bilim va ko`nikmalarga ega bo`lish har qanday mutaxassisning umumiy va kasbiy dunyoqarashini kengaytirish, kasbiy mahoratini oshirish, mamlakatda amal qilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va jarayonlarni yaxshiroq tushinish, ularni tartibga solish yo`llari va usullarini bilib olish va ulardan ishda, hayotda samaraliroq foydalanish imkonini beradi. Demak, soliq to`g`risida bilim va ko`nikmalarga ega bo`lish nafaqat iqtisodiy, balki barcha noiqtisodiy ta`lim yo`nalishlarini bitirayotgan mutaxassislarga ham zarur. Ana shunday zaruriyatdan kelib chiqqan holda O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi, O`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi markazi va O`zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo`mitasi 2008-2009 o`quv yilidan boshlab barcha oily o`quv yurtlari va kollejlarning noiqtisodiy ta`lim yo`nalishlarida «Soliqlar va soliqqa tortish» maxsus kursini

o`qitish to`g`risida birgalikda qaror qabul qildilar.

«Soliqlar va soliqqa tortish» maxsus kursini noiqtisodiy ta`lim yo`nalishlarida o`qitishdan maqsad mazkur yo`nalishlar talabalarida soliqlar va ularga tenglashtirilgan boshqa majburiy to`lovlar to`g`risida ilmiy tasavvur hosil qilish va ularni hisoblab chiqarish, undirish, to`lash jarayonlarini amalga oshirish bo`yicha ko`nikmalar shakllantirish hisoblanadi.

«Soliqlar va soliqqa tortish» maxsus kursining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- mamlakatning soliq munosabatlari, soliq tizimi va soliqqa tortish amaliyotini ilmiy tahlil qilish;

- soliqlar va soliqqa tortishning nazariy, huquqiy, tashkiliy va uslubiy asoslari to`g`risida bilim berish;


- mamlakatning soliq siyosati, tizimi, amaliyoti va ularning yutuqlari, muammolari, istiqbollari to`g`risida tasavvur hosil qilish;

- soliqlar va boshqa majburiy to`lovlarni hisoblab chiqarish, undirish, to`lash, hisobotlarini tuzish va taqdim etish ko`nikmalarini shakllantirish;

- soliqlar va boshqa majburiy to`lovlar sohasidagi bilimlar va tajriba, yutuqlar va ilg`or g`oyalarni targ`ibot qilish.

“Soliqlar va soliqqa tortish” maxsus kursining asosiy usul va uslublari-umumiqtisodiy va matematik uslublar, statistik kuzatuv va ijtimoiy so`rov, analiz va sintez, tarixiy, mantiqiy, omiliy tahlil va boshqa usullar hisoblanadi.


“Soliqlar va soliqqa tortish” maxsus kursi umumiy va xo`jalik huquqi, buxgalteriya hisobi, iqtisodiyot nazariyasi, makroiqtisodiyot, mikroiqtisodiyot, korxona iqtisodiyoti, korxona moliyasi, iqtisodiy-moliyaviy tahlil, statistika, tadbirkorlik asoslari, menejment, marketing, axborot texnologiyalari va boshqa fanlar bilan o`zaro uzviy bog`liqdir. ”Soliqlar va soliqqa tortish” maxsus kursining maqsadi, ob`yekti, predmeti, vazifalari 1.1-chizmada umumlashtirilgan.



1.1-chizma. “Soliqlar va soliqqa tortish” maxsus kursining ob’yekt-funksional asoslari.

1.2. Soliqlarning mohiyati, xususiyatlari va ahamiyati

Soliq munosabatlarining yuzaga kelishi va rivojlanishi davlatchilik elementlari va hukmdorlik mavqeining paydo bo'lishi va shakllanishi bilan bog'liq. «Soliq» tushunchasi eng qadim zamonlardan buyon ma'lum bo'lib, davlat xazinasiga undiriladigan har xil tushumlar ko'rinishida bo'lgan. Soliqlar munosabatlarining paydo bo'lishi, shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini T.Toshmurodov quyidagi 1.2-chizma ko'rinishida ifodalagan.



1.2-chizma. Soliqlar munosabatlarining shakllanish va rivojlanish bosqichlari.

Манба: Тошмуродов Т. Солиқлар (изоҳли луғат). Т., Меҳнат, 2003, 114 б.

«Soliq» tushunchasiga ko'plab ta'riflar berilgan. Biz O'zbekistonda qabul qilingan ta'riflarga asoslanamiz. O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida "Soliq-bu davlat byudjetiga majburiy to'lovdir", "Soliqlar-bu muayyan miqdorda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg'araz xususiyatga ega

boʻlgan, byudjetga yoʻnaltiriladigan majburiy pul toʻlovlaridir” deb taʼrif berilgan. Soliqlarning iqtisodiy mohiyati xoʻjalik yurituvchi subʼyektlar va fuqarolar tomonidan yaratilgan mahsulotning maʼlum bir qismini davlat oʻz vazifalarini bajarishi uchun olib qoʻyishidan iborat.


Soliqlarning muhim begilari ularning quyidagi asosiy xususiyatlarida namoyon boʻladi:

- soliqlarning qonuniy ravishda davlat tomonidan belgilanishi;
- ularning bir tomonlama belgilanishi va majburiy tusga ega boʻlishi;
- yakka tartibda begʻaraz, yaʼni qaytarib bermaslik sharti bilan undirilishi;
- soliq toʻlovchiga bir tomonlama majburiylikni belgilanishi, davlat esa hech qanday majburiyat olmasligi;
- soliq toʻlash-bu mulk shaklining oʻzgarishi hisoblanadi;
- soliqlarning aniq bir maqsad uchun emas, balki umuman davlat xarajatlarini qoplash uchun undirilishi.

Soliq tushunchasi bilan bir qatorda unga yaqin boʻlgan tushunchalar - yigʻimlar, bojlar, toʻlovlar, ajratmalar, badallar, oʻtkazmalar ham qoʻllaniladi. Bunday toʻlovlar ham majburiy boʻlganda, ular soliqqa tenglashtiriladi va boshqa majburiy toʻlovlar guruhini tashkil etadi.

Boshqa majburiy toʻlovlar-bu davlat byudjetiga tushadigan davlat bojlari va bojxona bojlari hamda byudjetdan tashqari maqsadli jamgʻarmalarga majburiy pul toʻlovlaridir.

Soliqlar va boshqa majburiy toʻlovlar murakkab hodisalar boʻlib, bir qator elementlardan iboratdir (1.3-chizmaga qarang).



1.3- chizma. Soliq (toʻlov) elementlari.

Soliq (to'lov) ob'yekti-bu to'lovchida soliq yoki boshqa majburiy to'lov hisoblab chiqarish va to'lash yuzasidan majburiyat keltirib chiqaradigan narsa (daromad, mol-mulk, yer, harakat va ularning natijasi).

Soliq (to'lov) bazasi (soliq solinadigan baza)-soliq (to'lov) ob'yektining soliq (to'lov) summasi hisoblab chiqariladigan miqdori bo'lib, u qiymat (so'm) yoki natural (tonna, kg, litr va boshqa) ko'rsatkichlarda ifodalanadi. Soliq (to'lov) bazasi ikki usulda aniqlanishi mumkin: 1) kassa usuli bo'lib, haqiqatan kelib tushgan daromad, mol-mulk yoki boshqa boyliklar summasi va ular bilan bog'liq real xarajatlar summasi asosida aniqlanadi; 2) hisoblab yozish usuli bo'lib, soliq (to'lov) davrida haqiqatan kelib tushishi yoki tushmasligidan qat'iy nazar kelib tushishi kerak bo'lgan daromad, mol-mulk yoki boshqa boyliklar summasi asosida hisoblanadi.

Soliq (to'lov) stavkasi-soliq (to'lov) ob'yekti yoki bazasining muayyan birligiga hisoblab belgilangan soliq (to'lov) miqdori bo'lib, u advalor (foiz), qat'iy summa yoki aralash ko'rinishlarda belgilanishi mumkin.

Soliq (to'lov) ni hisoblab chiqarish tartibi (mexanizmi, usuli) - soliq [to'lov] davri uchun soliq (to'lov) bazasi, stavkasi, imtiyozlari asosida uning miqdorini (summasini) hisoblash tartib - qoidasidir.

Soliq (to'lov)ni to'lash tartibi-soliqni (to'lovni) to'lash (undirish) usullari majmui bo'lib, u quyidagi usullarni nazarda tutadi:

1) deklaratsiya asosida undirish (to'lash)-daromad, mol-mulkni olgandan so'ng to'lash;

2) soliq (to'lov)ni daromad manbaida undirish-daromad olingunga qadar soliqni (to'lovni) daromadni beradigan yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan ushlab qolish;

3) kadastr usuli-soliq (to'lov) summasini mol-mulk yoki boshqa boylikdan olinishi mumkin bo'lgan daromadni tashqi belgilari asosida aniqlab, undan soliqni (to'lovni) undirish.

Soliq davri-belgilangan ma'lum davr bo'lib, u tugagach soliq (to'lov) bazasi va summasi hisoblab chiqarilishi va to'lanishi kerak bo'ladi.

Hisobot davri-belgilangan ma'lum davr bo'lib, u tugagach soliq (to'lov) bo'yicha hisobot tuzilishi va taqdim etilishi kerak bo'ladi.

Soliq (to'lov) hisoboti-muayyan soliq (to'lov) bo'yicha belgilangan shaklda tuziladigan va ko'rsatilgan muddatda soliq organiga taqdim etiladigan hisobot hujjatlari.

O'rta Osiyoda soliqlar to'g'risida tushunchaning paydo bo'lishi eramizdan avvalgi birinchi ming yillikka dastlabki siyosiy birlashmalar paydo bo'lgan davrga borib taqaladi. O'sha davrlarda jon solig'i va yer solig'i undirilgan. O'rta Osiyoda arablar hukmronligi o'rnatilishi bilan ilgari amal qilgan grek namunasidagi soliqli (daromad solig'i) va soliqsiz (ehsonlar) to'lovlar (yig'imlar) o'rniga o'z xususiyatiga ko'ra yagona soliqqa molik majburiy to'lovlar joriy etilgan. Undan keyingi davrlarda soliqlar bir qancha rivojlanish bosqichlaridan o'tib, bugungi kunda ma'lum bir tizim shakliga kirgan. O'zbekiston mustaqillikka

erishgandan so`ng o`zining muayyan soliq tizimi shakllanib, rivojlanib kelmoqda.

Soliqlarning qadimiy ko`rinishlari quyidagilar bo`lgan:

-juz'ya-jon solig'i;

-xiroj-yer solig'i; «mutoqa»-qat'iy belgilangan summa va «muqasama»-hosilning muayyan ulushi ko`rinishda undirilgan;

-zakot-bojning bir turi bo`lib, mol va tovarlardan olingan;

-vazifa (o`lpon)-boj to`lovlaridan biri bo`lgan;

-vaqf-soliq emas, ehson (ixtiyoriy) shaklda bo`lgan.

Soliq-bu davlat byudjetiga majburiy to`lov bo`lib, davlat sarf-xarajatlarini qoplash asosiy manbai hisoblanadi. O`zbekiston davlat byudjeti daromad qismining 93-95 foizini soliqlar tashkil etadi. (1.1-jadvalga qarang).

1.1-jadval

**O`zbekiston Respublikasi davlat byudjetida
soliqlarning hissasi (foizda)**

T/r	Ko`rsatkichlar	Y i l l a r					
		2002	2003	2004	2005	2006	2007
1.	Davlat byudjeti daromadlari-jami	100	100	100	100	100	100
2.	Shu jumladan:						
	Soliq tushumlari	91,4	95,3	95,7	96,9	93,3	92,2
	Ulardan bevosita soliqlar	36,8	37,5	39,7	49,5	46,3	44,8
	bilvosita soliqlar	54,6	57,8	56,0	46,4	47,0	47,4
3.	Boshqa tushumlar	8,6	4,7	4,3	3,1	6,7	7,8

Manba: Jo`rayev A.S. va boshqalar. Soliqlar va soliqqa tortish. T., Norma, 2009, 20-21 b.

Soliqlar davlat byudjetini to`ldirishdan tashqari mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tartibga solishda ham muhim rol o`ynaydi. Qadim zamonlarda ham ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va jarayonlarni tartibga solishda soliqlardan foydalanib kelingan, hatto davlatchilikning shakllanishida ham soliqlar ma`lum rol o`ynagan. Chunki davlatchilikning shakllanishi mukammal, barqaror bo`lmagan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga tayangan. Shuning uchun davlat paydo bo`lishining dastlabki bosqichlarida moliyaviy va iqtisodiy munosabatlarni jonlantirishda davlat hukmdorlari har xil soliq to`lovlaridan foydalanib, o`z oldilariga turgan muammolarni yechishga harakat qilishgan.

Soliqlar ob`yektiv taqsimlash munosabatlari orqali kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida ishtirok etadi va ishlab chiqarish munosabatlarida o`z aksini topadi. Soliqlar jamiyatning iqtisodiy bazisini ifodalashi tufayli ulardan ishlab chiqarishni rag`batlantirish, tovar ishlab chiqarish orqali iste`molni tartibga solish, markazlashtirilgan pul jamg`armalarini shakllantirish va ulardan ijtimoiy himoya va boshqa ijtimoiy maqsadlarda keng

foydalanib kelinmoqda.

Soliqlarning iqtisodiyotni tartibga solishdagi roli bozor iqtisodiyoti rivojlanishi bilan tobora o'sib boradi. Soliqlarga xos bunday xususiyatdan davlat o'z oldiga turgan vazifalarni bajarishda foydalanadi. Bozor mexanizmini amalda soliqlar orqali tartibga keltirish imkoniyatlari keng miqyosda yaratib beriladi. Bozor muvozanatining buzilishi iqtisodiy ssikllarda, ya'ni amaliy faollik darajasining o'zgarishlarida va moliyaviy resurslar bilan to'liq ta'minlash yoki o'sish imkoniyatlarining ro'yobga chiqarish noqobilligida o'z ifodasini topadi.

Davlat soliqlarning ayrim turlarini bekor qilish, yangilarini joriy etish, soliq stavkalari va imtiyozlarini, soliq solish shart-sharoitlarini o'zgartirish orqali muayyan tarmoqlar va ishlab chiqarishlarni jadal rivojlantirish, jamiyat uchun dolzarb muammolarni hal etishga imkoniyatlar yaratadi. Masalan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermer xo'jaliklarini rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, mahalliy xom ashyodan iste'mol tovarlari va eksportbop mahsulot ishlab chiqarishni rag'batlantirish uchun bir qancha soliq imtiyozlari berilgan. Asosiy vositalarga jadallashtirilgan amortizatsiyani qo'llash foydaning bir qismini qayta jihozlash va ta'mirlashga, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga yo'naltirib, ular bilan bog'liq xarajatlarni soliqqa tortiladigan bazadan chegirib tashlash orqali ishlab chiqarishni qayta qurollantirish va iqtisodiy taraqqiyotga katta ta'sir etib kelinmoqda.

Iqtisodiy munosabatlarni soliqlar orqali rag'batlantirish daromad manbalariga ta'sir etib, korxonalar faoliyatining samaradorligini oshirishi mumkin. Masalan, import qilinadigan tovarlarga bojxona boji va soliq stavkalarini ko'tarish mamlakat ichkarisida mahalliy ishlab chiqaruvchilarni xorijiy raqiblardan himoya qilsa, sarmoyaning xorijga oqib ketishiga soliqlar va bojlar orqali to'sqinlik qilish esa, mamlakat ichida ishlab chiqarishni rivojlantirish va mahsulot eksportini rag'batlantirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi. Atrof-muhitni ifloslantiruvchi va aholi salomatligiga ziyon yetkazuvchi korxonalar va ishlab chiqarishlar mahsulotlariga yuqori stavkali soliqlar belgilab, ularning faoliyatini jilovlab turish va tabiat muhofazasini ta'minlash mumkin. Bularning hammasi iqtisodiyotni tartibga solishda soliqlarning roli katta ekanligidan darak beradi.

1.3. Soliqlarning funksiyalari va soliqqa tortish tamoyillari

Soliqlarning mohiyati, ahamiyati, roli ular bajaradigan funksiyalar orqali yaqqolroq namoyon bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning fikricha, bozor iqtisodiyoti sharoitida ham soliqlar iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda eng muhim boshqaruvchi omil bo'lib qoladi¹. Soliqlar soliq stavkalari, imtiyozlari, jarimalari orqali byudjet munosabatlari va ishlab chiqaruvchilarga ta'sir etuvchi asosiy kuch sifatida ishlatiladi. Soliqlarning asosiy

¹Каримов И.А. Ўзбекистон иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш йўлида. Т., Ўзбекистон, 1995, 204 б.

funksiyalari quyidagilar (1.4-chizma):

- 1) fiskal funksiyasi;
- 2) taqsimlash (ijtimoiy) funksiyasi;
- 3) tartibga solish (iqtisodiy) funksiyasi;
- 4) nazorat funksiyasi.



1.4 – chizma. Soliqlarning asosiy funksiyalari.

Soliqlarning fiskal funksiyasi davlat byudjetini to'ldirishdan iborat bo'lib, byudjetning daromad qismini shakllantirishni ta'minlaydi. Mazkur funksiya asosiy bo'lib, qolgan funksiyalari uning hosilasidir. Soliqlarning taqsimlash (ijtimoiy) funksiyasi har xil daromadga ega bo'lgan aholi daromadlarining bir qismini yig'ib, turli toifadagi aholi o'rtasida qayta taqsimlashdan iboratdir. Buning natijasida aholi turli qatlamlari daromadlari farqi qisqartirilib, ularning daromad darajalari bir-biriga yaqinlashtiriladi. Masalan, bu vazifani bajarishda jismoniy shaxslar daromadlarini progressiv soliqqa tortish, aholining ijtimoiy zaif qatlamlariga soliq imtiyozlari berish, qimmatbaho buyumlarga aksiz solig'ini qo'llash va boshqalar nazarda tutilgan.

Soliqlarning tartibga solish (iqtisodiy) funksiyasi ularning xalq xo'jaligining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishida namoyon bo'ladi. Davlat soliqlarning shakli, stavkalari, undirish usullarini o'zgartirib, soliqlar bo'yicha imtiyozlar va chegirmalar qo'llab, ishlab chiqarishga, mahsulot narxiga ta'sir etadi va ustuvor yo'nalishlarni rag'batlantiradi. Soliqlarning bu funksiyasini ro'yobga chiqarish uchun uch usul qo'llanishi mumkin.

1.Rag'batlantirish-ustuvor sohalar, faoliyat turlari uchun imtiyozlar va chegirmalar qo'llanib, ularning rivojlanishi rag'batlantiriladi. Bularga kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, eksportga mo'ljallangan va import o'rnini bosadigan mahsulot ishlab chiqarish, fan-tehnika taraqqiyoti, transport, kommunikatsiya sohalarining rivojlanishini rag'batlantirish misol bo'ladi.

2.Cheklash-soliq stavkalarini ko'tarish, soliqlarni hisoblash mexanizmini va soliqni oshirishni mo'ljallab o'zgartirish yo'li bilan jamiyat uchun foydasiz yoki uncha zarur bo'lmagan tovarlar, ishlab chiqarishlar, faoliyat turlariga cheklovlar qo'yiladi (qimor o'yinlari, alkogolli ichimliklar, ayrim tovarlarni import qilish, atrof muhitni ifloslantiruvchi ishlab chiqarishlar).


3.Qayta ishlab chiqarish-ishlatib yuborilgan mablag`lar o`rnini qoplash (mablag`lar ishlab chiqarishni kengaytirish va yangilash uchun ishlatilganda imtiyozlar berish).

Soliqlarning nazorat funksiyasi soliqlarning byudjetga to`liq va o`z vaqtida tushishini nazorat qilish hamda ularni pul mablag`lariga bo`lgan talab bilan taqqoslashdan iborat. Bu funksiya yordamida soliq siyosati byudjet siyosati bilan muvofiqlashtiriladi.

Soliqlarning funksiyalari to`g`risida gap ketganda shuni ta`kidlash lozimki, mazkur funksiyalar o`zaro bog`liq bo`lib, ular bir-birlarini to`ldirib turadilar. Soliqlarning ayrim funksiyalari o`zaro qarama-qarshi bo`lganda ham (fiskal va taqsimlash funksiyalari) ulardan oqilona foydalanish ichki va tashqi iqtisodiy munosabatlarda muhim rol o`ynadi.

Soliqqa tortish tamoyillari-bu soliq siyosati, tizimi va munosabatlari, soliqlar tortish ishlarini tashkil etish va amalga oshirishga qo`yiladigan umumiy talablardir. Bunday tamoyillar quyidagilar hisoblanadi (1.5-chizma):


- 1) adolatlilik;
- 2) mutanosiblik;
- 3) samaradorlik;
- 4) aniqlilik;
- 5) qulaylilik;
- 6) soliq to`lovchining haqligi;
- 7) tejamlilik.



1.5 – chizma. Soliqlar tortish tamoyillari.

Soliqqa tortishning adolatlilik tamoyili har bir soliq to'lovchining davlat xarajatlarini qoplashda o'zining daromadi, mulki, to'lash qobiliyatiga qarab ishtirok etishini taqozo etadi. Bunda gorizontal, vertikal, ijtimoiy adolatlilik ta'minlanishi lozim. Gorizontal adolatlilik deganda fuqarolarning jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy ahvolidan, yuridik shaxslarning esa mulkiy shakllari va ma'muriy qaramligidan qat'iy nazar qonunlar oldida hamda soliq solishda tengligi tushiniladi. Vertikal adolatlilik deganda katta daromad va mulkka ega bo'lgan soliq to'lovchidan mos ravishda ko'proq, kichik daromad va mulkka ega bo'lganlaridan ozroq soliq undirilishi nazarda tutiladi. Ijtimoiy adolatlilik barcha soliqlarni to'liq to'lashga qurbi yetmaydigan ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarga tegishli imtiyozlar yo'li bilan ta'minlanadi. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlarni belgilash ijtimoiy adolat tamoyiliga mos bo'lishi kerak va yakka tartibdagi xususiyatga ega bo'lgan imtiyozlar berilishiga yo'l qo'yilmaydi. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar kamsitish xususiyatiga ega bo'lishi hamda ijtimoiy, irqiy, milliy, diniy va boshqa shu kabi mezonlardan kelib chiqqan holda qo'llanishi mumkin emas.

Soliqqa tortishning mutanosiblik tamoyili soliq to'lovchilarning manfaatlari bilan davlat xazinasini o'rtasidagi iqtisodiy muvozanatni belgilaydi. Unga binoan mamlakatda shunday soliq rejimi o'rnatilishi kerakki, u soliq to'lovchilarning iqtisodiy faolligini so'ndirmasdan byudjetni mablag' bilan ta'minlasin. Har bir davlatning soliq solish shartli nuqtasi, ya'ni milliy mahsulotning davlat byudjetiga undiriladigan qismi bo'lib, u soliq to'lovchi va davlat xazinasini uchun maqbul bo'lishi lozim. Bu nuqta "soliq chegarasi" deb ataladi. Ana shu shartli nuqtaning ko'tarilishi soliq bazasining qisqarishi, soliq to'lashdan qochish, kapitalni tashqariga chiqib ketishi, aholi migratsiyasi, siyosiy mojarolarga olib kelishi mumkin. Favqulodda holatlarda (urush, tabiiy ofat) soliq chegarasini ko'tarish mumkin. O'tgan asrning 70-80 yillari boshida inflyatsiya kuchayib borayotgan paytda iqtisodchi olimlar progressiv soliq solish ishlab chiqarishga salbiy ta'sir ko'rsatishini isbotladilar. Amerika iqtisodchisi A.Laffer byudjetga soliq tushumlari soliq stavkasi darajasiga bog'liq ekanligini matematik yo'l bilan isbotladi. Unga ko'ra soliq stavkalarini ko'tarib borish soliq tushumlarini ma'lum bir pog'onagacha oshirishi mumkin, undan so'ng esa soliq tushumlari kamayib boradi (1.1-grafikka qarang).



1.1-grafik. Laffer egri chizig'i (sirtmog'i)—soliq tushumlari va soliqlar stavkasining o'zaro bog'liqligi.

L—soliq stavkasining boshlang'ich nuqtasi—bu nuqtadan chegaraviy nuqtagacha soliqlar tushumlari ortib boradi.

M—soliq stavkasining chegaraviy nuqtasi—bu nuqtadan yuqorida soliqlar tushumlari pasayib boradi.

N—soliqlar tushumlarining boshlang'ich darajasiga qaytish nuqtasi.

Soliqlar to'lovchining samaradorlik tamoyili soliqlarning tartibga solish funksiyasi bilan bog'liq bo'lib, qabul qilingan soliq rejimi jamiyatda resurslarning taqsimlanishini yaxshilash va ulardan foydalanish samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Soliqlar to'lovchining qulaylik tamoyili ham soliqlarni undirish usuli, tartibi, vaqtining to'lovchilar uchun qulay bo'lishini taqozo etadi.

Soliqlar to'lovchining haqligi—soliqlar to'g'risidagi qonun hujjatlaridagi bartaraf

etib bo'lmaydigan barcha qarama-qarshiliklar soliq to'lovchi foydasiga talqin qilinadi.

Soliqqa tortishning tejamlilik tamoyili soliqlarni yig'ish bilan bog'liq bo'lgan sarf-xarajatlar mumkin qadar oz bo'lishini talab qiladi. Unga ko'ra soliqlarni yig'ish uchun ketadigan sarf-xarajatlar yig'iladigan soliqlar summasidan bir necha barobar oz bo'lishi lozim.

1.4. O'zbekistonda soliq siyosati va soliqlarning huquqiy asoslari

Soliq siyosati-mamlakatda soliq munosabatlari, fuqarolar va xo'jalik yurituvchi sub'yektlar bilan davlatning o'zaro manfaatlari, soliqlar bilan byudjetning o'zaro munosabatlarining eng maqbul muvozanatini ta'minlaydigan huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy, ma'naviy asoslarini shakllantirish, amalga oshirish, takomillashtirib borish ishlarini yo'naltiruvchi g'oyalar, qarashlar, yondashuvlar tizimidir. O'zbekistonning mustaqil soliq siyosati mamlakat mustaqillikka erishgandan so'ng shakllanib, rivojlanib kelmoqda. O'zbekistonning soliq siyosati va soliq tizimining shakllanishida Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1991 yil 12 avgustda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi davlat soliq organlari to'g'risida"gi qarori muhim rol o'ynadi. O'zbekistonning soliq siyosati va soliq tizimining shakllanishi va rivojlanishi bir qator bosqichlarni bosib o'tdi. Birinchi bosqichda (1991-1994 yillar) bu sohada quyidagi vazifalar qo'yilgan edi:

- bozor iqtisodiyotiga o'tish davriga mos yangi soliq tizimini tashkil etish va joriy qilish;

- shakllanayotgan iqtisodiy vaziyatga sezgir munosabat bildirish, soliq qonunchiligiga tegishli o'zgartirishlar kiritish;

- ishlab chiqarishning pasayishi, korxonalarining zarar ko'rib ishlashi, yuqori inflyatsiya sharoitida byudjetni mablag' bilan ta'minlash;

- moliyaviy mablag'larni ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish, strategik resurslarni tub tarkibiy o'zgarishlar foydasiga qayta taqsimlash;

- narxlar o'sishi va ishlab chiqarish pasayishi sharoitida aholi turmush darajasi va ijtimoiy barqarorlikni saqlab turish;

- soliqlarni undirish, soliq qonunchiligining bajarilishi va soliq nazoratini ta'minlaydigan davlat soliq xizmatini shakllantirish.

Bunday vazifalarni hal etish zarurligi soliq tizimining shakllanishi va faoliyatining birinchi bosqichiga xos xususiyatlarini belgilab berdi. Bu davrda soliqlarning fiskal va qayta taqsimlash funksiyalari yetakchi bo'ldi.

Inflyatsiya va byudjet kamomadi sharoitida soliqlarni tartibga solish (iqtisodiy) funksiyasidan ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirish emas, balki tor doirada qisqa muddatli vazifalarni hal etishda foydalaniladi. Soliq siyosatining bunday xususiyati o'tish davrini boshidan kechirayotgan yangi mustaqillikka erishgan mamlakatlarga xos ob'yektiv jarayon ekanligi kuzatiladi. Bu bosqichda soliq yukining asosiy qismi yuridik shaxslar zimmasiga tushdi. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish bir qadar imtiyozli tusda kechdi. Mazkur bosqichda


qo`shilgan qiymat solig`i joriy etildi.

Ikkinchi bosqichda (1995-1996 yillar) bozor iqtisodiyoti tamoyillariga javob bermaydigan soliq va to`lovlar chiqarib tashlandi, o`z mablag`larini yangi texnologiyalarga va ishlab chiqarishni qayta qurishga sarflaydigan korxonalar uchun bir talay imtiyozlarni ko`zda tutuvchi daromad solig`i joriy qilindi, qo`shilgan qiymat solig`i stavkasi pasaytirildi, ikki va undan ortiq daromad manbaiga ega bo`lgan jismoniy shaxslar daromadlarini deklaratsiyalashga dastlabki qadamlar qo`yildi. Bu bosqichda soliqqa oid amal qilib turgan me`yoriy-huquqiy hujjatlar negizida O`zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi qabul qilindi. U soliq siyosati va soliq tizimining huquqiy asosi bo`lib xizmat qilmoqda. Unga tayangan holda har qanday tadbir, ish, faoliyat ilgaridan belgilanib, aniqlanib, rejalashtirilib ishlab chiqilgan chora-tadbirlar amaliyotga soliq siyosatini ishlab chiqish bilan joriy etila boshlandi. Shu tariqa davlatning ilgaridan rejalashtirib, aniqlab turib amalga oshirgan chora-tadbirlari yig`indisi soliq siyosatida o`z aksini topdi. Soliq tizimini shakllantirish borasidagi ishlarni tashkil qilish soliq siyosati doirasida olib boriladi. Soliqlar pul munosabatlarining harakati doirasida yuzaga keladi va u moliya munosabatlarining tarkibiy qismi bo`lib, bozor munosabatlarining ham zaruriy qismi hisoblanadi. Shuning uchun soliq siyosati iqtisodiyotni barqarorlashtirish va rivojlantirish, moliya munosabatlarini boshqarishga katta ta`sir ko`rsatadi.

Shunday qilib, soliq siyosati amalda davlatning soliq munosabatlari doirasidagi qonun, farmon, qarorlar ijrosini ta`minlash hamda uni tashkil qilish uchun ishlab chiqilgan chora-tadbirlar va ularni amalga oshirish faoliyati majmuidir.

O`zbekistonda soliqlarning huquqiy asoslarini soliq qonunchiligi tashkil etadi. Soliq qonunchiligi me`yoriy-huquqiy hujjatlar majmui bo`lib, soliq munosabatlarini tartibga solib turadi. Soliq qonunchiligini O`zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, soliqlar va boshqa majburiy to`lovlarga oid qonunlar, qarorlar, yo`riqnomalar va boshqa hujjatlar tashkil etadi. Soliq qonunchiligining asosi O`zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi hisoblanadi. Soliq kodeksi-soliq sohasidagi huquqiy me`yorlar majmui hisoblanadi. Ushbu kodeks soliqlar va boshqa majburiy to`lovlarni joriy etish, hisoblab chiqarish hamda O`zbekiston Respublikasining davlat byudjetiga va byudjetdan tashqari maqsadli jamg`armalarga to`lash bilan bog`liq munosabatlarni, shuningdek, soliq majburiyatlarini bajarish bilan bog`liq munosabatlarni tartibga soladi. O`zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (yangi kodeks) O`zbekiston Respublikasi Oliy majlisining Qonunchilik palatasi tomonidan 2007 yil noyabrda qabul qilingan bo`lib, 2008 yil 1 yanvardan kuchga kiritildi. Soliq kodeksi 2 ta qism, 21 ta bo`lim, 64 ta bob, 392 ta moddadan iborat. Uning birinchi qismi "Umumiy qism" deb ataladi va to`rtta bo`lim, 18 ta bob, 125 ta moddani o`z ichiga oladi. Bu qismda soliqlar va soliqqa tortishning umumiy va asosiy qoidalari, O`zbekiston Respublikasining soliq tizimi, mazkur kodeks bilan tartibga solinadigan munosabatlar, soliqlar to`g`risidagi qonunchilik, uning amal

qilishi va asosiy tamoyillari, soliq to'lovchilarning huquqlari va majburiyatlari, soliq majburiyatlarini bajarish, soliq nazorati, soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlik tavsiflangan. Soliq kodeksining ikkinchi qismi "Maxsus qism" deb ataladi va qolgan o'n yettita bo'lim, 46 ta bob, 267 ta moddani o'z ichiga oladi. V-XXI bo'limlari alohida soliq va majburiy to'lovlarga bag'ishlangan. Soliq kodeksining tarkibi 1.6-chizmada keltirilgan.



1.6–chizma. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining tarkibi.

Qisqacha xulosalar

1. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va soliq islohotlari butun aholining ongli va faol ishtirokiga tayanadi. Bu esa barcha aholining, har qanday mutaxassisning soliqlar to'g'risida ma'lum tasavvurga ega bo'lishini taqazo etadi. "Soliqlar va soliqqa tortish" maxsus kursining maqsadi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'g'risida ilmiy tasavvur hosil qilish va ularni hisoblash, undirish, to'lash bo'yicha ko'nikmalar shakllantirishdir. Kursning predmeti bo'lib soliqlarning nazariy, huquqiy, tashkiliy, uslubiy asoslari hamda soliq tizimi va soliqqa tortish tizimining shakllanish, amal qilish va rivojlanish qonuniyatlari hisoblanadi.

2. Soliqlar-bu muayyan miqdorda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg'araz xususiyatga ega bo'lgan, byudjetga yo'naltirilgan majburiy pul to'lovlaridir. Soliqlarning mohiyati korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va fuqarolar tomonidan yaratilgan mahsulotning bir qismini davlat byudjetiga majburan olib qo'yishdan iborat. Boshqa majburiy to'lovlar-bu davlat byudjetiga va byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarga majburiy ajratmalar, badallar, yig'imlar, to'lovlardir. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning elementlariga soliq (to'lov) ob'yekti, bazasi, stavkasi va davri, ularni hisoblab chiqarish, to'lash va hisobotlarini taqdim etish tartibi kiradi.

3. Soliqlar davlat xazinasini to'ldirish, iqtisodiyotni tartibga solish, daromadlarni qayta taqsimlash, nazorat funksiyalarini bajaradilar. Soliqqa tortish adolatli, mutanosib, samarali, aniq, qulay, tejamli bo'lishi lozim.

4. Soliq siyosati-bu soliq to'lovchilar va davlat manfaatlari, soliqlar va byudjet munosabatlarining eng maqbul muvozanatini ta'minlaydigan nazariy, huquqiy, iqtisodiy, tashkiliy, ma'naviy asoslarini shakllanishi, amal qilishi, takomillashuvini yo'naltiruvchi g'oyalar, qarashlar, yondashuvlar tizimidir. O'zbekistonda soliqlarning huquqiy asoslarini soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarga oid qonunchilik tashkil etadi. Ulardan asosiysi 2008 yil 1 yanvardan amalga kiritilgan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi hisoblanadi. Soliq kodeksi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar sohasidagi huquqiy me'yorlar majmui bo'lib, mamlakatda soliq munosabatlarini tartibga solishga xizmat qiladi.

Tayanch iboralar va tushunchalar: soliq, soliqlar, boshqa majburiy to'lovlar, ajratmalar, badallar, yig'imlar, byudjet, soliq solish, soliqqa tortish, soliqlarning funksiyalari, fiskal funksiyasi, taqsimlash funksiyasi, tartibga solish funksiyasi, soliqqa tortish tamoyillari, soliq siyosati, soliq tizimi, soliq ob'yekti, soliq solinadigan baza, soliq davri, soliq elementlari, soliq kodeksi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. «Soliqlar va soliqqa tortish» maxsus kursini o'qitishning zaruriyati va maqsadi.

2. «Soliqlar va soliqqa tortish» maxsus kursining predmeti va vazifalari.

3. Soliqlarning mohiyati va ta'riflari.
4. Soliqlarning zaruriyati va ahamiyati.
5. Soliqlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi.
6. Soliqlar va davlat byudjeti.
7. Soliqlarning asosiy funksiyalari.
8. Soliqqa tortish tamoyillari.
9. Iqtisodiyotni tartibga solishda soliqlarning roli.
10. O'zbekiston Respublikasining soliq siyosati va uning shakllanishi.
11. O'zbekistonda soliqlarning huquqiy asoslari.
12. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, uning vazifasi va mazmuni.

Mustaqil ish uchun topshiriqlar

1. "Soliq", "Soliqlar", "Boshqa majburiy to'lovlar" tushunchalarining ta'riflarini izohlash.
2. Soliqlarning iqtisodiy mohiyati va rolini baholash.
3. Soliqlarning ijtimoiy mohiyati va rolini baholash.
4. Soliqlar funksiyalarining o'rnini va rolini aniqlash.
5. Soliqlar va byudjet munosabatlarini o'rganish.
6. Soliqqa tortish tamoyillarining amaliyotdagi haqiqiy holatini baholash.
7. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksini o'rganish.

Test topshiriqlari

1. Soliq – bu:

- a) davlat byudjetiga qarz to'lovi;
- b) davlat byudjetiga ixtiyoriy to'lov;
- d) davlat byudjetiga majburiy to'lov;
- e) davlat byudjetiga har qanday to'lov;
- f) barcha javoblar to'g'ri.

2. Soliq to'lovi -bu:

- a) kelishuvga asoslangan to'lov;
- b) bir tomonlama to'lov;
- d) ikki tomonlama to'lov;
- e) ko'p tomonlama to'lov;
- f) to'g'ri javob yo'q.

3. Soliq munosabatlari – bu:

- a) iqtisodiy munosabatlar majmui;
- b) ijtimoiy munosabatlar majmui;
- d) davlat va fuqarolar o'rtasidagi pul munosabatlari;
- e) davlat va soliq to'lovchilar o'rtasidagi pul munosabatlari;
- f) barcha javoblar to'g'ri.

4.Soliqlarning asosiy vazifasi:

- a) davlatni boyitish;
- b) davlatni saqlab qolish;
- d) davlatni kuchli qilish;
- e) davlat xarajatlarini qoplash;
- f) barcha javoblar to'g'ri.

5.Soliq elementi hisoblanadi:

- a) soliq davri;
- b) soliq stavkasi;
- d) soliq solinadigan baza;
- e) soliq solish ob'yekti;
- f) barchasi.

6.Soliq elementlariga kiradi:

- a) soliq to'lovchilar va undiruvchilar;
- b) soliq siyosati va tizimi;
- d) soliq solish ob'yekti va bazasi;
- e) soliqlarning fuksiyalari va tamoyillari;
- f) barchasi.

7.Soliq (to'lov) ob'yekti-bu:

- a) to'lovchiga soliq (to'lov) to'lash majburiyatini keltirib chiqaradigan narsalar;
- b) to'lovchiga soliq (to'lov) mas'uliyatini keltirib chiqaradigan narsalar;
- d) to'lovchiga soliq (to'lov) bo'yicha huquq keltirib chiqaradigan narsalar;
- e) to'lovchiga soliq (to'lov) bo'yicha imtiyoz keltirib chiqaradigan narsalar;
- f) barcha javoblar to'g'ri.

8.Soliq (to'lov) ob'yekti hisoblanadi:

- a) harakat;
- b) harakat natijasi;
- d) operatsiya;
- e) mol-mulk;
- f) barchasi.

9.Soliq (to'lov) bazasi-bu:

- a) soliq (to'lov) ob'yektining miqdor ifodasi;
- b) soliq (to'lov) ob'yektining qiymat ifodasi;
- d) soliq (to'lov) ob'yektining stavka belgilangan va soliq (to'lov) hisoblab chiqariladigan qiymat, miqdor, fizik va boshqa ko'rsatkichlardagi ifodasi;
- e) soliq (to'lov) ob'yektining bir ko'rinishi;
- f) barchasi.

10.Soliq (to'lov) bazasiga kiradi:

- a) soliq (to'lov) ob'yektining stavka belgilangan qiymat ifodasi;
- b) soliq (to'lov) ob'yektining stavka belgilangan miqdor ifodasi;
- d) soliq (to'lov) ob'yektining stavka belgilangan fizik ko'rsatkichi;
- e) soliq (to'lov) ob'yektining stavka belgilangan natural ko'rsatkichi;

f) barchasi.

11.Soliq (to`lov) stavkasi nima?

- a) soliq (to`lov) bazasining qiymat ifodasi;
- b) soliq (to`lov) bazasining o`lchov birligiga nisbatan belgilanadigan soliq (to`lov) miqdori;
- d) soliq (to`lov) bazasining miqdor ifodasi;
- e) soliq (to`lov) bazasining natural ko`rsatkichi;
- f) barcha javoblar to`g`ri.

12. Soliq (to`lov) stavkasi turini aniqlang:

- a) qat`iy summada belgilangan stavka;
- b) foizda belgilangan stavka;
- d) advalor stavka;
- e) aralash stavka;
- f) barchasi.

13.Soliq (to`lov) davri nima?

- a) soliq (to`lov) bazasi va summasi aniqlanadigan davr;
- b) soliq (to`lov) bazasiga stavka belgilangan davr;
- d) soliq (to`lov) bo`yicha hisobot tuzib topshiriladigan davr;
- e) u tugagandan keyin soliq (to`lov) bazasi va summasi aniqlanadigan davr;
- f) barcha javoblar to`g`ri.

14.Hisobot davri nima?

- a) u tugagandan keyin soliq hisoboti tuzib taqdim etiladigan davr;
- b) u tugagandan keyin soliq (to`lov) to`lanadigan davr;
- d) u tugagandan keyin soliq (to`lov) bazasi va summasi aniqlanadigan davr;
- e) soliq hisoboti tuzib taqdim etiladigan davr;
- f) to`g`ri javob yo`q.

15.“Soliqlar va soliqqa tortish” maxsus kursi ob`yekti:

- a) jamiyatdagi fuqarolar munosabatlari;
- b) jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar;
- d) jamiyatdagi soliq munosabatlari;
- e) jamiyatdagi umumiy iqtisodiy munosabatlar;
- f) barcha javoblar to`g`ri.

16.“Soliqlar va soliqqa tortish” maxsus kursi predmetiga kiradi:

- a) soliq munosabatlari;
- b) soliqlarning nazariy, huquqiy, tashkiliy, uslubiy asoslari;
- d) korxonalarning moliyaviy munosabatlari;
- e) fuqarolarning o`zaro pul munosabatlari;
- f) barchasi.

17.“Soliqlar va soliqqa tortish” maxsus kursi vazifasi hisoblanadi:

- a) talabalarga soliqlar va soliqqa tortishga oid bilimlar berish;
- b) talabalarda soliq siyosati, tizimi, amaliyoti to`g`risida tasavvur hosil qilish;
- d) talabalarda soliqlarni hisoblash, undirish, to`lash bo`yicha ko`nikma

shakllantirish;

e) soliqlar sohasidagi bilimlar va tajribani targ'ibot qilish;

f) barcha javoblar to'g'ri.

18.Soliqlarning iqtisodiy mohiyati:

a) aylanib yurgan pullarning bir qismini byudjetga o'tkazish;

b) sotiladigan mahsulotning bir qismini byudjetga olish;

d) ishlab chiqarilgan buyumlarning bir qismini byudjetga olish;

e) yaratilgan mahsulotning bir qismini byudjetga olish;

f) to'g'ri javob yo'q.

19.Mamlakat soliq siyosati–bu:

a) davlat va soliq to'lovchilar o'rtasidagi pul munosabatlari;

b) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar, ularni hisoblash mexanizmi va undirish tartib-qoidolari majmui.

d) soliq munosabatlarini shakllantirish, amalga oshirish, takomillashtirish g'oyalari va ularga qarashlar, yondashuvlar tizimi;

e) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar majmui;

f) barcha javoblar to'g'ri.

20.Soliqlarning huquqiy asoslariga kiradi:

a) barcha qonunlar;

b) Prezident farmonlari va qarorlari;

d) soliqlarga oid Prezident farmonlari va qarorlari;

e) Oliy Majlis qarorlari;

f) barchasi.

21.Soliqlarning huquqiy asoslarini tashkil etadi:

a) barcha qonunlar;

b) O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi;

d) O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi;

e) O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi;

f) barchasi.

22.Soliq qonunchiligining asosini tashkil etadi:

a) O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi;

b) O'zbekiston Respublikasining Jinoiy protsesual kodeksi;

d) O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi;

e) O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi;

f) barchasi.

23.Soliq kodeksining vazifasi nima?

a) soliqlarni joriy etish;

b) soliq munosabatlari va soliqqa tortish jarayonlarini tartibga solish;

d) soliq to'lovchilar bilan munosabatlarni aniqlashtirish;

e) soliq organlarini tuzish va ularning ishlarini tartibga solish;

f) barcha javoblar to'g'ri;

24.Soliqlarning funksiyasi hisoblanadi:

a) fiskal funksiyasi;

- b) davlat byudjetini to`ldirish;
- d) davlat xazinasini to`ldirish;
- e) davlat xarajatlarini qoplash;
- f) barchasi.

25.Soliqlarning funksiyasi ko`rsatilgan javobni toping:

- a) adolatlilik;
- b) mutanosiblik;
- d) samaradorlik;
- e) daromadlarni qayta taqsimlash;
- f) tejamlilik.


2. Soliq tizimi va soliqqa tortishning tashkil etilishi

2.1.O`zbekiston Respublikasining soliq tizimi va uning xususiyatlari

O`zbekiston Respublikasining soliq tizimi-bu davlat tomonidan belgilab qo`yilgan soliqlar va boshqa majburiy to`lovlar, ularning turlari va shakllari, undirish mexanizmi, soliq qonunchiligi, majburiyati, nazorati, to`lovchilari va undiruvchilari majmuidir. Yuqorida aytib o`tilganidek, soliqlar-yuridik va jismoniy shaxslardan davlat byudjetiga undiriladigan majburiy to`lovdir. Byudjetdan tashqari maqsadli jamg`armalarga Pensiya jamg`armasi, Bandlikka ko`maklashish jamg`armasi, Respublika yo`l jamg`armasi, Maktab ta`limini rivojlantirish jamg`armasi, Respublika kasaba uyushmalari federatsiyasi jamg`armasi va boshqalar kiradi. Mazkur jamg`armalarga ajratmalar, to`lovlar, badallar ham soliqlar singari majburiy tusga ega va ularning undirilishini tashkil etish va ta`minlash ham soliq organlari zimmasiga yuklatilgan. Shuning uchun byudjetga va byudjetdan tashqari jamg`armalarga majburiy ajratmalar, badallar va to`lovlar soliqqlarga tenglashtirilgan.

O`zbekiston Respublikasining soliq tizimi keng ma`noda quyidagilarni o`z ichiga oladi (ular 2.1-chizmada ham aks ettirilgan):

- soliqlar va ularning turlari;
- boshqa majburiy to`lovlar (bojlar, ajratmalar, o`tkazmalar, badallar, yig`imlar, to`lovlar);
- soliq to`lovchilar;
- soliq undiruvchilar;
- soliq qonunchiligi;
- soliq majburiyati;
- soliq nazorati.




2.1– chizma. Soliq tizimining tarkibi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar oldingi mavzuda va yuqorida ko'rib chiqildi. Soliq tizimining qolgan elementlari quyida qisqacha tavsiflanadi.

Soliq to'lovchilar-soliqlar va boshqa to'lovlar to'lash majburiyati yuklatilgan yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi. Yuridik shaxs-bu egaligida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida mol-mulkka ega bo'lgan va o'z majburiyatlari bo'yicha shu mol-mulk bilan javob beradigan, shuningdek, mustaqil balansga ega bo'lgan korxona (tashkilot), uning alohida mustaqil bo'linmasidir. Soliq to'lovchi jismoniy shaxs-bu O'zbekistonda soliq solish ob'yektiga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, boshqa davlat fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslardir. Soliqqa tortish soliq to'lovchilarning doimiy joylashgan yoki turar joyiga (rezidentligiga) asosan belgilanadi. Mazkur belgisiga qarab soliq to'lovchilar ikki guruhga bo'linadilar: O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan va rezidenti bo'lmagan shaxslar.

O'zbekiston Respublikasida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan yuridik shaxs O'zbekiston Respublikasi rezidenti (yuridik shaxs-rezident) hisoblanadi. Chet elda ro'yxatdan o'tkazilgan, lekin O'zbekistonda faoliyat yuritib, daromad oladigan yuridik shaxslar soliq to'lovchi sifatida O'zbekiston Respublikasi rezidenti hisoblanmaydilar (yuridik shaxs-norezident).

O'zbekistonda doimiy yashab turgan yoki soliq davrining yakunlanadigan har qanday ketma-ketlikdagi o'n ikki oylik davr ichida jami 183 kun va undan optiq muddatda O'zbekistonda turgan jismoniy shaxs O'zbekiston Respublikasi rezidenti (jismoniy shaxs-rezident) hisoblanadi. O'zbekistonda doimiy yashamaydigan, lekin joriy soliq davrida yakunlanayotgan har qanday ketma-ketlikdagi o'n ikki oylik davr ichida jami 183 kundan oz muddat O'zbekistonda turadigan va faoliyat yuritib, daromad oladigan jismoniy shaxslar O'zbekiston Respublikasi rezidenti hisoblanmaydilar (jismoniy shaxs-norezident). Soliq to'lovchilarning guruhlanishi 2.2-chizmada aks ettirilgan.



2.2-chizma. Soliq to'lovchilarning guruhlanishi.

Soliq undiruvchilarga vakolatli organlar va soliq agentlari kiradi. Vakolatli organlar-soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni undirish vazifalarini amalga oshiruvchi davlat organlari va tashkilotlari (davlat soliq xizmati organlari, bojxona organlari, moliya organlari va boshqalar) hisoblanadi. Soliq agentlari-bu zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish, ushlab qolish hamda byujetga va byujetdan tashqari jamg'armalarga o'tkazish majburiyati yuklangan shaxslardir.

Soliq qonunchiligi-soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha munosabatlarni tartibga solib turadigan me'yoriy-huquqiy hujjatlar majmuidir: O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarga oid qonunlar, qarorlar, yo'riqnomalar va boshqa hujjatlar.

Soliq majburiyati-soliq to'lovchining soliq qonunchiligiga muvofiq yuzaga keladigan majburiyatidir.

Soliq nazorati-soliq organlari tomonidan soliq qonunchiligining bajarilishini nazorat qilish, soliq va boshqa majburiy to'lovlarni to'liq va o'z vaqtida undirilishini ta'minlash bo'lib, quyidagi ko'rinishlarda amalga oshiriladi:

- soliq to'lovchilarni hisobga olish va ularga Soliq to'lovchining identifikatsiya raqamini berish;

- soliq solish ob'yektlarini va soliq solish bilan bog'liq ob'yektlarni hisobga olish;

- byudjetga va maqsadli jamg'armalarga tushayotgan tushumlarni hisobga olish;

- kameral nazorat-moliya-xo'jalik hisobotlarini kabinetda o'tirib tekshirish;

- naqd pul tushumlari kelib tushishining xronometraji;

- fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarini qo'llash qoidalariga rioya qilinishini tekshirish;


- aksiz to'lanadigan ayrim turdagi tovarlarni markalash, shuningdek, ayrim korxonalarda moliya inspektori lavozimini joriy etish;

- davlat foydasiga musodara qilingan mol-mulkni hisobga olish, baholash va sotish qoidalariga rioya qilinishini nazorat qilish;

- boshqa majburiy to'lovlarni undirish vazifasini amalga oshiradigan davlat organlari va tashkilotlari ustidan nazorat qilish;

- bevosita tekshiruvlar o'tkazish-rejali, rejadan tashqari, muqobil, qisqa muddatli, nazorat tartibidagi tekshirish, taftish, audit va boshqalar.

Soliqqa tortish tizimi-bu soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni aniqlash, belgilash, hisoblab chiqarish va undirish, byudjetga va tegishli jamg'armalarga o'tkazish tartib-qoidalari va jarayonlari majmuidir (2.3-chizma).



2.3-chizma. Solliqqa tortish tizimining tarkibi.

Solliqqa tortish tizimining ayrim elementlari birinchi mavzuda batafsil ko'rib chiqilgan edi. Qolganlari to'g'risida quyida so'z yuritiladi.

O'zbekistonda ikki xil solliq solish tartibi o'rnatilgan. Birinchisi, solliq solishning umumbelgilangan (umumiy) tartibi bo'lib, barcha solliqlar to'lashni nazarda tutadi hamda ularni va boshqa majburiy to'lovlarni undirish, to'lashning umumiy, to'liq tartib-qoidalarini o'z ichiga oladi. Ikkinchisi, solliq solishning soddalashtirilgan tartibi bo'lib, u solliq to'lovchilarning ayrim toifalariga belgilanadigan yagona solliq to'lashni nazarda tutadi, ularni hisoblash, undirish, to'lash, hisobotlarini taqdim etishning maxsus, soddalashtirilgan tartib-qoidalarini o'z ichiga oladi.

Solliq imtiyozlari-qonunlarda nazarda tutilgan solliq to'lovchilarning ayrim toifalariga belgilangan yengilliklar bo'lib, quyidagi guruhlariga bo'linadi.

1. Solliq ob'yekti yoki sub'yektiga berilishiga qarab:

- a) solliq ob'yektiga beriladigan imtiyoz;
- b) solliq sub'yektiga beriladigan imtiyoz.

2. Berilish xarakteriga qarab:

- a) maqsadsiz doimiy imtiyoz;
- b) maqsadsiz vaqtinchalik imtiyoz;
- v) maqsadli doimiy imtiyoz;

g) maqsadli vaqtinchalik imtiyoz.

3. Qo'llash uslubiga qarab:

a) chiqarib tashlash (ayrim ob'yektlar, daromadlarni);

b) chegirish (soliq bazasini kamaytirish);

v) soliq krediti (kredit uchun foiz ham to'lanadi):

-soliq stavkasini pasaytirish;

-soliq summasini kamaytirish;

-soliq to'lashni kechiktirish;

-soliqni bo'lib-bo'lib to'lash;

-avval to'langan soliqni qaytarish;

-avval to'langan soliqni hisobga olish;

-investitsiya soliq krediti-to'lash muddatini o'zgartirib, kamaytirilgan holda bosqichma-bosqich to'lash.

Soliqqa tortish usuli-bu soliq bazasi, stavkasi va summasining o'zaro bog'liqligi va o'zgarish xarakterini aniqlab, belgilab beradigan usuldir. U to'rt xil bo'lishi mumkin:


1) teng soliqqa tortish-hamma soliq to'lovchilar uchun teng soliq summasi belgilash;

2) proporsional soliqqa tortish-soliq stavkasi o'zgarmagan holda soliq summasining soliq bazasining o'zgarishiga muvofiq (proporsional) o'zgarishi;


3) progressiv soliqqa tortish-soliq bazasining ortib borishi bilan soliq stavkasining ham ortib borishi;

4) regressiv soliqqa tortish-soliq bazasining ortib borishi bilan soliq stavksining pasayib borishi.


Soliqqa tortish usullarining chizma ko'rinishlari 2.1,2.2,2.3,2.4 grafiklarda aks ettirilgan.




2.1-grafik. Teng soliqqa tortish (yakka tartibdagi tadbirkorlarga qat'iy belgilangan soliq). Soliq bazasi (sotish hajmi) o'zgarganda ham soliq summasi o'zgarmaydi.



2.2-grafik. Proporsional soliqqa tortish (qo`shilgan qiymat solig`i). Soliq stavkasi doimiy bo`lib, soliq summasi soliq bazasi (sotish aylanmasi)ning o`zgarishiga proporsional ravishda o`zgaradi.



2.3- grafik. Progressiv soliqqa tortish (jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig`i). Soliq bazasi (daromad)ning ortib borishi bilan soliq stavkasi ham ko`tarilib boradi, soliq summasi esa o`sib boruvchi sur`atlarda (progressiv) ortib boradi.



2.4-grafik. Regressiv soliqqa tortish (o'z mahsulotini eksport qiladigan yuridik shaxsdan olinadigan foyda solig'i). Foyda solig'ining imtiyozli stavkasi uchun asos hisoblangan eksport ulushi ortib borishi bilan soliq stavkasi pasayib boradi, soliq summasi esa o'sib boruvchi sur'atlarda (regressiv) kamayib boradi.

Soliqni undirish usullari quydagilar :


- 1) daromadni, mol – mulkni olgandan keyin undirish (deklaratsiya usuli);
- 2) daromadni olishdan oldin undirish (to'lov manbaida ushlab qolish usuli);
- 3) mol-mulk yoki boshqa boylikdan olinishi mumkin bo'lgan daromadni tashqi belgilari asosida aniqlab, undan soliq undirish (kadastr usuli).

Soliq javobgarligi-soliq to'lovchining soliq qonunchiligiga muvofiq soliqqa oid huquqbuzarlik deb e'tirof etilgan g'ayriqonuniy aybli qilmishi (harakati yoki harakatsizligi) uchun belgilangan javobgarlik.

2.2.Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning tasnifi

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning turlari ko'p bo'lib, ular muhim belgilari bo'yicha quyidagicha tasniflanadi.


Soliqlarning tasniflanishi 2.4-chizmada va quyida aks ettirilgan.



2.4-chizma. Soliqlarning tasnifi.

1. Soliq sub'yektiga qarab (2.5-chizmaga qarang):

- a) yuridik shaxslar to'laydigan soliqlar;
- b) jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlar.




2.5-chizma. Yuridik va jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar.

2.Soliq ob'yektiga ta'siriga qarab (2.6-chizmaga qarang);

a) bevosita soliqlar-soliq to'lovchi aholi va korxonalarning daromadlari, boyligi, faoliyatiga bevosita ta'sir etadigan soliqlar;

b) bilvosita soliqlar-soliq to'lovchi aholi va korxonalarining daromadlari, boyligi, faoliyatiga bilvosita ta'sir etadigan soliqlar.



2.6-chizma. Bevosita va bilvosita soliqlar (to'lovlar).

3. Soliqqa tortish usuliga qarab:

a) teng soliqlar-ayrim faoliyat turlari bilan shug'ullanayotgan barcha soliq to'lovchilar uchun bir xil soliq summasi belgilanadi (qat'iy belgilangan soliq);

b) proporsional soliqlar-soliq stavkasi doimiy bo'lib, soliq bazasi o'zgarganda soliq summasi o'zgaradi (foyda solig'i, yer solig'i, yagona yer solig'i, mol-mulk solig'i va hokazo);

d) progressiv soliqlar-soliq bazasining ortib borishi bilan soliq stavkasi ham ko`tarilib boradi (jismoniy shaxslarning daromad solig`i);

e) regressiv soliqlar – soliq bazasining ortib borishi bilan soliq stavkasi pasayib boradi (ishlab chiqarilgan mahsulotning eksport qilish ulushi oshib borishi bilan foyda va mol-mulk solig`i stavkalari pasayadi).

4.Iqtisodiy mohiyatiga qarab:

a) iste'molga qaratilgan soliqlar (bilvosita soliqlar);

b) daromadga qaratilgan soliqlar (daromad, foyda solig`i);

d) mol-mulkka qaratilgan soliqlar (mol-mulk solig`i);

e) resurslarga qaratilgan soliqlar (yer solig`i, yagona yer solig`i, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq).

5. Soliq tushadigan byudjetga va stavkasini kim belgilashiga qarab:

a) umumdavlat (respublika) soliqlari:

-yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig`i;

-yagona soliq to`lovi;

-jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig`i;

-qo`shilgan qiymat solig`i;

-yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to`lovlar;

-suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

-aksiz solig`i;

-faoliyatning ayrim turlarini amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslarga qat'iy belgilangan soliq;

-yuridik shaxs tashkil etmay tadbirkorlik faoliyati bilan shug`ullanuvchi jismoniy shaxslarga qat'iy belgilangan soliq.

b) mahalliy soliqlar:

-mol-mulk solig`i;


-yer solig`i;

-yagona yer solig`i;

-obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig`i;

-jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg`isi, gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq;

Boshqa majburiy to`lovlarning turlari 2.7-chizmada keltirilgan.




2.7-chizma. Boshqa majburiy to'lovlarning turlari.

2.3.O'zbekistonda soliq xizmati va ishlarining tashkil etilishi

O'zbekiston Respublikasi soliq xizmati, soliq xizmati organlari, ularning tuzilishi, vazifalari, huquqlari, majburiyatlari, faoliyatini tashkil etish va boshqa masalalari O'zbekiston Respublikasining tegishli qonunlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarida belgilab berilgan. Davlat soliq xizmati organlari soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'liq va o'z vaqtida byudjetga va tegishli jamg'armalarga tushishini ta'minlash maqsadida tuziladi. Davlat soliq xizmati organlariga quyidagilar kiradi: O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda Toshkent shahar davlat soliq bosh

boshqarmalari, viloyatlar davlat soliq boshqarmalari, tuman va shaharlarning davlat soliq inspeksiyalari (2.8-chizmaga qarang).



2.8-chizma. O`zbekistonda davlat soliq xizmati organlari.

Davlat soliq xizmati organlari o`z faoliyatini davlat hokimiyati va boshqaruvi mahalliy organlaridan mustaqil tarzda qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradilar. Ularning o`z vakolatlari doirasida qabul qiladigan qarorlari barcha yuridik va jismoniy shaxslar uchun majburiydir. Davlat soliq organlari o`z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni davlatning boshqaruv organlari, davlat hokimiyati mahalliy organlari, fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari, huquqni muhofaza qilish, statistika va moliya organlari, banklar va boshqa tashkilotlar bilan o`zaro hamkorlikda bajaradilar. Mazkur organlar va tashkilotlar soliqlarga oid qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish va soliqlar bo`yicha huquqbuzarliklarga qarshi kurashda davlat soliq organlariga ko`maklashishlari kerak.

O`zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlarining asosiy vazifalari quyilagilardan iborat:

- soliqlar to`g`risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi, soliqlarning to`g`ri hisoblab chiqarilishi va to`liq to`lanishini nazorat qilish;

- soliqlarga oid qonun hujjatlariga rioya etilishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

- soliq to`lovchilarga soliq majburiyatlarini bajarishlarida yordam ko`rsatish;

- soliq siyosatining ro`yobga chiqarilishida bevosita ishtirok etish;

- soliqqa tortiladigan ob`yektlar va sub`yektlarning to`liq holda o`z vaqtida hisobga olinishini ta`minlash;

- soliqlar bo`yicha huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etish;

-xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tekshirishlarni muvofiqlashtirish.

Bojxona organlari mahsulotlarni mamlakat hududiga chetdan olib kirish, ya'ni tovarlar, ishlar, xizmatlarni import qilishda qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'ini undiradilar. Bu soliqlar tovarlar, ishlar, xizmatlarni olib kiruvchilar, ya'ni import qiluvchilar tomonidan bojxona rasmiylashtiruvi paytida yoki undan oldin to'lanadi. Xalqaro pochta orqali jo'natilgan tovarlardan qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'ini ham bojxona organlari undiradilar. Jismoniy shaxslar o'z ehtiyojlari uchun tovarlarni olib kirishda har bir tovar turi bo'yicha muayyan miqdoriy me'yorlar belgilangan bo'lib, shu miqdorda olib kirilayotgan tovarlar boj va soliqlardan ozod qilingan. Undan ortiq miqdorda va tijorat maqsadlarida olib kirilayotgan tovarlar uchun bojni ham, soliqlarni ham to'lash zarur bo'ladi. Bunday paytda jismoniy shaxslar ham qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'ini chegarada bojxona organlariga to'laydilar. Soliqlar milliy valyutada to'lanadi. Jismoniy shaxslar esa soliqlarni naqd pulda to'lashlari ham mumkin. Tovarlarni, ishlar va xizmatlarni import qilishda qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'i o'zlarining fiskal funksiyasi bilan bir qatorda tartibga solish funksiyasini ham bajaradilar. Chunki bu soliqlar va ularning stavkalari yordamida tovarlarni chetdan olib kirish oqimlari mahalliy ishlab chiqaruvchilar va davlat manfaatlarini himoya qilish hamda ichki bozordagi raqobatga ta'siri nuqtai nazaridan tartibga solinib turiladi.

O'zbekistonda soliq qonunchiligini amalga oshirishni ta'minlashda soliq va bojxona organlaridan tashqari O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti ham ishtirok etadi. Uning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilangan:

- soliq, valyutaga oid jinoyatlar va huquq buzilishlarini o'z vaqtida aniqlash, ularning oldini olish va bartaraf etish, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarini bajarilishini nazorat qilish;

- dalvat soliq siyosatining amalga oshirilishini ta'minlash, soliq solish bazasini kengaytirish, soliq to'lovchilarni qamrab olinishi va hisobining to'liqligini ta'minlash, soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash, qochishning mumkin bo'lgan kanallari va mexanizmlarini, "xufiyona" iqtisodiyotning shakllanish yo'llarini, korrupsiya hollarini o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish;

- valyuta operatsiyalari bo'yicha hisob va hisobotlarning to'liqligi va ob'yektivligini nazorat qilish, xorijiy valyuta mablag'larining qonunga xilof ravishda chetga chiqib ketishi, olib kelinishi va olib chiqilishi, noqonuniy muomalada bo'lishi va valyuta ayirboshlash operatsiyalari bilan bog'liq boshqa qonun buzilishlarini oldini olish va bartaraf etish;

- moliyaviy razvedkaning zamonaviy tizimini yaratish, jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashning mumkin bo'lgan kanallari va mexanizmlarini aniqlashda yo'naltirilgan moliyaviy, mulkiy

operatsiyalarning monitoringini tashkil etish va amalga oshirish, aniqlangan huquq buzilishlari to'g'risida tegishli huquqni muhofaza qilish organlari bo'linmalariga jinoiy taqibni tashkil etish, ma'muriy ta'sir choralari ko'rish uchun o'z vaqtida axborot taqdim etish;

-soliq va valyuta-moliya sohasida aniqlangan jinoyatlar va huquq buzilishlari hamda qonun hujjatlariga muvofiq nazorat qilinadigan pul mablag'lari yok mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlarning yagona kompyuter dazasini yaratish va yuritish;

-O'zbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlari va shartnomalariga muvofiq valyutani tartibga solish sohasida, shuningdek, jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashga qarshi kurashish masalalari bo'yicha xorijiy davlatlarning vakolatli organlari hamda xalqaro ixtisoslashgan va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik qilish va axborotlar ayirboshlash;

-soliq siyosati va valyuta muomalasini tartibga solish, shuningdek, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish sohasidagi qonun hujjatlari buzilishlarining oldini olish masalalari bo'yicha keng tushuntirish, profilaktika ishlarini amalga oshirish.

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida soliq to'lovchilarning huquqlari va majburiyatlari belgilab berilgan. Unga ko'ra, soliq to'lovchilarning asosiy huquqlari quyidagilardan iborat:

-davlat soliq xizmati organlari va boshqa vakolatli organlardan amaldagi soliqlar, boshqa majburiy to'lovlar, soliq to'g'risidagi o'zgarishlar haqida axborot olish;

-o'zlarining soliq majburiyatlarini bajarish yuzasidan davlat soliq organlari hamda boshqa vakolatli organlardagi mavjud ma'lumotlarni olish;

-soliq munosabatlari masalalari yuzasidan o'z manfaatlarini shaxsan yoki o'z vakili orqali ifoda etish;

-qonunchilikda belgilab qo'yilgan asoslar mavjud bo'lgan taqdirda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlardan foydalanish;

-soliqlar, boshqa majburiy to'lovlar, penya va jarimalarning ortiqcha to'langan yoki undirilgan summalarini hisobga o'tkazish yoki qaytarib olish;

-soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashni me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan shartlarda va tartibda kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash;

-soliq solish ob'yektini hisobga olishda, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish hamda to'lashda o'zlari yo'l qo'ygan xatolarni mustaqil ravishda tuzatish;

-soliq tekshiruvlari materiallari bilan ta'nishish va tekshiruv dalolatnomalarini olish;

-soliq tekshiruvlari amalga oshirilayotganda soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarini bajarishga doir masalalar yuzasidan tushuntirishlar berish;

-davlat soliq xizmati organlarining, boshqa vakolatli organlar va ular mansabdor shaxslarining me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq bo'lmagan hujjatlari hamda talablarini bajarmaslik;

-davlat soliq xizmati organlari va boshqa vakolatli organlarning qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilish.

-davlat soliq xizmati organlarining va boshqa vakolatli organlarning qonunga xilof qarorlari yoki ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof hatti-harakatlari tufayli yetkazilgan zararning o'rnini qoplashni belgilangan tartibda talab qilish va boshqalar.

Soliq to'lovchilarning majburiyatlari quyidagilar hisoblanadi:

-belgilangan tartibda davlat soliq xizmati organlarida hisobga turish;

-soliq solish ob'yektlari va soliq solish bilan bog'liq ob'yektlarni aniqlash hamda ularning hisobini yuritish;

-soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni o'z vaqtida va to'liq to'lab borish;

-qonun hujjatlariga muvofiq hisob (buxgalteriya hisobi) yuritish, moliyaviy, statistika va soliq hisobotlari tuzish hamda ularni soliq organlariga taqdim etish;

-davlat soliq xizmati organlariga va boshqa vakolatli organlarga soliq bo'yicha imtiyozlar olish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etish;

-soliq tekshiruvlari o'tkazilayotgan vaqtda soliq xizmati organlariga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish, to'lash bilan bog'liq hujjatlar hamda ma'lumotlarni taqdim etish;

-davlat soliq xizmati organlarining va boshqa vakolatli organlarning hamda ular mansabdor shaxslarining qonuniy talablarini bajarish, shuningdek, mazkur organlarning qonuniy faoliyatiga to'sqinlik qilmaslik va boshqalar.

Soliq to'lovchining Soliq kodeksida javobgarlik belgilangan g'ayriqonuniy aybli qilmishi (harakati yoki harakatsizligi) soliqqa oid huquqbuzarlik deb e'tirof etiladi. Agar jismoniy shaxs sodir etgan soliqqa oid huquqbuzarlikda O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jinoyat alomatlari bo'lmasa, bu huquqbuzarlik uchun Soliq kodeksida nazarda tutilgan javobgarlik kelib chiqadi. Yuridik shaxsning soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortilishi tegishli asoslar mavjud bo'lgan taqdirda, uning mansabdor shaxslarini ma'muriy, jinoiy va boshqa javobgarlikdan ozod etmaydi. Soliq to'lovchining soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlikka tortilishi majburiy to'lovlarni to'lash majburiyatidan ozod etmaydi.

Soliq kodeksida soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun moliyaviy sanksiyalar quyidagicha belgilangan.

1. Davlat soliq xizmati organida hisobga turishdan bo'yin tovlash:

-faoliyat ko'pi bilan o'ttiz kun amalga oshirilgan bo'lsa, eng kam ish haqining ellik barobari, biroq bunday faoliyatdan olingan sof tushumning o'n foizidan kam bo'lmagan miqdorda;

-faoliyat o'ttiz kundan ortiq amalga oshirilgan bo'lsa, eng kam ish haqining yuz barobari, biroq bunday faoliyatdan olingan sof tushumning ellik foizidan kam bo'lmagan miqdorda.

2.Kirim qilinmagan tovarlarni saqlash yohud tovarlar (ishlar, xizmatlar) ni sotishdan tushgan tushumni yashirish (kamaytirib ko'rsatish)-kirim qilinmagan tovar qiymati yoki yashirilgan (kamaytirib ko'rsatilgan) tushum summasiga teng miqdorda jarimaga sabab bo'ladi.

3.Soliq hisobotini taqdim etish tartibi buzilganda muddati o'tkazitb yuborilgan har bir kun uchun bir foiz miqdorida, biroq belgilangan to'lov muddatida to'lanishi lozim bo'lgan to'lov miqdoridan tegishli hisobot davri uchun ilgari hisoblangan to'lovlar chegirib tashlangan summaning o'n foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda jarima solinadi.

4.Buxgalteriya hisobini yuritish tartibini buzganlik uchun-yuridik shaxs soliq to'lovchiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning miqdorini aniqlash imkoniyati bo'lmagan davrda tovarlar (ishlar, xizmatlar) ni sotishdan tushgan tushumning bir foizi miqdorida, biroq eng kam ish haqining ellik barobaridan ko'p bo'lmagan miqdorda jarima solinadi.

5.Faoliyat bilan litsenziyasiz va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarsiz shug'ullanish-faoliyatning ushbu turlarini litsenziyasiz yoki boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarsiz amalga oshirish davrida olingan sof foyda miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

6.Hisobvaraqa – fakturalarni rasmiylashtirish tartibini buzganda – mahsulot yetkazib beruvchilarga hisobvaraqa-fakturada ko'rsatilgan soliq summasi miqdorida va shu summaning yigirma foizi miqdorida jarima solinadi.

7.Fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarining qo'llash tartibini buzilishi uchun eng kam ish haqining o'ttiz barobaridan ellik barobari miqdorigacha jarima belgilangan. Bu huquqbuzarlik bir yil ichida yana takrorlanganda eng kam ish haqining yetmish besh barobaridan yuz barobarigacha jarima solinadi. Texnik talablarga javob bermaydigan yoki fiskal xotirasining xizmat ko'rsatish dasturi buzilgan nazorat-kassa mashinalaridan foydalanganda eng kam ish haqining yuz barobari miqdorida, bunday holat bir yil ichida yana sodir etilganda ikki yuz barobari miqdorida jarima solinadi.

8.Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash muddatlari buzilganda-to'lovning belgilangan muddatidan keyingi kundan e'tiboran muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun, (to'lov kuni ham shunga kiradi) 0,5 foiz peniya hisoblab undiriladi.

9.Yer uchastkalaridan tegishli hujjatlarda ko'rsatilganidan kattaroq hajmda foydalanganda yer solig'ining summasiga ekvivalent miqdorda:

-yuridik shaxslarga ikki barobari miqdorida;

-jismoniy shaxslarga bir yarim barobari miqdorida jarima solinadi.

2.4.O`zbekistonda soliq tizimini modernizatsiya qilish yo`llari

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida soliqlar muhim rol o`ynaydi.”Bozor munosabatlariga o`tish sharoitida soliqlar iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda eng muhim boshqaruvchi omil bo`lib qoladi. Avvalo, soliq tizimi o`ziga xos vazifani-fiskal (xazinani to`ldirish), qayta taqsimlash va rag`batlantirish vazifasini to`la darajada bajarishi kerak. Yangi soliq siyosati doirasida soliq tushumlari tarkibini tubdan o`zgartirish, resurslar, mol-mulk solig`ining rolini oshirish, jismoniy shaxslardan soliq undirishning progressiv tizimini joriy etish vazifasi qo`yiladi”,-deb ta`kidlagan edi O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov¹.

Keyingi yillarda soliq siyosatini erkinlashtirish va takomillashtirish ustuvor yo`nalishlar qatoriga kiritilgan. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan bu yo`nalishda soliq qonunchiligini takomillashtirish, soliq yukini kamaytirish, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish va unifikatsiya qilish asosiy vazifa qilib belgilangan. Prezident 2008 yil 8 fevraldagi ma`ruzasida ta`kidlashicha, 2000-2007 yillar mobaynida yuridik shaxslarning foyda solig`i 38 foizdan 10 foizgacha, yagona ijtimoiy to`lov 40 foizdan 24 foizgacha, kichik biznes sub`yektlari va fermer xo`jaliklari uchun yagona soliq 10 foizgacha tushirilgan. Jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliq stavkalari ham tubdan qayta ko`rib chiqilgan va kamaytirilgan. Natijada respublikada umumiy soliq yuki pasayib kelmoqda (2.1-jadvalga qarang).

2.1-jadval

O`zbekiston Respublikasida soliq yuki dinamikasi

Yillar	2000	2008	2009	2010
Soliq yuki-soliq tushumlari YaIMga nisbatan foizda	37,1	23,2	22,6	21,8

Manba. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari” nomli asarini o`rganish bo`yicha o`quv qo`llanma. T., O`zbekiston, 2009.

Bunday holat korxonalarning moliyaviy resurslari va fuqarolarning daromadlari tegishli ravishda oshishini bildiradi. Bu o`z navbatida investitsiyalarning ko`payishi, korxonalarning aylanma mablag`larini to`ldirish, ishchi va xizmatchilarning ish haqi va daromadlarini oshirish uchun qo`shimcha manba bo`lib xizmat qiladi. 2007 yilning o`zida xo`jalik yurituvchi sub`yektlar

¹ Karimov I.A. O`zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo`lida. T., O`zbekiston. 1995. 204-205 b.

soliq imtiyozlari berish hisobidan o'z moliyaviy resurslarini qo'shimcha ravishda 830 mlrd. so'mga to'ldirishga erishdilar.

2010 yilda soliq sohasini yanada erkinlashtirish va takomillashtirish siyosati davom ettiriladi. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkasi 10 foizdan 9 foizgacha, mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi stavkasi 8 foizdan 7 foizgacha, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining birinchi stavkasi 12 foizdan 11 foizgacha hamda yakka tadbirkorlar uchun qat'iy belgilangan soliq stavkalari ancha pasaytirildi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik eng dolzarb bo'lgan aholi bandligi va uni ko'tarish muammosini hal etishda o'ziga xos lokomotiv vazifasini bajaradi, eng yirik mehnat bozori, mulkdorlarning o'rta sinfini shakllantirish asosiy omili, millionlab odamlar uchun daromad va farovonlik manbai bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ham mazkur sohani soliqlar yordamida qo'llab-quvvatlash siyosati amalga oshirilib kelmoqda.

Bank tizimini rivojlantirish, tijorat banklarining kapitallashuv darajasini yanada oshirish va erkinligini mustahkamlash, moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga ham jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Tijorat banklari uchun foyda solig'i 17 foizdan 15 foizga tushirildi va buning natijasida bo'shaydigan mablag'lar banklarning kapitallashuvini oshirish uchun maqsadli ravishda yo'naltiriladi. Boshqa barcha xo'jalik sub'yektlari uchun foyda solig'i stavkasi 10 foiz darajasida saqlanib qoladi. Hisob-kitoblarga ko'ra, taklif etilayotgan chora-tadbirlarni amalga oshirish, qo'shimcha ravishda 100 mlrd. so'mdan ortiq mablag'ni xo'jalik sub'yektlari ixtiyorida qoldirish imkonini beradi.

2007 yilda ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalar 1,5 barobar, aholi real daromadlari 27 foizga oshgan bo'lsa, 2008 yilda ko'zda tutilgan inflyatsiya darajasi doirasidan chiqmagan holda, o'rtacha ish haqi miqdorini kamida 1,5 barobar oshirish mo'ljallangan. Shuning bilan birga shu yildan boshlab jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i eng past stavkasi bo'yicha hisoblash bazasini ko'paytirish va stavkalarini pasaytirish aholi real daromadlarini oshishini ta'minlaydi.

Soliq tizimini boshqarishni isloh qilishda 2008 yil 1 yanvardan kuchga kirgan yangi Soliq kodeksi muhim ahamiyat kasb etadi. Jahon tajribasi va soliqqa tortishning mamlakatda sinovdan o'tgan yondashuv va tamoyillarini o'rganish asosida tayyorlangan yangi Soliq kodeksida ko'zda tutilgan me'yorlar va qoidalar, birinchi navbatda, soliq tizimi va munosabatlarini unifikatsiya qilish, mamlakat iqtisodiyotini barqaror va mutanosib rivojlantirishida soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini kuchaytirishga qaratilgandir. Shu sababli yangi Soliq kodeksining amaliy ijrosini diqqat bilan o'rganish, uning qanday sharoitlarda samara berayotgani, qaysi holatlarda esa uni yanada takomillashtirish yoki tuzatish zarurligini aniqlash juda muhim hisoblanadi. Shu munosabat bilan Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasiga Iqtisodiyot vazirligi, Davlat monopoliyadan chiqarish qo'mitasi, Savdo-sanoat palatasi va boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda yangi soliq qonunchiligini amalga oshirish

jarayonini monitoring qilish bo'yicha maxsus Idoralararo guruh tashkil etish va zarur hollarda Vazirlar Mahkamasiga Soliq kodeksining ayrim moddalarini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish topshirilgan va bu vazifa muntazam ravishda amalga oshirib kelinmoqda.

Keyingi yillarda respublika davlat byudjeti profitsit bilan bajarilmoqda. Bu byudjetga soliqlar va boshqa tushumlarning byudjet xarajatlaridan ko'proq tushishi natijasidir. Bunday holat davlat qarzlari masalasini va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni tezroq hal qilish imkonini beradi. Davlat byudjetini bajarishga qaratilgan g'aznachilik xizmatini rivojlantirish va mustahkamlash byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini yanada oshiradi.

2.5.Rivojlangan mamlakatlar soliq tizimlari va ularning xususiyatlari

Amerika Qo'shma Shtatlarining soliq tizimi. AQShda federal darajada O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasiga o'xshash maxsus soliq organi-Soliqlarni yig'ish boshqarmasi (AY-ER-ES) tuzilgan. Mamlakatning barcha ellik shtatida uning vakolatxonalari tashkil etilgan. Lekin ular bilan bir qatorda har bir shtatning o'z soliq xizmati tuzilgan bo'lib, bu xizmatlar AY-ER-ES ga bo'ysinmaydi va mustaqil faoliyat olib boradilar. Bunday soliq xizmatlari faqat o'z shtati byudjetini to'ldirish bilan shug'ullanadilar. Har bir shtatning o'z ichki soliq tizimi va qoidalari mavjud. Amerika Soliqlarning yig'ish boshqarmasi (AY-ER-ES) ning o'zida 102 mingdan ortiq xodim ishlaydi. Uning xarajatlari yig'ilgan soliqlarning 1foizini tashkil etadi. Shtatlardagi soliq idoralari xarajatlari esa undan ham kattaroq - 2-3 foizga yetadi.

AQShda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar uchta byudjetga taqsimlanadi. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning 68 foizi federal byudjetga, 20 foizi shtatlar byudjetiga va 12 foizi mahalliy byudjetga tushadi. Federal byudjetga tushadigan tushumlarning asosiy qismi-46 foizi shaxsiy daromad solig'iga to'g'ri keladi. Bu soliq 1913 yilda joriy etilgan bo'lib, uy xo'jaliklari va korporatsiyalashmagan yakka egalikdagi korxonalardan undiriladi. Unga 15 foiz va 28 foizli ikki darajali stavka belgilangan. Ammo yana besh foizli yashirin qo'shimcha stavka ham qo'llaniladi. Masalan, oilada ikki kishi ishlab oladigan yillik umumiy daromadlarining 29750 dollarigacha miqdoridan 15 foiz, undan yuqori va 71900 dollarigacha miqdoridan 28 foiz, undan yuqori va 149250 dollarigacha miqdoridan 33 foiz, undan yuqori summasidan yana 28 foiz daromad solig'i hisoblanadi va undiriladi. Mazkur soliq bo'yicha ayrim chegirmalar va imtiyozlar ham qo'llaniladi.

Federal byudjeti tushumlarida ikkinchi o'rinni ijtimoiy sug'urta to'lovlari egallaydi va uning ulushi 35 foizga yetadi. Bu to'lov majburiy ijtimoiy sug'urtalash rejasi doirasida ish beruvchilardan ham, yollanma ishchilardan ham undiriladi. Uning stavkasi ish haqi fondidan 75 foiz. Uchinchi o'rinni korporatsiyalar foyda solig'i egallaydi va federal byudjeti tushumlarining 13

foizini tashkil etadi. Uni korporatsiyalashgan (jamoalar boshqaruviga asoslangan) korxona va tashkilotlar o'z foydasidan to'laydilar. Bu soliqning stavkasi 34 foiz. AQShda ham ayrim tovarlarga aksiz solig'i qo'llaniladi va bu soliqning federal byudjetdagi ulushi 4 foizni tashkil etadi.

Shtatlar byudjetida asosiy o'rinni sotishdan soliq va aksiz yig'imi egallaydi va ularning ulushi shtatlar byudjeti tushumlarining 49 foizini tashkil etadi. AQShda qo'shilgan qiymat solig'i qo'llanilmaydi, lekin uning o'rnida unga o'xshash sotishdan soliq amal qiladi. Shtatlar byudjeti tushumlarining 31 foizini shaxsiy daromad solig'i, 8 foizini korporatsiyalar foyda solig'i, 2 foizini mulk solig'i, 1 foizini meros va hadya soliqlari, qolgan 9 foizini litsenziya, viza yig'imi va boshqa to'lovlar tashkil etadi.

Mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari byudjetiga mamlakatda yig'iladigan jami soliqlar va boshqa to'lovlarning 12 foizi tushadi. Bu tushumlarning 74 foizini mulk solig'i, 11 foizini sotishdan soliq va aksizlar, 6 foizini shaxsiy daromad solig'i va korporatsiyalar foyda solig'i, 8 foizini litsenziya, viza yig'imi va boshqa to'lovlar tashkil etadi.

AQShda asosiy soliq to'lovchilar jismoniy shaxslar hisoblanadilar. Lekin ularning soliq to'lashlari ixtiyoriylik tamoyiliga asoslangan. Chunki ish beruvchilar ish haqini soliq va boshqa to'lovlarni ushlab qolmasdan to'liq xodimlar qo'lga beradi, shuning uchun har bir xodimning o'zi barcha soliqlarni to'lab, soliq organiga hisobot berishi kerak. Har yili 1-yanvardan 1-aprelgacha barcha amerikaliklar soliq organlariga o'z daromadlari to'g'risida deklaratsiya taqdim etadilar. Soliq to'lovchining hisoboti (deklaratsiyasi) to'liq yoki aniq bo'lmasa, daromadini yashirgani aniqlansa, u katta muammolar va chiqimlarga duch keladi. Chunki mamlakatda soliq qonunchiligini buzish og'ir jinoyat hisoblanadi va buni hamma yaxshi biladi. Bundan tashqari, har yili 15-aprel mamlakat bo'ylab soliqqa doir hakamlik kuni deb belgilangan. Bu kun arafasida butun aholi qanday qilib soliqlarni ortiqcha to'lamaslik va soliqlardan qarz bo'lib qolmaslik mumkin degan o'ylov va hayajonda bo'ladi. Shu kuni esa shu vaqtgacha aniq bo'lmagan masalalar hal qilinadi.

Soliq to'lovchilarga daromadlari to'g'risidagi deklaratsiya, uni to'ldirish bo'yicha izohlar va sharhlar berilgan hujjatlar majmuasi pochta orqali bepul o'z vaqtida yetkazib beriladi. Soliq to'lovchilar istagan paytda maslahat so'rab murojaat qilishlari mumkin. Ularga yordam ko'rsatish, maslahat berish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Faqatgina Soliqlarni yig'ish boshqarmasi (AY-ER-ES) huzurida ming xodim shu ish bilan shug'ullanadi. AQShda qutqaruv xizmatining 911 raqamli telefoni kabi soliq xizmatining 800 raqamli telefoni hammaga ma'lum. Shu raqamni terib, soliqqa oid har qanday savolga zudlik bilan javob olish mumkin. Savol ko'p uchraydigan, oson bo'lsa unga kompyuterning o'zi javob bera qoladi. Kompyuter javob bera olmagan taqdirda o'sha zahoti operator aralashadi. Bundan tashqari, AQShda ixtisoslashgan buxgalteriya firmalari soliqlar bo'yicha maslahat berish, yordam ko'rsatishda muhim rol o'ynaydi. Ularning xizmatlaridan o'n minglab amerikaliklar foydalanadilar.

Amerikada ham daromad to'g'risidagi deklaratsiyani muddatida yoki umuman topshirmaslik, deklaratsiyaga barcha daromadlarni kiritmaslik, imtiyozga ega bo'lish uchun bolalar sonini ko'paytirib ko'rsatish yoki soliq bazasidan noto'g'ri ajratmalar qilish kabi qoidabuzarliklar uchraydi. Lekin ular ko'p emas va ularni milliy tushdagi qonunbuzarlik deb bo'lmaydi. AQShda mavjud tizim soliq'larga oid nizoli masalalarni suddan tashqari tartibda ham hal qilish imkonini beradi. Soliqlarni yig'ish boshqarmasi (AY-ER-ES)da shikoyatlarni ko'rib chiqish boshqarmasi tuzilgan. Unda 1000 ta malakali mutaxassis ishlaydi va ular har yili soliq to'lovchilarning 50 mingdan ortiq shikoyatlarini ko'rib chiqadilar. Bu boshqarma AY-ER-ES huzurida bo'lishiga qaramay, undan mustaqil ish olib boradi. Ko'rib chiqilgan shikoyatlarning 75 foizini soliq to'lovchilar foydasiga hal qilinishi bu tuzilmaning mustaqil, xolisona ish ko'rishidan dalolat beradi. Amerikada qonun buzarliklar haqida xabar berish ham rag'batlantiriladi. Masalan, birovning soliq qonunbuzarligi to'g'risida xabar qilgan shaxs mukofotlanadi.

Buyuk Britaniya soliq tizimi. Buyuk Britaniyada jismoniy shaxslar daromad solig'i 1799 yilda joriy etilgan. 1960 yildan boshlab ishlaydiganlarning hammasi soliq to'laydigan bo'ldi. Hozirgi vaqtda yiliga 2090 funt sterlinggacha daromaddan 10 foiz, 2090 funtdan 32400 funtgacha daromaddan 25 foiz, undan yuqori daromaddan 40 foiz stavka bilan soliq to'laydilar. Bu mamlakatda eng qadimiy soliq-gerb boji (yig'imi) hisoblanadi (uning joriy etilganiga 300 yildan oshgan). Deyarli barcha hujjatlarda gerb boji to'langanligini tasdiqlovchi tamg'a bo'lishi kerak. Uning stavkasi ayrim bitimlar uchun 0,25 dan 2 funt sterlinggacha, ayrim hollarda esa bitim summasidan 1-3 foizgacha bo'ladi. Unvon olish, ayrim xususiy faoliyatga ruxsat olish, qimmatbaho metallardan yasalgan buyumlar, dori-darmonlar, o'yin kartalaridan ham gerb yig'imi (boji) olinadi. Dengiz kemalari bilan bitimlar bu soliqdan ozod qilingan.

Barcha kompaniyalar korporatsiya solig'i to'laydilar. Uning asosiy stavkasi 30 foiz bo'lib, yiliga 300 ming funt sterlinggacha foyda oladigan firmalar uchun 20 foizli imtiyozli stavka belgilangan. Foydasi 300 mingdan 1,5 million funt sterlingga yetadigan kompaniyalar uchun stavka 20 foizdan 30 foizgacha bo'lgan oraliqda mutanosib ravishda belgilangan.

Buyuk Britaniyada qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 17,5 foiz bo'lib, oziq-ovqat mahsulotlarining ko'p turlari, suv, davriy nashrlar, dori-darmonlar, transport xizmatlari, bolalar buyumlari bu soliqdan ozod qilingan. Sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, sug'urtalash, bank va ta'lim muassasalari qo'shilgan qiymat solig'ini buyudjetdan qoplay olmaydilar va uni xarajatlarga kiritadilar. Bu mamlakatda ham ayrim tovarlar-alkogolli ichimliklar, tamaki mahsulotlari, neft mahsulotlari, qimor o'yinlari, samolyot qatnovi, avtotransport xizmatlari va boshqalar aksiz solig'iga tortiladi.

Buyuk Britaniyada faqat bir soliq mahalliy byudjetga tushadi. U ham bo'lsa uylarning ijarachilari yoki binolarning egalari to'laydigan soliq bo'lib, uning miqdori binoning qiymatiga va uy-joyda yashovchilar soniga qarab hisoblanadi.

Lekin uning stavkasini ham markaziy hukumat belgilab beradi.

Fransiya soliq tizimi. Fransiyada soliq undirish deklaratsiyaga asoslangan. Korxonalar va jismoniy shaxslar 1-aprelgacha yillik daromadlari to'g'risida soliq organlariga deklaratsiya taqdim etadilar. Korxonalarning sof foydasi va jismoniy shaxslarning daromadlari soliqqa tortiladi. Daromad soliqlari umumiy hajmida jismoniy shaxslarning daromad solig'i asosiy o'rin egallaydi. Qo'shilgan qiymat solig'i alkogolli ichimliklar, pivo va shifobaxsh suvlar, tamaki mahsulotlari, gugurt, qimmatbaho toshlardan tayyorlangan buyumlar, shakar, qandolat mahsulotlari, uchish apparatlari, ayrim avtomobillarga qo'llaniladi. Uning asosiy stavkasi 18,6 foiz bo'lib, avtomobil, kino-foto tovarlari, tamaki mahsulotlari, atir-upa, qimmatbaho mo'ynalarga 22 foiz, oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari, kitoblar, dori-darmonlar uchun 5,5 foiz qilib belgilangan. Mahalliy soliqlarga yer solig'i, turarjoy solig'i, mutaxassislik solig'i kiradi. Yoshi 75 dan oshgan shaxslar, maxsus nafaqa oluvchilar, kam ta'minlangan shaxslar va nogironlardan soliq undirilmaydi. Mahalliy hokimiyat elektr energiya, televizion reklamalardan foydalanganligi uchun yig'imlar joriy etishi mumkin.

Germaniya soliq tizimi. Germaniyada daromad solig'ining 42,5 foizi federal byudjetga, 42,5 foizi munitsipal (yerlar) byudjetiga va 15 foizi mahalliy byudjetlarga tushadi. Korporatsiya solig'iga ikkita stavka belgilangan bo'lib, bu soliq federal va yerlar byudjetlariga teng taqsimlanadi. Tadbirkorlik faoliyatidan mahalliy byudjetlarga soliq undiriladi. Hunarmandchilik solig'ini korxonalar, shirkatlar, hunarmandchilik, savdo va boshqa faoliyatlar bilan shug'ullanuvchi fuqarolar mahalliy byudjetga to'laydilar. Yer maydonlari munisipalitetlar tomonidan toifalarga ajratib, ularga muvofiq soliqlar belgilanadi.

Sanoat korxonalari va kompaniyalar 0,6 foiz, jismoniy shaxslar esa 1 foiz mulk solig'i to'laydilar. Qo'shilgan qiymat solig'ining ulushi 28 foiz bo'lib, daromad solig'idan keyin ikkinchi o'rinda turadi va u ham uch byudjetga taqsimlanadi. Uning umumiy stavkasi 15 foizni, lekin asosiy oziq-ovqat tovarlari, kitoblar va gazetalarga 7 foizni tashkil etadi. Qishloq va o'rmon xo'jaliklari mahsulotlari, eksportga jo'natiladigan tovarlar qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan.

Yaponiya soliq tizimi. Yaponiyada davlat soliq tushumlarining taxminan 60 foizi bevosita soliqlarga va 40 foizi bilvosita soliqlarga to'g'ri keladi. Yaponiya soliq tizimida eng asosiy, yirik soliqlar yettita bo'lib, ulardan to'rttasi bevosita soliqlar-jismoniy shaxslar daromad solig'i, korporatsiyalar foyda solig'i, meros solig'i, yer solig'i va uchtasi bilvosita soliqlar-iste'mol solig'i, aksiz solig'i, transport solig'i hisoblanadi.

Jismoniy shaxslardan daromad manbalaridan va deklaratsiya asosida olinadigan daromad solig'i 10 foizdan 50 foizgacha bo'lgan 5 darajali stavkalar bo'yicha undiriladi. Korporatsiyalar foyda solig'i stavkasi taqsimlanadigan foydaning 42 foizini tashkil etadi. Lekin dividendlar soliqdan qisman ozod qilinadi. Foydasi 8 million iyenadan oshmaydigan kichik va o'rta korxonalar uchun imtiyozli stavkalar belgilangan.

Yaponiyada pensionerlar uzluksiz ko`payib bormoqda, ular soliq to`lamay byudjet yordamidan foydalanadilar. Shuning uchun ortib borayotgan byudjet xarajatlarini qoplash maqsadida 1989 yilda iste'mol solig'i joriy etilgan. U qo`shilgan qiymat solig'iga yaqin bo`lib, stavkasi prefekturalar bo'yicha farq qiladi-Tokioda 5 foiz bo`lsa, boshqa ko`pchilik prefekturalarda 3 foizni tashkil etadi. Lekin sotish hajmi 30 million iyenagacha bo`lgan kichik biznes vakillari bu soliqdan to`la ozod qilingan.

Yaponiyada mahalliy soliqlar ham mavjud bo`lib, ularga tadbirkorlik solig'i, korporativ munitsipal solig'i, barobarlashtiradigan soliq kiradi. Tadbirkorlik solig'i soliqqa tortiladigan foydadan hisoblanadi va uch stavka bo'yicha undiriladi. Bu stavkalar prefekturalar bo'yicha har xil-Tokio uchun u kompaniya ustav kapitali va foydasi miqdoriga qarab 6 foizdan 12,6 foizgacha belgilangan.

Korporativ munitsipal solig'i prefektura va shahar soliqlari yig`indisidan iborat. Uning stavkasi joyiga qarab farq qiladi. Lekin umummilliy soliq summasidan hisoblab chiqiladigan soliq eng yuqori stavkasi prefektura solig'i uchun 6 foiz va shahar solig'i uchun 47 foizni tashkil etadi.

Barobarlashtiradigan soliq to`lanishi kerak bo`lgan belgilangan summadan iborat bo`ladi. Uning 50 ming iyenadan 3750 ming iyenagacha bo`lgan miqdori yuridik shaxs kapitalining miqdori va ishlovchilar soniga bog`liq holda belgilanadi. Bu soliq shahar va prefektura o`rtasida 4:1 nisbatda taqsimlanadi.

Yaponiyaning soliq tizimi soliq deklaratsiyasi tamoyiliga asoslangan. U soliq to`lovchilardan o`z daromadlari va soliqlarini o`zlari hisoblab chiqarishlarini talab qiladi. Yaponiyada soliq to`lovchilarni uch guruhga bo`ladilar. Birinchisi, katta ishonch qozongan to`lovchilar bo`lsa, ikkinchisi, soliq idoralari tomonidan har uch- besh yilda, uchinchisi esa har yili tekshirib turiladigan soliq to`lovchilardir.

Mamlakatda soliq ma'muriyati (organlari) Moliya vazirligi tarkibidagi Soliq bosh boshqarmasi, 12 ta mintaqqa soliq boshqarmasi, 528 ta soliq inspeksiyasidan iborat bo`lib, ularda 57 mingdan ortiq xodim ishlaydi.

Yaponiya soliq tizimi poydevorini aholi bilan ishlash va mutaxassislar tanlab olish tashkil etadi. Mamlakatda soliq idoralarida aholi bilan ishlash dasturlari bo`lib, ular nafaqat soliq to`lovchilar, balki butun aholiga mo`ljallangan. Prefektura markazlaridagi 79 ta yirik soliq inspeksiyalarida va boshqa yirik shaharlarda aholi o`rtasida ish olib boradigan ikkitadan inspektor bor, ular bo`lmagan joyda bu ishni muvofiqlashtiruvchi bo`linma bajaradi. Aholi o`rtasida olib boriladigan ish shakllari turli-tuman va samarali: televideniya uchun maxsus dasturlar, "Turmush va soliqlar" va boshqa risolalar, plakatlar va boshqa nashrlar, hatto ko`zi ojizlar uchun "Soliqlarimiz" degan kitob chiqarilishi, har yili 11-17 noyabrda "Soliqqa oid bilimlarimiz" haftaligi o`tkazilishi, maktablarda soliqqa oid bilimlar berilishi va soliq maorifi kabinetlari tashkil etilishi va hokozalar.

Bundan tashqari, soliq tizimi xususida jamoatchilik fikrini o`rganish yaxshi yo`lga qo`yilgan. Bu ish bilan 2820 dan ortiq maxsus tayinlangan xodim shug`ullanadi. Ular so`rovlar o`tkazadilar, istaklar, iltimoslar, fikrlar, shikoyatlarni qabul qiladilar, aholiga soliq idoralari vazifalarini targ`ibot qiladilar

va soliqqa oid hujjatlarni tarqatadilar. Bu ishlarning natijalari «jamoatchilik fikrini o`rganish byulleteni»da muntazam berilib, oshkor qilib boriladi. Umuman olganda soliq idoralari, ularning xodimlari va soliq to`lovchilar o`rtasida yaxshi munosabatlar o`rnatilgan.

Rossiya Federatsiyasining soliq tizimi. Rossiya Federatsiyasida asosan fiskal vazifaga-davlat byudjeti defitsitini bartaraf etishga yo`naltirilgan soliq tizimi amal qiladi. Bu tizim 2002 yildan boshlab yangi yo`nalishda rivojlanmoqda: ijtimoiy soliq joriy etildi, jismoniy shaxslar daromadlariga 13 foizli yagona stavka belgilandi, yangi soliq imtiyozlari tadbqiq etildi va boshqa o`zgarishlar kiritildi. Natijada yagona soliq makoni va bu makonda yagona soliq qonunchiligi tiklandi. Soliq va boshqa majburiy to`lovlar tushumlarining asosiy qismini (70 foizga yaqin) yuridik shaxslarning foyda solig`i, iste`mol solig`i (qo`shilgan qiymat solig`i) va ijtimoiy sug`urta badallari tashkil etadi. Soliq va boshqa majburiy to`lovlar uchta byudjetga-federal byudjet, respublika (viloyat, o`lka) byudjeti va mahalliy byudjetga taqsimlanadi. Lekin ularni taqsimlashda ham muammolar mavjudligidan tashqari soliq tizimi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish asosiy proporsiyalarini, ularning negizi bo`lgan mehnat unumdorligi va iste`mol o`rtasidagi o`zaro muvofiqlikni yetarli darajada ta`minlay olmasligi tanqid qilib kelinadi.

Qisqacha xulosalar

1.O`zbekiston Respublikasining soliq tizimi-bu davlat tomonidan belgilab qo`yilgan soliqlar va boshqa majburiy to`lovlar, ularning turlari va shakllari, undirish mexanizmi, soliq qonunchiligi, majburiyati, nazorati, to`lovchilari va undiruvchilari majmuidir. Har bir mamlakatning soliq tizimi o`ziga xos bo`lib, O`zbekistonda u asosan mustaqillikka erishilgandan so`ng shakllandi va muntazam ravishda takomillashib bormoqda.

2.Soliqqa tortish tizimi- bu soliqlar va boshqa majburiy to`lovlarni aniqlash, belgilash, hisoblab chiqarish va undirish, byudejetga va tegishli jamg`armalarga o`tkazish tartib-qoidalari va jarayonlari majmuidir.

3.Soliqlar va boshqa majburiy to`lovlarning turlari, shakllari, ko`rinishlari juda ko`p bo`lib ularni muhim belgilari asosida ma`lum bir tartibda tasniflash mumkin bo`ladi.

4.O`zbekistonda qabul qilingan “Davlat soliq xizmati to`g`risida”gi qonun, Vazirlar Mahkamasining bir qator qarorlariga muvofiq soliq xizmati organlari va soliq nazorati organlari tashkil etilgan, ularning faoliyati to`g`risidagi nizomlar tasdiqlangan. Mazkur hujjatlarda ularning tuzilishi, maqomi, vakolatlari, vazifalari, huquqlari, majburiyatlari, mas`uliyati aniq belgilab berilgan.

5.O`zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga muvofiq soliq to`lovchilar yuridik shaxs, jismoniy shaxs, O`zbekiston Respublikasi rezidenti va norezidenti maqomlariga ega bo`lishlari mumkin. Ular soliqlar bo`yicha imtiyozlardan foydalanish, soliq summalarini o`tkazib berilishi to`g`risidagi ma`lumotlarni olish, soliq hisob-kitobidagi xatolarini tuzatish, tekshiruvlar natijalari bilan

tanishish va boshqa huquqlarga ega. Ularga soliq organlarida hisobga turish, soliqlarni o'z vaqtida to'lash, soliq hisobotlari va imtiyozlar huquqi to'g'risidagi hujjatlarni o'z vaqtida taqdim etish va boshqa majburiyatlar yuklangan.

6.O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilayotgan tovarlar, ishlar, xizmatlar, transport vositalariga belgilangan aksiz solig'i va qo'shilgan qiymat solig'ini undirish bojxona organlari zimmasiga yuklangan. Bu ishlarni tashkil etish va amalga oshirish tartib-qoidolari O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi va Soliq kodeksida aks ettirilgan.

7.O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida soliq nazoratining turlari va shakllari, ularni amalga oshirish tartibi, soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun javobgarliklar belgilangan. Soliq qonunchiligiga rioya etilishini nazorat qilishni soliq organlari bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti va uning hududiy tuzilmalari amalga oshiradilar.

8.Soliq siyosati va tizimini erkinlashtirish va takomillashtirish ham ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Chunki soliqlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga katta ta'sir etuvchi vositadir. Ular fiskal (xazinani to'ldirish), qayta taqsimlash va iqtisodiyotni tartibga solish kabi funksiyalarni bajarib, korxonalar va fuqarolar faoliyati va daromadlariga kuchli ta'sir etadilar. Shuning uchun respublikada soliq tizimini modernizatsiya qilish yo'llari bo'lib soliq qonunchiligini takomillashtirish, soliq yukini kamaytirish, soliqlar va majburiy to'lovlar sonini qisqartirish, soliqqa tortish jarayonlarini soddalashtirish va unifikatsiya qilish hisoblanadi.

9.Amerika Qo'shma Shtatlarida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning 68 foizi federal byudjetga, 20 foizi shtatlar byudjetiga va 12 foizi mahalliy byudjetga tushadi. AQShda asosiy soliq to'lovchilar jismoniy shaxslar bo'lib, ularning soliq to'lashi ixtiyoriylik va deklaratsiyaga asoslangan, ularga yordam ko'rsatish, maslahat berish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Buyuk Britaniyada gerb yig'imi (boji), jismoniy shaxslar daromad solig'i, korporatsiyalar foyda solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, uy-joy, binolar uchun soliq va boshqa soliqlar undiriladi, uy-joy binolari egalari to'laydigan soliq mahalliy soliq hisoblanadi. Yaponiyada qo'llaniladigan soliqlardan eng asosiylari to'rta bevosita soliq-jismoniy shaxslar daromad solig'i, korporatsiyalar foyda solig'i, meros solig'i, yer solig'i va uchta bilvosita soliq-iste'mol solig'i, aksiz solig'i, transport solig'i hisoblanadi. Yaponiyada soliq to'lash deklaratsiyaga asoslangan va soliq to'lovchilar hamda butun aholi bilan ishlash, soliq ishlarini targ'ibot qilish va soliq to'lovchilarga yordam ko'rsatish yaxshi tashkil etilgan.

Tayanch iboralar va tushunchalar: soliq tizimi, soliqqa tortish tizimi, soliq qonunchiligi, soliq majburiyati, soliq nazorati, soliq javobgarligi, soliq to'lovchilar, soliq undiruvchilar, vakolatli organlar, soliqqa tortish usullari, soliqni undirish usullari, soliqlarning tasnifi va turlari, boshqa majburiy

to'lovlarning turlari, bevosita soliqlar, bilvosta soliqlar, umumdavlat soliqlari, mahalliy soliqlar, teng soliqlar, proporsional soliqlar, progressiv soliqlar, regressiv soliqlar, bojlar, ajratmalar, badallar, soliq xizmati organlari, bojxona organlari, departament, soliq tizimini modernizatsiya qilish, soliq yuki, soliq solish tartiblari, byudjetdan tashqari jamg'armalar, maqsadli jamg'armalar, ijtimoiy jamg'armalar.

Nazorat va muhokama uchun savollar

- 1.O'zbekiston Respublikasining soliq tizimi va uning xususiyatlari.
- 2.Soliq tizimi va uning tarkibi.
- 3.Soliqqa tortish tizimi va uning tarkibi.
- 4.Soliqlarning tasnifi va turlari.
- 5.Boshqa majburiy to'lovlarning turlari.
- 6.O'zbekistonda soliq xizmati organlari va ularning tuzilishi.
- 7.O'zbekistonda soliq xizmati organlarining vazifalari.
- 8.Soliq to'lovchilarning huquqlari va majburiyatlari.
- 9.Soliq nazorati va uning shakllari.
- 10.Soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlik.
- 11.Soliq tizimini takomillashtirish zaruriyati va ahamiyati.
- 12.O'zbekistonda soliq tizimini modernizatsiya qilish yo'llari.
- 13.Amerika Qo'shma Shtatlarining soliq tizimi va uning xususiyatlari.
- 14.Buyuk Britaniya soliq tizimi va uning xususiyatlari.
- 15.Yaponiya soliq tizimi va uning xususiyatlari.

Mustaqil ish uchun topshiriqlar

- 1.Soliq tizimi va soliqqa tortish tizimini qiyosiy tahlil qilish.
- 2.Ishlab chiqarishga bevosita va bilvosita ta'sir etuvchi soliqlarni aniqlash va izohlash.
- 3.O'zbekistonda soliq to'lovchilar va undiruvchilarning o'zaro munosabalarini o'rganish va baholash.
- 4.Soliq xizmati organi tuzilishi va faoliyatini o'rganish .
- 5.Soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlik turlarini aniqlash.
- 6.O'zbekistonda soliq tizimini modernizatsiya qilish zaruriyati va yo'nalishlarini o'rganish va izohlash.
- 7.O'zbekiston va rivojlangan davlatlar soliq tizimlarini qiyosiy tahlil qilish.
- 8.Soliq agentlari va ularning vazifalarini o'rganish.
- 9.Soliq to'lovchining maqomi va vazifalarini o'rganish.

Test topshiriqlari

1. Mamlakat soliq tizimi – bu:

- a) davlat va soliq to'lovchilar o'rtasidagi pul munosabatlari;
- b) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar, ularni undirish mexanizmi, soliq qonunchiligi, majburiyati, nazorati, to'lovchilari va undiruvchilari majmui;
- d) soliq munosabatlarini shakllantirish, amalga oshirish, takomillashtirish g'oyalari va ularga qarashlar, yondashuvlar tizimi;
- e) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni undirish jarayoni;
- f) barcha javoblar to'g'ri.

2. Soliq tizimiga kiradi:

- a) soliqlar va ularning turlari;
- b) soliqlar va ularga tenglashtirilgan majburiy to'lovlar;
- d) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar;
- e) soliqlar va maqsadli jamg'armalarga majburiy to'lovlar;
- f) barchasi.

3. Soliq tizimi elementlariga kiradi:

- a) byudjetdan tashqari jamg'armalarga majburiy to'lovlar;
- b) davlat bojlari va bojxona bojlari;
- d) soliqlarning barcha turlari;
- e) umumdavlat soliqlari;
- f) barchasi.

4. Soliqqa tortish tizimi – bu:

- a) davlat va soliq to'lovchilar o'rtasidagi pul munosabatlari;
- b) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar qonunchiligi, majburiyatlari, to'lovchilari va undiruvchilari majmui;
- d) soliq munosabatlarini shakllantirish, amalga oshirish, takomillashtirish g'oyalari va ularga qarashlar, yondashuvlar tizimi;
- e) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni aniqlash, belgilash, hisoblab chiqarish, undirish, o'tkazish tartib-qoidolari va jarayonlari majmui;
- f) barchasi.

5. Soliqqa tortish tizimiga kiradi:

- a) soliq solish tartiblari;
- b) soliqqa tortish tamoyillari;
- d) soliqqa tortish usullari;
- e) soliqlarni hisoblab chiqarish va undirish mexanizmi;
- f) barchasi.

6. Bevosita soliqlarga kiradi:

- a) foyda, daromad, mol-mulk, tabiiy resurslarga solinadigan soliqlar;
- b) yuridik shaxslarga solinadigan soliqlar;
- d) tovarlar va xizmatlar narxiga qo'shilgan soliqlar;
- e) jismoniy shaxslarga solinadigan soliqlar;
- f) barchasi.

7. Bevosita soliqlarni kim to`laydi?

- a) barcha yuridik shaxslar;
- b) jismoniy shaxslar;
- d) tijorat korxonalari;
- e) xizmat ko`rsatuvchi korxonalar;
- f) barchasi.

8. Bilvosita soliqlar:

- a) tovarlar va xizmatlar narxiga qo`shiladigan soliqlar;
- b) tijorat korxonalari to`laydigan soliqlar;
- d) fuqarolardan naqd pul shaklida olinadigan soliqlar;
- e) notijorat korxonalari to`laydigan soliqlar;
- f) to`g`ri javob yo`q.

9. Bilvosita soliqlar kimning zimmasiga tushadi?

- a) jismoniy shaxslarning;
- b) yuridik shaxslarning;
- d) tijorat korxonalarining;
- e) notijorat korxonalarining;
- f) iste'molchilarning.

10. Bevosita soliq hisoblanadi:

- a) foyda (daromad) solig`i;
- b) qo`shilgan qiymat solig`i;
- d) aksiz solig`i;
- e) bojxona boji;
- f) barchasi.

11. Bilvosita soliq hisoblanadi:

- a) foyda (daromad) solig`i;
- b) qo`shilgan qiymat solig`i, aksiz solig`i;
- d) yagona yer solig`i;
- e) yer qa`ridan foydalanganlik uchun soliq;
- f) to`g`ri javob yo`q.

12. Proporsional soliq:

- a) soliq bazasi o`zgarganda soliq stavkasi o`zgarmay soliq summasi proporsional o`zgaradi;
- b) soliq bazasi o`zgarganda soliq stavkasi ham, summasi ham proporsional o`zgaradi;
- d) soliq bazasi oshganda soliq stavkasi proporsional pasayadi;
- e) soliq bazasi o`zgarmaganda soliq stavkasi o`zgaradi;
- f) soliq bazasi oshganda soliq stavkasi proporsional ko`tariladi.

13. Progressiv soliq:

- a) soliq bazasi o`zgarganda soliq stavkasi va summasi o`zgarmaydi;
- b) soliq bazasi o`zgarganda soliq stavkasi o`zgaradi;
- d) soliq bazasi oshganda soliq stavkasi va summasi proporsional pasayadi;
- e) soliq bazasi oshganda soliq stavkasi ko`tariladi va summasi progressiv

oshadi;

f) soliq bazasi oz'garmaganda soliq stavkasi o'zgaradi.

14. Regressiv soliq:

a) soliq bazasi o'zgarganda soliq stavkasi o'zgarmaydi;

b) soliq bazasi o'zgarganda soliq stavkasi o'zgaradi;

d) soliq bazasi oshganda soliq stavkasi pasayadi;

e) soliq bazasi oshganda soliq stavkasi ko'tariladi;

f) soliq bazasi kamayganda soliq stavkasi pasayadi.

15. Umumdavlat soliqlariga kiradi.

a) yuridik shaxslarning foyda solig'i;

b) jismoniy shaxslarning daromad solig'i;

d) qo'shilgan qiymat solig'i;

e) yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;

f) barchasi.

16. Mahalliy soliqlarga kiradi.

a) mol – mulk solig'i;

b) yer solig'i;

d) yagona yer solig'i;

e) obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i;

f) barchasi.

17. Soliq munosabatlari sub'yekti hisoblanadi:

a) faqat soliq to'lovchilar;

b) soliq to'lovchilar va soliq undiruvchilar;

d) faqat soliq organlari xodimlari;

e) faqat soliq organlari rahbarlari;

f) barchasi.

18. Soliq organlarining vazifasi:

a) korxonalarning moliyaviy hujjatlarini tekshirish;

b) korxonalar faoliyatini tekshirishlarni muvofiqlashtirish;

d) tekshiruvlar natijalarini olish;

e) soliq to'lovchilar bilan uchrashish;

f) barcha javoblar to'g'ri .

19. Soliq organlarining vazifalariga kiradi:

a) soliq qonunchiligiga rioya etilishini ta'minlash;

b) soliq qonunchiligiga rioya etilishi uchun shart-sharoitlar yaratish;

d) soliq siyosatini amalga oshirishda bevosita ishtirok etish;

e) soliqlarga oid huquqbuzarliklarni oldini olish, aniqlash va bartaraf etish;

f) barchasi.

20. Soliq to'lovchining huquqi:

a) xohlagan soliq organida hisobga turish;

b) xohlagan soliq imtiyozidan foydalanish;

d) xohlagan mudatda soliqni to'lash;

e) xohlagan paytda soliq hisobotini topshirish;

f) to'g'ri javob yo'q.

21. Soliq to'lovchining huquqi:

- a) soliqlarni o'z vaqtida va to'liq to'lab borish;
- b) ortiqcha to'langan soliq summasini qaytarib olish;
- d) xohlagan soliq organida hisobga turish;
- e) xohishiga ko'ra soliqlarni bo'lib – bo'lib to'lash;
- f) barcha javoblar to'g'ri.

22. Soliq to'lovchining huquqi:

- a) soliq majburiyatlarini o'zgartirish;
- b) soliq tekshiruvlari bilan bog'liq hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim etish;
- d) soliq organi xodimlarining qonuniy harakatlariga to'sqinlik qilmaslik;
- e) soliq organi xodimlarining noqonuniy harakatlari oqibatida ko'rgan zararni qoplashni talab qilish;
- f) barcha javoblar to'g'ri.

23. Soliq to'lovchining majburiyati:

- a) ortiqcha to'langan soliq summasini qaytarib olish;
- b) soliq majburiyatini o'zgartirish;
- d) soliqlarni o'z vaqtida va to'liq to'lab borish;
- e) soliq organi xodimlarining noqonuniy harakatlari ustidan shikoyat qilish;
- f) barcha javoblar to'g'ri.

24. Soliq to'lovchining majburiyati:

- a) o'zi xohlagan soliq organida hisobga turish;
- b) o'zi yashab turgan joydagi soliq organida hisobga turish;
- d) o'zi tanlagan soliq imtiyozidan foydalanish;
- e) soliq organlariga ular talab qilgan har qanday axborotni berish;
- f) to'g'ri javob yo'q.

25. Soliq to'lovchining majburiyati:

- a) soliq hisoboti tuzish va taqdim etish;
- b) soliq organlaridan kerakli ma'lumotlarni olish;
- d) soliq organi xodimlarining noqonuniy harakatlari ustidan shikoyat qilish;
- e) soliq tekshiruvlari natijalari bilan tanishish;
- f) soliqlarning hammasini birdaniga to'lash.

26. Bojxona organlari qachon va qaysi soliqlarni undiradilar?

- a) import qilinayotgan tovarlardan qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'i;
- b) eksport qilinayotgan tovarlardan qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'i;
- d) import va eksport qilinayotgan tovarlardan qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'i;
- e) import va eksport qilinayotgan tovarlardan barcha soliqlar;
- f) to'g'ri javob yo'q.

27. Soliq nazorati shakllariga kiradi:

- a) soliq to'lovchilarni hisobga olish;
- b) soliq solish ob'yektlarini hisobga olish;
- d) soliq tushumlarini hisobga olish;

e) soliq tekshiruvlari o`tkazish;

f) barcha javoblar to`g`ri.

28.Soliq siyosatini erkinlashtirish nima?

a) soliq to`lashni to`lovchilar xohish-irodasiga qo`yish;

b) soliq solishda imtiyozlarni ko`paytirish;

d) soliq to`lovchilar bilan munosabatlarni yaxshilash;

e) soliqqa tortishda to`lovchilar talablari va imkoniyatlari ishtirokini kengaytirish;

f) barcha javoblar to`g`ri.

29.Soliq yuki nima?

a) soliqlarning to`lovchilar mol-mulki, boyligi, daromadlaridagi ulushi;

b) soliq to`lovchilarning umumiy majburiyatlari;

d) korxonalarning davlatdan qarzдорligi;

e) yuridik va jismoniy shaxslarning davlat oldidagi majburiyatlari;

f) soliq to`lovchilarning soliq organlari oldidagi majburiyatlari.

30.Soliqlarni unifikatsiya qilish-bu:

a) soliqlar sonini kamaytirish;

b) soliq stavkasini pasaytirish;

d) soliqlar, ularning stavkalari, hisoblash va to`lash tartib-qoidalarini bir xillashtirish;

e) soliqlarni boshqa davlatlar soliqlariga moslashtirish;

f) soliqlarni jahon talablariga moslashtirish.

31.Mamlakatlar soliq tizimlari bir-biridan nima bilan farq qiladi?

a) soliqlar va majburiy to`lovlarning turlari va nomlanishi;

b) soliqlar va majburiy to`lovlarni hisoblash bazasi va mexanizmi;

d) soliqlar va majburiy to`lovlarning stavkalari;

e) soliqlar va majburiy to`lovlarni undurish tartibi;


f) barcha javoblar to`g`ri.

3. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i

3.1. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, uning to'lovchilari va ob'yektlari

Foyda solig'i davlat byudjeti bilan yuridik shaxslar o'rtasidagi foyda (daromad) ni taqsimlash va qayta taqsimlashdagi pul munosabatlarini ifodalaydi. Bunday munosabatlarni tashkil etishni davlat o'z qo'liga olgan. Yuridik shaxslarning foyda solig'i davlat byudjeti daromad qismining 8 foizini tashkil qiladi. Albatta bu hamma yuridik shaxslarning daromad (foyda) solig'i emas, balki aynan shunday soliqni to'lovchi yuridik shaxslar soliqlaridir. Bundan tashqari o'z daromadi (foydas) dan boshqa ko'rinishdagi soliqlar to'laydigan yuridik shaxslar ham mavjud (yagona soliq to'lovi, qat'iy belgilangan soliq va boshqalar).

Foyda solig'ining tavsifiy belgilari 3.1-chizmada aks ettirilgan.



3.1–chizma. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining tavsifiy belgilari.

Yuridik shaxslarning foyda solig'i to'lovchisi bo'lib quyidagilar hisoblanadilar:


- 1) O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan yuridik shaxslar;
- 2) O'zbekistonda faoliyatini doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan yoki manbai O'zbekistonda joylashgan daromadlarni oladigan O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lmagan yuridik shaxslar.

Quyidagi yuridik shaxslar foyda solig'i to'lovchisi hisoblanmaydilar:

- 1) notijorat tashkilotlari (tadbirkorlik faoliyati bilan ham shug'ullanganda, olingan foydadan soliq to'lovchi bo'ladilar);
- 2) soliq solishning soddalashtirilgan tartibini qo'llaydigan yuridik shaxslar (mikrofirma va kichik korxonalar, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari, lotereyalar tashkil etuvchi va qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslar).

Yuridik shaxslarning foyda solig'i solinadigan ob'yekti foyda solig'i to'laydigan yuridik shaxslarning jami daromadlari, soliq solinadigan bazasi esa jami daromadlari bilan chegirib tashlanadigan xarajatlari o'rtasidagi farq hisoblanadi.


Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining to'lovchilari, ob'yektlari va bazasi umumlashtirilgan holda 3.2-chizmada keltirilgan.



3.2–chizma. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i to'lovchilari, ob'yektlari va bazasi.

3.2.Yuridik shaxslarning jami daromadlari va xarajatlari, ularni aniqlash

Yuridik shaxslarning jami daromadlari va xarajatlarining guruhiiy tarkibi 3.3-chizmada keltirilgan.



3.3–chizma. Yuridik shaxslarning jami daromadlari va xarajatlari guruhiiy tarkibi.

Yuridik shaxslarning jami daromadlariga quyidagilar kiradi:

- tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotishdan olinadigan daromadlar;
- boshqa daromadlar.

Tovarlar (ishlar, xizmatlar), shu jumladan, yordamchi xo`jaliklar mahsulotlarini sotishdan olingan sof tushum tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni sotishdan olinadigan daromaddir. Vositachilik faoliyatidan daromadlar oladigan yuridik shaxslar uchun tushum deyilganda ko`rsatilgan xizmatlar uchun olinishi lozim bo`lgan haq summasi tushiniladi.

Uzoq muddatli kontraktlarni bajarishdan olinadigan daromadlar ularning

haqiqatda bosqichma-bosqich bajarilishiga taalluqli qismida hisobot davri mobaynida hisobga olinadi. Bunday kontraktning hisobot davri oxirida haqiqatda bajarilganligi kontrakti bajarishga kirishilganidan e'tiboran qilingan xarajatlarning umumiy summasidan solishtirma salmog'ini hisob-kitob qilish asosida belgilanadi.

Qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy ishlar (xizmatlar) bo'yicha, shuningdek, ob'yektlarni foydalanishga tayyor qilib qurish chog'ida shartnomaviy baholardan kelib chiqib haq to'lash uchun hisob-kitob hujjatlari taqdim etilgan, buyurtmachilar tomonidan tasdiqlangan ishlarining (xizmatlarning) qo'shilgan qiymat solig'i kiritilmagan qiymati daromadga qo'shiladi.

Tovarlar (ishlar, xizmatlar) tannarxidan yoki olingan bahosidan past baholarda sotilganda, shuningdek, bepul topshirilganda tushum tovarlar (ishlar, xizmatlar) ning tannarxi yoki olingan bahosi asosida (tovarni olish bilan bog'liq xarajatlarni hisobga olgan holda) aniqlanadi.

Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni sotishdan olingan daromadga quyidagi hollarda tuzatish kiritiladi:

- 1) tovarlar to'liq yoki qisman qaytarilganda;
- 2) bitim shartlari o'zgarganda;
- 3) narxlar o'zgarganda, sotib oluvchi siylov (chegirma)dan foydalanganda;
- 4) bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlardan voz kechilganda.

Bunday tuzatish kiritish bir yil ichida, kafolat muddati belgilangan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha esa kafolat muddati doirasida tasdiqlovchi hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

Yuridik shaxslarning boshqa daromadlariga quyidagilar kiradi:

- soliq to'lovchining asosiy vositalari va boshqa mol-mulki (to'liq amortizatsiya qilinganlaridan tashqari) chiqib ketishidan olinadigan daromadlar;
- mol-mulkni operativ ijaraga berishdan olinadigan daromadlar;
- asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni moliyaviy ijaraga (lizingga) berishdan olinadigan daromadlar;
- tekin olingan mol-mulk, ishlar va xizmatlar, mulkiy huquqlar;
- inventarizatsiya natijasida aniqlangan ortiqcha tovar - moddiy zahiralar;
- hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillardagi daromadlar;
- majburiyatlarni hisobdan chiqarishdan olinadigan daromadlar;
- talablardan o'zganing foydasiga voz kechish shartnomasi bo'yicha olingan daromadlar;
- jami daromaddan ilgari chegirib tashlangan xarajatlar yoki zararlarning o'rnini qoplash tarzida olingan daromadlar;
- xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklardan olingan daromadlar;
- birgalikdagi faoliyatda ishtirok etishdan olinadigan daromadlar;
- undirib olingan jarimalar va penya;
- valyuta hisobvaraqlari bo'yicha kursdagi musbat farq;
- dividendlar va foizlar;

-royalti (mualliflik huquqi, nou–xau, kompyuter dasturiy mahsulotlari, patent, chizmalar, nusxalar, tovar markasi, savdo belgisi, sanoat namunalari, ilmiy-tadqiqot uskunolari va boshqa intellektual mulk ob'yektlaridan foydalanganlik uchun to'lanadigan kompensatsiya to'lovlari);

-tovarlar (ishlar, xizmatlar) ni ishlab chiqarish va sotish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan operatsiyalardan olinadigan boshqa daromadlar.

Quyidagi daromadlar soliq to'lovchining daromadi hisoblanmaydi:

-ustav jamg'armasiga (ustav kapitaliga) olingan hissalar, birgalikda faoliyatni amalga oshirish uchun oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha birlashtiriladigan mablag'lar;

-muassislar (ishtirokchilar) tarkibidan chiqilayotganda (chiqarilayotganda), shuningdek, tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulki uning muassislari (ishtirokchilari) o'rtasida taqsimlanayotganda ustav jamg'armasi (kapitali) dagi hissasi doirasida olingan mablag'lar (mol-mulk yoki huquqlar);

-oddiy shirkat shartnomasi sherigining (ishtirokchisining) umumiy mulkdagi ulushi qaytarib berilgan yoki bunday mol-mulk bo'lingan taqdirda, hissasi miqdorida olingan mablag'lar (mol- mulk yoki mulkiy huquqlar);

-sotilayotgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun boshqa shaxslardan bo'nak (avans) tarzida olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);

-qonun hujjatlariga muvofiq majburiyatlarni ta'minlash tariqasida garov tarzida olingan mablag'lar (mol – mulk yoki mulkiy huquqlar);

-byudjetdan berilgan subsidiyalar ;

-mablag'larni (mol-mulk yoki mulkiy huquqlarni) boshqa shaxsga o'tkazish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Vazirlar Mahkamasining qarori asosida yuz berayotgan bo'lsa, tekin olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar), ishlar va xizmatlar;

-olingan grantlar;

-yuridik shaxsning aksiyadorning qo'shimcha aksiyalari qiymati yoki ustav jamg'armasini (ustav kapitalini) ko'paytirish uchun o'tgan yillardagi taqsimlanmagan daromadlari;

-notijorat tashkilotlari tomonidan ustav faoliyatining ta'minoti va uni amalga oshirish uchun belgilangan maqsadga ko'ra olingan va (yoki) tekin kelib tushgan mablag'lar;

-sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta to'lovi (sug'urta summasi) tariqasida olingan mablag'lar;

-vositachiga yoki boshqa ishonchli vakilga vositachilik, topshiriq shartnomasi yoki vositachilik xizmatlarini ko'rsatish yuzasidan boshqa shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish munosabati bilan, boshqa ishonchli vakil tomonidan qilingan chiqimlarni qoplash hisobiga kelib tushgan mol-mulk (pul mukofotlari bundan mustasno);

-ijaraga beruvchi (lizing beruvchi) ijara (lizing) to'lovining qismi tariqasida olgan ob'jekt qiymatining qoplamasi;

-telekommunikatsiyalar tarmoqlarida tezkor qidiruv tadbirlari tizimining

tekin olingan vositalari;

-ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik sub'yekti muassislaridan (ishtirokchilaridan) ularning majburiyatlarini bajarish uchun olingan mablag'lar;

-investor va davlat mulkini boshqarish organi o'rtasida tuzilgan shartnomaga binoan investitsiya majburiyatlari sifatida kiritilayotgan mol-mulk.

O'zbekiston Respublikasidagi to'lov manbaida soliqqa tortiladigan dividendlar va foizlar jami daromadidan chegirib tashlanadi.

Soliq to'lovchining xarajatlari chegirib tashlanadigan va chegirib tashlanmaydigan xarajatlarga bo'linadi. Chegirib tashlanadigan xarajatlar quyidagilar:

- 1) moddiy xarajatlar;
- 2) mehnatga haq to'lash xarajatlari;
- 3) amortizatsiya xarajatlari;
- 4) hisobot davrining soliq solinadigan foydasidan kelgusida chegiriladigan xarajatlar;

- 5) boshqa xarajatlar.

Moddiy xarajatlarga quyidagilar kiradi:

-xom ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va yarim tayyor mahsulotlar;
-ishlab chiqarilgan va (yoki) sotilgan tovarlarni o'rash va boshqacha tayyorlash uchun, shu jumladan, sotuv oldidan tayyorlash uchun, boshqa ishlab chiqarish va xo'jalik ehtiyojlari uchun materiallar, uskunalar hamda boshqa mol-mulkni ta'mirlash va ehtiyot qismlar;

-inventar, xo'jalik anjomlari, amortizatsiya qilinmaydigan boshqa mol-mulk;
-soliq to'lovchining texnologik, transport, boshqa ishlab chiqarish va xo'jalik ehtiyojlari uchun sarflanadigan barcha turdagi yoqilg'i-energiya, shu jumladan, soliq to'lovchining o'zi tomonidan energiyani hosil qilish, binolarni isitish, shuningdek, energiyani bir shakldan boshqa shaklga o'tkazish va uzatish xarajatlari;

-yerlarni rekultivatsiya qilish va tabiatni muhofaza qilishning boshqa tadbirlariga xarajatlar;

-tasdiqlangan me'yorlar doirasida suv xo'jaligi tizimlaridan soliq to'lovchilar tomonidan iste'mol qilinadigan suv uchun to'lov;

-qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vakolatli organ yoki soliq to'lovchi tomonidan tasdiqlangan me'yorlar doirasida ishlab chiqarish va (yoki) tashish chog'idagi texnologik yo'qotishlar;

-tasdiqlagan tabiiy kamayish me'yorlari doirasida tovar-moddiy zahiralarni saqlash hamda tashish chog'idagi yo'qotishlar va buzilishlar.

Mehnatga haq to'lash xarajatlariga quyidagilar kiradi:

-haqiqatda bajarilgan ish uchun hisoblangan ish haqi;
-ilmiy daraja va faxriy unvon uchun tarif stavkalari va maoshlarga ustamalar;
-fuqarolik-huquqiy shartnomalar bo'yicha bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlar;

-boshqaruv organi a'zolariga amalga oshirilgan to'lovlar;

- rag'batlantirish xususiyatiga ega bo'lgan to'lovlar;
- kompensatsiya to'lovlari (kompensatsiya);
- ishlanmagan vaqt uchun haq to'lash;
- nogironlarga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan qo'shimcha to'lovlar.

Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq soliq to'lovchi tomonidan hisobga olinadigan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiya qilinadigan mol-mulk deb e'tirof etiladi. Quydagilar amortizatsiya qilinmaydi:

- yer uchastkalari va tabiatdan foydalanishga doir boshqa ob'ektlar (suv, yer osti boyliklari va boshqa tabiiy resurslar);

- mahsulдор chorva mollari;
- kutubxona fondi;
- muzey qimmatliklari;
- konservatsiyalashga o'tkazilgan asosiy vositalar;
- arxitektura yodgorliklari;

- umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari, yo'laklar, sayilgohlar, xiyobonlar, mahalliy davlat hokimiyati organlari tasarrufida bo'lgan obodonlashtirish inshootlari;

- qiymati ilgari to'liq chegirilgan mol-mulk;

- asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar tarkibiga o'tkazilmagan kapital qo'yilmalar.

Hisobot davrining soliq solinadigan foydasidan kelgusida chegiriladigan xarajatlar ular yuzaga kelgan paytda, ya'ni joriy hisobot davrida emas, balki keyingi o'n yildan ko'p bo'lmagan muddat ichida qisman-qisman chegiriladi. Bunday xarajatlarga quyimagilar kiradi:

- yangi ishlab chiqarishlar, ssexlar, agregatlarni, shuningdek, seriyali va ommaviy ishlab chiqariladigan yangi mahsulot turlarini hamda texnologik jarayonlarni o'zlashtirish xarajatlari;

- barcha turdagi asbob-uskunalar va texnik qurilmalarni o'rnatish va ishlab turgan holatida sinab ko'rish xarajatlari;

- ishchi kuchlari qabul qilish va yangi ishga tushirilgan korxonada ishlash uchun kadrlar tayyorlash bilan bog'liq xarajatlar;

- asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning jadallashtirilgan amortizatsiya summasi bilan belgilangan me'yorlar bo'yicha hisoblangan amortizatsiya summasi o'rtasidagi farq.

Yuridik shaxslarning boshqa xarajatlariga quyidagilar kiradi:

- soliq to'lovchining faoliyatini amalga oshirish uchun chetdan jalb etilgan yuridik yoki jismoniy shaxslar bajargan ishlar va xizmatlar qiymati;

- asosiy vositalar va boshqa mol-mulkni ish holatida saqlash xarajatlari (texnik ko'rik va qarov, o'rtacha, joriy hamda butkul ta'mirlash xarajatlari);

- ijara to'lovlari, shuningdek, ijaraga olingan asosiy vositalarni saqlab turish bilan bog'liq xarajatlar;

- mahsulotni sertifikatlash, litsenziyalashga va boshqa ruxsat beruvchi

hujjatlarga haq to'lash xarajatlari;

- mahsulotni sotish bozorlarini o'rganish va reklama xarajatlari;

- inventar, xo'jalik anjomlari va maxsus ish kiyimlarini yuvish, tuzatish hamda dezinfektsiya qilish xarajatlari;

- tushumni inkassatsiya qilish xarajatlari;

- kafolatli ta'mirlash va xizmat ko'rsatish xarajatlari;

- telekommunikatsiyalar va pochta xizmatlari uchun to'lanadigan haq;

- vakillik xarajati va xizmat safarlari uchun xarajatlar;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan amalga oshiriladigan kompensatsiya to'lovlari;

- auditorlik tekshiruvi, maslahat-axborot, bank va depozitariy, buxgalteriya hisobini yuritish va qayta tiklash bo'yicha xarajatlar;

- soliq to'lovchining faoliyatida zarur bo'lgan kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash xarajatlari;

- soliq to'lovchining xarajatlariga kiritiladigan byudjet va byudjetdan tashqari jamg'armalarga to'lanadigan soliqlar, boshqa majburiy to'lovlar;

- mehnat sharoitlarini muhofaza qilish va ta'minlash, texnika xavfsizligi, yong'inga qarshi va soqchilik muhofazasini ta'minlash xarajatlari;

- intellektual faoliyat natijalariga bo'lgan huquqlar va xususiy alomatlarni aks ettiruvchi vositalardan foydalanganlik uchun to'lovlar;

- buxgalteriya hisoboti va boshqa axborotni e'lon qilish va boshqacha tarzda oshkor qilish xarajatlari;

- xodimning mehnatda jarohatlanishi yoki uning sog'lig'iga boshqacha tarzda shikast yetkazilishi yohud xodim oila a'zosining yoki o'zining vafoti munosabati bilan beriladigan moddiy yordam;

- bolasi ikki yoshga to'lguniga qadar parvarishlash bo'yicha har oylik nafaqalar;

- qonun hujjatlariga muvofiq qayta tashkil etish, xodimlar (shtatlar) sonining qisqarishi munosabati bilan bo'shatiladigan xodimlarga to'lovlar;

- tibbiy yordam punktini saqlab turish, xodimlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazganlik va profilaktika tadbirlari xarajatlari;

- sog'liqni saqlash ob'yektlari, sog'lomlashtirish lagerlari, madaniyat, sport ob'yektlari, xalq ta'limi, uy-joy fondi ob'yektlari, qariyalar va nogironlar uylari ta'minotiga doir xarajatlar;

- ixtiyoriy va majburiy sug'urta xarajatlari;

- atrof muhitni ifloslantirganlik va chiqindilarni joylashtirganlik uchun kompensatsiya to'lovlari;

- zararlar va yo'qotishlar.

Yuridik shaxslarning chegirilmaydigan xarajatlari foyda solig'i bazasi tarkibiga kiritiladi va foyda solig'i summasini oshiradi. Ularga quyidagilar kiradi:

- moddiy qimmatliklarning tabiiy kamayishi me'yorlaridan ortiqcha yo'qotishlar va buzilishlar;

- xodimlarga beriladigan yoki korxonaning umumiy ovqatlanish ehtiyojlari

uchun ishlatiladigan yordamchi xo`jaliklari mahsulotlarining narxlaridagi farqlar (zararlar);

- xizmat safarlari, vakillik xarajatlari, ixtiyoriy sug`utaga belgilangan me`yorlardan ortiqcha xarajatlar;

- nodavlat pensiya jamg`armalariga ajratmalar;

- xo`jalik boshqaruvi organini saqlab turish uchun ajratmalar;

- umumiy ovqatlanish korxonalari yoki boshqa chet tashkilotlarga joylarni tekin berish va ular uchun kommunal xizmatlari haqini to`lash xarajatlari;

- soliq to`lovchining faoliyatida talab etilmaydigan kadrlar tayyorlash xarajatlari;

- xodimlarga bepul ko`rsatiladigan kommunal xizmatlar, beriladigan uy-joylar, mahsulotlar va boshqa qimmatliklar qiymati;

- xodimlarga qo`shimcha ravishda berilgan ta`tillarga to`langan haq va me`yorlardan ortiqcha kompensatsiyalar;

- xodimlarning ovqatlanishi, yo`l haqi, davolanishi va dam olishi uchun yo`llanmalar, ekskursiyalar va sayohatlar uchun, sport seksiyalari, to`garaklar, madaniy-tomosha, jismoniy tarbiya va sport tadbirlariga borishi, obunasi uchun qilingan xarajatlarning o`rnini qoplash;

- pensiyalarga ustamalar, pensiyaga chiqayotgan mehnat faxriylariga bir yo`la to`lanadigan nafaqalar;

- xodimlarga to`lanadigan moddiy yordam;

- ishlab chiqarishda shikastlanganlik tufayli mehnat layoqatini yo`qotganlik munosabati bilan haqiqiy ish haqigacha to`lanadigan to`lovlar;

- ekologiya, sog`lomlashtirish va boshqa xayriya jamg`armalariga, madaniyat, xalq ta`limi, sog`liqni saqlash, ijtimoiy ta`minot, jismoniy tarbiya va sport muassasalariga, mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish organlariga badallar kiritish;

- ishlab chiqarish jarayoni bilan bog`liq bo`lmagan sog`liqni saqlash va dam olishni tashkil qilish bo`yicha tadbirlar uchun xarajatlar;

- mahsulot ishlab chiqarish bilan bog`liq bo`lmagan ishlarni (shaharlar va shaharchalarni obodonlashtirish ishlari, qishloq xo`jaligiga yordam ko`rsatish va boshqalarni bajarishga sarflangan xarajatlar;

- kreditlar uchun nazarda tutilgan stavkalardan ortiqcha to`lov;

- bayram va muhim sanalar, jamoat faoliyatidagi yutuqlar munosabati bilan xodimlarni rag`batlantirish hisoblanadigan bir martalik mukofotlar;

- sud chiqimlari;

- aybdorlari aniqlanmagan o`g`irliklar va kamomaddan yoki aybdor tomon hisobidan o`rnini qoplash mumkin bo`lmaganda ko`rilgan zararlar;

- to`langan yoki tan olingan jarimalar, penya va boshqa turdagi sanksiyalar;

- boshqa xarajatlar.

3.3.Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha imtiyozlar

Yuridik shaxslarning foyda solig'i bo'yicha imtiyozlar to'rt guruhga bo'linadi:

1. Ayrim yuridik shaxslarni foyda solig'idan ozod qilish;
2. Yuridik shaxslar foydasining ayrim turlarini soliqdan ozod qilish;
3. Yuridik shaxslarning soliq solinadigan foydasini (bazasini) kamaytirish;
4. Soliq stavkasini pasaytirish.

Foyda solig'ini to'lashdan quyidagi yuridik shaxslar ozod qilinadi:

-nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroni» jamg'armasi va «O'zbekiston chernobilchilari» assotsiatsiyasi mulkida bo'lgan hamda ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941-1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil etadigan yuridik shaxslar (savdo, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlov korxonalaridan tashqari);

-davolash muassasalari huzuridagi davolash-ishlab chiqarish ustaxonalari;

-jazoni ijro etish muassasalari;

-ichki ishlar organlari huzuridagi qo'riqlash bo'linmalari.

Yuridik shaxslarning quyidagi foydalari soliqdan ozod qilinadi:

-protez-ortopediya buyumlari, nogironlar uchun inventarlarni ishlab chiqarish va ta'mirlash hamda nogironlarga ortopedik-protezlash xizmati ko'rsatishdan olingan foyda;

-shahar yo'lovchilar transportida (barcha turdagi taksilardan tashqari) yo'lovchilar tashish bo'yicha olingan foyda;

-tarix va madaniyat yodgorliklarini ta'mirlash va qayta tiklashdan olingan foyda;

-investitsiya fondlari tomonidan xususiylashtirilgan korxonalar aksiyalarini sotib olishga yo'naltiriladigan foyda;

-Xalq banki tomonidan fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisob varaqlaridagi mablag'lardan foydalanishdan olingan foyda.

Yuridik shaxslarning soliq solinadigan foydasi quyidagi summalarga kamaytiriladi:

-ekologiya, sog'lomlashtirish va xayriya jamg'armalari, madaniyat, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish, jismoniy tarbiya va sport muassasalariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga beriladigan badallar summasiga, biroq soliq solinadigan foydaning bir foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda;

-O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida kollejlar, akademik litseylar, maktablar va maktabgacha tarbiya-ta'lim muassasalari qurilishiga yo'naltirilgan mablag'lar summasiga, lekin soliq solinadigan foydaning 30 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda;

-ishlab chiqarishni modernizatsiyalashga, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash, yangi texnologik jihozlar xarid qilish va shu maqsadlar uchun

olingan kreditlarni uzishga, lizing ob'yekti qiymatining o'rnini qoplashga yo'naltiriladigan mablag'lar summasiga (tegishli soliq davrida hisoblangan amortizatsiyani chegirgan holda);

-yosh oilalar toifasiga kiruvchi xodimlarga ipoteka kreditlari badallari to'lashga va (yoki) mulk sifatida uy-joy olishga tekin yo'naltiriladigan mablag'lar summasiga, biroq soliq solinadigan foydaning 10 foizidan oshmagan miqdorda;

-diniy va jamoat birlashmalari (kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar va harakatlardan tashqari), xayriya jamg'armalari mulkida bo'lgan korxonalar foydasidan ularning ustavida belgilangan faoliyat uchun yo'naltiriladigan ajratmalari summasiga;

-qo'shimcha foyda solig'i to'lovchilar uchun sof qo'shimcha foyda summasiga;

-ishlovchilari umumiy sonining 3 foizidan ko'prog'ini nogironlar tashkil etgan yuridik shaxslar uchun undan ortiq ishga joylashtirilgan nogironlarning yar bir foiziga foyda solig'ining summasi bir foizga kamaytiriladi.

Yuridik shaxslarning foyda solig'i stavkasi quydagi hollarda pasaytiriladi:

1) o'zi ishlab chiqargan mahsulotni eksport qilganda eksport ulushi sotishning umumiy hajmida:

a) 15 foizdan 30 foizgacha bo'lganda solig' stavkasi 30 foizga pasaytiriladi;

b) 30 foiz va undan yuqori bo'lganda 50 foizga pasaytiriladi;

2) tovarlar, ishlar, xizmatlarning plastik kartochkalar bilan to'langan qismi (hajmi) uchun soliq stavkasi 10 foizga pasaytiriladi.

3.4.Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini hisoblab chiqarish soliq solinadigan baza va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

3.1-jadval

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkalari

T/r	To'lovchilar	Soliq stavkasi, soliq solinadigan foydaga nisbatan, foizda
1.	Barcha yuridik shaxslar (quyidagilardan tashqari)	9
2.	Tijorat banklari	15
3.	Auksionlar o'tkazish, gastrol-konsert faoliyati bilan shug'ullanishga litsenziyasi bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarni, shuningdek, norezidentlarni jalb etish yo'li bilan ommaviy tomosha tadbirlarini tashkil etishdan daromad oluvchi yuridik shaxslar	35

4.	O'zi ishlab chiqargan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ni eksport qiluvchi korxonalar uchun sotishning umumiy hajmida eksport ulushi:	
	a)15 foizdan 30 foizgacha bo'lganda	stavka 30 foizga pasaytiriladi
	b)30 foiz va undan yuqori bo'lganda	stavka 50 foizga pasaytiriladi
5.	Tovarlar, ishlar, xizmatlarning plastik kartochkalar yordamida to'langan hajmi bo'yicha	stavka 10 foizga pasaytiriladi

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini hisoblash tartibi quyidagicha.

1.Mahsulot sotishdan olingan daromad (sof tushum) ni hisoblash:

$$Msd = St = Yat - Bsb,$$

buyorda: Msd - mahsulot sotishdan olingan daromad;

St - sof tushum;

Yat - yalpi tushum;

Bsb - bilvosita soliqlar va bojxona to'lovlari.

2.Jami daromad (Jd) ni aniqlash:

$$Jd = Msd + Bd ,$$

buyorda: Bd - boshqa daromadlar.

3.Soliq solinadigan baza (Ssb)ni aniqlash:

$$Ssb = Jd - Chx - Cho'dx,$$

buyorda: Chx - chegiriladigan xarajatlar;

$Cho'dx$ -hisobot davrining soliq solinadigan bazasidan chegiriladigan o'tgan davrlar xarajatlari.

4.Soliq solinadigan foyda (Ssf) ni aniqlash:

$$Ssf = Ssb - Si,$$

buyorda: Si – soliq imtiyozlari.

5.Foyda solig'i summasi (Fss) ni aniqlash:

$$Fss = (Ssf \cdot Ss) : 100,$$

buyorda: Ss – soliq stavkasi.

Misol. Ishlab chiqarish korxonasining mahsulot sotish hajmi bir oyda 75,0 mln. so'mni (qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'i chegerilgan holda) tashkil etgan. Shundan 18,0 mln. so'mlik mahsulot eksport qilingan. Shu davrda korxonaning boshqa daromadlari 12,0 mln. so'mni, jami xarajatlari 82,0 mln. so'mni va chegirilmaydigan xarajatlari 9,1 mln. so'mni tashkil etgan. Foyda solig'i solinadigan baza 24,1 mln. so'm ($75,0+12,0-82,0+9,1$) bo'ladi. Foyda solig'ining belgilangan stavkasi 9 foiz, eksport ulushi 30 foizgacha bo'lganda u 30 foizga pasaytiriladi. Mazkur korxonada eksport ulushi 24 foiz bo'lgani uchun foyda solig'ining tuzatilgan (pasaytirilgan) stavkasi $9-(9 \times 30):100=6,3$ foizni, summasi esa $(24,1 \times 6,3):100=1518,3$ ming so'mni tashkil etadi.

Soliq hisob-kitobi (shakli quyida keltirilgan) soliq organlariga ortib boruvchi

yakun bilan yilning har choragida hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa, yillik moliyaviy hisobot taqdim qilinadigan muddatda taqdim etiladi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobi

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Summa
Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i to'langunga qadar foyda (zarar) (Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot 2-son shaklining 240-satri)	010	
Soliq to'lovchi tomonidan boshqa shaxslardan tekinga olingan mol-mulk	020	
Chegirilmaydigan xarajatlar (soliq solinadigan bazaga kiritiladigan xarajatlar) (Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobiga 1-ilovaning 010-satri)	030	
Hisobot davrida soliq solinadigan bazadan chiqarib tashlanmaydigan, biroq kelgusi hisobot (soliq) davrlarining soliq solinadigan bazasidan chiqariladigan xarajatlar (Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobiga 2-ilovaning 010-satri)	040	
Hisobot davri uchun soliq solinadigan bazadan chiqarib tashlanadigan, ilgari qilingan xarajatlar (Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobiga 3-ilovaning 010-satri)	050	
Hisobot (soliq) davrlarining soliq solinadigan bazasiga kiritiladigan xarajatlar (030-satr+040-satr-050-satr)	060	
Olingan (olinishi lozim bo'lgan) dividendlar	070	
Olingan (olinishi lozim bo'lgan) foizlar	080	
Soliq solinadigan foyda (010-satr+020-satr+060-satr-070-satr-080-satr)	090	
Imtiyozlar-jami (1001-satr+1002-satr)	100	
shu jumladan:		
soliq solishdan ozod qilinadigan foyda (Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobiga 4-ilovaning 060-satrining 3-ustuni)	1001	
soliq solinadigan foydani kamaytirish (Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobiga 5-ilovaning 010-satri)	1002	
Soliq solinadigan baza – jami (090-satr-100-satr)	110	
shu jumladan hisoblangan:		
plastik kartochkalar qo'llanilib to'langan ko'rsatilgan xizmatlar hajmidan olingan foydadan (Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobiga 9- ilovaning 030-satri x 110-satr)	1101	
1101-satrdan keltirilgan summa chegirilgan holda foydadan (110-satr-1101-satr)	1102	
Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining belgilangan stavkasi	120	
Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining tuzatilgan stavkasi	130	
Eksport qiluvchi korxonalar uchun, eksport ulushiga qarab, % da (Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobiga 10-ilovaning 060-satri)	1301	
Xizmat ko'rsatish korxonalari uchun plastik kartochkalar qo'llanilib to'langan ko'rsatilgan xizmatlar hajmidan olingan foydadan, % da [1301-satr-(1301-satr x 10%)]	1302	

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasi – jami (150-satr+160-satr)	140	
shu jumladan hisoblangan:		
1101 satrda ko'rsatilgan foydadan (1101-satr x 1302-satr)	150	
1102 satrda ko'rsatilgan foydadan (1102-satr x 1301-satr)	160	
Nogironlar mehnatidan foydalanayotgan korxonalar uchun foyda solig'ining tuzatish kiritilgan summasi (Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobiga 11-ilovaning 070-satri)	170	
Budjetga to'lanadigan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasi	180	
Olingan hisobot davri uchun yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasi	190	

Yuridik shaxslarning foyda solig'i bo'yicha soliq davri kalendar yili, hisobot davri esa yil choragi hisoblanadi. Soliq solinadigan foyda eng kam ish haqining ikki yuz baravari miqdoridan ortiq bo'lganda har oyning 15-kuniga qadar hisoblab chiqarilgan yil choragi bo'yicha foyda solig'i summasining uchdan bir qismi miqdorida joriy to'lovlar to'lanadi. Soliqni to'lash hisob-kitoblarni topshirish muddatlaridan kechiktirmay amalga oshiriladi. To'lov manbaida olinadigan foyda solig'i to'lanadigan daromaddan chegirmalarsiz belgilangan stavkalar bo'yicha hisoblab chiqariladi va bu soliq dividendlar va foizlarni (daromadlarni) to'lash paytida ushlab qolinadi.

O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan O'zbekistondan tashqarida olingan daromad qilingan xarajatlar hamda to'langan foyda solig'i chegirib tashlanguniga qadar to'liq miqdorda soliq to'lovchining jami daromadiga qo'shiladi. Soliq solinadigan bazani aniqlashda O'zbekiston Respublikasidan tashqarida foyda olish munosabati bilan qilingan hamda hujjatlar bilan tasdiqlangan xarajatlar belgilangan tartibda va miqdorlarda chegiriladi. O'zbekistondan tashqarida to'langan foyda solig'i O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq O'zbekistonda foyda solig'ini to'lash paytida hisobga olinad. O'zbekistondan tashqarida to'langan foyda solig'ini hisobga olish uchun chet davlat vakolatli organining to'lov xabarnomasi, ma'lumotnomasi yoki boshqa hujjat asos bo'ladi.

3.5.Ayrim yuridik shaxslarning daromadlariga soliq solish xususiyatlari

Kredit tashkilotlarining daromadlariga soliq solish. Kredit tashkilotining daromadlariga 3.2-paragrafda ko'rsatib o'tilgan daromadlardan tashqari quyidagilar ham kiradi:

- 1) kredit tashkilotining o'z nomidan va o'z hisobidan pul mablag'larini joylashtirishdan, kreditlar hamda zayomlar berishdan oladigan foizlari;
- 2) mijozlarning, shu jumladan, vakil banklarning hisobvaraqlarini ochganlik

va yuritganlik hamda ularning topshirig`iga binoan hisob-kitoblarni amalga oshirganlik uchun olingan haq;

3) pul mablag`lari, to`lov va hisob-kitob hujjatlarini inkassatsiya qilishdan hamda mijozlarga kassa xizmati ko`rsatishdan olinadigan daromadlar;

4) naqd pulli va naqd pulsiz shaklda amalga oshiriladigan valyuta operatsiyalaridan olinadigan daromadlar;

5) talab qilish huquqining tugatilishi yoki sotilishi paytida olingan mablaglar;

6) hujjatlar va qimmatliklarni saqlash uchun maxsus jihozlangan xonalar va seyflarni ijaraga berishdan olingan daromadlar;

7) pul mablag`lari, qimmatli qog`ozlar, boshqa boyliklar va bank hujjatlarini yetkazib berganlik, tashiganlik uchun haq va boshqalar.

Kredit tashkilotlarining chegiriladigan xarajatlariga 3.2-paragrafda ko`rsatib o`tilgan xarajatlardan tashqari quyidagilar ham kiradi:

1) kredit resurslari uchun to`lovlar, pul mablag`lari va qimmatliklarni tashish hamda saqlash xarajatlari;

2) mijozlarning depozit hisobvaraqlari, shu jumladan, jismoniy shaxslarning omonatlari bo`yicha hisoblangan va to`langan foizlar;

3) O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan me`yorlar doirasida tavakkalchilik operatsiyalari bo`yicha zahiralarga ajratmalar.

Tijorat bahklarining soliq solinadigan foydasidan, shuningdek, ularning o`z filiallariga beradigan mol-mulk qiymati chegirib tashlanadi.

**Sug`urta tashkilotlarining daromadlariga soliq solish.** Sug`urta tashkilotlarining daromadlariga 3.2-paragrafda ko`rsatib o`tilgan daromadlardan tashqari quyidagilar ham kiradi:

1) sug`urta qilish, birgalikda sug`urta qilish va qayta sug`urta qilish shartnomalari bo`yicha sug`urta mukofotlari;

2) qayta sug`urta qilish shartnomalari bo`yicha mukofotlar deposiga hisoblangan foizlar;

3) sug`urta qildiruvchining yetkazilgan zarar uchun javobgar shaxslarga nisbatan talab qilish huquqini sotishdan olingan daromadlari;

4) sug`urta agenti, brokeri, vositachisi xizmatlarini ko`rsatganlik uchun pul mukofoti;

5) sug`urta bozorining professional ishtirokchilariga xizmatlar ko`rsatganlik uchun sug`urtalovchi tomonidan olingan pul mukofoti;

6) sug`urta xizmatlari ko`rsatishdan va qo`shimcha sug`urta faoliyatidan olingan boshqa daromadlar.

Sug`urta tashkilotlarining chegiriladigan xarajatlariga 3.2-paragrafda ko`rsatib o`tilgan xarajatlardan tashqari yana bir qator xarajatlar ham kiradi.

**Qimmatli qog`ozlar bozorining professional ishtirokchilari daromadlariga soliq solish.** Qimmatli qog`ozlar bozori professional ishtirokchilarining daromadlariga 3.2-paragrafda ko`rsatib o`tilgan daromadlardan tashqari quyidagilar ham kiradi:

- 1) qimmatli qog'ozlarni sotishdan olinadigan daromadlar;
- 2) qimmatli qog'ozlar bozorida vositachilik va boshqa xizmatlar o'rsatishdan olinadigan daromadlar;
- 3) mijozlarning mablag'laridan foydalanishdan yuzaga keladigan daromadning bir qismi;
- 4) depozitar xizmatlari ko'rsatishdan olinadigan daromadlar;
- 5) qimmatli qog'ozlar egalari reyestrini yuritish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishdan olinadigan daromadlar;
- 6) qimmatli qog'ozlar bilan birjada va birjadan tashqari savdoni tashkil etish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishdan olinadigan daromadlar;
- 7) hisob-kitob-kliring faoliyati bo'yicha daromadlar;
- 8) qimmatli qog'ozlar bozorida maslahat xizmatlari ko'rsatishdan olinadigan daromadlar;
- 9) boshqa daromadlar.

Qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchilarining chegiriladigan xarajatlariga 3.2-paragrafda ko'rsatib o'tilgan xarajatlardan tashqari yana bir qator xarajatlarga ham kiradi.

O'zbekiston Respublikasida faoliyatini doimiy muassasa orqali amalga oshiradigan O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining daromadiga soliq solish. Norezidentning O'zbekistonda doimiy muassasasi ("Doimiy muassasa" tushunchasi faqat soliq sohasidagi maqomni aniqlash uchun qo'llaniladi) ishlab chiqarish, qazib olish, qayta ishlash, butlash, o'rnatish, sozlash, boshqarish, sotish bilan bog'liq faoliyat amalga oshiriladigan har qanday joy (vakolatxona, filial, bo'lim, byuro, idora, agentlik, ssex, do'kon, ombor va hokazo) bo'lishi mumkin.

O'zbekistonda faoliyatini doimiy muassasa orqali amalga oshiradigan norezident yuridik shaxslar to'laydigan foyda solig'iga qo'shimcha ravishda sof foydasidan 10 foiz, dividendlar va foizlar, sug'urta qilish, birgalikda sug'urta qilish va qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlaridan-10 foiz, xalqaro aloqa uchun telekommunikatsiyalar, xalqaro tashishlar, fraxtdan olinadigan daromadlaridan - 6 foiz, boshqa daromadlaridan - 20 foiz soliq to'laydilar.

Dividendlar va foizlarga soliq solish. Dividendlar va foizlarga to'lov manbaida soliq solinadi. Davlat obligatsiyalari va davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha daromadlar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Pensiya jamg'armasining vaqtinchalik bo'sh turgan mablag'larini moliya bozorlarida joylashtirishdan foizlar tarzida olinadigan daromadlar soliq solishdan ozod qilinadi. Ilgari to'lov manbaida soliq solingan dividendlar va foizlarni olgan rezident va norezidentlar ularni jami daromaddan chegirish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasi rezidentlari bo'lgan kredit tashkilotlariga to'lanadigan foizlarga to'lov manbaida emas, balki kredit tashkilotida soliq solinadi. Xuddi shunday tartib mol-mulkni lizingga berishda lizing beruvchiga to'lanadigan foizli daromadlarga ham tadbqiq etiladi. Yuridik shaxsdan olinib, uning ustav jamg'armasiga (ustav kapitaliga) yo'naltirilgan dividendlarga soliq

solinmaydi. Investitsiya va xususiylashtirish investitsiya fondlarining o'z investitsiya portfelida turgan xususiylashtirilgan korxonalar aksiyalaridan olingan dividendlariga soliq solinmaydi.

Qisqacha xulosalar

1. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bevosita soliqlardan biri bo'lib, respublika markaziy byudjetiga tushadi va shuning uchun u umumdavlat solig'i hisoblanadi. Foyda solig'i-bu korxona, tashkilot, muassasalarda yaratilgan qo'shimcha qiymatning bir qismini majburiy ravishda davlat byudjetiga o'tgazish vositasidir. U davlat byudjeti bilan yuridik shaxslar o'tasidagi pul munosabatlarini ifodalaydi. Mazkur soliqni to'lovchilar bo'lib O'zbekiston Respublikasi rezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar (notijorat tashkilotlari va soliq solishning soddalashtirilgan tartibini qo'llayotgan yuridik shaxslardan tashqari) va O'zbekistonda faoliyatini doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan yoki shakllanish manbai O'zbekistonda joylashgan daromadlarni oladigan O'zbekiston Respublikasi norezidenti bo'lgan yuridik shaxslar hisoblanadi. Bu soliq ob'yekti yuridik shaxslarning jami daromadlari, soliq solish bazasi esa yuridik shaxslarning jami daromadlari bilan chegiriladigan xarajatlari o'rtasidagi farqdir.

2. Yuridik shaxslarning foyda solig'ini hisoblash asosida ularning daromadlari va xarajatlari yotadi. Shuning uchun yuridik shaxslar daromadlari va xarajatlarini aniqlash muhim masala hisoblanadi. Ularning jami daromadini mahsulot sotishdan olinadigan daromad va undan tashqari oladigan boshqa daromadlari (asosiy vositalar va boshqa mol- mulkni sotishdan, ijaraga berishdan olingan daromadlar, olingan dividendlar, foizlar, jarimalar va penyalari, hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillar daromadlari, xizmat ko'rsatuvchi va yordamchi xo'jaliklardan olingan daromadlar va hokazolar) tashkil etadi. Yuridik shaxslarning jami xarajatlari ikki guruhga – chegiriladigan va chegirilmaydigan xarajatlarga bo'linadi. Ularning foyda solig'ini hisoblashda jami daromadlaridan faqat chegiriladigan xarajatlari ayirib tashlanadi. Chegiriladigan xarajatlarga moddiy xarajatlar, mehnatga haq to'lash xarajatlari, amortizatsiya xarajatlari, kelgusida soliq solinadigan bazadan chegirib tashlanadigan hisobot davri xarajatlari va boshqa ishlab chiqarish xarajatlari kiradi. Chegirilmaydigan xarajatlarga ma'muriy xarajatlar, belgilangan me'yorlardan ortiqcha qilingan xarajatlar, to'langan jarima va penyalari, xodimlarning ayrim xarajatlarini qoplash va moddiy yordam, turli xil yo'qotishlar va zararlar kiradi.

3. Yuridik shaxslarning foyda solig'i bo'yicha anchagina imtiyozlar ham berilgan: ayrim yuridik shaxslar foyda solig'idan ozod qilinadi, foydaning ayrim turlari soliqdan ozod qilinadi, ayrim hollarda soliq solinadigan foyda kamaytiriladi va soliq stavkasi pasaytiriladi.

4. Yuridik shaxslarning foyda solig'i soliq solinadigan baza (foyda) va belgilangan soliq stavkalari asosida hisoblab chiqariladi. Foyda solig'i umumiy stavkasi 9 foiz, tijorat banklari uchun 15 foiz va auksionlar, ommaviy tomoshalar

o`tkazishdan daromad oluvchilar uchun 35 foiz darajada belgilangan. Soliq solinadigan foydasi eng kam oylik ish haqining 200 barobaridan ortiq bo`lgan yuridik shaxslar foyda solig`ini har oy, qolganlari esa har chorakda to`lashlari shart.

5. Ayrim yuridik shaxslarning daromadlariga soliq solish o`z xususiyatlariga ega va bunday xususiyatlar Soliq kodeksida alohida ta`kidlab o`tilgan. Ularga kredit va sug`urta tashkilotlari, qimmatli qog`ozlar bozorining professional ishtirokchilari, O`zbekiston Respublikasi norezidentlari daromadlari hamda dividendlar va foizlar tarzidagi daromadlar kiritilgan.

Tayanch iboralar va tushunchalar: yuridik shaxs, O`zbekiston Respublikasi rezidenti, rezident-yuridik shaxs, O`zbekiston Respublikasi norezidenti, norezident-yuridik shaxs, daromad, foyda, foyda solig`i, yuridik shaxslarning daromadlari va xarajatlari, chegiriladigan va chegirilmaydigan xarajatlar, doimiy muassasa, soliq solingungacha bo`lgan foyda, soliq solinadigan foyda, soliqni daromad manbaida ushlab qolish, daromadlar to`g`risida deklaratsiya.

Nazorat va muhokama uchun savollar

- 1.Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig`i, uning xususiyatlari va roli.
- 2.Foyda solig`i to`lovchi yuridik shaxslar.
- 3.Yuridik shaxslarning foyda solig`i ob`yekti va bazasi.
- 4.Yuridik shaxslarning jami daromadi va uning tarkibi.
- 5.Yuridik shaxslarning jami xarajatlari va ularning turlari.
- 6.Chegiriladigan xarajatlar va ularning tarkibi.
- 7.Chegirilmaydigan xarajatlar va ularning tarkibi.
- 8.Yuridik shaxslarning foyda solig`i bo`yicha imtiyozlar.
- 9.Yuridik shaxslarning foyda solig`i stavkalari.
- 10.Foyda solig`ini hisoblab chiqarish tartibi.
- 11.Ayrim yuridik shaxslarning daromadlariga soliq solish xususiyatlari.
- 12.Foyda solig`i bo`yicha hisobotlar tuzish va taqdim etish.
- 13.Yuridik shaxslarning foyda solig`ini to`lash tartibi.
14. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig`i hisob-kitobi va hisoboti.

Mustaqil ish uchun topshiriqlar

- 1.Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig`ining ta`rifi va tavsifini izohlash.
- 2.Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig`ining vazifalarini aniqlash.
- 3.Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig`ining o`rni va rolini baholash.
- 4.Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig`ining rag`batlantirish vazifasini izohlash.

5.O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lmagan yuridik shaxslarning daromadlariga soliq solish xususiyatlarini aniqlash.

6.Aniq korxonaning foyda solig'ini o'rganish.

7.Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitob shakli va uni to'ldirish tartibi bilan tanishish.

8.Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini takomillashtirish yo'llarini aniqlash.

Test topshiriqlari

1. Yuridik shaxslarning foyda solig'i – bu:

- a) bilvosita soliq;
- b) bevosita soliq;
- d) maxsus soliq;
- e) umumiy soliq;
- f) barcha javoblar to'g'ri.

2. Yuridik shaxslarning foyda solig'i – bu:

- a) proporsional soliq;
- b) progressiv soliq;
- d) regressiv soliq;
- e) o'sib boruvchi soliq;
- f) barcha javoblar to'g'ri.

3. Yuridik shaxslarning foyda solig'i – bu:

- a) mahalliy soliq;
- b) mahalliy va umumdavlat solig'i;
- d) umumdavlat solig'i;
- e) mintaqaviy soliq;
- f) barcha javoblar to'g'ri.

4. Yuridik shaxslarning foyda solig'i:

- a) davlat bilan yuridik shaxslarni bog'laydi;
- b) davlat bilan yuridik shaxslar o'rtasida aloqa o'rnatadi;
- d) yuridik shaxslarning davlat byudjetiga qarzini ifodalaydi;
- e) davlat byudjeti bilan yuridik shaxslar o'rtasidagi pul munosabatlarini ifodalaydi;
- f) yuridik shaxslarning davlatga qaramligini ifodalaydi.

5. Yuridik shaxslarning foyda solig'i:

- a) yuridik shaxs yaratgan qo'shimcha qiymatning bir qismini davlat byudjetiga olib qo'yish vositasi;
- b) yuridik shaxslar yaratgan daromadni taqsimlash vositasi;
- d) davlat tomonidan yuridik shaxslar moliyaviy holatiga ta'sir etish vositasi;
- e) yuridik shaxslarning davlat xarajatlaridagi hissasi;
- f) barcha javoblar to'g'ri.

6. Foyda solig`ini kim to`laydi?

- a) O`zbekiston Respublikasi rezidenti bo`lgan shaxslar;
- b) O`zbekiston Respublikasi rezidenti bo`lgan jismoniy shaxslar;
- d) O`zbekiston Respublikasi rezidenti bo`lgan jismoniy va yuridik shaxslar,
- e) O`zbekiston Respublikasi rezidenti bo`lgan yuridik shaxslar.
- f) barcha javoblar to`g`ri.

7. Foyda solig`i to`lovchisi hisoblanmaydi:

- a) O`zbekiston Respublikasi rezidenti bo`lmagan yuridik shaxslar;
- b) O`zbekiston Respublikasi rezidenti bo`lmagan jismoniy shaxslar;
- d) O`zbekistonda faoliyat yuritayotgan O`zbekiston Respublikasi rezidenti bo`lmagan yuridik shaxslar;
- e) O`zbekistonda faoliyat yuritayotgan qo`shma korxonalar;
- f) to`g`ri javob yo`q.

8. Foyda solig`i to`lovchisi hisoblanadi:

- a) ishlab chiqarish korxonasi ;
- b) xizmat ko`rsatuvchi korxona;
- d) qurilish tashkiloti;
- e) qo`shma korxona ;
- f) barchasi.

9. Foyda solig`i to`lovchisi hisoblanmaydi:

- a) tijorat tashkilotlari;
- b) notijorat tashkilotlari;
- d) davlat korxonalari;
- e) xo`jalik shirkatlari;
- f) barchasi.

10. Foyda solig`i soliq sotishning qaysi tartibiga kiradi?

- a) soliq solishning umumiy tartibiga;
- b) soliq solishning soddalashtirilgan tartibiga;
- d) soliq solishning umumiy va soddalashtirilgan tartiblariga;
- e) maxsus belgilangan soliq tizimiga;
- f) barcha javoblar to`g`ri.

11. Yuridik shaxslarning foyda solig`i ob`yekti:

- a) yuridik shaxslarning jami daromadlari;
- b) yuridik shaxslarning jami xarajatlari;
- d) yuridik shaxslarning mahsulot sotishdan tushgan tushumi;
- e) yuridik shaxslarning mahsulot sotish aylanmasi (oboroti);
- f) to`g`ri javob yo`q.

12. Yuridik shaxslarning foyda solig`i ob`yekti hisoblanadi:

- a) yuridik shaxslarning jami daromadlari;
- b) yuridik shaxslarning jami xarajatlari;
- d) yuridik shaxslarning foydasi;
- e) yuridik shaxslarning jami daromadlari bilan chegiriladigan xarajatlari o`rtasidagi farq;

f) to'g'ri javob yo'q.

13. Yuridik shaxslarning foyda solig'i bazasi:

- a) yuridik shaxslarning jami daromadlari;
- b) yuridik shaxslarning jami xarajatlari;
- d) yuridik shaxslarning daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi farq;
- e) yuridik shaxslarning daromadlari bilan chegiriladigan xarajatlari o'rtasidagi farq;
- f) yuridik shaxslarning daromadlari bilan chegirilmaydigan xarajatlari o'rtasidagi farq.

14. Yuridik shaxslarning mahsulot sotishdan daromadi hisoblanadi:

- a) mahsulot sotishdan tushgan yalpi tushum;
- b) mahsulot sotishdan tushgan sof tushum;
- d) mahsulot sotishdan tushgan yalpi tushum bilan mahsulot tannarxi o'rtasidagi farq;
- e) mahsulot sotishdan tushgan yalpi tushum bilan xarajatlar o'rtasidagi farq;
- f) barcha javoblar to'g'ri;

15. Yuridik shaxsning jami daromadiga kiradi:

- a) mahsulot sotishdan olingan daromad;
- b) tekinga olingan mol – mulk;
- d) olingan jarimalar;
- e) inventarizatsiya natijasida aniqlangan ortiqcha tovar – moddiy zahiralalar;
- f) barchasi.

16. Yuridik shaxsning daromadi hisoblanmaydi:

- a) tekinga olingan mol-mulk;
- b) olingan jarimalar;
- d) byudjetdan berilgan subsidiyalar;
- e) valyuta hisob varaqlari bo'yicha kursdagi musbat farq;
- f) barchasi.

17. Yuridik shaxslarning chegirilmaydigan xarajatlariga kiradi:

- a) moddiy xarajatlar;
- b) mehnatga haq to'lash xarajatlari;
- d) amortizatsiya ajratmalari;
- e) kelgusida chegirib tashlanadigan hozirgi davr xarajatlari;
- f) to'g'ri javob yo'q.

18. Yuridik shaxslarning chegiriladigan xarajatlariga kiradi:

- a) xodimlarga to'lanadigan ish haqi;
- b) xodimlarga to'lanadigan moddiy yordam;
- d) xodimlarning ayrim xarajatlarini qoplash uchun beriladigan kompensatsiyalar;
- e) xodimlarga qo'shimcha ravishda beriladigan ta'tilga haq to'lash;
- f) barchasi.

19.Foyda solig`i bo`yicha yuridik shaxslarga qanday imtiyozlar beriladi?

- a) ayrim yuridik shaxslarni foyda solig`idan ozod qilish;
- b) foydaning ayrim turlarini soliqdan ozod qilish;
- d) soliq solinadigan foydani kamaytirish;
- e) foyda solig`i stavkasini pasaytirish;
- f) barcha javoblar to`g`ri.

20.Yuridik shaxslarning foyda solig`i nima asosida hisoblab chiqariladi?

- a) soliq stavkasi asosida;
- b) soliq ob`yekti va bazasi asosida;
- d) soliq ob`yekti va stavkasi asosida;
- e) soliq bazasi va stavkasi asosida;
- f) to`g`ri javob yo`q;

21.Yuridik shaxslarning foyda solig`iga regressiv stavkalar qachon qo`llaniladi?

- a) o`zi mahsulot ishlab chiqarganda;
- b) o`zi ishlab chiqargan mahsulotni sotganda;
- d) o`zi ishlab chiqargan mahsulotni arzon sotganda;
- e) o`zi ishlab chiqargan mahsulotni pulini naqd olganda;
- f) o`zi ishlab chiqargan mahsulotni eksport qilganda.


22.Foyda solig`ini chorakda bir marta yoki har oy to`lash kerakligi nimaga bog`liq ?

- a) daromad miqdoriga;
- b) tushum miqdoriga;
- d) foyda miqdoriga;
- e) soliq solinadigan foyda miqdoriga;
- f)barchasiga.

4. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i

4.1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, uning to'lovchilari va ob'yekti


Jismoniy shaxslar deganda soliq solish ob'yektiga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari, shuningdek, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tushiniladi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining tavsifiy belgilari 4.1-chizmada ko'rsatilgan.



4.1-chizma. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining tavsifiy belgilari.

O'zbekiston davlat byudjeti daromadlarining 12-13 foizi jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqqa to'g'ri keladi. Erkin iqtisodiyot sharoitida bu soliqning ulushi va roli ortib boradi.

Moliya yilida soliqqa tortiladigan daromadga ega bo'lgan jismoniy shaxslar-O'zbekiston Respublikasi rezidentlari va norezidentlari daromad solig'i to'lovchilari hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan jismoniy shaxslarning O'zbekistonda va undan tashqarida olgan daromadlari, norezidentlarning esa O'zbekistonda olgan daromadlari soliqqa tortiladi. Jismoniy shaxslarning daromad solig'i ob'yekti bo'lib ularning jami daromadi hisoblanadi. Soliq solinadigan baza jami daromaddan soliq solishdan ozod qilingan daromadlar chegirib tashlangandan keyin qolgan daromad bo'ladi. Mazkur soliq to'lovchilari, ob'yekti va bazasi 4.2-chizmada keltirilgan.




4.2-chizma. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'lovchilari, ob'yekti va bazasi.

4.2. Jismoniy shaxslarning jami daromadlari va ularning tarkibi

Jismoniy shaxslarning jami daromadlariga quyidagilar kiradi (4.3-chizma):

- 1) mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar;
- 2) mulkiy daromadlar;
- 3) moddiy naf tarzidagi daromadlar;
- 4) boshqa daromadlar.



4.3 – chizma. Jismoniy shaxslar jami daromadlarining guruhiiy tarkibi.

Mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar–bu mehnat shartnomalariga yoki ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish predmeti bo'lgan fuqarolik–huquqiy tusdagi shartnomalarga muvofiq jismoniy shaxslarga hisoblanadigan va to'lanadigan barcha to'lovlardir. Mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar quyidagilarni o'z ichiga oladi.

A.Asosiy ish haqi:

- mehnatga haq to'lashning qabul qilingan shakllari, ta'rif stavkalari va mansab maoshlaridan kelib chiqqan holda haqiqatda bajarilgan ish uchun hisoblangan ish haqi;

- ilmiy daraja va faxriy unvon uchun qo'shimcha to'lovlar;

- fuqarolik-huquqiy shartnomaga muvofiq jismoniy shaxslar bajargan ishlar va ko'rsatgan xizmatlar uchun to'lovlar.

B. Rag'batlantirish xususiyatiga ega bo'lgan to'lovlar:

- yillik ish yakunlari bo'yicha pul mukofoti, bir yo'la beriladigan mukofotlar;

- yuridik shaxsning mukofotlash to'g'risidagi qoidasida nazarda tutilgan rag'batlantirish xususiyatiga ega bo'lgan to'lovlar;

- kasb mahorati, murabbiylik uchun tarif stavkalariga va maoshlariga qo'shimchalar;

- ta'tilga har yilgi qo'shimcha haqlar;

- ko'p yil ishlaganlik uchun pul mukofoti va to'lovlar;

- ratsionalizatorlik taklifi uchun to'lov.

D. Kompensatsiya to'lovlari (kompensatsiyalar):

- tabiiy-iqlim sharoitlari noqulay bo'lgan joylardagi ishlar bilan bog'liq qo'shimcha to'lovlar;

-O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan kasblar va ishlar ro'yxati bo'yicha og'ir, zararli, o'ta zararli mehnat sharoitlarida ishlaganlik uchun ustamalar;

-texnologik jarayon jadvalida nazarda tutilgan tungi vaqtda, ish vaqtidan tashqari, dam olish kunlarida va bayram (ishlanmaydigan) kunlarida ishlaganlik uchun ustamalar va qo'shimcha to'lovlar;

-ko'p smenali rejimda ishlaganlik, shuningdek, bir necha kasbda, lavozimda ishlaganlik va xizmat ko'rsatish doirasini kengaytirganlik uchun ustamalar;

-doimiy ishi yo'lda kechadigan, harakatlanish va (yoki) ko'chib yurish xususiyatiga ega bo'lgan xodimlarning, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda ishlar vaxta usulida bajarilgan taqdirda, ish haqiga ustamalar;

-yer osti ishlarida doimiy band bo'lgan xodimlarga ularning otvaldan ishlash joyiga borish va uyerdan qaytish uchun shaxtada (konda) harakatlanishining me'yoriy vaqti uchun to'lanadigan qo'shimcha haqlar;

-mehnatda mayib bo'lganlik yoki sog'liqqa boshqacha shikast yetganlik bilan bog'liq zararining o'rni qoplash summalari.

-boshqa to'lovlar.

E. Ishlanmagan vaqt uchun haq to'lash:

-qonun hujjatlariga muvofiq navbatdagi (har yillik) va qo'shimcha ta'tillarga haq yoki kompensatsiya to'lash, o'smirlarning imtiyozli soatlariga, onalar bolani ovqatlantirishi uchun ishda beriladigan tanaffuslarga, shuningdek, tibbiy ko'rikdan o'tish bilan bog'liq vaqt uchun haq to'lash;

-asosiy ish haqi qisman saqlanib qolgan holda majburiy ta'tilda bo'lgan xodimlarga beriladigan to'lovlar ;

-davlat yoki jamoat vazifalarini bajarganlik uchun mehnatga haq to'lash;

-qishloq xo'jaligi va boshqa ishlarga jalb qilinadigan xodimlarning asosiy ish joyi bo'yicha saqlab qolinadigan ish haqi;

-xodimning aybsiz bekor turib qolgan vaqti uchun haq to'lash;

-mehnat layoqatini vaqtincha yo'qotgan xodimlarga qo'shimcha haq to'lash;

-majburiy progul vaqti uchun haq yoki kam haq to'lanadigan ishni bajarganlik uchun qo'shimcha haq to'lash;

-boshqa to'lovlar.

Jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlari tarkibiga quyidagilar kiradi:

-foizlar;

-dividendlar;

-mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar;

-jismoniy shaxslarga xususiy mulk huquqida tegishli bo'lgan mol-mulkni sotishdan olingan daromadlar;

-sanoat mulki ob'yektlariga berilgan patent (litsenziya)ni sotishdan olgan daromad;

-royalti (mualliflik huquqi, nou-xau, kompyuter dasturiy mahsulotlari, patent, chizmalar, nusxalar, tovar markasi, savdo belgisi, sanoat namunalari, ilmiy tadqiqot uskunalari va boshqa intellektual ob'yektlardan foydalanganlik uchun

to'lanadigan kompensatsiya to'lovlari);

-soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langandan keyin xususiy korxona mulkdori hamda fermer xo'jaligi boshlig'i, xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius ixtiyorida qoladigan foyda summasi.

Jismoniy shaxslarning moddiy naf tarzida oladigan daromadlari quyidagilardir:

-yuridik shaxs tomonidan o'z xodimlari uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqini, mulkiy huquqlarini to'lash;

-sovg'alar, tekin berilgan tovarlar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar qiymati;

-xodimlarga transportlarda yurish bo'yicha beriladigan imtiyozlar summasi;

-jismoniy shaxsning yuridik shaxs oldidagi qarzining hisobdan chiqarilgan summalari;

-ish beruvchi tomonidan to'lovlar hisobiga to'lanib, xodimdan ushlab qolinishi lozim bo'lgan, lekin ushlab qolinmagan summalar.

Jismoniy shaxslarning boshqa daromadlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

-pensiylar va qonun hujjatlarida belgilangan nafaqalar;

-stipendiyalar;

-fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari, xayriya va ekologiya jamg'armalari tomonidan berilgan nafaqalar hamda boshqa turdagi yordam;

-donorlik uchun pul mukofotlari;

-alimentlar;

-hayvonlar, ipak qurti, chorvachilik, asalarichilik va dehqonchilik mahsulotlarini tabiiy va qayta ishlangan holda sotishdan olingan daromadlar;

-tekin olingan mol-mulk yoki mulkiy huquqlar qiymati;

-musobaqalar, ko'riklar, tanlovlarda beriladigan sovrinlar, pul mukofotlari;

-yutuqlar;

-yaratilgan fan, adabiyot va san'at asarlari (predmetlari) uchun olingan daromadlar;

-O'zbekiston Respublikasining davlat mukofotlari va ularga teng bahodagi esdalik sovg'alarining qiymati;

-xodimga moddiy yordam sifatida beriladigan ishdan bo'shatish nafaqasi va boshqa to'lovlar.

Korxonalarining ayrim xarajatlari jismoniy shaxslarning daromadi hisoblanmaydi (ularning ro'yxati Soliq kodeksida keltirilgan).

4.3. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha imtiyozlar

Jismoniy shaxslarning daromad solig'i bo'yicha imtiyozlar quyidagi uch guruhga bo'linadi:

1) jismoniy shaxslarning ayrim toifalarini daromad solig'idan to'liq ozod qilish;

2) jismoniy shaxslarning ayrim toifalarini daromad solig'idan qisman ozod qilish;

3) jismoniy shaxslarning ayrim daromadlarini soliqdan ozod qilish.

Soliq solishdan quyidagi jismoniy shaxslar to'liq ozod qilinadi:

-xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalarining mansabdor shaxslari hamda ularning o'zlari bilan birga yashaydigan oila a'zolari (O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lamsa);

-xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalariga xizmat ko'rsatuvchilar hamda xodimlarining uylarida ishlovchilar (O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa);

-xalqaro nodavlat tashkilotlarining mansabdor shaxslari (O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa);

-O'zbekiston Respublikasi mudofaa, ichki ishlar, favqulodda vaziyatlar vazirliklari, Milliy xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilari, ichki ishlar hamda bojxona organlarining oddiy xizmatchilari va boshliqlari;

-prokuratura organlarining daraja unvonlariga ega bo'lgan xodimlari;

-gastrol-konsert faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyasi bo'lgan shaxslar-ana shu faoliyatdan olgan daromadlari bo'yicha.

Quyidagi jismoniy shaxslar soliq solishdan qisman (eng kam ish haqining to'rt barobari miqdorida) ozod qilinadi:

-“O'zbekiston Qahramoni”, Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo'lgan shaxslar, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan shaxslar, urush nogironlari yohud 1941-1945 yillardagi urush davrida yoki harbiy xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish paytida yaralanganligi oqibatida nogiron bo'lib qolgan harbiy xizmatchilar, sobiq partizanlar jumlasidan bo'lgan nogironlar, shuningdek, pensiya ta'minoti bo'yicha mazkur toifadagi harbiy xizmatchilarga tenglashtirilgan boshqa nogironlar;

-xizmatni harakatdagi harbiy qismlar, shtablar va muassasalarda o'tagan harbiy xizmatchilar, sobiq partizanlar jumlasidan bo'lib, 1941–1945 yillardagi urush, sobiq SSSRni himoya qilish bo'yicha boshqa jangovar operatsiyalarning qatnashchilari, urush davri mehnat frontining faxriylari va konsentratsion lagerlarning sobiq yosh tutqinlari;

-Leningrad shahrida 1941 yil 8 sentyabrdan 1944 yil 27 yanvargacha qamal davrida ishlagan fuqarolar;

-ichki ishlar organlarining boshliqlari va oddiy xizmatchilari jumlasidan bo'lib, xizmat vazifalarini bajarish paytida yaralanganligi, kontuziya bo'lganligi yoki shikastlanganligi oqibatida nogiron bo'lib qolgan shaxslar;

-bolalildan nogiron bo'lib qolganlar, shuningdek, I va II guruh nogironlari;

-o'n va undan ortiq bolasi bor ayollar;

-sobiq SSSRni himoya qilish yohud harbiy xizmat vazifalarini bajarish paytida yaralanganligi, kontuziya bo'lganligi yoki shikastlanganligi oqibatida yoki frontda bo'lish bilan bog'liq kasallik tufayli halok bo'lgan harbiy

xizmatchilarning ota-onalari va yangi turmush qurmagan rafiqalari;

-xizmatni Afg'oniston Respublikasida va jangovar harakatlar olib borilgan boshqa mamlakatlarda o'tagan harbiy xizmatchilar hamda o'quv va sinov yig'inlariga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar;

-Chernobl AESdagi avariya oqibatida jabrlanganlar;

-ikki va undan ortiq o'n olti yoshga to'lmagan bolalari bor yolg'iz onalar;

-ikki va undan ortiq o'n olti yoshga to'lmagan bolalari bor va boquvchisini yo'qotganlik uchun pensiya olmaydigan beva ayol va beva erkaklar;

-bolaligidan nogiron bo'lgan, doimiy parvarishni talab qiladigan farzandi bilan birga yashab, uni tarbiyalayotgan ota-onadan biri.

Jismoniy shaxslarning quyidagi daromadlariga soliq solinmaydi:

-moddiy yordam summolari;

-yo'llanmalar qiymatini korxonalar tomonidan to'liq yoki qisman qoplash summolari (turistik yo'llanmalardan tashqari);

-o'z xodimlariga va ularning bolalariga tibbiy xizmat ko'rsatilganligi uchun ish beruvchi tomonidan to'langan summalar;

-vaqtinchalik bir martalik ishlarni bajarishdan olingan daromadlar;

-solliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'laganidan keyin xususiy korxona mulkdori, fermer xo'jaligi boshlig'i, xususiy notarius ixtiyorida qoladigan foyda summasi;

-O'zbekiston Respublikasining davlat mukofotlariga sazovor bo'lgan jismoniy shaxslar olgan davlat pul mukofoti yoki shunga teng bahodagi esdalik sovg'alarining qiymati;

-xalqaro sport musobaqalarida sovrinli o'rinni egallaganliklari uchun sportchilar olgan pul mukofoti;

-sanoat mulki ob'yektlari va seleksiya yutug'i patentini sotishdan olingan daromad;

-donorlik uchun pul mukofotlari, shuningdek, qon yiqqanlik uchun tibbiyot muassasalari xodimlari oladigan summalar;

-jismoniy shaxslarning o'z mol-mulki va yetishtirgan mahsulotlarini sotishdan olinadigan daromadlar;

-xalqaro hamda respublika tanlovlari va musobaqalarida olingan buyum tarzidagi sovrinlarning qiymati;

-yuridik shaxslardan olingan bir yil mobaynidagi eng kam ish haqining olti baravari miqdorigacha bo'lgan summadagi sovg'alarning qiymati;

-jismoniy shaxslardan meros yoki hadya tartibida, shuningdek, tekin olingan pul va natura shaklidagi daromadlari;

-mehnat shartnomasi bekor qilinganida eng kam ish haqining o'n ikki baravari miqdorigacha to'lanadigan ishdan bo'shatish nafaqasi va boshqa nafaqalar (vaqtinchalik mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasidan tashqari), shuningdek, xayriya va ekologiya jamg'armalari mablag'laridan beriladigan yordam tusidagi to'lovlar;

-olingan alimentlar;

- fuqarolarning sug`urta bo`yicha oladigan summalari;
- ta`lim muassasalarida o`qiyotganlarga to`lanadigan stipendiyalar;
- uy-joy kommunal xizmatlariga haq to`lash bo`yicha har oylik kompensatsiya pul to`lovlari;
- davlat pensiyalari;
- jamg`arib boriladigan majburiy pensiya badallari, ular bo`yicha foiz daromadlari, shuningdek, jamg`arib boriladigan pensiya to`lovlari;
- sug`urta mukofotlari va boshqalar.

Buyerda shuni ta`kidlab o`tish lozimki, ushbu imtiyozlar tegishli hujjatlar taqdim etilgandagina qo`llaniladi.

4.4.Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig`ini hisoblab chiqarish va undirish tartibi

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig`ini hisoblab chiqarish va ushlab qolish soliq solinadigan baza hamda stavkalardan kelib chiqqan holda daromad hisoblanishiga qarab, yil boshidan ortib boruvchi yakun bo`yicha har oyda jismoniy shaxsning ish joyi bo`yicha soliq agenti tomonidan amalga oshiriladi.

4.1-jadval

Jismoniy shaxslarning daromad solig`i stavkalari

T/r	Soliqqa tortiladigan daromad	Soliq stavkasi, %
1.	Eng kam ish haqining besh barobari miqdoridan	10
2.	Eng kam ish haqining besh barobaridan yuqori va o`n barobarigacha (o`n barobari ham kiradi) miqdoridan	16
3.	Eng kam ish haqining o`n barobaridan yuqori miqdoridan	22

Hisoblab chiqarilgan soliq summasi jismoniy shaxslarning shaxsiy jamg`arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga o`tkaziladigan har oylik majburiy badallar summasiga kamaytiriladi.

Asosiy bo`lmagan ish joyidan olingan daromadlardan soliqni hisoblab chiqarish jami daromad summasidan imtiyozlarni qo`llamagan holda yil boshidan ortib boruvchi yakun bo`yicha amalga oshiriladi. Agar asosiy bo`lmagan ish joyidan shaxs buxgalteriyaga o`z daromadidan soliqni eng yuqori stavka bo`yicha ushlab qolish tog`risida ariza bersa, daromad solig`i imtiyozlarni qo`llamagan holda eng yuqori stavka bo`yicha ushlab qolinadi.

Jismoniy shaxslarning dividendlar va foizlar ko`rinishida oladigan daromadlariga soliq stavkasi 10 foiz qilib belgilangan.

Daromadlarning alohida turlariga soliq solish o`z xususiyatlariga ega. Jismoniy shaxslarning quyidagi daromadlariga belgilangan eng kam stavka bo`yicha soliq solinadi:

-baland tog'li, cho'l va suvsiz hududlarda ishlaganlik uchun belgilangan koeffitsiyentlar bo'yicha qo'shimcha to'lovlar;

-korxonalar, muassasalar, tashkilotlar tomonidan vaqtinchalik qishloq xo'jaligi ishlariga yuborilgan jismoniy shaxslarning shu ishlarni bajarishdan olgan daromadlari.

Mehnat sharoiti o'ta zararli va o'ta og'ir ishlarda ishlaydigan ayollarning daromadlaridan soliq darajasi 20 foizdan oshmasligi lozim.

O'zbekiston Respublikasi norezidenti bo'lgan jismoniy shaxslarning O'zbekiston Respublikasida doimiy muassasa bilan bog'liq bo'lmagan daromadlariga chegirmalarsiz quyidagi stavkalar bo'yicha soliq solinadi:

-dividendlar va foizlarga 10 foiz;

-xalqaro tashishlarda transport xizmatlari ko'rsatishdan (fraxtdan) olinadigan daromatlarga 6 foiz;

-boshqa daromatlarga 20 foiz.

To'lov manbaida soliq solish to'lov O'zbekiston Respublikasi hududida yoki uning hududidan tashqarida sodir etilganligidan qat'iy nazar amalga oshiriladi. Soliqni to'lov manbaida hisoblab chiqarish, ushlab qolish va to'lash majburiyati yuridik shaxslar, faoliyatini doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi norezidentlari hamda chet el yuridik shaxslarining vakolatxonalari zimmasiga yuklatiladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida chet ellik jismoniy shaxslarga O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari hisobga olingan holda soliq solinadi.

Jismoniy shaxslarning daromad solig'i quyidagi tartibda hisoblab chiqariladi.

1.Jismoniy shaxslarning jami daromadlarini aniqlash:

$$Jd = Ih + Bd,$$

buyurda: Jd –jami daromad;

Ih –ish haqi;

Bd – boshqa daromadlari.

2.Soliq solinadigan bazani aniqlash:

$$Ssb = Jd - Ssmd$$

buyurda $Ssmd$ – soliq solinmaydigan daromadlar.

3.Soliq solinadigan daromadni aniqlash:

$$Ssd = Ssb - Si,$$

buyurda Si – soliq imtiyozlari.

4.Daromad solig'ini hisoblash:

$$Ds = \frac{5ekih \cdot S_1}{100} + \frac{5ekih \cdot S_2}{100} + \frac{10ekihy \cdot S_3}{100},$$

buyurda: Ds – daromad solig'i summasi;

$5ekih$ - eng kam ish haqining 6 va 4 barobari;

$10ekihy$ – eng kam ish haqining 10 barobaridan yuqori miqdori;

S_1, S_2, S_3 – soliq stavkasining 1,2,3-darajalari.

Misol. Korxona xodimiga yanvar oyida 550,0 ming so'm va fevral oyida

450,0 ming so`m ish haqi hisoblangan. Eng kam ish haqi 49735 so`m. Xodimning daromadidan soliq quyidagi tartibda hisoblab chiqariladi va ushlab qolinadi:

1) yanvar oyi tugagach daromad solig`i shu bir oy uchun to`rt bosqichda hisoblanadi (ish faqi 550000 so`m):

$(49735 \cdot 5 \cdot 10) : 100 = 24867,5$ so`m;

$(49735 \cdot 5 \cdot 16) : 100 = 39788,0$ so`m;

$550000 - 497350 = (52650 \cdot 22) : 100 = 11583,0$ so`m;

$24867,5 + 39788,0 + 11583,0 = 76238,5$ so`m-jami soliq summasi;

2) fevral oyi tugagach daromad solig`i yil boshidan ortib boruvchi yakun bo`yicha o`tgan ikki oy uchun to`rt bosqichda hisoblanadi (ikki oylik ish haqi 1000000 so`m):

$(49735 \cdot 2) = (99470 \cdot 5 \cdot 10) : 100 = 49735,0$ so`m;

$(49735 \cdot 2) = (99470 \cdot 5 \cdot 16) : 100 = 79576,0$ so`m;

$1000000 - 994700 = (5300 \cdot 22) : 100 = 1166,0$ so`m;

$49735,0 + 79576,0 + 1166,0 = 130477,0$ so`m-ikki oylik soliq summasi;

3) yanvar-fevral oylari uchun hisoblangan daromad solig`i umumiy summasidan yanvar oyi uchun ushlab qolingani summasi chegirib tashlanadi va qolgan summasi fevral oyi uchun daromad solig`i sifatida ushlab qolinadi, ya`ni  $130477,0 - 76238,5 = 54238,5$  so`m bo`ladi.

Soliq bo`yicha hisob-kitoblar quyidagi tartibda taqdim etiladi.

Soliq agenti:

1) soliq davri tugaganidan so`ng o`ttiz kun ichida soliq organiga daromad olgan jismoniy shaxslar to`g`risida (asosiy ish joyidan tashqari) belgilangan shaklda quyidagilar ko`rsatilgan ma`lumotnomani taqdim etadi:

-soliq to`lovchi jismoniy shaxsning identifikatsiya raqami;

-soliq to`lovchining familiyasi, ismi, otasining ismi, manzili;

-o`tgan soliq davri yakunlari bo`yicha daromadlarining umumiy summasi va undan ushlab qolingani soliq summasi;

- soliq agentining identifikatsiya raqami;

-soliq agentining nomi va manzili;

2) yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kuniga qadar, yil yakunlari bo`yicha esa yillik moliyaviy hisobotni taqdim etish muddatida soliq organiga hisoblangan va amalda to`langan daromad hamda undan ushlab qolingani soliq summasi to`g`risidagi ma`lumotlarni belgilangan shaklda taqdim etadi.

To`lov manbaida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig`ining hisoblab chiqarilgan summasi byudjetga soliq agenti tomonidan quyidagi muddatlarda to`lanadi:

-pul mablag`larini olish uchun xizmat ko`rsatuvchi bankka hujjatlarni taqdim etish bilan bir vaqtda;

-to`lov natura holidagi amalga oshirilgan oy tugaganidan keyin besh kun ichida (bunday to`lovga qonun hujjatlari bilan ruxsat berilgan bo`lsa).

Jismoniy shaxslarga daromad to`lagan yuridik shaxs soliq organiga quyidagi ma`lumotlarni taqdim etishi lozim.

Hisoblangan va amalda to'langan daromadlar summalari hamda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining ushlab qolingani summalari to'g'risida

M A' L U M O T L A R

(so'mda)

	Ko'rsatkichlar	Satrlar	To'lovchi-ning ma'lumotlari bo'yicha
1	Yil boshidan daromad olgan jismoniy shaxslar soni, jami(kishi)	001	
	Jumladan: o'rindoshlik bo'yicha (kishi)	002	
	puvrat shartnomasi bo'yicha ishlarni bajaruvchilar	003	
	01-satrdan xorijiy jismoniy shaxslar (kishi)	004	
2	Hisobot davri boshida qarzdorlik:		
	xodimlarga soliq solinadigan daromadlarni to'lash bo'yicha (soliqlar va majburiy ajratmalar chegirilgan holda)	005	
	jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha	006	
	Shundan, xodimlarga to'langan daromad summasiga nisbatan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha qarzdorlik (ortiqcha to'langan) summasi	007	
	SH J B P H ga badallar bo'yicha	008	
	Shundan, xodimlarga to'langan daromad summasiga nisbatan SH J B P H ga badallar bo'yicha qarzdorlik (ortiqcha to'langan) summasi	009	
3	Hisobot davri uchun hisoblangan:		
	xodimlarga berilishi lozim bo'lgan soliq solinadigan daromad summasi (soliqlar va majburiy ajratmalar chegirilgan holda):		
	_____oyi uchun	010	
	_____oyi uchun	011	
	_____oyi uchun	012	
	Daromadlar bo'yicha imtiyozlar summasi:		
	_____oyi uchun	013	
	_____oyi uchun	014	
	_____oyi uchun	015	
	SH J B P H ga badallar summasi		
	_____oyi uchun	016	
	_____oyi uchun	017	
	_____oyi uchun	018	
	<u>Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasi</u>		

	(SH J B P H ga badallar chegirilgan holda)		
	_____oyi uchun	019	
	_____oyi uchun	020	
	_____oyi uchun	021	
4	Hisobot davri davomida o`tkazilgan :		
	Xodimlarga to`langan soliq solinadigan daromad summasi		
	_____oyi uchun	0	
	_____oyi uchun	023	
	_____oyi uchun	024	
	SH J B P H ga badallar summasi		
	_____oyi uchun	025	
	_____oyi uchun	026	
	_____oyi uchun	027	
	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig`i summasi (SH J B P H ga badallar chegirilgan holda)		
	_____oyi uchun	028	
	_____oyi uchun	029	
	_____oyi uchun	030	
5	Hisobot davri oxirida qarzdorlik :		
	Xodimlarga to`langan soliq solinadigan daromadni to`lash bo`yicha (soliqlar va majburiy ajratmalar chegirilgan holda)		
	Daromad solig`ini to`lash bo`yicha		
	Shundan, xodimlarga to`langan daromad summasiga nisbatan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig`i bo`yicha qarzdorlik (ortiqcha to`langan) summasi		
	SH J B P H ga badallar bo`yicha		
	Shundan, xodimlarga to`langan daromad summasiga nisbatan SH J B P H ga badallar bo`yicha qarzdorlik (ortiqcha to`langan) summasi		
6	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig`ini o`z vaqtida to`lamaganlik uchun korxonaning o`zi tomonidan hisoblangan penya summasi		

Izoh: SH J B P H- shaxsiy jamg`arib boriladigan pensiya hisobvarag`i.

4.5. Daromadlar to`g`risidagi deklaratsiya asosida soliq solish

Jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to`g`risida deklaratsiya soliq to`lovchining olgan yillik daromadi to`g`risidagi yozma arizasidir. Deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromadlarga O`zbekiston Respublikasi rezidentlarining quyidagi daromadlari kiradi:

- fan, adabiyot va san`at asarlarini yaratganlik hamda ulardan foydalanganlik uchun mualliflik haqi tariqasida olingan daromadlar;
- asosiy bo`lmagan ish joyidan olingan moddiy naf tarzidagi daromadlar;

- ikki yoki undan ko'p manbadan olingan daromadlar;
- O'zbekistondan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlar.
- soliq agentlari bo'lmagan manbalardan olingan daromadlar.

Soliq to'lovchining asosiy bo'lmagan ish joyidan olgan daromadlaridan soliq eng yuqori stavka bilan ushlab qolingani bo'lsa, deklaratsiya taqdim etilmaydi.

Deklaratsiya shakli O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadi hamda unda quyidagi ma'lumotlar ko'rsatilishi kerak:

- soliq to'lovchining familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan yili, jinsi, fuqaroligi, manzili;
- soliq to'lovchining identifikatsiya raqami;
- soliq solinishi lozim bo'lgan jami yillik daromad (daromadlar turlarga ajratib ko'rsatilgan holda);
- daromadlarning manbalari;
- daromad olish bilan bog'liq xarajatlar, majburiy to'lovlar, chiqimlar va ajratmalarning summalari;
- daromad solig'i bo'yicha imtiyozlar;
- hisoblab chiqarilgan soliq summasi;
- haqiqatda to'langan soliq summasi.

Deklaratsiyada jismoniy shaxslarning jami yillik daromadini deklaratsiya qilish bilan bog'liq boshqa ma'lumotlar ham ko'rsatilishi mumkin. Deklaratsiya blankalari soliq to'lovchilarga soliq organlari tomonidan bepul beriladi. Jismoniy shaxs taqdim etgan deklaratsiyada to'lanishi lozim bo'lgan daromad solig'i summasining kamayishiga olib keluvchi xatolar aniqlanganda deklaratsiyaga zarur o'zgartirishlar kiritilishi kerak. Deklaratsiyani o'zgartirish to'g'risidagi ariza daromad solig'ini to'lash muddati tugaganidan keyin, biroq xatolar soliq organi tomonidan aniqlanganiga qadar berilsa, soliq to'lovchi soliqning yetishmayotgan summasini hamda unga tegishli penyani to'lagan taqdirda, javobgarlikdan ozod etiladi.

Jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiya doimiy yashash joyidagi soliq organiga hisobot yilidan keyingi yilning 1 apreligacha taqdim etiladi. Bu tartib O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan chet ellik jismoniy shaxslarga ham taalluqlidir.

O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan jismoniy shaxslar daromadlar to'g'risidagi deklaratsiyaning ma'lumotlari asosida hisoblab chiqarilgan soliqni o'tgan soliq davridan keyingi yilning 1 iyunidan kechiktirmay to'laydilar. Soliq organlari tomonidan hisoblab chiqariladigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lash to'lov xabarnomasida ko'rsatilgan muddatlarda amalga oshirilishi kerak.

Qisqacha xulosalar

1.Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soliq'i mamlakat soliq tizimida muhim o'rin egallaydi. U davlat byudjeti bilan fuqarolar o'rtasidagi pul

munosabatlarini ifodalaydi va fuqarolar daromadlarining bir qismini davlat byudjetiga olib qo'yish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Bu soliq umumdavlat solig'i bo'lib, respublika markaziy byudjetiga tushadi. Mazkur soliq bevosita soliq bo'lib, jismoniy shaxslar daromadiga qaratilgandir. Jismoniy shaxslarning daromad solig'i progressiv soliq hisoblanadi, chunki unga daromad ortishiga qarab o'sib boruvchi stavkalar shkalasi belgilangan. Daromad solig'i to'lovchilari O'zbekiston Respublikasi rezidentlari bo'lgan jismoniy shaxslar—ular O'zbekistonda va undan tashqarida olgan daromadlaridan soliq to'laydilar hamda O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lmagan shaxslar—ular O'zbekistonda olgan daromadlaridan soliq to'laydilar. Soliq solish ob'yekti bo'lib jismoniy shaxslarning jami daromadlari, soliq solish bazasi esa jami daromaddan soliq solishdan ozod qilingan daromadlar chegirib tashlangandan keyin qolgan daromad hisoblanadi.

2. Jismoniy shaxslarning jami daromadlari soliq ob'yekti hisoblanadi. Ularning jami daromadlari mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlari, mulkiy daromadlari, moddiy naf tarzidagi daromadlari va boshqa daromadlari yig'indisidan iborat bo'ladi. Korxonalarning o'z xodimlari uchun qiladigan ayrim xarajatlari jismoniy shaxslar daromadiga kiritilmaydi.

3. Jismoniy shaxslarning daromad solig'i bo'yicha ularning ayrim daromadlari soliqdan ozod qilinadi, jismoniy shaxslarning muayyan toifalari to'liq, ayrim toifalari esa qisman daromad solig'idan ozod qilinadi. Imtiyozga ega bo'lgan fuqarolar soliq organiga imtiyoz huquqini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etishlari lozim.

4. Jismoniy shaxslarning daromad solig'i soliq solish bazasi va belgilangan stavkalar asosida hisoblab chiqariladi. Mazkur soliq uchun uch darajali (11, 17, 22 foiz) progressiv stavkalar belgilangan. Shuning uchun ham u progressiv soliq hisoblanadi. Daromad solig'ini fuqarolar ishlaydigan korxona hisobchisi (soliq agenti) hisoblab chiqaradi va byudjetga o'tkazadi.

5. O'zbekiston soliq qonunchiligida bir necha manbadan daromad oladigan jismoniy shaxslar uchun daromadlari to'g'risida deklaratsiya to'ldirib, soliq organiga taqdim etish majburiyati belgilangan. Deklaratsiyada yillik jami daromadi va ushlab qolingan daromad solig'i summasi ko'rsatiladi. Soliq organi xodimlari deklaratsiyada ko'rsatilgan ma'lumotlar asosida qayta hisob-kitob qilib, to'lanishi kerak bo'lgan soliq summasini aniqlaydilar va u to'langan soliq summasidan ko'p bo'lgan taqdirda farqini undirib oladilar.

Tayanch iboralar va tushunchalar: jismoniy shaxs, jismoniy shaxslar daromadi, jismoniy shaxslardan daromad solig'i, O'zbekiston Respublikasi rezidenti, rezident-jismoniy shaxs, O'zbekiston Respublikasi norezidenti, norezident-jismoniy shaxs, asosiy ish joyi, mulkiy daromad, moddiy naf tarzidagi daromad, daromad manbaida solig'ni ushlab qolish, daromadlar to'g'risida deklaratsiya.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va uning roli.
2. Jismoniy shaxslarning daromad solig'i xususiyatlari.
3. Jismoniy shaxslarning daromad solig'i to'lovchilari.
4. Jismoniy shaxslarning daromad solig'i ob'yekti va bazasi.
5. Jismoniy shaxslarning daromad solig'i stavkalari.
6. Jismoniy shaxslarning jami daromadi va uning tarkibi.
7. Jismoniy shaxslarning daromad solig'i bo'yicha imtiyozlar.
8. Jismoniy shaxslarning daromad solig'ini hisoblab chiqarish tartibi.
9. Jismoniy shaxslarning daromad solig'ini to'lash (undirish) tartibi.
10. Jismoniy shaxslarning jami daromadlari to'g'risida deklaratsiya tuzish va taqdim etish.
11. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i hisob-kitobi va hisoboti.

Mustaqil ish uchun topshiriqlar

1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining vazifalarini aniqlash.
2. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining o'рни va rolini baholash.
3. Jismoniy shaxslarning daromadlariga eng yuqori stavka bo'yicha soliq solish tartibini o'rganish.
4. Daromadlar to'g'risida deklaratsiya tuzish va taqdim etish tartibi bilan tanishish.
5. O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lmagan jismoniy shaxslar daromadlariga soliq solish xususiyatlarini aniqlash.
6. Jismoniy shaxslarning daromad solig'i bo'yicha soliq organiga taqdim etiladigan ma'lumotlar bilan tanishish.
7. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini takomillashtirish imkoniyatlarini aniqlash.

Test topshiriqlari

1. Jismoniy shaxslarning daromad solig'i – bu:

- a) bilvosita soliq;
- b) ikkilamchi soliq;
- d) bevosita soliq;
- e) birlamchi soliq;
- f) barcha javoblar to'g'ri.

2. Jismoniy shaxslarning daromad solig'i – bu:

- a) proporsional soliq;
- b) progressiv soliq;
- d) regressiv soliq ;

- e) o`tib boruvchi soliq;
- f) pasayib boruvchi soliq.

3. Jismoniy shaxslarning daromad solig`i – bu:

- a) mahalliy soliq;
- b) mintaqaviy soliq;
- d) ma'muriy soliq ;
- e) umumdavlat soliq`i;
- f) barcha javoblar to`g`ri.

4. Jismoniy shaxslarning daromad solig`i qaysi byudjetga tushadi?

- a) viloyat byudjetiga;
- b) shahar byudjetiga;
- d) tuman byudjetiga;
- e) hududiy byudjetga;
- f) respublika markaziy byudjetiga.

5. Jismoniy shaxslarning daromad solig`i aks ettiradi:

- a) davlat bilan jismoniy shaxslar o`rtasidagi aloqani;
- b) davlat bilan jismoniy shaxslar o`rtasidagi munosabatlarni;
- d) davlat bilan jismoniy shaxslar o`rtasidagi pul munosabatlarini;
- e) davlat bilan fuqarolar o`rtasidagi ikki tomonlama munosabatlarni ;
- f) barchasini.

6. Jismoniy shaxslar daromad solig`ining vazifasi:

- a) jismoniy shaxslar daromadlarini tartibga solish;
- b) jismoniy shaxslar daromadlarining bir qismini byudjetga olish;
- d) jismoniy shaxslar daromadlarini muvofiqlashtirish;
- e) jismoniy shaxslar daromadlarini normallashtirish ;
- f) barchasi.

7. Jismoniy shaxslarning daromad solig`ining vazifasi:

- a) fuqarolar daromadlarining bir qismini byudjetda mujassamlashtirish;
- b) fuqarolar daromadlarini taqsimlash;
- d) fuqarolar daromadlari darajalarini tekislash;
- e) fuqarolar daromadlari bo`yicha adolatlilikni ta'minlash;
- f) barchasi.

8. Jismoniy shaxslarning daromad solig`ini kim hisoblaydi va byudjetga o`tkazadi?

- a) jismoniy shaxslarning o`zlari;
- b) jismoniy shaxslar ishlaydigan korxona soliq agenti;
- d) soliq organlari xodimlari;
- e) maxsus firmalar;
- f) barchasi.

9. Daromad solig`ini kimlar to`laydi?

- a) ishlab daromad oladigan fuqarolar;
- b) barcha fuqarolar;
- d) fuqarolar uyushmalari;

e) kasaba uyushmasi;

f) to'g'ri javob yo'q.

10. Jismoniy shaxslarning daromad solig'i to'lovchilari hisoblanadi?

a) O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan fuqarolar;

b) O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lmagan fuqarolar;

d) O'zbekiston respublikasi rezidenti va norezidenti bo'lgan fuqarolar;

e) fuqaroligi bo'lmagan shaxslar;

f) barchasi.

11. Jismoniy shaxslarning daromad solig'i ob'yekti:

a) jismoniy shaxslarning asosiy ish joyidan olgan jami daromadlari;

b) jismoniy shaxslarning asosiy ish joyi bo'lmagan manbadan olgan jami daromadlari;

d) jismoniy shaxslarning qo'shimcha daromadlari;

e) jismoniy shaxslarning jami daromadlari;

f) to'g'ri javob yo'q.

12. Jismoniy shaxslarning daromad solig'i bazasi:

a) jismoniy shaxslarning jami daromadlari;

b) jismoniy shaxslarning jami daromadlaridan soliq solinmaydigan daromadlari chegirib tashlangandan keyin qolgan daromadlari;

d) jismoniy shaxslarning asosiy ish joyidan olgan daromadlari;

e) jismoniy shaxslarning jami daromadlaridan qo'shimcha daromadlari chegirib tashlangandan keyin qolgan daromadlari;

f) barcha javoblar to'g'ri.

13. Jismoniy shaxslarning jami daromadlariga kiradi:

a) mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlari;

b) mulkiy daromadlari;

d) moddiy naf tarzidagi daromadlari;

e) boshqa daromadlari;

f) barchasi.

14. Jismoniy shaxslarning mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlariga kiradi:

a) asosiy ish haqi;

b) rag'batlantirish tusidagi to'lovlar;

d) kompensatsiya to'lovlari;

e) ishlanmagan vaqt uchun to'lovlar;

f) barchasi.

15. Jismoniy shaxslarning mulkiy daromadi hisoblanadi:

a) foizlar ko'rinishidagi daromadlari;

b) kompensatsiya to'lovlari;

d) kommunal xizmatlar uchun to'lovlari;

e) tekinga olingan mol – mulk qiymati;

f) barcha javoblar to'g'ri.

16. Jismoniy shaxslarning moddiy naf tarzidagi daromadi:

- a) dividendlar;
- b) kompensatsiya to'lovlari;
- d) tekinga olingan mol-mulk qiymati ;
- e) kommunal xizmatlar uchun to'lovlari;
- f) barchasi.

17. Jismoniy shaxslarning daromad solig'i bo'yicha imtiyozlar:

- a) ayrim daromadlarni soliqdan ozod qilish;
- b) fuqarolarning muayyan toifalarini soliqdan to'liq ozod qilish;
- d) ayrim fuqarolarni soliqdan qisman ozod qilish;
- e) bir necha imtiyozga ega bo'lganda faqat birtasidan foydalanish;
- f) barcha javoblar to'g'ri;

18. Jismoniy shaxslarning daromad solig'iga qanday stavkalar belgilangan?

- a) proporsional;
- b) progressiv;
- d) regressiv;
- e) teng;
- f) barcha javoblar to'g'ri.

19. Jismoniy shaxslarning daromad solig'i qanday hisoblanadi?

- a) soliq ob'yekti va stavkalari asosida ;
- b) soliq stavkalari asosida;
- d) soliq bazasi va stavkalari asosida bosqichma-bosqich;
- e) soliq ob'yekti va stavkalari asosida bosqichma-bosqich;
- f) soliq ob'yekti va bazasi asosida bosqichma-bosqich.

20. Jismoniy shaxslarning daromad solig'i qachon eng yuqori stavka bo'yicha undiriladi?

- a) asosiy ish joyi bo'lmagan korxonada fuqaroning arizasiga muvofiq;
- b) asosiy ish joyida fuqaroning arizasiga muvofiq;
- d) to'lov manbaida olinadigan daromadlaridan;
- e) daromadini muddatidan oldinroq olganda;
- f) korxona o'rnatgan tartibga muvofiq.

21. Kimlar daromadlari to'g'risida deklaratsiya topshirishlari kerak?

- a) hamma ishlovchilar;
- b) ishlaydigan pensionerlar;
- d) bir joyda ishlab daromad oladigan kishilar;
- e) bir necha manbadan daromad oladigan kishilar;
- f) vaqtincha ishlaydigan kishilar.

22. Daromadlar to'g'risidagi deklaratsiya nima?

- a) fuqaroning yillik jami daromadi to'g'risidagi arizasi;
- b) jami daromaddan to'lanishi kerak bo'lgan va to'langan soliq summasini aniqlashga xizmat qiladigan hujjat;
- d) jami daromad va undan hisoblangan soliqning to'g'riligini tekshirishga

yordam beradigan hujjat;

e) soliq to'lovchilar va ob'yektlarni aniqlashga yordam beradigan hujjat;

f) barcha javoblar to'g'ri.

23. Daromadlar to'g'risidagi deklaratsiya qachon taqdim etiladi?

a) har oyda keyingi oyning 1-kunigacha ;

b) har chorakda undan keyingi oyning 10-kunigacha;

d) har yili keyingi yilning 1-apreliyigacha;

e) har 3 yilda bir marta;

f) har 5 yilda bir marta.

24. Daromadlar to'g'risidagi deklaratsiya kimga taqdim etiladi?

a) tuman (shahar) hokimligiga;

b) ijtimoiy ta'minot bo'limiga;

d) moliya bo'limiga;

e) soliq organiga;

f) sug'urta tashkilotiga.

5. Qo`shilgan qiymat solig`i

5.1.Qo`shilgan qiymat solig`i, uning to`lovchilari va ob`yektlari

Qo`shilgan qiymat solig`i birinchi bo`lib 1954 yili Fransiyada iqtisodchi M.Lore taklifiga muvofiq joriy etilgan va qisqa muddat ichida ko`pgina davlatlarda qo`llanila boshlagan. U 1990 yillar boshiga kelib 43 ta davlatda, shu jumladan barcha Yevropa ittifoqi davlatlarida qo`llanilgan. O`zbekistonda esa qo`shilgan qiymat solig`i 1992 yildan boshlab joriy etilgan. Bu soliqning fiskal siyosatda hissassi katta bo`lib, respublika byudjetiga tushadigan soliqlar summasining 28-30 foyizini tashkil etadi.

Qo`shilgan qiymat solig`i tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish, import qilish va sotish jarayonida yaratilgan qo`shilgan qiymatning bir qismini davlat byudjetiga o`tkazish vositasidir. U tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarishdan tortib, pirovard iste`molchigacha yetkazib berish jarayonlarida har bir sotish hujjatidan hisoblab olinadigan ko`p pog`onali soliqdir. Qo`shilgan qiymat solig`i tovarlar (xizmatlar, ishlar)ning narxi tarkibida bo`ladi va ularning xaridorlari (iste`molchilari) tomonidan to`lanadi.

Qo`shilgan qiymat solig`ining tavsifiy belgilari 5.1-chizmada aks ettirilgan.



5.1-chizma. Qo`shilgan qiymat solig`ining tavsifiy belgilari.

Qo`shilgan qiymat solig`i asosan fiskal funksiyasini bajaradi, uning joriy qilinishidan maqsad ham davlat byudjetini to`ldirish bo`lgan. Shuning bilan birga qo`shilgan qiymat solig`i soliq tushumlarini narxlarning o`sishi bilan to`g`ridan-to`g`ri bog`lab turganligi uchun byudjet mablag`larini inflyatsiyadan saqlab qoluvchi vositalardan hisoblanadi.

Qo`shilgan qiymat solig`i to`lovchilari quyidagilardir:

-soliq solinadigan aylanma (oborot)ga ega bo`lgan yuridik shaxslar-O`zbekiston Respublikasi rezidentlari va norezidentlari;

-tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni O`zbekiston Respublikasiga import qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar;

-soliq solinadigan aylanma (oborot)ga ega bo`lgan oddiy shirkat.

Quyidagilar qo`shilgan qiymat solig`i to`lovchisi hisoblanmaydi:

-notijorat tashkilotlari (tadbirkorlik faoliyati mahsulotlarini sotish aylanmasidan tashqari);

-solliq solishning soddalashtirilgan tartibini qo'llaydigan yuridik shaxslar.

Yagona solliq to'lovi to'lovchilari bo'lgan yuridik shaxslar solliq organlariga yilning navbatdagi choragi boshlanguniga qadar bir oy ichida, yangi tashkil etilayotganlari esa faoliyat boshlanguniga qadar, taqdim etadigan yozma bildirishga asosan ixtiyoriy ravishda qo'shilgan qiymat solig'i to'lashlari mumkin.

Qo'shilgan qiymat solig'i ob'yektlari quyidagilar:

-solliq solinadigan aylanma (oborot)-tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni sotish, ijaraga berish, tekinga berish, ustav jamg'armasiga topshirish bo'yicha aylanma (oborot);

-solliq solinadigan import.

O'zbekiston Respublikasi rezidenti tomonidan norezidenti uchun bajariladigan ishlar va ko'rsatiladigan xizmatlar mazkur ishlar va xizmatlarni oluvchining solliq solinadigan aylanmasi (oboroti)ga kiritiladi.

Solliq solinadigan baza sotilayotgan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning qo'shilgan qiymat solig'i kiritilmagan qiymatidir. Tovarlar (ishlar, xizmatlar) tannarxidan yoki olingan narxidan past narxlarda sotilganda, tekin berilganda solliq solinadigan baza ularning tannarxi yoki olingan narxi asosida aniqlanadi. Tovarlar qayta ishlashga berilgan xom ashyo va materiallardan tayyorlangan taqdirda, solliq solinadigan baza ularni qayta ishlash xizmatlarining qiymati asosida, aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha esa aksiz solig'ini hisobga olgan holda aniqlanadi.

Qurilish, qurilish-montaj va ta'mirlash - qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy ishlar, xizmatlar bo'yicha, shuningdek, ob'yektlarni foydalanishga tayyor holda qurishda shartnomaviy narxlar asosida bajarilgan va buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan ishlar, xizmatlarning qiymati solliq solinadigan bazadir.

Pudrat yoki ikkilamchi pudrat tashkilotlari tomonidan ob'yektlar qurish uchun qurilish pudrati shartnomasi tuzilgan taqdirda bajarilgan va tasdiqlangan ishlarning pudratchi (yordamchi pudratchi) va buyurtmachining sotilgan deb hisoblanadigan materiallari qiymati kiritilgan qiymati solliq solinadigan baza hisoblanadi. Qurilish-montaj, ta'mirlash va ta'mirlash-qurilish ishlarini bajarish uchun tuzilgan shartnomaga binoan bu ishlarni materiallar bilan ta'minlash vazifasi buyurtmachining zimmasida bo'lsa shu materiallarga bo'lgan mulk huquqi buyurtmachining o'zida saqlanib qolgan taqdirda bajarilgan va tasdiqlangan ishlarning buyurtmachi materiallarining qiymati kiritilmagan qiymati solliq solinadigan baza bo'ladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari bo'lgan savdo korxonalari import qilgan tovarlar sotilganda solliq solinadigan baza sotilayotgan tovarlarning qo'shilgan qiymat solig'i kiritilmagan qiymati hisoblanadi. Aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha solliq solinadigan bazaga aksiz solig'ining summasi ham

kiritiladi.

Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar sotilganda soliq solinadigan baza qo`shilgan qiymat solig`ini ham o`z ichiga oladigan sotish narxi bilan qoldiq qiymati o`rtasidagi musbat farq bo`ladi. Mol-mulk moliyaviy ijaraga (lizingga) berilganda soliq solinadigan baza qo`shilgan qiymat solig`ini ham o`z ichiga oladigan chiqib ketayotgan aktiv qiymati bilan uning balans (qoldiq) qiymati o`rtasidagi musbat farq hisoblanadi.

Tugallanmagan qurilish ob`yekti sotilganda soliq solinadigan baza qo`shilgan qiymat solig`ini ham o`z ichiga oladigan tugallanmagan qurilish ob`yektining sotish narxi bilan balans qiymati o`rtasidagi musbat farq bo`ladi. Transport ekspeditsiyasi shartnomasi bo`yicha xizmatlar ko`rsatilgan taqdirda, ekspeditorning soliq solinadigan bazasi qo`shilgan qiymat solig`ini ham o`z ichiga oladigan pul mukofotidir.

Vositachilik shartnomasi, topshiriq yoki vositachilik xizmatlari ko`rsatish bo`yicha boshqa shartnoma asosida boshqa shaxsning manfaatlarini ko`zlab xizmatlar ko`rsatilgan taqdirda soliq solinadigan baza qo`shilgan qiymat solig`i summasini ham o`z ichiga oladigan ko`rsatilgan xizmatlar uchun olinishi lozim bo`lgan summa bo`ladi.

Qaytariladigan tara soliq solinadigan aylanmaga kiritilgan taqdirda, tara belgilangan muddatda qaytarilmasa, soliq solinadigan baza mazkur taraning qo`shilgan qiymat solig`i summasini ham o`z ichiga oladigan garov qiymati hisoblanadi.

Soliq to`lovchining soliq solinadigan bazasiga quyidagi hollarda tuzatish kiritiladi:


- 1) tovarlar to`liq yoki qisman qaytarilganda;
- 2) bitim shartlari o`zgarganda;
- 3) narxlar o`zgarganda, sotib oluvchi siylov (chegirma) dan foydalanganda;
- 4) bajarilgan ishlar, ko`rsatilgan xizmatlardan voz kechilganda.

Bunday tuzatish kiritish bir yil ichida, kafolat muddati belgilangan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo`yicha kafolat muddati doirasida qo`shimcha hisobvaraqq-faktura yoki boshqa hujjat yozish asosida amalga oshiriladi.

Tovarlarni import qilishda soliq solinadigan bazaga tovarlarning bojxona qiymati hamda to`lanishi lozim bo`lgan aksiz solig`i va bojxona boji kiradi.

O`zbekiston Respublikasi norezidenti tomonidan taqdim etilgan ishlar, xizmatlarning sotish joyi O`zbekiston Respublikasi bo`lsa, ularni oluvchi soliq to`lovchi hisoblanadi va u hisob-kitob taqdim etishi lozim. Bunda soliq solinadigan baza norezidentga to`lanishi lozim bo`lgan summa hisoblanadi. Byudjetga to`lanishi lozim bo`lgan qo`shilgan qiymat solig`ining summasi belgilangan stavka va soliq solinadigan bazadan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Qo`shilgan qiymat solig`i to`lovchilari, ob`yektlari va bazasi umimiy ko`rinishda 5.2-chizmada keltirilgan.



5.2 – chizma. Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari, ob'yektlari va bazasi.

5.2.Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha imtiyozlar

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha imtiyozlar quyidagi guruhlariga bo'linadi:

- 1) ayrim sotish aylanmalarini qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilish;
- 2) ayrim moliyaviy xizmatlarni qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilish;
- 3) ayrim sug'urta xizmatlarini qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilish;
- 4) ayrim tovarlarni import qilishda qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilish;
- 5) qo'shilgan qiymat solig'ining nol darajali stavkasini qo'llash.

Qo'shilgan qiymat solig'idan quyidagi sotish aylanmalari ozod etiladi:

-davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda boshqa vakolatli davlat organlari va tashkilotlari tomonidan ko'rsatiladigan, davlat boji va yig'imlar undiriladigan xizmatlar;

- maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni tarbiyalashga doir xizmatlar;
 - bemorlar va keksalarni parvarish qilishga doir xizmatlar;
 - dafn etish byurolari va qabristonlarning marosim xizmatlari, diniy ashyolarni sotish, diniy tashkilotlar hamda birlashmalarning udumlar va marosimlar o'tkazishga doir xizmatlari;
 - protez-ortopediya buyumlari, nogironlar uchun inventarlar ishlab chiqarish, ularni ta'mirlash va ulardan foydalanish bo'yicha xizmatlar, nogironlarga ko'rsatilayotgan ortopedik-protezlash xizmatlari;
 - davolash muassasalari huzuridagi davolash-ishlab chiqarish ustaxonalarining mahsulotlari;
 - shahar yo'lovchilar transportlarining xizmatlari (taksi, yo'nalish taksilaridan tashqari) va shahar atrofidagi yo'nalishlarda yo'lovchilar tashish xizmatlari;
 - oliy, o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar, shuningdek, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash o'quv yurtlarida, haq evaziga o'qitishga doir xizmatlari;
 - davlat mol-mulkini ijaraga berish bo'yicha xizmatlar;
 - tibbiy (veterinariya) xizmatlari (kosmetologiya xizmatlaridan tashqari), dori vositalari va tibbiy (veterinariya) buyumlari;
 - chet el havo kemalariga xizmat ko'rsatish;
 - sanatoriya-kurort, sog'lomlashtirish, turistik - ekskursiya xizmatlari va bolalar dam olish oromgohlari, jismoniy tarbiya va sport muassasalarining xizmatlari;
 - gidrometereologiya va aerologiya, geologiya va topografiya ishlari;
 - bosma mahsulotlar, ularni ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq tahririy, matbaa va noshirlik ishlari;
 - nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroni» jamg'armasi va «O'zbekiston chernobilchilari» assotsiatsiyasi mulkida bo'lgan hamda ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar tashkil etuvchi yuridik shaxslar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar (vositachilik, savdo, tayyorlov, ta'minot-sotish faoliyati aylanmalaridan tashqari);
 - uy-joy fondini saqlash va ta'mirlash yuzasidan aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar;
 - o'zi yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari;
 - ichki ishlar organlari huzuridagi qo'riqlov bo'linmalari xizmatlari;
 - boshqa ishlar va xizmatlar.
- Qo'shilgan qiymat solig'idan bir qator moliyaviy va sug'urta xizmatlari ozod qilingan (ularning ro'yxati Soliq kodeksida keltirilgan).
- Quyidagi tovarlarni import qilish qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadi:
- jismoniy shaxslar tomonidan tovarlarni bojsiz olib kirish me'yorlari doirasida olib kirilayotgan tovarlar;
 - chet el diplomatik vakolatxonalari va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalar ma'muriy-texnik xodimlari, o'zlari bilan birga yashayotgan oila a'zolari shaxsiy foydalanishi uchun mo'ljallangan tovarlar;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda insonparvarlik yordami tariqasida olib kirilayotgan tovarlar;

- davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar tomonidan xayriya yordami va texnik ko'mak ko'rsatish maqsadida hamda grant mablag'lari hisobidan olib kirilayotgan tovarlar;

- dori vositalari va tibbiy (veterinariya) buyumlari hamda ularni ishlab chiqarish uchun olib kirilayotgan xom ashyo;

- qonun hujjatlariga muvofiq tasdiqlangan ro'yxat bo'yicha olib kirilayotgan texnologik asbob-uskunalar, butlovchi buyumlar va ehtiyot qismlar;

- investor bilan davlat mulkini boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq investitsiya majburiyatlari sifatida olib kiriladigan mol -mulk;

- bolalar poyabzali ishlab chiqarishga ixtisoslashgan chet el investitsiyalari bo'lgan korxonalar o'z ishlab chiqarishida foydalanish uchun olib kirayotgan xom ashyo, materiallar va tanavorlar.

Quyidagi hollarda nol darajali stavka bo'yoicha qo'shilgan qiymat solig'i qo'llaniladi:

1) tovarlarni eksport qilish (qimmatbaho metallardan tashqari);

2) paxta hosilini sotish;

3) chet el diplomatik vakolatxonalari va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarga rasmiy foydalanish uchun sotilayotgan tovarlar, xizmatlar, ishlar;

4) «Bojxona hududida qayta ishlash» rejimiga joylashtirilgan tovarlarni qayta ishlash bo'yicha bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar;

5) xalqaro yo'nalishda tashishlarda ko'rsatiladigan xizmatlar;

6) aholiga ko'rsatilayotgan kommunal xizmatlar.

5.3.Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi

Qo'shilgan qiymat solig'i soliq solinadigan baza va belgilangan stavkalar asosida hisoblab chiqariladi. Umumiy stavka 20 foiz qilib belgilangan hamda yuqorida sanab o'tilgan hollarda nol stavka ham qo'llaniladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i quyidagi tartibda hisoblab chiqariladi.

1. Aksiz solig'i solinmaydigan tovarlarga:

$$QQS = \frac{Tsq \cdot Ss}{100},$$

buyenda: QQS-qo'shilgan qiymat solig'i summasi;

Tsq - tovarlarning sotish qiymati;

Ss - soliq stavkasi.

2. Aksiz solig'i solinadigan tovarlarga:

$$QQS = \frac{(Tsq + As) \cdot Ss}{100},$$

buyorda: As - aksiz solig'i summasi.

3. Import qilinayotgan aksiz solig'i solinmaydigan tovarlarga:

$$QQS = \frac{(Tbq + Bb) \cdot Ss}{100},$$

buyorda: Tbq- tovarlarning bojxona qiymati;

Bb -bojxona boji.

4. Import qilinayotgan aksiz solig'i solinadigan tovarlarga:

$$QQS = \frac{(Tbq + As + Bb) \cdot Ss}{100}.$$

5. Import qilinayotgan ishlar va xizmatlarga:

$$QQS = \frac{IXdq \cdot Ss}{100},$$

buyorda: IXdq - ishlar, xizmatlarning dalolatnoma qiymati.

6. Korxona tomonidan byudjetga o'tkaziladigan qo'shilgan qiymat solig'i summasini aniqlash:

$$QQSb = QQSo - QQSt \text{ yoki } QQSb = QQS_u - QQShk,$$

buyorda: QQSb - qo'shilgan qiymat solig'ining byudjetga o'tkaziladigan summasi;

QQSo - tovarlar (ishlar, xizmatlar) ni sotganda olingan qo'shilgan qiymat solig'i summasi;

QQSt - mahsulot ishlab chiqarish uchun xom ashyo va materiallar sotib olganda hamda boshqa korxonalarning ishlari va xizmatlaridan foydalanganda to'langan qo'shilgan qiymat solig'i summasi;

QQSu - qo'shilgan qiymat solig'ining umumiy summasi;

QQShk - qo'shilgan qiymat solig'ining hisobga kiritilgan summasi.

Misol. Aksiyadorlik jamiyati shaklidagi yog` zavodi bir oyda 300 tonna paxta yog'i ishlab chiqarib, 240 tonnasini ichki bozorda va 60 tonnasini eksportga sotishi kerak. Uni ishlab chiqarishi uchun 128,0 mln. so'mlik xom ashyo (chigit) va boshqa materiallar sotib olib ishlatiladi. Ularning qiymatidan tashqari yetkazib beruvchilarga 25,6 mln. so'm $(128,0 \cdot 20):100$ -qo'shilgan qiymat solig'i ham to'lanadi. Mahsulotning umumiy tannarxi 216,0 mln. so'm va 17 foiz foyda bilan birga qiymati 252,72 mln. so'mni yoki 1 tonna uchun 825,0 ming so'mni tashkil etadi. Paxta yog'ining 1 tonnasiga 544,5 ming so'm aksiz solig'i belgilangan. Qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'i yog'ning ichki bozorda sotiladigan qismiga qo'llaniladi. Qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan baza mahsulotning aksiz solig'i summasi qo'shilgan holdagi qiymati hisoblanadi. Ichki bozorda sotiladigan yog'ning qiymati 198,0 mln. so'm $(240 \cdot 825,0)$, aksiz solig'i summasi 130,68 mln. so'm $(240 \cdot 544,5)$ qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan baza 328,68 mln. so'mni $(198,0 + 130,68)$ tashkil etadi. Qo'shilgan qiymat solig'ining hisoblangan summasi 65736,0 ming so'mga $(328,68 \cdot 20):100$, byudjetga o'tkaziladigan summasi 40136,0 ming so'mga $(65736 - 25600)$ teng bo'ladi.

Hisobga olinadigan qo`shilgan qiymat solig`ining hisob-kitob shakli quyida ko`rsatilgan.

Hisobga olinadigan qo`shilgan qiymat solig`i summasi hisob-kitobi

Ko`rsatkichlar	Satr kodi	Har bir oborotning realizatsiya bo`yicha jami oborotdagi salmog`i	Realizatsiya bo`yicha oborot summasi	QQS
1	2	3	4	5
Tovar (ish, xizmat)larni sotishdan sof tushum-jami (Moliyaviy natijalar to`g`risidagi hisobot-2-son shaklning 010-satri)	010	100%		x
shu jumladan:				x
20 foizli stavka qo`llaniladigan	0101			x
0 foizli stavka qo`llaniladigan (tovarlar eksportidan tashqari) oborotlar uchun	0102			x
0 foizli stavka qo`llaniladigan tovarlar eksporti :	0103	X	x	x
Chet el valyutasida	01031	X		x
jo`natish kuniga O`R Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo`yicha milliy valyutadagi ekvivalentda	01032			x
valyuta tushumi kelib tushishi (chet el valyutasida)	0133	X		x
kelib tushgan chet el valyutasining salmog`i (01033-satr/01031-satr x 100)	01034		x	x
soliq solinmaydigan tushum	0104			x
Hisobga olinadigan QQS summasi hisob –kitobi uchun ishlatiladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo`yicha QQS summasi (1-ilovaning 040-satri)	030	X	x	
Olingan va realizatsiya bo`yicha oborotlar uchun ishlatiladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo`yicha QQS summasi (alohida-alohida yuritiladigan hisob bo`yicha) (0301-satr+0302-satr+0303-satr+0304-satr)		x	x	
shu jumladan:	0301	x	x	
20 foizli stavka qo`llaniladigan oborotlar uchun	0302	x	x	
0 foizli stavka qo`llaniladigan (tovarlar eksportidan tashqari) oborotlar uchun	0303	x	x	
0 foizli stavka qo`llaniladigan tovarlarning chet el valyutasidagi eksporti uchun	0304	x	x	
Qo`shilgan qiymat solig`i solinmaydigan oborot uchun	040	x	x	
Olingan va realizatsiya bo`yicha oborotlar uchun		x	x	

ishlatiladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha QQS summasi (mutanosib usul bo'yicha) (020-satr-030-satr)				
shu jumladan:		x	x	
20 foizli stavka qo'llaniladigan oborotlar uchun (040-satr x 0101-satr)	0401	x	x	
0 foizli stavka qo'llaniladigan (tovarlar eksportidan tashqari) oborotlar uchun (040-satr x 0102-satr)	0402	x	x	
0 foizli stavka qo'llaniladigan tovarlarning chet el valyutasidagi eksporti uchun (040-satr x 01032-satr)	0403	x	x	
Qo'shilgan qiymat solig'i solinmaydigan oborot uchun (040-satr x 0104-satr)	0404	x	x	
Olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha hisobga olinadigan QQS summasi (0501-satr+0502-satr+05031-satr)	050	x	x	
shu jumladan realizatsiya bo'yicha oborotlar uchun:				
20 foizli stavka qo'llaniladigan oborotlar uchun (0301-satr + 0401-satr)	0501	x	x	
0 foizli stavka qo'llaniladigan (tovarlar eksportidan tashqari) oborotlar uchun (0302-satr + 0402-satr)	0502	x	x	
0 foizli stavka qo'llaniladigan tovarlarning chet el valyutasidagi eksporti uchun (0303-satr + 0403-satr)	0503	x	x	
shu jumladan, valyuta tushumi kelib tushganlari bo'yicha (0503-satr x 01034-satrning 3-ustuni/100)	05031	x	x	
Valyuta tushumining to'liq kelib tushmaganligi munosabati bilan hisobga olinmaydigan QQS summasi (0503-satr-05031-satr)	05032	x	x	
Hisobga olinmaydigan QQS summasi (020-satr-050-satr=0304-satr+0404-satr+05032-satr)	060			

Mol-mulk ustav jamg'armasiga (ustav kapitaliga) qo'yilma sifatida olinganda oluvchi yetkazib beruvchi tomonidan to'langan qo'shilgan qiymat solig'i summasini hisobga o'tkazishi mumkin. Qo'shilgan qiymat solig'i tovarlar (ishlar, xizmatlar) qaysi hisobot davrida olingan bo'lsa, o'sha hisobot davrida hisobga o'tkaziladi. Tovar vositachilik, topshiriq shartnomasi asosida olingan taqdirda, komitent, vakolat beruvchi O'zbekiston Respublikasi norezidenti hisoblansa, bojxonada to'langan qo'shilgan qiymat solig'i hisobot davrida sotilgan tovarlar ulushida hisobga o'tkaziladi. Umumbelgilangan soliqlar to'lashga va (yoki) qo'shilgan qiymat solig'ini ixtiyoriy to'lashga o'tilgan taqdirda, yuridik shaxs bunday turdagi to'lovlarga o'tilgan paytdan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning qoldiqlari bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i summasini hisobga o'tkazish huquqiga ega, xuddi shu tartib imtiyozlar bekor qilingan hamda

qo`shilgan qiymat solig`i to`lash bo`yicha majburiyat yuzaga kelgan soliq to`lovchilarga nisbatan ham tadbiriq etiladi.

Hisobga o`tkaziladigan summa qo`shilgan qiymat solig`i to`lovchining tanloviga binoan alohida-alohida va (yoki) mutanosib usulda aniqlanadi. Mutanosib usulda hisobga o`tkaziladigan qo`shilgan qiymat solig`i summasi soliq solinadigan aylanmaning umumiy aylanma summasidagi ulushidan kelib chiqib aniqlanadi. Alohida-alohida usul qo`llanilganda qo`shilgan qiymat solig`i to`lovchi soliq solinadigan va soliq solinmaydigan aylanmalar bo`yicha alohida - alohida hisob yuritadi.

Qo`shilgan qiymat solig`i bo`yicha soliq davri kalendar yili, hisobot davri quyidagilar hisoblanadi:

-qo`shilgan qiymat solig`i to`laydigan mikrofirma va kichik korxonalar uchun yil choragi;

-mikrofirma va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to`lovchilar uchun bir oy.

Qo`shilgan qiymat solig`ining hisob-kitobi (shakli quyida keltirilgan) soliq organlariga ortib boruvchi yakun bilan:

-qo`shilgan qiymat solig`i to`lovchisi bo`lgan mikrofirma va kichik korxonalar tomonidan yilning har choragida hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo`yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda;

-mikrofirma va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to`lovchilar tomonidan har oyda hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo`yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Qo`shilgan qiymat solig`i hisob-kitobi

Ko`rsatkichlar	Satr kodi	Summa
1	2	3
Hisobot davrida hisobga olinadigan qo`shilgan qiymat solig`i (QQS) summasi (2-ilovaning 050-satri)	010	
Avvalgi soliq davrida eksportga realizatsiya qilingan tovarlar bo`yicha tushum joriy soliq davrida kelib tushishi munosabati bilan hisobga olinadigan QQS summasi (3-ilovaning 050-satri)	020	
Hisobga olinadigan jami QQS summasi (010-satr+020-satr)	030	
Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti bo`yicha QQS summasi (4-ilovaning 010-satr 4-ustun)	040	
Byudjetga to`lanadigan (kamaytiriladigan) QQS summasi (040-satr - 030-satr)	050	

Qo`shilgan qiymat solig`ining hisob-kitobi bilan bir vaqtda soliq davri mobaynida olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo`yicha hisobvara-q-fakturalar reyestri taqdim etiladi.

Qo`shilgan qiymat solig`ini byudjetga to`lash qo`shilgan qiymat solig`i hisob-kitobini taqdim etish uchun belgilangan muddatdan kechiktirmay amalga oshiriladi.

5.4.Qo`shilgan qiymat solig`ini hisoblash va to`lashda hisobvara-q-faktura

Hisobvara-q-faktura qat'iy hisobot hujjati bo`lib, unda quyidagi ma'lumotlar ko`rsatiladi:

- hisobvara-q-fakturaning tartib raqami va yozib berilgan sanasi;
- hisobvara-q-faktura ilova qilinadigan tovar jo`natish hujjatlari yoki shartnomaning raqami va sanasi;
- soliq to`lovchining va tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotib oluvchining nomi, joylashgan yeri (pochta manzili) hamda identifikatsiya raqami;
- sotilgan tovarlar, bajarilgan ishlar, ko`rsatilgan xizmatlarning nomi va o`lchov birliklari, miqdori, narxi va umumiy qiymati
- aksiz to`lanadigan tovarlar bo`yicha aksiz solig`ining stavkasi va summasi;
- tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning sotib oluvchisiga taqdim etilayotgan qo`shilgan qiymat solig`i stavkasi va summasi;
- sotilgan tovarlarning aksiz to`lanadigan tovarlar bo`yicha aksiz solig`i va qo`shilgan qiymat solig`i hisobga olingan qiymati.

Qo`shilgan qiymat solig`i solinadigan va undan ozod qilingan aylanmani amalga oshirayotgan yuridik shaxslar, shuningdek, qo`shilgan qiymat solig`i to`lovchisi bo`lmagan yuridik shaxslar tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni oluvchi shaxsga hisobvara-q-faktura taqdim etishlari kerak, quyidagi hollardan tashqari:

- yo`lovchilar tashishni yo`1 chiptarlari bilan rasmiylashtirish;
- tovarlar (ishlar, xizmatlar) aholiga naqd pulga sotilganda sotib oluvchiga fiskal xotirali nazorat-kassa mashinasi cheki, terminal cheki, kvitansiya berish;
- tovarlarning eksport-import tarzida yetkazib berilishini rasmiylashtirish;
- qabul qilib olish-topshirish dalolatnomasi rasmiylashtiriladigan moliyaviy ijara (shu jumladan, lizing) shartnomasi bo`yicha mol-mulkni topshirish;
- bank operatsiyalarini mijozning shaxsiy hisobvarag`idan ko`chirma berish orqali rasmiylashtirish;
- sug`urta xizmatlarini kafillik sharnomasi va (yoki) sug`urta polisi orqali rasmiylashtirish;
- ishlar (xizmatlar)ni haqiqatda bajarilganligini tasdiqlovchi hujjatlar bilan rasmiylashtirish.

Hisobvara-q-faktura shakli quyida keltirilgan.

20__ yil "___" _____dagi
 _____-sonli tovar yuklab junatish hujjatiga
 20__ yil "___" _____dagi
 _____-sonli

Hisobvaraq -faktura

Yetkazib beruvchi: _____
 Manzil: _____

Telefon: _____

Hisob-kitob hisobvaraq

raqami: _____

_____da

_____shahri

yetkazib beruvchining identifikatsiya
 raqami(STIR): _____

(STIR): _____

Sotib oluvchi: _____

Manzil: _____

Telefon: _____

Hisob-kitob hisobvaraq

raqami: _____

_____da

_____shahri

Sotib oluvchining identifikatsiya
 raqami

XXTUT bo'yicha kod: _____

XXTUT bo'yicha kod: _____

Tovar (ish, xizmat) lar nomi	O'lchov birligi	Miqdori	Narxi	Yetkazib berish qiymati	Aksiz solig'i		QQS		Yetkazib berishning QQS hisobga olingan qiymati
					stav- kasi	sum- masi	stav kasi	sum- masi	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
Jami : to'lashga:									

Tovarni berdim _____
 (yetkazib beruvchining mas'ul shaxsi imzosi)

200__ yil __"____dagi
 _____-sonli ishonchnoma bo'yicha

 (Tovar oluvchining FISH)

Yuqorida sanab o'tilgan hujjatlar hisobvaraq-faktura o'rnini bosadigan hujjatlardir. Kelgusida tovarlarni yetkazib berish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'satish uchun oldindan to'langan haq (bo'nak) yozilgan hisobvaraq hisobvaraq-faktura bo'lmaydi. Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchi bo'lmagan, shuningdek, qo'shilgan qiymat solig'i to'lashdan ozod qilingan aylanmani amalga oshirayotgan yuridik shaxslar hisobvaraq-fakturada qo'shilgan qiymat solig'i

summasini ko'rsatmaydilar hamda «qo'shilgan qiymat solig'isiz» degan tamg'a bosadilar (yozib qo'yadilar). Qo'snigan qiymat solig'i to'lovchi uchun hisobvara-q-faktura qo'shilgan qiymat solig'ini hisobga o'tkazish uchun asos bo'ladi. Hisobvara-q-faktura tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotish amalga oshirilgan sanada yoziladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan elektr energiyasi, suv, gaz, aloqa xizmatlari, kommunal xizmatlar, temir yo'lda tashishlar, transport-ekspeditorlik xizmati, bank operatsiyalari, shuningdek, tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni uzluksiz yetkazib berishni amalga oshirayotgan soliq to'lovchilar hisobot davrining oxirgi kunida bir marta hisobvara-q-faktura yozadilar.

Tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchi soliq solinadigan bazaga uni ko'paytirishga (kamaytirishga) qaratilgan o'zgartirish kiritgan taqdirda, mazkur tovarlar (ishlar, xizmatlar) oluvchisi tomonidan tasdiqlangan yangi hisobvara-q-faktura «ilgari yozilgan hisobvara-q-faktura o'rniga» degan belgi bilan yozib beriladi. Soliq to'lovchilar kelib tushgan va taqdim etilgan hisobvara-q-fakturalar reyestrini yuritadilar. Hisobvara-q-fakturaning shakli O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Qisqacha xulosalar

1.Qo'shilgan qiymat solig'i byudjetni to'ldirishda salmoqli o'rin egallaydigan bilvosita soliq hisoblanadi va u respublika byudjetiga to'lanadi, ya'ni umumdavlat solig'idir. Qo'shilgan qiymat solig'i tovarlar, ishlar, xizmatlarga qo'llaniladi va ularning narxi tarkibiga kiradi. Demak, bu soliq ham boshqa bilvosta soliqlar kabi iste'molchilar zimmasiga tushadi, lekin uni byudjetga qo'shilgan qiymat solig'i to'lash majburiyati yuklangan yuridik va jismoniy shaxslar to'laydilar.

2.Qo'shilgan qiymat solig'i ob'yekti respublikada ishlab chiqarilgan tovarlar, ishlar, xizmatlar sotish aylanmasi (oboroti) hamda import qilinganda ularning import hajmi hisoblanadi. Soliq solish bazasi esa ishlab chiqarib sotiladigan tovarlar, ishlar, xizmatlarning qo'shilgan qiymat solig'i kiritilmagan qiymati, import qilishda tovarlarning bojxona qiymati va ishlar, xizmatlarning dalolatnoma qiymatidir.

3.Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha bir qator imtiyozlar berilgan: ayrim sotish aylanmalari (oborotlari), ayrim moliyaviy va sug'urta xizmatlari, ayrim tovarlarni import qilish qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan hamda ayrim hollarda qo'shilgan qiymat solig'ining nol darajali stavkasi qo'llaniladi.

4.O'zbekistonda qo'shilgan qiymat solig'i uchun yagona stavka belgilangan bo'lib, u 20 foizni tashkil etadi. Soliq summasi soliq solish bazasi va soliq stavkasi asosida hisoblab chiqariladi. Byudjetga to'lanadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi mahsulot sotishda olingan va xom-ashyo, materiallar, boshqa resurslar xarid qilishda to'langan soliq summalari farqi sifatida aniqlanadi. Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchi mikrofirma va kichik korxonalar yil

choragida, boshqa yuridik shaxslar har oyda soliqni to'lab borishlari kerak.

5. Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish, hisobga olish va to'lashda hisobvaraq – faktura muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun tovarlarni jo'natish va sotishda, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatishda ularning turi, miqdori, narxi, summasi va qo'shilgan qiymat solig'i summasi ko'rsatilgan hisobvaraq – faktura yozilishi shart.

Tayanch iboralar va tushunchalar: qo'shilgan qiymat, qo'shilgan qiymat solig'i, soliq solinadigan aylanma (oborot), sotish (realizatsiya) hajmi, soliqni hisobga olish, soliqni hisobga o'tkazish, nol darajali stavka, alohida-alohida hisob yuritish, mutanosib usul, hisobvaraq-faktura.

Nazorat va muhokama uchun savollar

- 1.Qo'shilgan qiymat solig'i va uning xususiyatlari.
- 2.Qo'shilgan qiymat solig'ining o'ri va roli.
- 3.Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari.
- 4.Qo'shilgan qiymat solig'i ob'yektlari.
- 5.Qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan baza va uni aniqlash.
- 6.Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha imtiyozlar.
- 7.Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash tartibi.
- 8.Qo'shilgan qiymat solig'ini hisobga o'tkazish.
- 9.Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash tartibi.
- 10.Qo'shilgan qiymat solig'ini hisobga olishda va to'lashda hisobvaraq-faktura.
- 11.Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha hisob-kitoblar tuzish va taqdim etish tartibi.
- 12.Qo'shilgan qiymat solig'i hisob-kitobi va hisoboti.

Mustaqil ish uchun topshiriqlar

- 1.Qo'shilgan qiymat solig'ining vazifalarini aniqlash.
- 2.Qo'shilgan qiymat solig'ining ta'rifi va tavsifini izohlash.
- 3.Qo'shilgan qiymat solig'ining o'ri va rolini baholash.
- 4.Qo'shilgan qiymat solig'i bazasini aniqlash tartibini o'rganish.
- 5.Qo'shilgan qiymat solig'i solinmaydigan holatlarni aniqlash.
- 6.Qo'shilgan qiymat solig'ining eksportda qo'llanilmasligini izohlash.
- 7.Qo'shilgan qiymat solig'ining nol darajali stavkasini qo'llash tartibini o'rganish.
- 8.Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha hisob-kitoblar shakllari va ularni to'ldirish tartibi bilan tanishish.

Test topshiriqlari

1. Qo`shilgan qiymat solig`i – bu:

- a) bevosita soliq;
- b) bilvosita soliq;
- d) birlamchi soliq;
- e) ikkilamchi soliq;
- f) barcha javoblar to`g`ri.

2. Qo`shilgan qiymat solig`i hisoblanadi:

- a) umumdavlat solig`i;
- b) mahalliy soliq;
- d) umumdavlat va mahalliy soliq;
- e) yagona soliq;
- f) barcha javoblar to`g`ri.

3. Qo`shilgan qiymat solig`i – bu:

- a) progressiv soliq;
- b) regressiv soliq;
- d) proporsional soliq;
- e) yagona soliq;
- f) to`g`ri javob yo`q.

4. Qo`shilgan qiymat solig`i aslida kimning zimmasiga tushadi?

- a) ishlab chiqaruvchilar;
- b) sotuvchilar;
- d) vositachilar;
- e) iste'molchilar;
- f) barchasi.

5. Qo`shilgan qiymat solig`ini byudjetga kim to`laydi?

- a) tovar ishlab chiqaruvchilar;
- b) ishlar bajaruvchilar;
- d) xizmatlar ko`rsatuvchilar;
- e) tovarlar, ishlar, xizmatlarni import qiluvchilar;
- f) barchasi.

6. Qo`shilgan qiymat solig`i qaysi byudjetga to`lanadi?

- a) respublika markaziy byudjetiga;
- b) mahalliy byudjetga;
- d) respublika va mahalliy byudjetlarga;
- e) soliq to`lovchi turar joyi byudjetiga;
- f) barcha javoblar to`g`ri.

7. Qo`shilgan qiymat solig`i to`lovchilari hisoblanadilar:

- a) faqat yuridik shaxslar;
- b) faqat jismoniy shaxslar;
- d) yuridik va jismoniy shaxslar;
- e) alohida yuridik shaxslar;

f) barchasi.

8. Qo`shilgan qiymat solig`i ob`yekti hisoblanadi:

a) tovarlar ishlab chiqarish hajmi;

b) tovarlar sotish aylanmasi;

d) bajarilgan ishlar;

e) ko`rsatilgan xizmatlar;

f) barchasi.

9. Qo`shilgan qiymat solig`i bazasi hisoblanadi:

a) sotilgan tovarlar qiymati;

b) bajarilgan ishlar qiymati;

d) ko`rsatilgan xizmatlar qiymati;

e) import qilinayotgan tovarlarning bojxona qiymati;

f) barchasi.

10. Qo`shilgan qiymat solig`i ob`yektiga kiradi:

a) ishlab chiqarilgan tovarlar sotish hajmi;

b) ishlab chiqarilgan tovarlar qiymati;

d) import qilinayotgan tovarlar;

e) import qilinayotgan tovarlarning bojxona qiymati;

f) barchasi.

11. Qo`shilgan qiymat solig`i bazasiga kiradi:

a) ishlab chiqarilgan tovarlar hajmi;

b) ishlab chiqarilgan tovarlar sotish hajmi;

d) import qilinayotgan tovarlar hajmi;

e) import qilinayotgan tovarlarning bojxona qiymati;

f) barchasi.

12. Qo`shilgan qiymat solig`i ob`yektini aniqlang:

a) tovarlarning ishlab chiqarish hajmi;

b) tovarlarning ishlab chiqarish qiymati;

d) tovarlar sotish hajmi (aylanmasi);

e) tovarlar qiymati;

f) to`g`ri javob yo`q.

13. Qo`shilgan qiymat solig`i bazasini aniqlang:

a) tovarlarning ishlab chiqarish hajmi;

b) tovarlarning ishlab chiqarish qiymati;

d) tovarlar sotish aylanmasi;

e) tovarlar sotish narxi;

f) to`g`ri javob yo`q.

14. Ishlar va xizmatlar import qilinganda qo`shilgan qiymat solig`i bazasi nima bo`ladi?

a) ishlar va xizmatlar hajmi;

b) ishlar va xizmatlarning bajarilishi;

d) ishlar va xizmatlarning sotish hajmi;

e) ishlar va xizmatlarning umumiy qiymati;

f) ishlar va xizmatlarning dalolatnoma qiymati.

15. Qo`shilgan qiymat solig`i stavkasi:

- a) 10%;
- b) 15%;
- d) 20%;
- e) 25%;
- f) 30%.

16. Qo`shilgan qiymat solig`i bo`yicha qanday imtiyozlar berilgan?

- a) ayrim sotish aylanmalari (oborotlari) ni soliqdan ozod qilish;
- b) ayrim moliyaviy xizmatlarni soliqdan ozod qilish;
- d) ayrim sug`urta xizmatlarini soliqdan ozod qilish;
- e) ayrim tovarlar importini soliqdan ozod qilish;
- f) barchasi.

17. Qo`shilgan qiymat solig`i hisoblab chiqariladi:

- a) soliq ob`yekti va stavkasi asosida ;
- b) soliq bazasi va stavkasi asosida
- d) soliq ob`yekti va imtiyozlari asosida;
- e) soliq imtiyozlari va stavkasi asosida;
- f) tushgan va to`langan soliq summalari asosida.

18.Qo`shilgan qiymat solig`ining byudjetga to`lanadigan summasi qanday aniqlanadi?

- a) soliq ob`yekti va bazasi farqi ko`rinishida;
- b) soliq bazasi va imtiyozlar summalari farqi ko`rinishida;
- d) soliq summasi va imtiyozlar summasi farqi ko`rinishida;
- e) tushgan va to`langan qo`shilgan qiymat solig`i summalari farqi ko`rinishida.
- f) to`g`ri javob yo`q

19.Mikrofirma va kichik korxonalar uchun qo`shilgan qiymat solig`ini to`lash muddati:

- a) bir yilda bir marta yil tugagandan so`ng;
- b) yarim yilda bir marta yarim yillik tugagandan so`ng;
- d) har chorak uchun chorak tugagandan so`ng;
- e) har oy uchun oy tugagandan so`ng;
- f) har o`n kunlik uchun o`n kunlik o`tgandan so`ng.

20.Mikrofirma va kichik korxona toifasiga kirmaydigan yuridik shaxslar uchun qo`shilgan qiymat solig`ini to`lash muddati:

- a) bir yilda bir marta yil tugagandan so`ng;
- b) yarim yilda bir marta yarim yillik tugagandan so`ng;
- d) har chorak uchun chorak tugagandan so`ng;
- e) har oy uchun oy tugagandan so`ng;
- f) har o`n kunlik uchun o`n kunlik o`tgandan so`ng.

21.Hisobvaraqlar – faktura qanday hujjat?

- a) bank hujjatlaridan biri;

- b) pul aylanishini ta'minlaydigan hujjat;
- d) bankdan pul olish uchun hujjat;
- e) qat'iy pul hujjati;
- f) qat'iy hisobot hujjati.

22.Hisobvaraq – fakturani kim yozadi?

- a) tijorat banki;
- b) tovar jo`natuvchi – sotuvchi;
- d) tovar oluvchi;
- e) vositachi;
- f) barcha javoblar to`g`ri.

23.Hisobvaraq – faktura nima uchun kerak?

- a) tovarlar sotish faktini va vaqtini tasdiqlash;
- b) ishlar bajarish faktini va vaqtini tasdiqlash;
- d) xizmatlar ko`rsatish faktini va vaqtini tasdiqlash;
- e) qo`shilgan qiymat solig`ini hisobga olish, hisoblash va to`lash;
- f) barcha javoblar to`g`ri.


24.Hisobvaraq – fakturada nimalar ko`rsatiladi?

- a) tovarlar, ishlar, xizmatlar nomlari va turlari;
- b) tovarlar, ishlar, xizmatlarning o`lchov birligi va miqdori;
- d) tovarlar, ishlar, xizmatlarning narxi va summasi;
- e) qo`shilgan qiymat solig`i summasi;
- f) barchasi.

6.Aksiz solig'i

6.1.Aksiz solig'i va uning xususiyatlari

Aksiz so'zi fransuz tilidan kelib chiqqan bo'lib, kesib tashlash degan ma'noni anglatadi. Aksiz solig'i tovarlar narxi ustiga qo'yiladi va sotilganda shu qismi kesib olinib, byudjetga o'tkaziladi. Mazkur soliq tovarlar narxi tarkibiga kiradigan bilvosita soliqlardan biri bo'lib, davlat byudjetini to'ldirishda muhim rol o'ynaydi. U byudjet tushumlarining 12 foizini tashkil etadi. Aksiz solig'ining tavsifiy belgilari (6.1-chizma) va asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat.



6.1– chizma. Aksiz solig'ining tavsifiy belgilari.

Aksiz solig'ining xususiyatlari quyidagilardir.

1.Aksiz solig'i tovarlar narxi ustiga qo'shimcha ravishda qo'yiladi va mahsulot ishlab chiqarish unumdorligi va samaradorligiga bog'liq ham emas, ta'sir ham etmaydi.

2.Aksiz ko'pincha ayrim tovarlarga talab ularning ishlab chiqarish xarajatlaridan yuqori va barqaror bo'lgan hollarda qo'shimcha daromad sifatida yuzaga keladi va u byudjetga olinadi. Bunday qilinmaganda korxonalar bu qo'shimcha daromadni unga hech qanday sarf-xarajat qilmasdan o'zlashtirishlari mumkin bo'ladi.

3.Aksiz solig'i jamiyat uchun iste'mol qilish zarur bo'lmagan tovarlar (alkogolli ichimliklar, tamaki mahsulotlari)ga ko'proq qo'yiladi.

4.Aksiz solig'i ham boshqa bilvosita soliqlar singari birinchi navbatda o'zining fiskal funksiyasini bajaradi va davlat byudjetini to'ldirishga xizmat qiladi.

5.Aksiz tabiiy monopoliyalarda ham narx belgilashda keng qo'llaniladi va ular olishi mumkin bo'lgan ortiqcha foyda aksiz sifatida davlat byudjetiga olinadi.

6.Tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklar aksiz markalari bilan majburiy tartibda markalanadi. Bu ishlarni tartibga solish, tashkil etish va amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Davlat soliq qo'mitasi Moliya vazirligi bilan birgalikda 1998 yil 10 dekabrda "O'zbekiston Respublikasida tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklarga aksiz markalarini qo'llash tartibi to'g'risida Yo'riqnoma" qabul qilganlar. Bu yo'riqnoma aksiz markalarini berish, qayd etish,

saqlash va qaytarish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilayotgan va uning hududiga olib kirilayotgan tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklarning aksiz markalari bilan markalanishi ustidan nazorat o'rnatish tartibini belgilaydi.

6.2. Aksiz solig'i to'lovchilari, ob'yektlari va bazasi

Aksiz solig'i to'lovchilari, ob'yektlari va bazasi 6.2-chizmada keltirilgan.

Aksiz solig'i to'lovchi yuridik va jismoniy shaxslar quyidagilar hisoblanadi:

-O'zbekiston Respublikasi hududida aksiz solig'i solinadigan tovarlarni ishlab chiqaruvchilar;

-O'zbekiston Respublikasi hududiga aksiz to'lanadigan tovarlarni import qiluvchilar;

-aksiz solig'i solinadigan tovarlar ishlab chiqaruvchi oddiy shirkat ishonchli shaxsi.

Aksiz solig'i ob'yekti-aksiz solig'iga tortiladigan tovarlar bo'lib, u quyidagi hollarda undiriladi:

-tovarlarni jo'natish va sotish;

-garov bilan ta'minlangan majburiyat bajarilmagan taqdirda qo'yilgan aksiz to'lanadigan tovarlarni garovga qo'yuvchi tomondan topshirish;

-aksiz to'lanadigan tovarlarni tekin topshirish;

-aksiz to'lanadigan tovarlarni ish beruvchi tomonidan ish haqi hisobiga xodimlarga yoki hisoblangan dividend hisobiga muassislar (ishtirokchilar) ga berish;

-aksiz to'lanadigan tovarlarni yuridik shaxsning ustav jamg'armasi (kapitali)ga hissa yoki pay badali tariqasida yohud oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha sherikning hissasi sifatida topshirish;

-aksiz to'lanadigan tovarlarni yuridik shaxsning ishtirokchisiga uning tarkibidan chiqqan (chiqib ketgan) taqdirda yoki yuridik shaxs qayta tashkil etilganligi, tugatilganligi munosabati bilan topshirish;

-oddiy shirkat shartnomasi ishtirokchilarining umumiy mulkdagi ulushi ajratib berilgan yoki bunday mol-mulk taqsimlangan taqdirda topshirish;

-aksiz to'lanadigan tovarlarni ulush qo'shish asosida qayta ishlashga topshirish, shuningdek, xom ashyo yoki materiallarni qayta ishlash mahsuli bo'lgan aksiz to'lanadigan tovarlarni ishlab chiqaruvchi tomonidan o'z mulkdoriga torshirish;


-ishlab chiqarilgan va qazib olingan aksiz to'lanadigan tovarlarni o'z ehtiyojlari uchun topshirish;

-aksiz to'lanadigan tovarlarni O'zbekiston Respublikasiga import qilish.

Quyidagilarga aksiz solig'i solinmaydi:

1) aksiz to'lanadigan tovarlarni ishlab chiqaruvchilari tomonidan eksportga sotish (ayrim turlaridan tashqari);

2) keyinchalik O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan olib chiqib ketilishi sharti bilan "Bojxona hududida qayta ishlash" rejimiga joylashtirilgan



6.2-chizma. Aksiz solig'i to'lovchilari, ob'yektlari va bazasi.

tovarlardan qayta ishlab chiqarilgan aksiz to'lanadigan tovarlarni topshirish;

3) tabiiy ofatlar, qurolli nizolar, baxtsiz hodisalar yoki avariya yuz berganda yordam ko'rsatish uchun insonparvarlik yordami va beg'araz texnik ko'mak sifatida, shuningdek, xayriya maqsadlari uchun aksiz to'lanadigan tovarlarni davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar tomonidan O'zbekiston Respublikasiga olib kirish (import qilish);

4) aksiz to'lanadigan tovarlarni O'zbekiston Respublikasiga soliq solinmaydigan me'yorlari doirasida jismoniy shaxslar tomonidan olib kirish;

Aksiz solig'i solinadigan baza aksiz to'lanadigan tovarlarning naturada ifodalanadigan hajmi yoki aksiz solig'i va qo'shilgan qiymat solig'i kiritilmagan qiymati hisoblanadi. Ish haqi va dividendlar hisobiga tekin yoki boshqa tovarlar (ishlar, xizmatlar)ga ayirboshlash uchun beriladigan tovarlar bo'yicha, shuningdek, tovarlar tannarxidan past narxlarda sotilganda haqiqiy tannarxidan kam bo'lmagan narx asosida hisoblangan qiymat soliq solinadigan bazadir. Qayta ishlashga berilgan xom ashyo va materiallardan ishlab chiqarilgan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza ularning qiymati va qayta ishlash xarajatlarini o'z ichiga oladi. Import qilinayotgan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza tovarlarning natural miqdori yoki bojxona qiymati hisoblanadi.

Soliq solinadigan bazaga quyidagi hollarda soliq to'lovchida tuzatish kiritiladi:

- tovarlar to'liq yoki qisman qaytarilganda;

- bitim shartlari o'zgarganda;

- narxlar o'zgarganda, sotib oluvchi siylov (chegirma)dan foydalanganda.

Soliq solinadigan bazaga tuzatishni kiritish bir yillik muddatda, kafolat muddati belgilangan tovarlar bo'yicha esa kafolat muddati doirasida yangi hisobvara-q-faktura yoki tasdiqlovchi boshqa hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

Aksiz to'lanadigan tovarlar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan tasdiqlanadi.

6.3. Aksiz solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi

Aksiz solig'ini hisoblab chiqarish soliq solish bazasi va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Aksiz solig'i stavkasi tovarning qiymatiga nisbatan foizda (advalor) va (yoki) natural birligiga mutlaq summada qat'iy belgilangan (6.1-va 6.2-jadvallarga qarang).

**O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan aksiz solig'i
solinadigan tovarlarga aksiz solig'i stavkalari**

T\r	Tovarlar nomi va birligi	Soliq stavkasi	
		Sotilgan tovarlar qiymatiga nisbatan foizda	Tovar natural birligiga, so`mda
1.	Etil spirti (1 dal uchun)		2292
2.	Vino (1 dal tayyor mahsulot uchun)		4744
3.	Konyak, aroq va boshqa alkogolli mahsulotlar (1 dal uchun)		18956
4.	Pivo (1 dal tayyor mahsulot uchun)		2156
5.	O'simlik (paxta) yog'i oziq ovqat uchun (1 tonna uchun)		657900
6.	O'simlik (paxta) texnik yog'i (1 tonna uchun)		361900
7.	Filtrli sigaretalar (1000 donasi uchun)		8949
8.	Filtrsiz sigaretalar va papirosalar (1000 donasi uchun)		4319
9.	Zargarlik buyumlari	25	
10.	"Jeneral Motors O'zbekiston" YoAJ ishlab chiqargan avtomobillar	29	
11.	Kumushdan yasalgan oshxona buyumlari	11	
12.	Neft mahsulotlari:		
13.	AI-80 benzini	40 %, biroq kamida 292250 so`m/t	
	AI-91,AI-92,AI-93 benzini	40 %, biroq kamida 321300 so`m/t	
	AI-95 benzini	40 %, biroq kamida 371750 so`m/t	
	dizel yoqilg'isi	34 %, biroq kamida 248550 so`m/t	
	EKO dizel yoqilg'isi	34%, biroq kamida 258500 so`m/t	
	aviatsiya kerosini	9%, biroq kamida 38000 so`m/t	
14.	Tabiiy gaz (aholiga sotiladiganidan tashqari), shuningdek eksport	25	
15.	Ishlab chiqaruvchilar sotadigan suyultirilgan gaz, shu jumladan eksport	26	

Izoh: 1. Dal-dekalitr, ya'ni 10 litr degani.

2. Etil spirit 40 foizdan ko'p bo'lgan konyak, aroq va boshqa ichimliklarga stavka 1 dal uchun 31236 so'm miqdorida belgilangan.

**O'zbekiston Respublikasiga chetdan keltiriladigan tovarlarga
aksiz solig'i stavkalari (umumlashtirilgan holda)**

T/r	Tovarlar nomi	Tovarning bojxona qiymatiga nisbatan foizda yoki natural birligi uchun AQSH dollarida
1.	Tabiiy asal, shaker, saxaroza	10
2.	Mol go'shti, parrandalar, qotirilgan sut, slivkalar, kofe, donlar, un, xamirli qandolat va boshqa turli oziq-ovqat mahsulotlari	20
3.	Go'sht va baliq mahsulotlari, shokolad va qandolat mahsulotlari, meva-sabzavotni qayta ishlash mahsulotlari	30
4.	Suxarilar	40
5.	Pishloq, tvorog, kefir, yogurt, yog'l loingan sut va slivkalar, osetr ikresi, drojja	50
6.	Etil spirti (tranzitda garov uchun qo'llaniladi)	65
7.	Uy parranda go'shti, chaynaladigan rezina, mushuk va kuchuk oziqalari	70
8.	Ho'l olma, nok, behi	100
9.	Muzqaymoq va boshqa turdagi oziq-ovqat muzi	200
10.	Meva va sabzavot sharbatlari, solod pivosi	70% , lekin litriga 1 AQSH dollaridan kam emas
11.	Mineral, gazlangan suvlar, boshqa alkogolsiz ichimliklar	100%, lekin litriga 1 AQSH dollaridan kam emas
12.	Vinolar	6 AQSH doll./litr
13.	Aroq va boshqa alkogolli mahsulotlar	7AQSH doll./litr
14.	Konyak	14,5 AQSH doll./litr
15.	Sigaralar	1 dona uchun 0,3 AQSH doll.
16.	Tamaki sigaretalari	1000 dona uchun 10 AQSH doll.
17.	Rossiyada ishlab chiqarilgan yangi transport vositalari	5
18.	Tormoz suyuqliklari, shina va pokrishkalar, paxta tolali kalava, paxta tolasi, linoleum, trikotaj buyumlar, antifriz, plastmassa trubalar.	10
19.	Atirlar, pardoz suvlari (ayrimlari), konselyariya tovarlari (ayrimlari), pochta otkritkalari, tabriknomalari, ruchkalar	15
20.	Sovunlar, ishlatilgan shina va pokrishkalar, qoplash plitalari, charmdan tayyorlangan buyumlar, ipak gazlamalar, trikotaj, metal , oshxona buyumlari	20
21.	Tabiiy va sun'iy mo'yna, kiyim predmetlari	25
22.	Paxta, doka, bint, bo'yoq va laklar, gugurt, plastmassadan vanna va santexnika buyumlari, yog'och buyumlari, ip gazlamalar	30
23.	Oshxona idishlari, izolyatsilangan simlar, mebel	50
24.	Oltin va marvarid buyumlar	90
25.	Gilamlar va polga to'shaladigan boshqa	120

	to'qimachilik buyumlari	
26.	Zargarlik buyumlari	140
27.	Transport vositalari dvigatelining hajmi: 1000 kub sm gacha: yangilari 3 yildan 7 yilgacha ishlatilganlari 7 yil va undan ortiq ishlatilganlari 1000 dan 1500 kub sm gacha 1500 dan 1800 kub sm gacha 1800 dan 3000 kub sm gacha 3000 kub sm dan yuqori	1 kub sm uchun 2,4 doll. 4,8 doll. 7,2 doll. 2,5 doll. 2,6 doll. 2,9 doll. 3,1 doll.
28.	Haydovchi bilan birga 10 va undan ortiq kishi tashiydigan avtomobillar: yangilari Ishlatilganlari	70% 70%+3,0 AQSH doll./kub sm
29.	Yuk avtomobillari: yangilari Ishlatilganlari	70% 70%+3,0 AQSH doll./kub sm

Aksiz solig'i quyidagi tartibda hisoblab chiqariladi.

1. O'zbekistonda ishlab chiqarilgan tovarlarga:

a) tovarning natural birligiga so'mlarda qat'iy stavka belgilangan tovarlarga:

$$As = Tm \cdot Ss,$$

buyesda: As – aksiz solig'i summasi;

Tm – tovarning natural miqdori;

Ss - soliq stavkasi;

b) advalor stavka belgilangan tovarlarga:

$$As = (Ts_q \cdot Ss) : 100,$$

buyesda: Ts_q – tovarning sotish qiymati (aksiz va qo'shilgan qiymat solig'i qo'shilmagan holda).

2. O'zbekistonga import qilinadigan tovarlarga:

a) tovarlarning natural birligiga AQSH dollarida qat'iy stavka belgilangan tovarlarga:

$$As = Tm \cdot Ss,$$

b) advalor stavka belgilangan tovarlarga:

$$As = \frac{(Tmq + Bb) \cdot Ss}{100},$$

buyesda: Tbq – tovarning bojxona qiymati;

Bb – bojxona boji.

Misol. Aksiyadorlik jamiyati shaklidagi korxona bir sutkada ishlab chiqargan:

-aroq 43 foizli 2000 dal qiymati 30,0 ming so'm;

-aroq 40 foizli 4000 dal qiymati 40,0 ming so'm;

-vino 13 foizli 3000 dal qiymati 21,0 ming so'm;

-yaxna ichimliklar 5000 dal qiymati 10,0 ming so'm;

Bu mahsulotlarga aksiz solig'i stavkasi quyidagicha belgilangan: 1dal 43 foizli aroq uchun 31236 so'm, 40 foizli aroq uchun 18956 so'm, vino uchun 4744 so'm. Aksiz solig'i $(2000 \cdot 31236) + (4000 \cdot 18956) + (3000 \cdot 4744) = 152528$ ming

so`mni tashkil etadi.

Izoh. 1.Dal-dekalitr degani bo`lib, 10 litrga teng.

2.Yaxna ichimliklarga aksiz solig`i solinmaydi.

Aksiz solig`ining summasi belgilangan chegirma summasiga kamaytiriladi. Aksiz to`lanadigan tovarlar olinayotganda yoki O`zbekiston Respublikasiga import qilinayotganda, agar mazkur tovarlardan keyinchalik aksiz to`lanadigan tovarlar ishlab chiqarish uchun xom ashyo sifatida foydalanilgan bo`lsa, to`langan aksiz solig`i summasi cheirib tashlanadi. Aksiz to`lanadigan tovarlar (xom ashyo) yetkazib beruvchilar ular bo`yicha aksiz solig`i summasini hisobvara-q-fakturada ajratib ko`rsatishlari kerak. Chegirma soliq davrida aksiz to`lanadigan tovarlar hajmiga to`g`ri keladigan summasiga nisbatan amalga oshiriladi. Shuningdek, qayta ishlashga berilgan xom ashyo va materiallardan tayyorlangan aksiz to`lanadigan tovarlar topshirilayotganda ham qayta ishlashga berilgan aksiz to`lanadigan xom ashyo va materiallarning miqdori aksiz solig`i to`langanligi tasdiqlanishi sharti bilan qo`llaniladi. Aksiz solig`i bo`yicha soliq davri va hisobot davri quyidagicha belgilangan:

1) mikrofirma va kichik korxonalar uchun yil choragi;

2) mikrofirma va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to`lovchilar uchun bir oy.

Aksiz solig`i hisob-kitobi ayrim tovarlar bo`yicha alohida-alohida tuzilib taqdim etiladi. Ularning shakli quyida keltirilgan.

Alkogolli mahsulotlar bo'yicha aksiz solig'i hisob-kitobi

	Tay-yor mah-sulot nomi	Soliq solinadigan baza			Soliq solinadi-gan bazani kamayti-rish-eksport ga sotish hajmi (dal)	Aksiz solig`ini hisoblash uchun soliq solinadigan baza(dal) (3-ust. -6-ust.)	1dal tayyor mahsulot uchun aksiz solig`i stavkasi (so`m)		To`lanishi lozim bo`lgan aksiz solig`i summasi				Aksiz solig`i to`lan-gan xom ashyo bo`yicha hisobga olinadigan soliq sum-masi (so`m)	Kamay-tirilishi (-), qo`shim-cha to`la-nishi (+) kerak bo`lgan aksiz solig`i summasi (so`m) (10-ust.-11-ust.-14-ust.)
		jami (dal)	shu jumladan				Byud-jetga	“O`zvino sanoat xolding” XK rekonstruksiya qilish va rivojlanti-rish fondi hisob raqamiga	byudjetga		“O`zvino sanoat xolding”XK rekonstruksiya qilish va rivojlantirish fondi hisob raqamiga			
			Realizat-siya qilingan mahsu-lot hajmi	soliq solinadigan boshqa oborotlar					hisoblangan (7-ust.x 8-ust.)	o`n kunlik to`lov-lar bilan to`lan-gan	hisoblan-gan (7-ust.x 9-ust.)	o`n kun-lik to`lovl ar bilan to`lan-gan		
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
I o`n kun lik														
II o`n kun lik														
III o`n kun lik														
Jami, oy uchun														

O`simlik (paxta) yog`i bo`yicha aksiz solig`i hisob-kitobi

	Tay- yor mah- sulot nomi	Soliq solinadigan baza			Soliq solinadigan bazani kamaytirish (tonna)		Aksiz solig`ini hisob-lash uchun soliq solinadi-gan baza (tonna) (3-ust. - 6-ust.- 7-ust.)	1tonna uchun aksiz solig`i stavkasi (so`m)		To`lanishi lozim bo`lgan aksiz solig`i summasi				Kamaytiri-lishi (-), qo`shimcha to`lanishi (+) kerak bo`lgan aksiz solig`i summasi (so`m) (11-ust.-12-ust.)
		Jami (tonna)	shu jumladan		Eks-port	salomas va O`zbe-kiston yog`i-ni ishlab chiqa-rish		umum-belgi-lan-gan stavka	byudjet ga to`lanishi lozim bo`lgan aksiz solig`i summasin i hisob-lash uchun	byudjetga		Yog`-moy va oziq-ovqat sanoati uyushmasining maxsus hisob raqamiga		
			realizat-siya qilingan mahsulot hajmi	soliq solinadi-gan boshqa oborotlar						hisoblan-gan (8-ust.x 10-ust.)	o`n kunlik to`lovlar bilan to`lan-gan	hisoblan-gan (8-ust.x 9-ust.-11-ust.)	o`n kunlik to`lov-lar bilan to`lan-gan	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
I o`n kunlik														
II o`n kunlik														
III o`n kunlik														
Jami, oy uchun														

Aksiz solig`ining hisob-kitobi soliq organlariga:

-mikrofirma va kichik korxonalar tomonidan yilning har choragida soliq davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay;

-mikrofirma va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan har oyda soliq davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay taqdim etiladi.

Aksiz solig`i byudjetga quyidagi muddatlarda to'lanadi:

-joriy oyning 13-kunidan kechiktirmay shu oyning birinchi o'n kunligi uchun;

-joriy oyning 23-kunidan kechiktirmay shu oyning ikkinchi o'n kunligi uchun;

-kelgusi oyning 3-kunidan kechiktirmay hisobot oyining qolgan kunlari uchun.

Import qilinayotgan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha aksiz solig`i tovarlarning bojxona rasmiylashtiruviga qadar yoki bojxona rasmiylashtiruvi vaqtida import qiluvchi tomonidan to'lanadi.

Aksiz markalari bilan tamg'alanishi lozim bo'lgan import qilinadigan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha aksiz solig`i aksiz markalari olinguniga qadar to'lanadi.

Qisqacha xulosalar

1.Aksiz solig`i bilvosita soliq bo'lib, davlat byudjetini to'ldirishda muhim rol o'ynaydi. Aksiz solig`i ayrim yuqori foyda keltiradigan tovarlarga, juda zarur bo'lmagan qimmatbaho buyumlarga, jamiyat uchun iste'moli zararli bo'lgan tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklarga qo'llaniladi. Respublikada ishlab chiqariladigan ayrim tovarlar va import qilinadigan tovarlar aksiz solig`iga totiladi. Aksiz solig`i asosan respublika markaziy byudjetiga, faqat ayrim tovarlar bo'yicha mahalliy byudjetga tushadi.

2.Aksiz solig`i ob'yekti bo'lib aksiz solig`i solinadigan respublikada ishlab chiqariladigan va import qilinadigan tovarlar hisoblanadi. Soliq solish bazasi esa aksiz to'lanadigan tovarlarning natural miqdori yoki aksiz solig`i va qo'shilgan qiymat solig`i kiritilmagan qiymati, import qilinadigan tovarlar bo'yicha esa tovarlarning natural miqdori yoki bojxona qiymatidir.

3.Turli tovarlarga aksiz solig`i stavkasi turlicha belgilangan. Ayrim tovarlarning natural birligiga stavka qat'iy so'mda (import qilinayotganda dollarda), ayrim tovarlar qiymatiga nisbatan foizda belgilangan. Aksizlar soliq to'lovchilar tomonidan hisoblab chiqarilishi va har o'n kunlik uchun to'lab borilishi kerak.

Tayanch iboralar va tushunchalar: aksiz, aksiz solig`i, iste'mol solig`i, aksizlanadigan tovarlar, aksiz solig`i solinadigan tovarlar, aksiz markalari, alkogolli ichimliklar, tamaki mahsulotlari, dekalitr (dal), O'zvinanoatxolding.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1.Aksiz solig`i - iste'mol solig`i sifatida.

2.Aksiz solig`ining xususiyatlari.

3.Aksiz solig`ining roli va taqsimlanishi.

4. Aksiz solig`i to`lovchilari va ob`yektlari.
5. Aksiz solig`i solinadigan baza va uni aniqlash.
6. Aksiz solig`i stavkalari.
7. Aksiz solig`ini hisoblab chiqarish tartibi.
8. Aksiz solig`ini to`lash tartibi.
9. Aksiz solig`i hisob-kitobi va hisoboti.

Mustaqil ish uchun topshiriqlar

1. Aksiz solig`ining vazifalarini aniqlash.
2. Aksiz solig`ining o`rni va rolini baholash.
3. O`zbekistonda ishlab chiqariladigan aksiz solig`i solinadigan tovarlarni tavsiflash.
4. Aksiz solig`ining aralash stavkalarini qo`llash tartibini o`rganish.
5. Aksiz solig`i bo`yicha chegirmalar qo`llashni aniqlash.
6. Aksiz solig`ini takomillashtirish imkoniyatlarini baholash.
7. Aksiz solig`i bo`yicha hisob-kitoblar shakllari va ularni to`ldirish tartibi bilan tanishish.

Test topshiriqlari

1. Aksiz solig`i – bu:

- a) bevosita soliq;
- b) birlamchi soliq;
- d) bilvosita soliq;
- e) ikkilamchi soliq;
- f) barcha javoblar to`g`ri.

2. Aksiz solig`i – bu:

- a) proporsional soliq;
- b) progressiv soliq;
- d) pegrressiv soliq;
- e) teng soliq;
- f) to`g`ri javob yo`q.

3. Aksiz solig`i aslida kimning zimmasiga tushadi?

- a) xaridorlar, iste`molchilar;
- b) sotuvchilar, buyurtmachilar;
- d) vositachilar;
- e) chakana sotuvchilar;
- f) barchasi.

4. Aksiz solig`i qo`shiladi:

- a) xarajatlarga;
- b) chiqimlarga;
- d) daromadga;
- e) narxga;

f) barchasiga.

5. Aksiz solig'i to'lovchilari:

- a) ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslar;
- b) import qiluvchi yuridik shaxslar;
- d) import qiluvchi jismoniy shaxslar;
- e) import qiluvchi yakka tadbirkorlar;
- f) barchasi.

6. Aksiz solig'i qo'llanilmaydi:

- a) tovarlar ishlab chiqarilganda;
- b) tovarlar eksport qilinganda;
- d) tovarlar import qilinganda;
- e) tovarlar naqd pulga sotilmaganda;
- f) to'g'ri javob yo'q.

7. Aksiz solig'i qaysi byudjetga tushadi?

- a) respublika markaziy byudjetiga;
- b) viloyat byudjetiga;
- d) shahar byudjetiga;
- e) tuman byudjetiga;
- f) barchasiga.

8. Aksiz solig'i ob'yekti qaysi javobda ko'rsatilgan?

- a) ishlab chiqariladigan va import qilinadigan ayrim tovarlar;
- b) ishlab chiqariladigan va import qilinadigan barcha tovarlar;
- d) ishlab chiqariladigan va eksport qilinadigan ayrim tovarlar;
- e) ishlab chiqariladigan va eksport qilinadigan barcha tovarlar;
- f) barcha javoblar to'g'ri.

9. Aksiz solig'i bazasiga kiradi:

- a) ishlab chiqarilgan tovarlarning natural hajmi;
- b) ishlab chiqarilgan tovarlarning qiymati;
- d) import qilinayotgan tovarlarning natural hajmi;
- e) import qilinayotgan tovarlarning bojxona qiymati;
- f) barchasi.

10. Aksiz solig'iga qanday stavkalar qo'llaniladi?

- a) tovarning natural birligiga, natural miqdoriga belgilangan stavka;
- b) tovarning natural birligiga belgilangan stavka;
- d) tovarning natural birligiga qat'iy summalarda belgilangan stavka;
- e) tovarning natural birligiga qat'iy miqdorda belgilangan stavka;
- f) to'g'ri javob yo'q.

11. Aksiz solig'ining advalor stavkasi qanday ko'rinishga ega?

- a) tovarlarning soliq solinadigan miqdoriga nisbatan foizda;
- b) tovarlarning soliq solinadigan natural hajmiga nisbatan foizda;
- d) tovarlarning soliq solinadigan natural hajmiga natural miqdorda;
- e) tovarlarning soliq solinadigan qiymatiga nisbatan foizda;
- f) to'g'ri javob yo'q.

12.Aksiz solig`i stavkalari qanday darajada belgilangan?

- a) ishlab chiqiriladigan tovarlarning barcha turlariga bir xil stavka;
- b) import qilinadigan tovarlarning barcha turlariga bir xil stavka;
- d) eksport qilinadigan tovarlarning turlari bo`yicha bir xil stavka;
- e) tovarlarning sotilishiga qarab har xil stavkalar;
- f) ishlab chiqariladigan va import qilinadigan tovarlarning turlari bo`yicha har xil stavkalar.

13.Aksiz solig`iga aralash stavkalari qanday belgilangan?

- a) ishlab chiqariladigan ayrim tovarlarga ham foizda, ham dollarda belgilangan;
- b) import qilinadigan ayrim tovarlarga ham foizda, ham dollarda belgilangan;
- d) eksport qilinadigan ayrim tovarlarga ham foizda, ham dollarda belgilangan;
- e) tovarlarning barcha turlariga ham foizda, ham dollarda belgilangan;
- f) barcha javoblar to`g`ri.


7.Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar

Yer qa'ri (osti) deganda yer qobig'ining yuqori qismini qamrab oladigan hamda foydali qazilmalarni izlash va qazib olish mumkin bo'lgan makon, foydali qazilmalar deganda iqtisodiyot va sog'lomlashtirish uchun ahamiyatga ega bo'lgan geologik hosilalar (tabiiy sharoitda hosil bo'lgan narsalar), texnogen hosilalar deganda esa mineral xom ashyoni (shu jumladan, texnologik yoki boshqa sabablarga ko'ra vaqtincha ishlatilmayotgan) mineral xom ashyoni qazib olish va qayta ishlash chiqindilari tushiniladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida konlarni aniqlash va razvedka qilish, foydali qazilmalarni kavlab olish (shu jumladan, texnogen mineral hosilalardan foydali qazilmalarni ajratib olish), ulardan foydali komponentlarni ajratib olish uchun ularni qayta ishlashni amalga oshiradigan yuridik va jismoniy shaxslar yer qa'ridan foydalanuvchilar hisoblanadilar. Ular quyidagi soliqlar va maxsus to'lovlarni to'laydilar:

- yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;
- qo'shimcha foyda solig'i;
- bonus.

Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun to'lovlar bo'yicha asosiy ma'lumotlar 7.1-chizmada umumlashtirilgan holda keltirilgan.



7.1–chizma. Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun to'lov turlari va ularning to'lovchilari, ob'yektlari, bazasi.

7.1.Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq

O'zbekiston foydali qazilmalarga, mineral xom ashyoga boy mamlakat bo'lib, ulardan oqilona foydalanishda yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq ham ma'lum rol o'ynaydi. Respublikada mazkur soliq tushumlarining tarkibi 7.1-jadvalda keltirilgan.

7.1-jadval

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq tushumlarining tarkibi

Foydali qazilmalar bo'yicha		Hududlar bo'yicha	
foydali qazilmalar	ulushi, foiz	viloyatlar	ulushi, foiz
Oltin	42,4	Navoiy	45,2
Tozalangan mis	39,5	Toshkent	39,9
Tabiiy gaz va gaz kondensati	10,1	Qashqadaryo	13,0
Neft	4,2	Boshqalar	1,9
Kumush	1,9		
Boshqalar	1,9		
Jami	100	Jami	100

Manba. Jo'rayev A.S. va boshqalar. Soliqlar va soliqqa tortish. T., Norma, 2009, 102 b.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilar quyidagilar:

-yer qa'ridan foydali qazilmalarni kavlab olayotgan, mineral xom ashyo va texnogen mineral hosilalardan foydali qazilmalarni ajratib olayotgan yer qa'ridan foydalanuvchilar;

-foydali qazilmalardan foydali komponentlarni ajratib olib, ularni qayta ishlashni amalga oshirayotgan yer qa'ridan foydalanuvchilar.

Tarkibida rangli, nodir, qora metallar va boshqa mineral xom ashyo bo'lgan rudalarni bir korxona qazib olib, uni qayta ishlash uchun boshqa korxonaga bersa undan tayyor mahsulot ishlab chiqaradigan korxona soliq to'lovchi hisoblanadi. Masalan, korxona qazib olgan mis rudasini boyitish korxonasiga, u esa tayyor mahsulot-tozalangan katodli mis ishlab chiqaradigan korxonaga beradi. Bu yerda oxirgi korxona soliq to'lovchi bolib hisoblanadi. Rudani qayta ishlash uchun u O'zbekistondan tashqariga jo'natilsa yoki eksport qilinsa rudani qazib olgan korxona soliq to'lovchi hisoblanadi. Kavlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulotning hajmi yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solish ob'yektidir. Tayyor mahsulotlar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan belgilanadi. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi belgilangan va sotish yoki topshirish, shu jumladan, tekin berish, shuningdek, mahsulot ishlab chiqarish maqsadida o'z iste'moli va boshqa ehtiyojlari uchun mo'ljallangan foydali qazilma (foydali komponent) tayyor mahsulot deb e'tirof etiladi. Soliq solish ob'yekti tayyor mahsulotning har bir turi bo'yicha alohida aniqlanadi va unga quyidagilar kiradi:

-sanoat yo'sinida dastlabki qayta ishlovdan o'tkazilgan kavlab olingan uglevodorodlar, shu jumladan, qo'shib chiqqan foydali qazilmalar va foydali

komponentlar;

-uglevodorodlarni qayta ishlash jarayonida ajratib olingan, lekin oldingi kavlab olinganda yoki qayta ishlanganda tayyor mahsulot sifatida soliq solinmagan foydali komponentlar;

-kavlab olingan va (yoki) ajratib olingan, shu jumladan, texnogen mineral hosilalardan ajratib olingan qattiq foydali qazilmalar;

-qayta ishlovchi korxonalar tomonidan qayta ishlash jarayonida ajratib olingan foydali qazilmalar.

Qatlamdagi bosimni saqlab turish uchun va gaz kondensatini tugal texnologik jarayon doirasida ajratib olish uchun mahsuldor qatlamiga qayta haydab kiritilgan tabiiy gaz, soliq to'lovchiga berilgan yer uchastkalarida kavlab olingan hamda o'z ehtiyojlari uchun foydalanilgan keng tarqalgan foydali qazilmalar soliq solish ob'yekti bo'lmaydi. Kavlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulotning o'rtacha sotish narxida hisoblab chiqilgan qiymati soliq solinadigan bazadir. O'rtacha sotish narxi har bir kavlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulot bo'yicha alohida aniqlanadi. Tayyor mahsulot tannarxidan past narxda sotilgan (topshirilgan) hamda o'zining ishlab chiqarish yoki xo'jalik ehtiyojlari uchun foydalanilgan hollarda bunday mahsulot uchun soliq solinadigan baza tayyor mahsulotning ishlab chiqarish tannarxidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Mazkur soliq bo'yicha soliq davri-kalendar yili, hisobot davri esa quyidagilar:

-mikrofirma va kichik korxonalar uchun yil choragi;

-mikrofirma va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar uchun bir oy;

-jismoniy shaxslar uchun kalendar yili.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq summasi soliq solinadigan baza va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

7.2-jadval

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari

Soliq solinadigan ob'yekt nomi	Soliq stavkasi, soliq solinadigan bazaga nisbatan foizda
1. Asosiy va qo'shimcha foydali qazilmalar kavlab olinishi uchun	
Energiya manbalari:	
Tabiiy gaz	30.0
Utilizatsiya qilingan tabiiy gaz	9.0
Yer ostidan kavlab olingan gaz	2.6
Nostabil gaz kondensati	20.0
Neft	20.0
Ko'mir	4.0
Rangli va nodir metallar:	
Tozalangan mis	8.1
Molibdenli sanoat mahsuloti	4.0
Konsentratlangan qo'rg'oshin	4.0
Metall ruh	4.0

Uran	10.0
Volfram konsentrati	10.4
Asl metallar:	
Oltin	5.0
Kumush	8.0
Qimmatbaho, yarim qimmatbaho va zeb-ziynat toshlar xom ashyosi	24.0
Qora metallar:	
Temir	4.0
Kon-kimyo xom ashyosi:	
Tosh tuz (ovqatga ishlatiladigan)	3.5
Kaliy tuzi	3.5
Natriv sulfati	3.5
Fosforitlar (grafitlarda)	5.0
Karbonat xom ashyosi (ohaktoshlar, dolomitlar)	3.5
Glaukonit	3.5
Mineral pigmentlar	4.8
Kon - ruda xom ashyosi:	
Plavik shpati konsentrati	21.2
Tabiiy grafit	8.0
Ikkilamchi boyitilmagan kulrang kaolin	7.9
Kvars-dala shpati xom ashyosi	6.5
Shisha xom ashyosi	3.0
Bentonitli loy	4.8
Talk va talk toshi	4.0
Talkomagnezit	4.0
Mineral bo`yoqlar	5.7
Vollostanit	4.0
Asbest	4.0
Mineral tola ishlab chiqarish uchun bazalt	4.0
Bazit konsentrati	4.0
Metallurgiya uchun noruda xom ashyosi:	
O`tga chidamli, qiyin eruvchan qoliplash gilmoyasi	4.0
Ohaktoshlar, dolomitlar	
Kvars va kvarsitlar	6.5
Qoliplash qumlari	4.0
Vermikulit	4.0
Noruda qurilish materiallari:	
Ssement xom ashyosi	3.5
Tabiiy bezaktoshdan blokklar	3.5
Marmar ushog`i	3.8
Gips toshi, ganch	5.3
Keramzit xom ashyosi	3.5
G`isht-cherepitsa xom ashyosi (qumoqsimon, lyossimon jinslar, zichlovchi sifatida lyosslar, qumlar va boshqalar)	3.5
Gips va angidrid	4.0
Arralanadigan xarsangtosh va shag`al uchun toshlar	3.8
Qurilish qumlari	4.0
Qum-shag`al aralashmasi, shag`al aralashmasi, mayda toshlar, shag`al	4.0

Qumtoshlar	3.5
Chig`anoq	3.5
Slanetslar	3.5
Boshqa keng tarqalgan foydali qazilmalar (mergellar, argelitlar, amvritlar va boshqalar)	3.5
2.Texnogen mineral hosilalardan ajratib olingan foydali qazilmalar	Asosiy foydali qazilmani kavlab olganlik uchun stavkaning 30 foizi

Misol. Tabiiy gazni qazib olib, tozalab, yetkazib beradigan yer qa'ridan foydalanuvchi korxona iste'molchilariga gazni quyidagicha yetkazib bergan (bir oyda).

T/r	Iste'molchilar	Hajmi, ming kub. m	Narxi, 1000 kub.m uchun ming so'm	Summasi, ming so'm
1	Aholi	300	30	9000
2	Yuridik shaxslar	250	150	37500
3	Eksport qilingan	200	225	45000
	Jami	750		91500

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi 30 foiz belgilangan bo'lib, soliq summasi $(91500 \cdot 30):100=27450$ ming so'mni tashkil etadi.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi soliq organiga quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:

-mikrofirma va kichik korxonalar tomonidan yilning har choragida hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay;

-mikrofirma va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan har oyda hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay;

-jismoniy shaxslar tomonidan yilda bir marta keyingi yilning 1 fevralidan kechiktirmay.

Hisob-kitob shakli quyida keltirilgan. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni to'lash uning hisob-kitobini taqdim etish muddatidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq hisob-kitobi

Tayyor mahsulotlar nomi	Soliq solinadigan baza (hisob-kitob ilovasining 090-ustuni)	Soliq stavkasi, %	Yer qa'ridan foydalanganlik uchun hisoblangan soliq summasi	Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning oldingi hisobot davri hisob-kitobida hisoblangan soliq summasi (oldingi hisob-kitobning 040-ustuni)	Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq summasi (040-ustun – 050-ustun)	
					qo'shimcha to'lashga	kamaytirishga
010	020	030	040	050	060	070

7.2. Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun qo'shimcha foyda solig'i

Yer qa'ridan foydalanuvchilar to'laydigan soliqlardan ikkinchisi qo'shimcha foyda solig'i hisoblanadi. Uni to'lovchilari quyidagilar:

- ayrim foydali qazilmalarni kavlab (foyda komponentlarni ajratib) oluvchilar;
- foyda qazilmalardan ishlab chiqariladigan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslar.

Mahsulot taqsimotiga oid bitim bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yer qa'ridan foydalanuvchilar qo'shimcha foyda solig'i to'lovchilari bo'lmaydilar.

Soliq solish ob'yekti-mahsulot sotishdan olingan sof tushum bilan qonun hujjatlarida belgilangan hisob-kitob narxi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadigan daromadning bir qismi (qo'shimcha foyda).

Soliq solinadigan baza-qo'shimcha foyda bilan qo'shimcha foyda qismiga to'g'ri keladigan sof tushumdan hisoblab chiqarilgan soliq va boshqa majburiy to'lovlar summasi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadigan sof qo'shimcha foyda.

Qo'shimcha foyda solig'i solinadigan foydali qazilmalar va mahsulot turlari ro'yxati, shuningdek, soliqni hisoblab chiqarish hamda to'lash tartibi qonun hujjatlarda belgilanadi.

Qo`shimcha foyda solig`i undiriladigan mahsulotlar va soliq stavkalari

T/r	Mahsulot nomi	Soliq solinadigan bazaning miqdori (QQS va aksiz solig`isiz)	Soliq stavkasi foizda
1.	Katodli mis	So`mdagi ekvivalentda “kesish narxi” gacha 1 t uchun 4000 AQSh dollaridan yuqori	50
2.	Ssment	1 tonnasi uchun 90000 so`mdan yuqori	50
3.	Polietilen granulasi	1 tonnasi uchun 1340000 so`mdan yuqori	50
4.	Tabiiy gaz	so`mdagi ekvivalentda “kesish narxi” gacha 1000 kub.m uchun 130 AQSh dollaridan yuqori	50
5.	Klinker	1 t uchun 80000 so`mdan yuqori	50

Misol. Navoiy ssment zavodi bir oyda qurilishda ishlatiladigan 400 markali ssmentni 650 tonna ishlab chiqarib, tonnasini 105 ming so`mdan sotgan. Ssmentning hisob-kitob narxi 90 ming so`m bo`lib, undan ortiqcha qismi (15 ming so`m) qo`shimcha foyda hisoblanadi. Korxona jami sotilgan ssmentdan 9750 ming so`m qo`shimcha foyda olgan va unga belgilangan 75 foiz stavka bilan 7312,5 ming so`m $(9750 \cdot 75) : 100$ qo`shimcha foyda solig`i to`lashi kerak bo`ladi.

7.3 Yer qa`ridan foydalanish huquqi uchun bonus

Yer qa`ridan foydalanuvchilar to`laydigan maxsus to`lovlar bonuslar bo`lib hisoblanadi. Bonus yer qa`ridan foydalanuvchi tomonidan amalga oshiriladigan bir martalik to`lov bo`lib, u imzoli bonus va tijoratbop topilma bonusi ko`rinishlarida qo`llaniladi.

Imzoli bonus yer qa`ridan foydalanuvchining tegishli litsenziya asosida foydali qazilmalarni aniqlash, razvedka qilish va kavlab olish huquqi uchun bir martalik qat`iy to`lovdir. U litsenziya olingan kundan e`tiboran soliq to`lovchi tomonidan o`ttiz kundan kechiktirmay byudjetga to`lanadi va bu haqda soliq organlariga yozma shaklda xabar qilinadi. Imzoli bonus stavkalari 7.4-jadvalda keltirilgan.

Imzoli bonus stavkalari

T\r	Foydali qazilmalar konlarini razvedka qilish va qidirish huquqi	Bonusning eng kam stavkasi (eng kam ish haqining karrali miqdorida)
1.	Uglevodorod konlari	10000
2.	Oltin konlari	10000
3.	Qimmatbaho (oltindan tashqari), noyob va asl metallar konlari	1000
4.	Boshqa rudali foydali qazilmalar konlari (yuqoridagi 2 va 3–bandlarda ko`rsatilganlardan tashqari)	500
5.	Norudali foydali qazilmalar konlari	100

Tijoratbop topilma bonusi tegishli litsenziyada ko`rsatilgan yer qa'ri uchastkasida foydali qazilma konlarining har bir tijoratbop topilmasi, shu jumladan, belgilangan ajratib olinayotgan zahiralarini ko`paytirishga olib keluvchi konlarni qo`shimcha razvedka qilishni o`tkazish chog`idagi foydali qazilmalar topilmasi uchun to`lanadigan to`lovdir. Foydali qazilma konlarini keyinchalik ularni kavlab olishni nazarda tutmaydigan razvedka qilish paytida tijoratbop topilma bonusi to`lanmaydi.

Vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlangan konda foydali qazilmalarning qazib olinadigan zahiralar hajmi bonus to`lovi ob'yekti, qazib olinadigan hajmining qiymati esa bonus to`lovi bazasi hisoblanadi. Mazkur qiymat xalqaro birjada belgilangan birja narxi bo'yicha, u bo`lmaganda esa vakolatli davlat organi tomonidan aniqlanadi.

Tijoratbop topilma bonusi to`lov bazasi va belgilangan stavkasidan (7.5-jadvalga qarang) kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Tijoratbop topilma bonusi stavkasi

Foydali qazilmalarni qazib olish huquqi	Stavka, soliq solinadigan bazaga nisbatan foizda
Uglevodorodlar, qimmatbaho va noyob metallar, rudali va noruda foydali qazilmalar	0,1

Uning hisob-kitobi soliq organiga vakolatli davlat organi foydali qazilmalar zahiralarining kondan qazib olinadigan hajmini tasdiqlagan kundan boshlab 25 kundan kechiktirmay taqdim etiladi, to`lovi esa 90 kundan kechiktirmay amalga oshiriladi. Davlat boshqaruvi organlari bonuslar to`lamaydilar.

Mahsulot taqsimotiga oid bitim (shartnoma)ga muvofiq O`zbekiston

Respublikasi haq olish asosida hamda muayyan muddatga chet ellik investorga bitimda ko'rsatilgan yer qa'ri uchastkasida konlarni aniqlash, razvedka qilish va foydali qazilmalarni kavlab olish uchun mutloq huquqlar berishi mumkin. Chet ellik investor mahsulot taqsimotiga oid bitimning amal qilish muddati mobaynida quyidagilarni to'laydi:

1) foyda solig'i-mahsulot taqsimotiga oid bitim bo'yicha ishlarni bajarishdan va faoliyatning boshqa turlaridan olingan daromadlar bo'yicha alohida-alohida to'lanadi;

2) yer solig'i;

3) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

4) mehnat haqi fondidan ajratmalar;

5) atrof muhitni ifloslantirganlik uchun kompensatsiya to'lovlari;

6) bitim shartlariga muvofiq belgilangan bonuslar;

7) yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq.

Investorlarga va mahsulot taqsimotiga oid bitim bo'yicha ishlarni bajarishda ishtirok etayotgan operatorlarga nol darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi. Mahsulot taqsimotiga oid bitim bo'yicha ishlarni bajarishga mo'ljallangan va loyiha hujjatlariga muvofiq chet ellik investor tomonidan yoki mahsulot taqsimotiga oid bitim bo'yicha ishlarni bajarishda ishtirok etayotgan boshqa shaxslar tomonidan olib kiriladigan va olib chiqiladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) mazkur bitimga muvofiq unga tegishli bo'lgan mahsulot bojxona bojidan ozod qilinadi. Mazkur soliqlar, ajratmalar va to'lovlar O'zbekiston Respublikasi rezidentlari uchun belgilangan stavkalar bo'yicha undiriladi.

Qisqacha xulosalar

1. Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun tegishli soliqlar va to'lovlar belgilangan. Yer qa'ridan foydalanuvchilar bo'lib konlarni razvedka qilish va aniqlash, foydali qazilmalarni kavlab olish va qayta ishlashni amalga oshiradigan yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadilar. Ular yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq, qo'shimcha foyda solig'i va bonus to'laydilar. Bu to'lovlar umumdavlat soliqlariga kiradi va respublika markaziy byudjetiga to'lanadi. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq ob'yekti kavlab (ajratib) olingan tayyor mahsulot hajmi, bazasi esa uning o'rtacha narxda hisoblangan qiymatidir. Qazilma boyliklarning har bir turi uchun alohida stavkalar foizlarda belgilangan.

2. Qo'shimcha foyda solig'i katodli mis, ssement, polietilen granulatsiya, tabiiy gaz ishlab chiqaruvchi korxonalarga belgilangan. Bonus bir martalik to'lov bo'lib, yer qa'ridan foydalanuvchilar litsenziya olgandan so'ng to'laydilar. Uning ikki turi mavjud–imzoli bonus va tijoratbop topilma bonusi.

Tayanch iboralar va tushunchalar: yer qa'ri, yer osti, yer ostidan foydalanish, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq, yer qa'ridan foydalanuvchilar, foydali qazilmalar, konlarni razvedka qilish, mineral xom ashyo, uglevododlar, qattiq qazilma boyliklar, kavlab olish, qayta ishlash, qo'shimcha foyda solig'i, bonus, geologik hosilalar, texnogen hosilalar.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Yer qa'ridan foydalanuvchilar va ularning to'lov turlari.
2. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq, uning to'lovchilari va ob'yektlari.
3. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bazasi va uni aniqlash.
4. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari.
5. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarish tartibi.
6. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni to'lash tartibi.
7. Qo'shimcha foyda solig'i, uning to'lovchilari va stavkalari.
8. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun bonus va uning turlari.
9. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq hisob-kitobi va hisoboti.

Mustaqil ish uchun topshiriqlar

1. Yer qa'ri, uning boyliklari va to'lovchilarini aniqlash.
2. Yer qa'ridan foydalanuvchilar to'laydigan soliqlarni tavsiflash.
3. Yer qa'ridan foydalanuvchilar to'laydigan maxsus to'lovlarni izohlash.
4. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning hisob-kitob shakli va uni to'ldirish tartibi bilan tanishish.

Test topshiriqlari

1. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq – bu:

- a) bevosita soliq;
- b) bilvosita soliq;
- d) birlamchi soliq;
- e) ikkilamchi soliq;
- f) barcha javoblar to'g'ri.

2. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq – bu:

- a) umumdavlat solig'i;
- b) hududiy soliq;
- d) mintaqaviy soliq;
- e) umumiy soliq;
- f) mahalliy soliq.

3. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq – bu;

- a) regressiv soliq;
- b) progressiv soliq;
- d) proporsional soliq;
- e) birlamchi soliq;
- f) ikkilamchi soliq.

4. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilar kimlar?

- a) foydali qazilmalarni aniqlovchi, kavlab oluvchi, qayta ishlovchi mikrofirmalar;
- b) foydali qazilmalarni aniqlovchi, kavlab oluvchi, qayta ishlovchi yuridik shaxslar;

- d) foydali qazilmalarni aniqlovchi, kavlab oluvchi, qayta ishlovchi jismoniy shaxslar;
- e) foydali qazilmalarni aniqlovchi, kavlab oluvchi, qayta ishlovchi yakka tadbirkorlar;
- f) barchasi.

5.Yer qa'ridan foydalanuvchilar nimalar to'laydilar?

- a) yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;
- b) qo'shimcha foyda solig'i;
- d) imzoli bonus;
- e) tijoratbop topilma bonusi;
- f) barchasini.

6.Qo'shimcha foyda solig'ini kim to'laydi?

- a) oltin, kumush, bronza ishlab chiqaruvchilar;
- b) mis, temir, qo'rg'oshin, alyuminiy ishlab chiqaruvchilar;
- d) mis, sement, polietilen granulasi, tabiiy gaz ishlab chiqaruvchilar;
- e) neft, tabiiy gaz, gaz kondensati ishlab chiqaruvchilar;
- f) barchasi.

7.Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun maxsus to'lovlarga nimalar kiradi?

- a) yer qa'ridan foydalanlik uchun soliq;
- b) qo'shilgan qiymat solig'i;
- d) bonus;
- e) litsenziya uchun yig'im;
- f) barchasi.

8.Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bazasi:

- a) kavlab (ajratib) olingan tayyor mahsulot qiymati;
- b) kavlab (ajratib) olingan tayyor mahsulot hajmi;
- d) kavlab (ajratib) olingan tayyor mahsulot turlari;
- e) kavlab (ajratib) olingan tayyor mahsulot;
- f) tayyor mahsulotning sotish hajmi.


9.Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq ob'yekti:

- a) kavlab (ajratib) olingan tayyor mahsulot qiymati;
- b) kavlab (ajratib) olingan tayyor mahsulot hajmi;
- d) kavlab (ajratib) olingan tayyor mahsulot turlari;
- e) kavlab (ajratib) olingan tayyor mahsulot;
- f) tayyor mahsulotning sotish hajmi.

8.Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq

8.1.Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilari, ob'yekti va bazasi

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq asoslari 8.1-chizmada aks ettirilgan.



8.1–chizma. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning tavsifiy belgilari va to'lovchilari, ob'yekti, bazasi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilar O'zbekiston Respublikasi hududida suvdan foydalanishni yoki suv iste'molini amalga oshirayotgan quyidagi shaxslar:

- O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan yuridik shaxslar;
- faoliyatini doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi norezidentlari;
- tadbirkorlik faoliyati uchun suvdan foydalanuvshi yakka tadbirkorlar;
- yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari.

Aholi punktlarining suv ta'minoti uchun yetkazib beruvchi yuridik shaxslar faqat o'z ehtiyojlariga ishlatadigan suv uchun soliq to'lovchilar hisoblanadilar.

Quyidagilar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilar hisoblanmaydilar:

- notijorat tashkilotlari (tadbirkorlik faoliyati bilan ham shug'ullanganda shu faoliyati uchun ishlatilgan suv uchun soliq to'laydilar);

- soliq solishning soddalashtirilgan tartibini qo'llaydigan yuridik shaxslar.

Yer usti va yer osti manbalaridan olib foydalaniladigan suv resurslari soliq solish ob'yektidir. Suv resurslarining yer usti manbalariga daryolar, ko'llar, suv omborlari, turli xil kanallar va hovuzlar, yer ustidagi boshqa suv havzalari hamda manba'lari kiradi. Suv resurslarining yer osti manbalariga esa artezian quduqlari va skvajinalar, vertikal va gorizontal drenaj tarmoqlari hamda boshqa inshootlar yordamida chiqazib olinadigan suvlar kiradi. Foydalanilgan suvning hajmi soliq solinadigan baza hisoblanadi. Suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan olingan suv hajmi suvdan foydalanishning buxgalteriya (birlamchi) hisobga olish hujjatlarida aks ettirilgan, suv o'lachagich asboblarning ko'rsatkichlari asosida aniqlanadi. Suvdan o'lachagich asboblarsiz foydalanilgan taqdirda uning hajmi suvdan foydalanish limitlari, suv iste'molining texnologik va sanitariya me'yorlaridan, ekinlar hamda dov-daraxtlarni sug'orish me'yorlaridan yoki ma'lumotlarning to'g'riligini ta'minlovchi boshqa usullardan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq to'lovchilar yer usti va yer osti manbalaridan olib foydalanilgan suv resurslari hajmlarining alohida-alohida hisobini yuritishlari kerak. Suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan suv keladigan vodoprovod tarmoqlaridagi suvdan foydalanilgan taqdirda soliq solinadigan baza manbaning har bir turi bo'yicha alohida-alohida aniqlanadi. Suv yetkazib beruvchi yuridik shaxslar vodoprovod tarmog'iga suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan keladigan suv hajmlarining nisbati to'g'risidagi ma'lumotlarni soliq organlariga hisobot yilining 1 fevraliga qadar taqdim etishlari kerak. Soliq organlari bu ma'lumotlarni soliq to'lovchilarga yetkazishlari lozim.

Soliq to'lovchi issiq suv hamda bug' hosil qilish bo'yicha soliq solinadigan bazani hisoblab chiqarilgan va texnik ehtiyojlar uchun o'zi foydalangan suv resurslari hajmidan kelib chiqqan holda aniqlaydi. Binolarning bir qismi, alohida joylar ijaraga topshirilganda soliq solinadigan baza suv yetkazib beruvchi yuridik shaxs bilan shartnoma tuzgan ijaraga beruvchi tomonidan aniqlanadi. Ularni ijaraga olgan va suv yetkazib beruvchi yuridik shaxs bilan shartnoma tuzgan yuridik shaxslar soliq solinadigan bazani mustaqil ravishda aniqlaydilar.

Soliq to'lovchilar yuridik shaxslar bilan suv yetkazib berilishi yuzasidan solishtirib ko'rish jarayonida olingan suvning hajmini aniqlashtirishda suv hajmi farqini solishtiruv amalga oshirilgan davrdagi hisob-kitoblarda aks ettiradilar. Yuridik shaxsning hududida ta'mirlash-qurilish va boshqa ishlarni bajarishda qurilish tashkiloti emas, balki o'sha yuridik shaxs suv uchun soliq to'laydi. Qurilish ishlari yangi qurilish maydonida bajarilgan taqdirda, qurilishda foydalaniladigan suv uchun qurilish tashkiloti soliq to'laydi.

Yagona yer solig'i to'lovchilari bo'lmagan qishloq xo'jaligi korxonalari soliq solinadigan bazani soliq davrida bir gektar sug'oriladigan yerni sug'orish uchun sarflanadigan suvning butun xo'jalik bo'icha o'rtacha hajmidan kelib chiqqan holda

aniqlaydilar. Yuridik shaxs tashkil etgan holda va tashkil etmasdan tuzilgan dehqon xo'jaliklari uchun soliq solinadigan baza soliq organlari tomonidan aniqlanadi.

8.2. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqdan quyidagilar ozod qilinadi:

1) nogironlarning jamoat birlashmalari, "Nuroni" jamg'armasi va "O'zbekiston chernobilchilari" assotsiatsiyasi mulkida bo'lgan hamda ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941-1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil etgan korxonalar (savdo, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan sug'ullanuvchi yuridik shaxslardan tashqari);

2) suv uchun byudjetga soliq o'tkazgan yuridik shaxslardan suv olgan iste'molchilar;

3) birlamchi foydalanilgan suv uchun to'lov amalga oshirilgan suvdan ikkilamchi foydalanuvchi suv iste'molchilari;

4) ixtiyoriy tugatilayotgan yuridik shaxslar (ro'yxatdan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida xabardor qilingan kundan boshlab).

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun sotiqni hisoblab chiqarishda soliq solinadigan baza quyidagi hajmlarga kamaytiriladi:

1) sog'liqni saqlash muassasalarida davolash maqsadida foydalaniladigan yer osti mineral suvlari hajmiga (sotish uchun foydalanilgan suv hajmidan tashqari);

2) dori vositalarini tayyorlash uchun foydalaniladigan suv hajmiga;

3) atrof muhitga zararli ta'sir ko'rsatishining oldini olish maqsadida chiqazib olinadigan yer osti suvlari hajmiga;

4) shaxtadan suvlarni qochirish uchun, foydali qazilmalarni qazib olish vaqtida chiqazib olingan va qatlamdagi bosimni saqlab turish uchun yer qa'riga qaytarib quyiladigan yer osti suvlari hajmiga;

5) gidroelektr stansiyalari gidravlik turbinalarini harakatga keltirish uchun foydalaniladigan suv hajmiga;

6) qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan sho'rlangan yerlarni yuvish uchun foydalaniladigan suv hajmiga.

Mazkur soliq bo'yicha soliq davri kalendar yili, hisobot davri esa soliqning umumiy summasi bir chorakda eng kam ish haqining ellik barobaridan ko'p bo'lgan yuridik shaxslar uchun bir oy, undan oz bo'lgan yuridik shaxslar hamda kichik tadbirkorlik sub'yektlari uchun yil choragi, qishloq xo'jaligi korxonalari va dehqon xo'jaliklari uchun kalendar yili hisoblanadi.

Suv resurslaridan foydalanganlik ushun soliq stavkalari

T/r	Soliq to'lovchilar	Bir kub. metr uchun stavka (so'm)	
		yer usti suv manbalari	yer osti suv manbalari
1.	Barcha korxonalar (quyidagilardan tashqari)	29,8	37,2
2.	Elektrostansiyalar	8,6	12,8
3.	Kommunal xizmat ko'rsatish korxonalari	16,4	21,2
4.	Yagona yer solig'ini to'lashga o'tmagan qishloq xo'jaligi korxonalari, dehqon xo'jaliklari hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish jarayonida suvdan foydalanadigan jismoniy shaxslar	1,6	1,8

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi soliq solinadigan baza va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning hisob-kitobi suvdan foydalanish joyidagi soliq organlariga ortib boruvchi yakun bilan quyidagi shaklda va muddatlarda taqdim etiladi:

1) suv resurslaridan foydalanganlik uchun to'lanadigan soliqning umumiy summasi yilning bir choragida:

-eng kam ish haqining ellik barobaridan ko'pni tashkil etadigan yuridik shaxslar tomonidan (qishloq xo'jaligi korxonalari, mikroforma va kichik korxonalardan tashqari) har oyda, hisobot oyidan keyingi oyining 25- kunigacha;

-eng kam ish haqining ellik barobaridan kamni tashkil etadigan yuridik shaxslar, shuningdek, mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan yilning har choragida, hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunigacha, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda;

2) yagona yer solig'ini to'lashga o'tmagan qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan yilda bir marta hisobot davrining 15 dekabrighacha;

3) yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan yilning har choragida hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunigacha.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq hisob-kitobi

Ko`rsatkichlar	Satr kodi	Jami	Yer usti manbalari	Yer osti manbalari
Soliq solinadigan baza (jami olingan suvning umumiy hajmi), kub. M	010			
Soliq solinadigan bazani kamaytirish - Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq hisob-kitobiga ilovaning 010-satri	020			
Soliq solinadigan baza (010-ustun - 020-ustun)	030			
1 kub. m uchun belgilangan soliq stavkasi (so`m)	040			
Byudjetga to`lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi (030-ustun x 040-ustun)	050			
Oldingi hisobot davri hisob-kitobi bo`yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun hisoblangan soliq summasi	060			
Qo`shimcha to`lashga	070			
Kamaytirishga	080			

Yuridik shaxslar (qishloq xo`jaligi korxonalaridan tashqari) joriy yilning 15 yanvarigacha suvdan foydalanish joyidagi soliq organlariga suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to`lash to`g`risidagi yozma bildirishni belgilangan limitdan kelib chiqqan holda yoki suv yetkazib berish shartnomasiga muvofiq har oyda yoki yilning har choragida erkin shaklda taqdim etadilar. Soliqni to`lash hisob-kitob taqdim etiladigan muddatlarda amalga oshiriladi. Dehqon xo`jaliklariga hisobot davridan keyingi yilning -fevraligacha to`lov xabarnomasi topshiriladi, soliq esa 1-mayigacha yilida bir marta to`lanadi.

Qisqacha xulosalar

1.Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq mahalliy soliq bo`lib, mahalliy byudjetga to`lanadi. Uning to`lovchilari suvdan foydalanuvchi yakka tadbirkorlar, dehqon xo`jaliklari va yuridik shaxslar (notijorat tashkilotlari va soliq solishning soddalashtirilgan tartibini qo`llaydigan yuridik shaxslardan tashqari) hisoblanadilar.

2.Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq ob`yekti suv resurslari, bazasi esa foydalanilgan suv hajmidir. Soliq stavkalari suvdan foydalanuvchilar toifalari bo`yicha yer osti va yer usti suvlari uchun alohida-alohida belgilangan. Ayrim suvdan foydalanuvchilar va ayrim maqsadlarda suvdan foydalanish soliqlardan ozod qilingan.

Tayanch iboralar va tushunchalar: suv resurslari, suv resurslaridan foydalanish, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, yer usti suv manbalari, yer osti suv manbalari, suvdan ikkilamchi foydalanish, artezian quduqlar, skvajinalar, gorizontal va vertikal drenaj.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning ahamiyati va xususiyatlari.
2. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilari, ob'yekti va bazasi.
3. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari va imtiyozlari.
4. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi.
5. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq hisob-kitobi va hisoboti.

Mustaqil ish uchun topshiriqlar

1. Suv resurslaridan foydalanuvchilarni aniqlash.
2. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha imtiyozlarni izohlash.
3. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha hisob-kitob shakli va tartibi bilan tanishish.

Test topshiriqlari

1. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq – bu:

- a) umumdavlat solig'i;
- b) umumiy soliq;
- d) hududiy soliq;
- e) mintaqaviy soliq;
- f) mahalliy soliq.

2. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq – bu:

- a) teng soliq;
- b) bevosita soliq;
- d) bilvosita soliq;
- e) progressiv soliq;
- f) regressiv soliq.

3. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq – bu:

- a) bilvosita soliq;
- b) teng soliq;
- d) regressiv soliq;
- e) progressiv soliq;
- f) proporsional soliq.

4. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilar:

- a) ishlab chiqarish korxonalari;
- b) qurilish korxonalari;
- d) yakka tadbirkorlar;
- e) dehqon xo'jaliklari;
- f) barchasi.

5. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bazasi nima?

- a) foydalanilgan suv;
- b) foydalanilgan suv vazni;
- d) foydalanilgan suv qiymati;
- e) foydalanilgan suv hajmi;
- f) to'g'ri javob yo'q.

6. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq ob'yekti nima?

- a) foydalanilgan suv;
- b) foydalanilgan suv vazni;
- d) foydalanilgan suv qiymati;
- e) foydalanilgan suv hajmi;
- f) to'g'ri javob yo'q.

7. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha imtiyozga ega:

- a) fermer xo'jaliklari;
- b) dehqon xo'jaliklari;
- d) ikkilamchi foydalanuvchi suv iste'molchilari;
- e) yakka tadbirkorlar;
- f) barchasi.

9. Mol-mulk solig'i

9.1 O'zbekistonda mulkchilik va mulk huquqi

Mulk iqtisodiy kategoriya hamda moddiy ne'matlarning o'zlashtirib olishning yuridik shakli sifatida odamlarning turmush sharoitiga va umuman jamiyatga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Moddiy va boshqa ne'matlarga egalik qilish, ulardan foydalanish va ularni tasarruf etish jarayonida vujudga keladigan munosabatlar tizimi ishlab chiqarishning xususiyati va jamiyat iqtisodiy hayotining asosini belgilab beradi. Mulk birlamchi bo'lib, boshqa munosabatlarning xususiyatlari unga bog'liq.

Mulkchilik munosabatlarini quyidagi sifat belgilari to'la-to'kis tavsiflab beradi:

1) bu muayyan ishlab chiqarish munosabatlari, ishlab chiqarish jarayonida odamlar o'rtasida vujudga keladigan, uning dastlabki sharti va natijasi munosabatlaridir;

2) odamlarning moddiy ne'matlarni, eng avvalo ishlab chiqarish vositalari va natijalarini bevosita o'zlashtirib olish munosabatlaridir;

3) mazkur munosabatlarning mohiyati moddiy ne'matlarning muayyan shaxslar yoki ularning jamoalari tomonidan o'zlashtirib olinganligi va o'z ixtiyoriga o'tkazib olinganligidir.

Mulk-ishlab chiqarilgan moddiy ne'matlarni o'zlashtirishning ijtimoiy shaklidir. Moddiy ne'matlarni o'zlashtirib olish yoki ixtiyoriga o'tkazib olish-eng avvalo, biron-bir shaxsning irodasiga bog'liq bo'lmagan holda, faqat o'z ixtiyori bilan moddiy ne'matlardan (mol-mulkdan), barcha boshqa shaxslarni chetlashtirib o'z ehtiyojlari uchun foydalanishdir.

Tovar ishlab chiqarishga asoslangan xo'jalikda mulkchilik ob'yektlarini saqlash va ko'paytirish mulkdor uchun chinakam hayot-mamot masalasidir va ana shu ma'noda mulk o'z xo'jayinini tovar ishlab chiqaruvchi, omilkor ishlab chiqarish tashkilotchisi va tejab – tergavdigan tadbirkor bo'lishga majbur qiladi. Shubhasiz, mulkchilik munosabatlarining iqtisodiy mazmunida ana shu jihatlar ham aks etgan bo'lishi kerak.

Huquq (unga rioya qilishga majburlashning alohida apparati bo'lgan davlat) aynan mulkchilik munosabatlarini muhofaza qilish zarurati bilan bog'liq holda vujudga keladi. Aslida, bunday muhofaza qilish iqtisodiy munosabatlarni huquqiy boshqarishning asosiy mazmunini tashkil etadi, shu nuqtai nazardan mulk huquqi butun huquqiy tizimning markazi bo'lib qoladi.

Mulkchilik huquqi-shaxsning o'ziga qarashli mol-mulkka o'z xohishiga qarab va o'z manfaatlarini ko'zlagan holda egalik qilishi, undan foydalanishi va uni tasarruf etishini o'z ichiga oladi. Mulkka egalik qilish huquqi – bu qonunga asoslangan holda (yoki yuridik jihatdan ta'minlangan holda) muayyan ashyoga ega bo'lish (uni o'z xo'jaligida saqlab turish, balansiga kiritish va hokazolar) imkoniyatidir. Mulkdan foydalanish huquqi-bu ashyodan xo'jalik yoki boshqa maqsadlarda foydalanish, uni o'z manfaatlari yo'lida ishlatib, foydali xossalarini chiqarib olish huquqidir. Mulkni tasarruf etish huquqi-bu ashyoning mansubligi, holati yoki vazifasini o'zgartirish (boshqa shaxsga berish, yo'q qilib yuborish

kabilar) yo`li bilan ashyoning taqdirini belgilash imkoniyatidir.

Biroq, shuni ta`kidlash kerakki, mulkdor qonuniy huquqlarining alohida tabiatga egaligi uning cheksiz erkin harakat qilishi uchun asos bo`la olmaydi. O`zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi mulkchilik huquqini amalga oshirish shartlarini quyidagicha belgilab qo`ygan:

- mulkdorning o`z qonuniy huquqlarini amalga oshirishi boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo`riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi kerak;

- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan shartlar asosida va shu doiralarda mulkdor boshqa shaxslar uning mol-mulkidan cheklangan tarzda foydalanishiga (masalan, begona yer uchastkasi orqali yayov yoki transportda o`tishni ta`minlash uchun servitut belgilashga) yo`l qo`yishi shart;

- mulkdor o`zining ustunlik mavqeini suiiste`mol qilib, boshqa shaxslar huquqlarini va qonun bilan qo`riqlanadigan manfaatlarini kamsituvchi boshqa harakatlarni amalga oshirishga haqqi yo`q;

- mulkdor o`z huquqini amalga oshirish chog`ida fuqarolarning sog`lig`iga va atrof muhitga zarar keltirishining oldini olish choralari ko`rishi shart.


O`zbekiston Respublikasining fuqarolik qonun hujjatlarida mulkning daxlsizligi va qonun bilan qo`riqlanishi belgilab qo`yilgan. Uning daxlsizligi shundan iboratki, mulkdorga qarshi turgan barcha sub`yektlar mulk huquqini buzishdan o`zini tiyib turadi. Mulkdordan mol-mulkni olib qo`yish, shuningdek, uning qonuniy huquqlarini cheklashga faqat O`zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollardagina yo`l qo`yiladi.

Mulk huquqi bilan bir qatorda asosiy ashyoviy huquqlar quyidagilardan iborat:

- xo`jalik yuritish huquqi va operativ (tezkor) boshqarish huquqi;
- yer uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi;
- yer uchastkasiga doimiy egalik qilish va undan foydalanish huquqi;
- servitutlar (o`zganing yer uchastkasidan cheklangan tarzda foydalanish huquqi).

Yuqorida keltirilgan ashyoviy huquqlardan biriga ega bo`lish shaxsning qonuniy huquqlari mulkdorning huquqlaridan alohida holatga ega emasligi bilan farq qiladi. Bu esa ushbu mol-mulkka mulkdorning o`z huquqlarini “istisno” etmasligi uyoqda tursin, mulkdor vakil qilgan shaxsning yolg`iz o`zining irodasi bilan emas, balki mulkdorning idorasi bilan vujudga kelishini anglatadi.

Mol-mulk solig`ining tavsifiy belgilari 9.1-chizmada keltirilgan.



9.1-chizma. Mol-mulk solig`ining tavsifiy belgilari.

9.2.Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning to'lovchilari quyidagilar:

-O'zbekiston Respublikasi hududida soliq solinadigan mol-mulkka ega bo'lgan yuridik shaxslar-O'zbekiston Respublikasi rezidentlari;

-O'zbekiston Respublikasida faoliyatini doimiy muassasa orqali amalga oshiradigan va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududida o'z mulkida ko'chmas mulkka ega bo'lgan yuridik shaxslar - O'zbekiston Respublikasi norezidentlari.

Quyidagi yuridik shaxslar mol-mulk solig'i to'lovchilari bo'lmaydilar:

-notijorat tashkilotlari (tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirgan taqdirda soliqni to'laydilar);

-soliq solishning soddalashtirilgan tartibini qo'llaydigan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i ob'yektlariga quyidagilar kiradi:

1) asosiy vositalar, shu jumladan, moliyaviy ijaraga olingan asosiy vositalar (binolar, inshootlar, asbob-uskunalar, jihozlar, transport vositalari va boshqalar);

2) nomoddiy aktivlar (aqliy mulk ob'yektlari, ixtirolar, kompyuter dasturlari va ma'lumot bazalari, foydali modellar va sanoat namunalari, seleksiya yutuqlari, nou-xau, firma nomi, tovar va xizmat ko'rsatish belgilari va boshqalar);

3) belgilangan muddatda tugallanmagan qurilish ob'yektlari;

4) belgilangan muddatda ishga tushirilmagan asbob-uskunalar;

5) O'zbekiston Respublikasida faoliyatini doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi norezidentlari uchun doimiy muassasa faoliyati bilan bog'liq asosiy vositalar;

6) O'zbekiston Respublikasida faoliyatini doimiy muassasa bilan bog'liq bo'lmagan holda amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi norezidentlari uchun O'zbekistonda joylashgan, ularga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan ko'chmas mulk.

Qonun hujjatlariga muvofiq mulk qilib olingan yer uchastkalari va nomoddiy aktivlar tarkibida hisobga olinadigan ulardan foydalanish huquqi soliq solish ob'yekti hisoblanmaydi.

Yuridik shaxslar uchun mol-mulk solig'i solinadigan baza quyidagilar hisoblanadi:

-asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar bo'yicha ularning o'rtacha yillik qoldiq qiymati (u mol-mulkning boshlang'ich yoki tiklanish qiymati bilan hisoblangan amortizatsiya hajmi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi);

-belgilangan me'yoriy muddatda qurilishi tugallanmagan ob'yektlar va ishga tushirilmagan asbob-uskunalarining o'rtacha yillik qiymati;

-O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining ko'chmas mulk ob'yektlarining o'rtacha yillik qiymati.


Soliq solish ob'yektlarining o'rtacha yillik qoldiq qiymati (o'rtacha yillik qiymati) ularning hisobot davridagi har bir oyning oxirgi kunidagi qoldiq qiymatlarini (qiymatlarini) qo'shishdan olingan summaning o'n ikkidan bir qismi sifatida aniqlanadi, ya'ni mol-mulkning o'rtacha yillik qoldiq qiymati (qiymati)=(31.01.+28.02+31.03+...31.12 sanalardagi qoldiq qiymatlari

(qiymatlari):12.

O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining ko'chmas mulk ob'yektlari bo'yicha soliq solinadigan baza mazkur ob'yektlarga bo'lgan mulk huquqini tasdiqlovchi hujjatlarda ko'rsatilgan qiymat asosida aniqlanadi. Yagona soliq to'lovi to'lovchilari bo'lgan yuridik shaxslar bir oydan kam muddatga ijaraga berilgan mol-mulk bo'yicha soliq solinadigan bazani bu mol mulkning mazkur oyning oxirgi kunidagi qoldiq qiymatini o'n ikkiga va shu oydagi kalendar kunlar soniga bo'lib, natijani ijaraga bergan kunlar soniga ko'paytirish yo'li bilan aniqlaydilar. Masalan, kichik korxona yuk avtomobilini 5 iyundan 20 kunga ijaraga bergan. Avtomobilning shu oyning oxirgi 30 iyun sanasida hisoblangan qoldiq qiymati 7200,0 ming so'm. Demak, shu avtomobil uchun soliq solish bazasi $(7200,0:12:30) \cdot 20 = 400,0$ ming so'mni tashkil etadi. Binoning bir qismi ijaraga topshirilgan taqdirda, soliq solinadigan baza umumiy maydoni bir kvadrat metrining qoldiq qiymatini ijaraga topshirilgan maydonning o'lchamiga ko'paytirish orqali aniqlanadi. Masalan, binoning umumiy maydoni 200 kv.m, ijaraga berilgan maydoni 140 kv.m, qoldiq qiymati esa 12000,0 ming so'm bo'lsa, har bir kv.m maydonining qoldiq qiymati 60 ming so'm $(12000:200)$ ni tashkil etadi. Binoning ijaraga berilgan qismi uchun soliq solinadigan baza 8400 ming so'm (140×60) bo'ladi.

Korxona yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lash nazarda tutilmagan faoliyat turlarini amalga oshirgan taqdirda, soliq solinadigan baza soliq solinadigan va soliq solinmaydigan mol-mulk hisobini alohida-alohida yuritish asosida aniqlanadi. Alohida-alohida hisob yuritish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, soliq solinadigan baza faoliyatdan olinadigan sof tushumning solishtirma salmog'idan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i to'lovchilari, ob'yektlari va bazasi umumlashtirilgan holda 9.2-chizmada aks ettirilgan.



9.2-chizma. Yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i to'lovchilari, ob'yektlari va bazasi.

Yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozlar uch ko'rinishga ega va ular quyidagilardan iborat.

1. Soliq solinadigan bazani kamaytirish-baza quyidagilarga kamaytiriladi:

- uy-joy-kommunal xo'jaligi ob'yektlarining qiymatiga;
- madaniyat va san'at, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport, ijtimoiy ta'minot sohasiga kiradigan ijtimoiy-madaniy soha ob'yektlarining qiymatiga;
- yuridik shaxslarning madaniyat muassasalari, maktabgacha va umum ta'lim o'quv muassasalari ehtiyojlari uchun foydalanadigan mol-mulkining qiymatiga;

-qishloq xo'jaligi o'simlikshunoslik, chorvachilik, baliqchilik mahsulotlarini yetishtirish va saqlash uchun foydalaniladigan qishloq xo'jaligi korxonalari balansida bo'lgan mol-mulkning qiymatiga;

-sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlari ob'yektlarining qiymatiga;

-aloqa yo'ldoshlarining qiymatiga;

-kredit hisobidan olingan asbob-uskunaning qiymatiga, uni foydalanishga torshirilgan paytdan boshlab besh yilga, lekin kreditni uzish uchun belgilanganidan ko'p bo'lmagan muddatga;

-tabiatni muhofaza qilish va sanitariya-tozalash maqsadlari, yong'in xavfsizligi uchun foydalaniladigan ob'yektlarning qiymatiga;

-umumiy foydalanishdagi temir yo'llar va avtomobil yo'llari, magistral truboprovodlar, aloqa va elektr uzatish liniyalari, shuningdek, ularning ajralmas texnologik qismi bo'lgan inshootlarning qiymatiga;

-konservatsiya qilingan asosiy ishlab chiqarish fondlarining qiymatiga;

-lizingga olingan mol-mulkning qiymatiga-lizing shartnomasi amal qiladigan muddatda;

-soliq to'lovchining balansida bo'lgan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanilmayotgan fuqaro muhofazasi va safarbarlik ahamiyatiga molik bo'lgan ob'yektlarning qiymatiga;

-shahar va shahar atrofidagi yo'nalishlarda yo'lovchilar tashiydigan avtobuslar, tramvaylar, trolleybuslar, metropoliten poyezdlari qiymatiga;

-tuzilgan shartnomalarga muvofiq yuridik shaxsning buyurtmasi bo'yicha ishlar bajarish uchun kasanachilarga tekin foydalanishga berilgan asbob-uskunalarining qiymatiga;

-telekommunikatsiyalar tarmoqlarida tezkor qidiruv tadbirlari tizimi texnik vositalarining qiymatiga;

-ishlab chiqarishga yangi joriy etilgan yangi texnologik jihozlarning qiymatiga-besh yil muddatga.

2. Ayrim yuridik shaxslarni mol-mulk solig'idan ozod qilish-ular quyidagilar:

-sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya hamda ijtimoiy ta'minot, xalq ta'limi, madaniyat va san'at tashkilotlari;

-uy-joy kommunal xo'jaligi va boshqa umumfuqaroviy ahamiyatga molik shahar xo'jaligi korxonalari;

-nogironlarning jamoat birlashmalari, "Nuroni" jamg'armasi va "O'zbekiston chernobilchilari" assotsiatsiyasi mulkida bo'lgan hamda ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941-1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil etadigan yuridik shaxslar (savdo, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlov korxonalaridan tashqari);

-yangi tashkil etilgan korxonalar-davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran ikki yil mobaynida;

-ixtiyoriy tugatilayotgan korxonalar-ro'yxatdan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida xabardor qilingan kundan e'tiboran.

3. Soliq stavkasini pasaytirish (9.1-jadvalga qarang).

Yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i bo'yicha soliq davri kalendar yili, hisobot davri esa yil choragi hisoblanadi. Mazkur soliqni hisoblab chiqarish soliq

solinadigan baza va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

9.1-jadval

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkalari

T/r	To'lovchilar	Soliq stavkasi, soliq solinadigan bazaga nisbatan foizda
1.	Yuridik shaxslar	3,5
2.	O'zi ishlab chiqargan mahsulotlarni eksport qiluvchi korxonalarning eksport ulushi sotishning umumiy hajmida:	
	a)15 foizdan 30 foizgacha bo'lganda	stavka 30 foizga pasaytiriladi
	b)30 foiz va undan ortiq bo'lganda	stavka 50 foizga pasaytiriladi.

Izohlar:

1.Me'yoriy muddatlarda o'rnatilmagan (foydalanilmagan) uskunalar uchun mol-mulk solig'i ikki barobar stavka bo'yicha undiriladi.

2.Me'yoriy muddatlarda tugallanmagan qurilish ob'yektlari va ishga tushirilmagan asbob-uskunalar qiymatiga pasaytirilgan stavkalar qo'llanilmaydi.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq quyidagi tartibda hisoblab chiqariladi.

1.Soliq solinadigan baza (Mssb), ya'ni mol-mulkning o'rtacha yillik qiymati yoki qoldiq qiymatini (Mo'yqq) aniqlash:

$$Mssb = Mo'yqq = (31.01 Mqq + 28.02 Mqq + \dots + 30.11 Mqq + 31.12 Mqq) : 12.$$

2.Mol-mulkning soliq solinadigan qiymatini (Mssq) aniqlash:

$$Mssq = Mssb - Msmq,$$

buyrda: Msmq-soliq solinmaydigan mol-mulk qiymati.

3.Mol-mulk solig'i summasini (Mss) hisoblash:

$$Mss = (Mssq \cdot Ss) : 100,$$

buyrda: Ss-mol-mulk solig'i stavkasi.

Misol. Konserva zavodi asosiy ishlab chiqarish vositalarining boshlang'ich qiymati 578,0 mln. so'm, eskirish summasi esa 357,0 mln. so'mni tashkil etadi. Korxonada yangi ssex binosi qurilishi belgilangan muddatda tugallanmagan va uning o'rtacha yillik qiymati 124,0 mln. so'm hamda shu ssex uchun olingan asbob-uskunalar ham belgilangan muddatda ishga tushurilmagan-ularning o'rtacha yillik qiymati 49,0 mln. so'm hisoblangan. Bundan tashqari, korxonada bolalar bog'chasi bo'lib, uning binosi va jihozlarining qoldiq qiymati 92,0 mln. so'm bo'lgan (bu ob'yekt mol-mulk solig'iga tortilmaydi). Korxona ishlab chiqargan mahsulotlarining 35 foizini eksport qiladi. Bu esa mol-mulk solig'i stavkasini ikki barobar (50 foizga) pasaytirish huquqini beradi. Lekin mazkur imtiyoz belgilangan muddatda qurilishi tugallanmagan ob'yektlar va ishga tushirilmagan asbob-uskunalariga tadbqiq etilmaydi. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning belgilangan stavkasi 3,5 foiz bo'lib, imtiyoz tufayli pasaytirilgan (tuzatilgan) stavkasi 1,75 foizni tashkil etadi. Korxona to'laydigan mol-mulk solig'i summasi quyidagicha

hisoblanadi:

- 1) asosiy ishlab chiqarish vositalari bo'yicha $(578,0-357,0) \cdot 1,75:100=3867,5$ ming so'm;
- 2) belgilangan muddatda qurilishi tugallanmagan ob'yekt bo'yicha $(124,0 \cdot 3,5):100=4340,0$ ming so'm;
- 3) belgilangan muddatda ishga tushirilmagan asbob-uskunalar bo'yicha $(49,0 \cdot 7):100=3430$ ming so'm;
- 4) jami mol-mulk solig'i 11637,5 ming so'm $(3867,5+4340,0+3430,0)$.

Soliq davri mobaynida soliq to'lovchilar har oyda joriy to'lovlarni to'laydilar. Joriy to'lovlar miqdorini hisoblab chiqarish uchun soliq to'lovchi soliq organiga belgilangan shakldagi ma'lumotnomani joriy yilning 20 yanvarigacha taqdim etadi. Byudjetga joriy to'lovlarni to'lash har oyning 25-kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning hisob-kitobi soliq organlariga ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda taqdim etiladi. To'lashi lozim bo'lgan soliq summasi hisob-kitoblarni topshirish uchun belgilangan kundan kechiktirmay byudjetga o'tkaziladi. Mazkur soliq hisob-kitob shakli quyida keltirilgan.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hisob-kitobi

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Summa
Asosiy vositalar, shu bilan birgalikda ijara (lizing) shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarning va soliq solinadigan nomoddiy aktivlarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati-Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hisob-kitobiga 1-ilovanning 070-satri	010	
Soliq solinadigan ba'zaning kamaytirilishi-Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hisob-kitobiga 4-ilovanning 010 satri	020	
Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblash uchun soliq solinadigan ba'za (010-satr-020-satr)	030	
Belgilangan soliq stavkasi, %	040	
Tuzatilgan stavka, % -Yuridik shaxslarning mol mulkiga solinadigan soliq hisob-kitobiga 6-ilovanning 060-satri	050	
Soliq summasi (030-satr x 040-satr, yoki 050)	060	
Me'yoriy muddatda tugallanmagan qurilish ob'yektining o'rtacha yillik qiymati-Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hisob-	070	

kitobiga 1-ilovanning 080-satri		
Soliq stavkasi, %	080	
Soliq summasi (070-satr x 080-satr)	090	
Belgilangan muddatda ishga tushirilmagan uskunaning o`rtacha yillik qiymati-Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hisob-kitobiga 1-ilovanning 090-satri	100	
Soliq stavkasi, %	110	
Soliq summasi (100-satr x 110-satr)	120	
Byudjetga to`lanadigan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi (060-satr+090-satr+120-satr)	130	
O`tgan hisobot davri uchun hisob-kitob bo`yicha hisoblangan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi	140	
Qo`shimcha to`lashga	150	
Kamaytirishga	160	


O`zbekiston Respublikasi norezidentlari mol-mulkiga solinadigan soliqni soliq organlari quyidagi tartibda hisoblab chiqaradilar. O`zbekiston Respublikasida faoliyatini doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan norezident mol-mulk solig`i to`lovchisi sifatida soliq organida hisobda turishi kerak. U hisobot yilidan keyingi yilning 25 yanvarigacha tegishli soliq organiga mavjud soliq solinadigan mol-mulki to`g`risidagi ma`lumotnomani taqdim etadi. Unga asosan soliq organi soliq summasi hisob-kitobini o`n kun ichida amalga oshiradi va to`lov xabarnomasini yozadi. O`zbekiston Respublikasi hududida ko`chmas mulkka bo`lgan huquq davlat ro`yxatidan o`tkazilganidan keyin o`ttiz kun ichida mustaqil ravishda yohud o`zining vakili orqali soliq organida soliq to`lovchi sifatida hisobga turishlari lozim. Soliq organi norezidentga (uning vakiliga) soliq to`lovchidan yoki ko`chmas mulkka bo`lgan huquqlarni davlat ro`yxatidan o`tkazuvchi organdan olingan ma`lumotlar asosida to`lov xabarnomasi yozadi. Soliq yilda bir marta soliq hisoboti davridan keyingi yilning 15 fevraligacha to`lanishi kerak.

9.3.Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq

Egaligida, mulkida, foydalanishida soliq solinadigan mol-mulki bo`lgan jismoniy shaxslar, (shu jumaldan, chet el fuqarolari), yuridik shaxs tashkil etgan holda va tashkil etmasdan tuzilgan dehqon xo`jaliklari jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq to`lovchilari hisoblanadilar. Mulkdorning joylashgan yerini aniqlash imkoni bo`lmasa, bu mol-mulk qaysi shaxsning egaligida va foydalanishida bo`lsa, o`sha shaxs soliq to`lovchi bo`ladi. O`zbekiston Respublikasi hududida joylashgan turar joylar, kvartiralar, dala hovli imoratlari, garajlar va boshqa imoratlar, joylar, inshootlar soliq solish ob`yektidir. Ko`chmas mulkka bo`lgan huquqlarni davlat ro`yxatidan o`tkazuvchi organ tomonidan belgilanadigan soliq

solish ob'yektlarining inventarizatsiya qiymati soliq solinadigan baza hisoblanadi. Jismoniy shaxslarning mol-mulkini baholash bo'yicha vakolatli organ tomonidan aniqlangan soliq solish ob'yektining bahosi mavjud bo'lmagan taqdirda, mol-mulkning qonun hujjatlari bilan belgilanadigan shartli qiymati soliq solinadigan baza qilib olinadi. Bitta jismoniy shaxs bir nechta soliq solish ob'yekti bo'yicha to'lovchi bo'lgan taqdirda soliq solinadigan baza har bir ob'yekt bo'yicha alohida-alohida hisoblab chiqiladi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq to'lovchilari, ob'yektlari va bazasi 9.3-chizmada ko'rsatilgan.



9.3-chizma. Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i to'lovchilari, ob'yektlari va bazasi.

Jismoniy shaxslarning ayrim toifalariga mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozlar berilgan. Quyidagilarning mulkida bo'lgan mol-mulkka soliq solinmaydi:

-“O'zbekiston Qahramoni”, “Sovet Ittifoqi Qahramoni”, “Mehnat Qahramoni” unvonlariga sazovor bo'lgan, uchala darajali “Shuhrat” ordeni bilan taqdirlangan fuqarolar;

-1941-1945 yillardagi urush nogironlari va qatnashchilari hamda ularga tenglashtirilgan shaxslar;

-o'n nafar va undan ortiq bolalari bor ayollar;

-Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatishda ishtirok etganlik uchun imtiyozlar oladigan fuqarolar (shu jumladan, vaqtincha yoki xizmat safariga yuborilgan shaxslar);

-pensionerlar (faqat 60 kv.m maydoni);

-I va II guruh nogironlari;

-harbiy xizmat majburiyatlarini bajarishda yarador, kontuziya bo'lganlik yoki shikastlanganlik oqibatida yohud frontda bo'lish tufayli orttirilgan kasallik oqibatida halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning ota-onalari va boshqa turmush qurmagan rafiqalari (erlari);

Ushbu imtiyozlar mulkdorning tanlashiga binoan faqat bir mol-mulk ob'yektiga taalluqli bo'ladi. Soliq solish ob'yektlari jismoniy shaxslar tomonidan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanilgan yoki shu maqsadda ijaraga berilgan taqdirda, soliq yuridik shaxslar uchun belgilangan stavkadan kelib siqqan holda to'lanadi va ularga imtiyozlar qo'llanilmaydi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish soliq to'lovchining yashash joyidan qat'iy nazar, soliq ob'yekti joylashgan yerdagi soliq organlari tomonidan ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organning ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi. Mazkur organ ob'yektlar joylashgan yerdagi soliq organlariga har yili 1 fevralgacha ob'yektlarning 1-yanvardagi holatiga ko'ra inventarizatsiya qiymatini va uning mulkdorini ko'rsatgan holda ma'lumot taqdim etadi. Imtiyozga ega bo'lgan shaxslar imtiyozlarni olish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni mustaqil ravishda taqdim etishlari lozim.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi mol-mulkning 1-yanvardagi holatiga ko'ra inventarizatsiya qiymatidan va belgilangan stavkadan kelib siqqan holda hisoblab chiqariladi. Soliq stavkasi mol-mulkning inventarizatsiya qiymatidan 0,5 foiz miqdorida belgilangan. Inventarizatsiya qiymati bo'lmagan taqdirda soliq undirish uchun Toshkent shahri va viloyat markazlarida 18480,0 ming so'm, boshqa shaharlar va qishloq joylarda 8030,0 ming so'm miqdorida mol-mulkning shartli qiymati qabul qilinadi. Bir nechta mulkdorning umumiy mulkida bo'lgan imoratlar, joylar va inshootlar uchun jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq mulkdorlarning har birining ulushiga mutanosib ravishda to'lanadi. Mol-mulkka bo'lgan mulk huquqi kalendar yil mobaynida bir mulkdordan boshqasiga o'tgan taqdirda soliq avvalgi mulkdor tomonidan shu yilning 1 yanvaridan e'tiboran u mol-mulkka bo'lgan mulk huquqini yo'qotgan oyning boshlanishiga qadar, yangi mulkdor tomonidan esa unda mulk huquqi vujudga kelgan oydan e'tiboran to'lanadi. Yangi imoratlar, binolar va inshootlar bo'yicha soliq ular barpo etilgan yildan keyingi yil boshidan boshlab to'lanadi. Meros bo'yicha o'tgan mol-mulk uchun soliq merosxo'rlarda mulk huquqi vujudga kelgan oydan boshlab to'lanadi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lash to'g'risidagi to'lov xabarnomasi soliq to'lovchilarga soliq organi tomonidan har yili 1 maygacha topshirilishi kerak. Soliq teng ulushlarda bir yilda ikki marta – 15-iyun va 15-dekabr gacha to'lanishi lozim.

Qisqacha xulosalar

1. Mulk moddiy ne'matlarni o'zlashtirib olish ijtimoiy va yuridik shakli bo'lib, kishilar hayotiga va jamiyatga hal qiluvchi ta'sir etadi. Mulk munosabatlari birlamchi bo'lib, boshqa munosabatlarning xususiyatlari unga bog'liqdir. Mulk huquqi-shaxsning o'ziga qarashli mol-mulkka o'z xohishiga ko'ra o'z manfaatlarini ko'zlab unga egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etishni o'z ichiga oladi. Yuridik va jismoniy shaxslar mulk huquqiga ega bo'lishi bilan birga ularda mol-mulk uchun soliq to'lash majburiyati ham yuzaga keladi.

2. Mol-mulk solig'i bevosita soliq bo'lib, mol-mulkka qaratilgan. U mahalliy byudjetga to'lanadi va shuning uchun mahalliy soliq hisoblanadi. Mol-mulk solig'i proporsional soliq bo'lib, soliq bazasi o'zgarishi bilan soliq stavkasi o'zgarmaydi. Lekin yuridik shaxslar uchun o'zlari ishlab chiqargan tovarlarni eksport qilish ulushi ortib borishi bilan soliq stavkasini pasaytirish, ya'ni regressiv holat ham mavjud. Yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkiga soliq solish o'z xususiyatlariga ega.

3. Yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i to'lovchisi bo'lib O'zbekistonda soliq solinadigan mol-mulkka ega bo'lgan yuridik shaxslar (shuningdek, O'zbekiston Respublikasi norezidentlari) hisoblanadilar (notijorat tashkilotlari va soliq solishning soddalashtirilgan tartibini qo'llaydigan yuridik shaxslardan tashqari). Soliq solish ob'yekti yuridik shaxslarning mulkida bo'lgan asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, belgilangan muddatda tugallanmagan qurilish ob'yektlari va ishga tushirilmagan asbob-uskunalaridir. Soliq solish bazasi asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati, muddatida tugallanmagan qurilish ob'yektlari va ishga tushirilmagan asbob-uskunalarining o'rtacha yillik qiymati hisoblanadi. Yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i bo'yicha bir qator imtiyozlar berilgan. Mazkur soliq uchun yagona stavka-soliq solinadigan bazaga nisbatan 3,5 foiz darajasida belgilangan.

4. Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i to'lovchisi bo'lib O'zbekistonda egaligida (mulkida) soliq solinadigan mol-mulk bo'lgan fuqarolar, shu jumladan, chet el fuqarolari hamda dehqon xo'jaliklari hisoblanadilar. Soliq solish ob'yekti turar joylar, kvartiralar, dala hovli imoratlari, garajlar va boshqa imoratlar, joylar, inshootlardir. Ularning inventarizatsiya qiymati soliq solish bazasi hisoblanadi. Mol-mulk solig'i bo'yicha jismoniy shaxslarning ayrim toifalariga imtiyozlar berilgan. Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i uchun ham yagona stavka – soliq solinadigan bazaga nisbatan 0,5 foiz darajasida belgilangan.

5. Mol-mulk solig'ini yuridik shaxslar har oyda, jismoniy shaxslar esa bir yilda ikki marotabaga to'laydilar.

Tayanch iboralar va tushunchalar: mol-mulk, mulk huquqi, mulkchilik, mulkka egalik qilish, mulkdan foydalanish, mulkni tasarruf etish, mol-mulk solig'i, asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, aqliy mulk ob'yektlari, sanoat mulki ob'yektlari, asosiy vositalarning eskirishi va amortizatsiyasi, amortizatsiya ajratmasi, asosiy vositalarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati, inventarizatsiya qiymati, shartli qiymati.

Nazorat va muhokama uchun savollar

- 1.O'zbekistonda mulkchilik to'g'risida qonun hujjatlari.
- 2.O'zbekistonda mulk va mulk munosabatlari.
- 3.Mol-mulk solig'i va uning roli.
- 4.Mol-mulk solig'ining xususiyatlari.
- 5.Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq to'lovchilari.
- 6.Yuridik shaxslar uchun mol-mulk solig'i ob'yekti va bazasi.
- 7.Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha imtiyozlar.
- 8.Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi.
- 9.Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va uning to'lovchilari.
- 10.Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq ob'yekti va bazasi.
- 11.Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha imtiyozlar.
- 12.Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish va undirish tartibi.
- 13.Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hisob-kitobi va hisoboti.

Mustaqil ish uchun topshiriqlar

- 1.Mol-mulk solig'ining ta'rif va tavsifini izohlash.
- 2.Mol-mulk solig'ining o'rni va rolini baholash
- 3.Mol-mulk solig'ining vazifalarini aniqlash.
- 4.Yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i bazasini hisoblash.
- 5.Yuridik shaxslarning mol-mulk solig'iga regressiv stavkalar qo'llash tartibini o'rganish.
- 6.Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i bazasini hisoblash.
- 7.Mol-mulk solig'i bo'yicha hisob-kitoblar shakli va uni to'ldirish tartibini o'rganish.
- 8.Mol-mulk solig'ini takomillashtirish imkoniyatlarini aniqlash.

Test topshiriqlari

1. Mol-mulk solig'i – bu:

- a) bilvosita soliq;
- b) bevosita soliq;
- d) ikkilamchi soliq;
- e) birlamchi soliq;
- f) barcha javoblar to'g'ri.

2. Mol-mulk solig'i – bu:

- a) regressiv soliq;
- b) progressiv soliq;
- d) proporsional soliq;
- e) teng soliq;
- f) barcha javoblar to'g'ri.

3. Mol-mulk solig'i – bu:

- a) hududiy soliq;
- b) mintaqaviy soliq;
- d) umumiy soliq;
- e) mahalliy soliq;
- f) umumdavlat solig'i.

4. Mol-mulk solig'i to'lovchilari hisoblanadi:

- a) O'zbekistonda mol-mulki bo'lgan rezident yuridik shaxslar;
- b) O'zbekistonda mol-mulki bo'lgan norezident yuridik shaxslar;
- d) O'zbekistonda mol-mulki bo'lgan rezident jismoniy shaxslar;
- e) O'zbekistonda mol-mulki bo'lgan norezident jismoniy shaxslar;
- f) barchasi.

5. Yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i ob'yekti:

- a) turar joylar;
- b) kvartiralar;
- d) dala hovli imoratlari;
- e) kommunal turar joylar;
- f) to'g'ri javob yo'q.

6. Yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i ob'yektiga kiradi:

- a) asosiy vositalar;
- b) nomoddiy aktivlar;
- d) muddatida qurilishi tugallanmagan ob'yektlar;
- e) muddatida ishga tushirilmagan asbob-uskunalar;
- f) barchasi.

7. Yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i ob'yekti hisoblanadi:

- a) ijaraga olgan transport vositalari;
- b) o'zining transport vositalari;
- d) vaqtincha foydalanishga olgan transport vositalari;
- e) sotgan transport vositalari;
- f) barchasi.

8. Yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i bazasi:

- a) asosiy vositalar qiymati;
- b) asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati;
- d) asosiy vositalarning tiklanish qiymati;
- e) asosiy vositalarning o'rtacha qiymati;
- f) asosiy vositalarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati.

9. Yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i bazasiga kiradi:

- a) asosiy vositalarning o'rtacha qiymati;
- b) nomoddiy aktivlarning o'rtacha boshlang'ich qiymati;
- d) muddatida tugallanmagan qurilish ob'yektining qoldiq qiymati;
- e) muddatida ishga tushirilmagan asbob-uskunalarining qiymati;
- f) to'g'ri javob yo'q.

10. Yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i stavkasi:

- a) 3,5 foiz;
- b) 4,0 foiz;
- d) 4,5 foiz;
- e) 2,5 foiz;
- f) 0,5 foiz.

11. Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i ob'yekti:

- a) asosiy vositalar;
- b) turar joylar;
- d) nomoddiy aktivlar;
- e) qurilishi tugallanmagan uy-joylar;
- f) barcha javoblar to'g'ri.

12. Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i ob'yektiga kiradi:

- a) turar joylar;
- b) kvartiralar;
- d) garajlar;
- e) dala hovli imoratlari;
- f) barchasi.

13. Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i bazasi:

- a) uy-joylarning umumiy qiymati;
- b) uy-joylarning boshlang'ich qiymati;
- d) uy-joylarning tiklanish qiymati;
- e) uy-joylarning inventarizatsiya qiymati;
- f) barcha javoblar to'g'ri.

14. Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i bazasi hisoblanadi:

- a) kvartiralar;
- b) kvartiralar umumiy qiymati;
- d) kvartiralar boshlang'ich qiymati;
- e) kvartiralar o'rtacha qoldiq qiymati;
- f) to'g'ri javob yo'q.

15. Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i stavkasi:

- a) 2,5 foiz;
- b) 1,5 foiz;
- d) 0,5 foiz;
- e) 3,5 foiz;
- f) 2,0 foiz.

16. Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'ini kim hisoblab chiqaradi?

- a) mol-mulk egasi;
- b) uchastka soliq inspektori;
- d) korxonalaridagi soliq agentliari;
- e) mahalla fuqarolar yig'ini xodimi;
- f) to'g'ri javob yo'q.

17. Yuridik shaxslarning mol-mulk solig`ini kim hisoblab chiqaradi?

- a) uchastka soliq inspektori;
- b) korxonalardagi soliq agentlari;
- d) mahalla fuqarolar yig`ini xodimi;
- e) mol – mulk kadastri xodimi;
- f) barcha javoblar to`g`ri.

18. Yuridik shaxslarning mol-mulk solig`i to`lanadi:

- a) bir yilda bir marta;
- b) bir yilda ikki marta;
- d) har chorakda;
- e) har oyda;
- f) har o`n kunlikda.

19. Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig`i to`lanadi:

- a) bir yilda bir marta;
- b) bir yilda ikki marta;
- d) har chorakda;
- e) har oyda;
- f) har o`n kunlikda.

20. Yuridik shaxslarga mol-mulk solig`i bo`yicha qanday imtiyozlar beriladi?

- a) soliq bazasini kamaytirish;
- b) soliqdan ozod qilish;
- d) soliq stavkasini pasaytirish;
- e) soliq stavkasini ham, bazasini ham pasaytirish;
- f) barchasi.

21. Yuridik shaxslarning mol-mulk solig`iga regressiv stavkalar qachon qo`llaniladi?

- a) mol-mulk miqdori oz bo`lganda;
- b) o`zi ishlab chiqargan mahsulotni o`zi sotganda;
- d) o`zi ishlab chiqargan mahsulotni o`zi bevosita yetkazib berganda;
- e) o`zi ishlab chiqargan mahsulotni eksport qilganda;
- f) mol-mulk egasi norezident yuridik shaxs bo`lganda.

22. Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig`i bo`yicha qanday imtiyozlar berilgan?

- a) jismoniy shaxslarni soliqdan ozod qilish;
- b) ayrim jismoniy shaxslarni soliqdan to`liq, ayrimlarini esa qisman ozod qilish;
- d) soliq stavkasini pasaytirish;
- e) soliq bazasini kamaytirish;
- f) barcha javoblar to`g`ri.

10.Yer solig'i

10.1.O'zbekistonda yerdan foydalanish va uning uchun to'lov

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksiga asosan yer davlat mulki-umummilliy boylikdir. Undan oqilona foydalanish zarur, u davlat tomonidan muhofaza etiladi hamda oldi-sotdi qilinmaydi, ayirboshlanmaydi, hadya etilmaydi, garovga qo'yilmaydi.

Yerning sifati ball-bonitet bilan belgilanadi. Ball-bonitet – bu yerning sifatli qatlamining unumdorligi, joylashgan joyi, suv bilan ta'minlanganligi va yo'lga qulay joylashganligini hisobga olgan holda berilgan bahosidir. Yerlardan asosiy foydalanish maqsadi-yerlardan yer kadastr hujjatlarida aks ettiriladigan aniq maqsadlarni ko'zlab foydalanishning qonun hujjatlarida belgilangan tartibi va shartlaridir. Yerlarni bir toifadan boshqasiga o'tkazish, yerlardan asosiy foydalanish maqsadi o'zgargan taqdirda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasida yerlar ulardan asosiy foydalanish maqsadiga ko'ra quyidagi toifalarga bo'linadi:

- 1) qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar;
- 2) aholi punktlari (shaharlar, qo'rg'onlar va qishloq aholi punktlari)ning yerlari;
- 3) sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlar;
- 4) tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish, rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar;
- 5) tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar;
- 6) o'rmon fondi yerlari;
- 7) suv fondi yerlari;
- 8) zahira yerlar.

Yer uchastkasi-yer fondining qayd etilgan chegaraga, maydonga, joylashish manziliga, huquqiy rejimiga hamda yer uchastkasiga bo'lgan huquqlarning davlat yer kadastrida va davlat ro'yxatiga olish hujjatlarida aks ettiriladigan boshqa xususiyatlariga ega bo'lgan qismidir.

Yuridik shaxslar doimiy egalik qilish, doimiy foydalanish, muddatli (vaqtincha) foydalanish, ijaraga olish va mulk huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lishlari mumkin. Jismoniy shaxslar meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish, doimiy foydalanish, muddatli (vaqtincha) foydalanish, ijaraga olish va mulk huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lishlari mumkin.


Yerdan foydalanganlik uchun haq to'lanadi. Yer uchun haq ikki ko'rinishda bo'lishi mumkin:

- 1) o'z egaligida va foydalanishida hamda mulkida yer uchastkalari bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar yer solig'i to'laydilar;
- 2) yer uchastkalari ijaraga berilganda yer uchun haq ijara haqi shaklida to'lanadi. Ijara haqi taraflarning kelishuviga muvofiq belgilanadi, lekin u yer solig'i stavkasining bir barobaridan kam va uch barobaridan ko'p bo'lmasligi kerak; yerdan

qishloq xo'jalik ehtiyojlari uchun foydalanilgan taqdirda ijara haqi yer solig'i stavkasining bir barobari miqdorida bo'ladi.

Belgilangan tartibda taqdim etilgan yer uchastkalari uchun ulardan foydalanish-foydalanmasligidan qat'iy nazar yer solig'i to'lanadi. Soliq to'lovchining joylashgan joyidan qat'iy nazar yer solig'i yer uchastkasi joylashgan tuman yoki shahar byudjetiga to'lanadi.

Yer solig'ining tavsifiy belgilari 10.1-chizmada keltirilgan.



10.1-chizma. Yer solig'ining tavsifiy belgilari.

10.2. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ijaraga berilgan yer uchastkalari uchun to'lanadigan ijara haqi yer solig'iga tenglashtiriladi va soliq sifatida undiriladi (to'lanadi).

Mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi norezidentlari yer solig'i to'lovchilaridir. Ko'chmas mulk ijaraga berilgan taqdirda ijaraga beruvchi yer solig'i to'lovchi bo'ladi. Yer uchastkasidan bir nechta yuridik shaxs birgalikda foydalangan taqdirda, har bir yuridik shaxs yer uchastkasining foydalanayotgan maydonidagi o'z ulushi uchun yer solig'i to'lovchisi hisoblanadi. Quyidagilar yer solig'i to'lovchilari bo'lmaydilar:

-notijorat tashkilotlari (tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirganda shu faoliyatda foydalanilgan yer uchastkalari bo'yicha yer solig'i to'lovchi bo'ladilar);

-soliq solishning soddalashtirilgan tartibini qo'llaydigan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarda mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida bo'lgan yer uchastkalari soliq solish ob'yektidir. Quyidagilar soliq solish ob'yekti hisoblanmaydi:

1) aholi punktlarining umumiy foydalanishdagi yerlari:

a) maydonlar, ko'chalar, tor ko'chalar, yo'llar, sug'orish tarmog'i, sohil bo'yi yerlari;

b) aholining madaniy-maishiy ehtiyojlarini qondirishi va dam olishi uchun foydalaniladigan yerlar (daraxtzorlar, bog'lar, saylgohlar, xiyobonlar, shuningdek, ariq tarmoqlari egallagan yerlar);


d) kommunal-maishiy maqsadlarda foydalaniladigan yerlar (qabristonlar,

chiqindilarni zararsizlantirish va ulardan foydalanish joylari va boshqa shu kabi joylar);

2) zahira yerlar.

Yer uchastkalarining soliq solinmaydigan maydonlari chegirib tashlangan holdagi umumiy maydoni soliq solinadigan baza hisoblanadi. Qaysi yer uchastkalariga bo'lgan mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi yil mobaynida soliq to'lovchiga o'tgan bo'lsa, o'sha yer uchastkalari uchun soliq solinadigan baza tegishli yer uchastkalariga bo'lgan huquq vujudga kelganidan keyingi oydan e'tiboran hisoblab chiqariladi. Yer uchastkasining maydoni kamaytirilgan (ko'paytirilgan) taqdirda soliq solinadigan baza shunday o'zgarish sodir bo'lgan oydan e'tiboran kamaytiriladi (ko'paytiriladi). Yuridik shaxslarda yer solig'i bo'yicha imtiyoz huquqi vujudga kelgan taqdirda soliq solinadigan baza ushbu huquq paydo bo'lgan oydan e'tiboran kamaytiriladi, imtiyoz huquqi tugatilganda, soliq solinadigan baza ushbu imtiyoz tugatilgandan keyingi oydan e'tiboran ko'paytiriladi.

Yuridik shaxslarning yer solig'i to'lovchilari, ob'yektlari va bazasi 10.2-chizmada ko'rsatilgan.



10.2-chizma. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i to'lovchilari, ob'yektlari va bazasi.

Yuridik shaxslar uchun yer solig'i bo'yicha imtiyozlar ikki guruhga bo'linadi.

1. Ayrim yuridik shaxslarni yer solig'idan ozod qilish. Bunday yuridik shaxslarga quyidagilar kiradi:

-madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash, aholini ijtimoiy muhofaza qilish tashkilotlari o'z zimmlariga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishda foydalanayotgan yer uchastkalari bo'yicha;

-nogironlarning jamoat birlashmalari, "Nuroni" jamg'armasi va "O'zbekiston chernobilchilari" assotsiatsiyasi mulkida bo'lgan hamda ishlovchilari umumiy

sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941-1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil etadigan korxonalar (savdo, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlov korxonalaridan tashqari);

- yangi tashkil etilgan dehqon xo'jaliklari-davlat ro'yxatidan o'tkazilgan oydan e'tiboran ikki yilga;

- ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik sub'yektlari ro'yxatdan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida xabardor qilingan kundan e'tiboran.

2. Ayrim yer uchastkalarini soliqdan ozod qilish, ya'ni soliq solinmaydigan yer uchastkalari quyidagilar hisoblanadi:

- bog'dorchilik, uzumchilik yoki polizchilik shirkatlarining kirish yo'llari, sug'orish ariqlari, kollektorlar egallagan va umumiy foydalanishdagi boshqa yerlari, jamoa garajlarining yerlari;

- muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarning yerlari (xo'jalik faoliyati yuritilayotgan yerlardan tashqari);

- sog'lomlashtirish ahamiyatiga molik yerlar (xo'jalik faoliyati yuritilayotgan yerlardan tashqari);

- tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar (xo'jalik faoliyati yuritilayotgan yerlardan tashqari);

- elektr uzatish liniyalari, ularning podstantsiyalari va inshootlari egallagan yerlar;

- umumdavlat aloqa liniyalari egallagan yerlar;

- madaniyat, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash ob'yektlari egallagan yerlar;

- umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari, temir yo'llari va stansiyalari, saralash joylari, temir yo'l transporti korxonalariga berilgan ihota daraxtzorlari egallagan yerlar;

- shahar elektr transporti yo'llari va metropoliten liniyalari, shu jumladan, jamoat transporti bekatlari va metropoliten stansiyalari hamda ularning inshootlari egallagan yerlar;

- sport va jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish komplekslari, onalar va bolalarning dam olish hamda sog'lomlashtirish joylari, dam olish uylari va o'quv-mashq bazalari egallagan yerlar;

- magistral neft va gaz quvurlari, ularning qurilmalari va inshootlari egallagan yerlar;

- magistral issiqlik trassalari va ularning (ko'paytiruvchi, kamaytiruvchi, aralashtiruvchi, drenaj) stansiyalari, issiqlik inshootlari egallagan yerlar;

- samolyotlarning uchish-qo'nish maydonlari, yerda boshqarish yo'laklari va to'xtash joylari, fuqaro aviatsiyasi aeroportlarining radionavigatsiya va elektr-yoritish uskunalari egallagan yerlar;

- konservatsiya qilingan ob'yektlar egallagan yerlar (konservatsiya davrida);

- gidrometeorologiya va gidrogeologiya stansiyalari hamda postlari egallagan yerlar;

- yuridik shaxs balansida bo'lgan va xo'jalik faoliyatida foydalanilmaydigan fuqaro muhofazasi hamda safarbarlik ahamiyatiga molik alohida joylashgan ob'yektlar egallagan yerlar;

- aholi punktlarining suv ta'minoti va kanalizatsiya inshootlari egallagan yerlar;

- ihota o`rmon daraxtzorlari egallagan yerlar;
- suv fondi yerlari va boshqa yerlar.

Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig`i stavkalari yerlarning turlari, toifalari, joylashgan joylariga qarab 1 gektar yer uchun so`mlarda quyidagicha belgilangan:

1.Qishloq xo`jalik sug`oriladigan yerlariga stavkalar ularning sifati (ball-boniteti)ga qarab 10 ta klassi bo`yicha belgilangan va birinchi toifadan o`ninchi toifaga qarab stavka ko`tarilib boradi.

2.lalmikor ekinzorlar, bo`z yerlar va ko`p yillik ko`chatzorlarga stavkalar ularning quyidagi 3 ta zonasi bo`yicha belgilangan:

- a) tekislik zonasi;
- b) adir zonasi;
- d) tog`oldi va tog` zonasi.

3.Sug`oriladigan pichanzorlar va yaylovlarga stavkalar ularning quyidagi 3 ta zonasi bo`yicha belgilangan:

- a) cho`l zonasi;
- b) adir zonasi;
- d) tog` zonasi.

4.Qishloq va o`rmon xo`jaligi ishlab chiqarishida foydalanilmayotgan boshqa yerlarga stavkalar ularning turlari bo`yicha belgilangan:

- a) suv havzalari, kanallar, kollektorlar, yo`llar egallagan yerlar;
- b) jamoatchilik qurilishlari va hovlilari egallagan yerlar;
- d) qishloq xo`jaligida foydalanilmayotgan boshqa yerlar.

5.Shaharlar va qo`rg`onlardagi yer uchastkalariga stavkalar shahar va qo`rg`on tipi hamda zonalari bo`yicha belgilangan:

- a) Toshkent shahrida 14 ta zona bo`yicha;
- b) boshqa yirik shaharlarda 4 ta zona bo`yicha;
- d) kichik shaharlarda 3 ta zona bo`yicha;
- e) tuman markazlari va aholi punktlarida 2 ta zona bo`yicha.

6.Qishloq joylarda joylashgan yer uchastkalaridan foydalanayotgan yuridik shaxslarga yer solig`i stavkalari quyidagicha belgilangan:

- a) aholi punktlaridagi sug`oriladigan yerlar uchun;
- b) aholi yashamaydigan joylardagi sug`oriladigan yerlar uchun;
- s) lalmikor yaylovlar uchun.

7.Qishloq joylarda joylashgan kon va kar`yerlar band qilgan yerlar uchun stavkalar quyidagicha belgilangan:

- a) sug`oriladigan yerlar uchun;
- b) lalmikor yaylovlar uchun.

Yer uchastkasi mulkdori, yer egasi, yerdan foydalanuvchi yoki ijarachining aybi bilan qishloq xo`jaligi yerlarining sifati yomonlashgan (ball-boniteti pasaygan) taqdirda, yer solig`i yerning sifati yomonlashguniga qadar belgilangan stavkalar bo`yicha undiriladi. Shaharlar va shaharchalarning ma`muriy chegaralarida joylashgan qishloq xo`jaligi ahamiyatiga molik yerlar uchun yuridik shaxslardan olinadigan yer solig`i qishloq xo`jaligi yerlari uchun belgilangan stavkalarning ikki barobari miqdorida to`lanadi.

Misol. Tuman markazi boʻlgan shaharning 2-zonasida joylashgan qurilish tashkiloti egallagan yer uchastkasi maydoni 3,76 ga (bu zonada belgilangan stavka 1ga uchun 2124,0 ming soʻm). Shundan soliq solinmaydigan yer uchastkalari maydoni 0,42ga. Bundan tashqari tumanning choʻl zonasida beton tayyorlash ssexi boʻlib, u 4,58 ga maydonni egallagan (bu zonada belgilangan stavka 1 ga uchun 113,4 soʻm). Tashkilot toʻlashi lozim boʻlgan yer soligʻi summasi $(3,76 - 0,42) \cdot 2124,0 + (4,58 \cdot 113,4) = 7094679,4$ soʻmni tashkil etadi.

Yuridik shaxslarning yer soligʻi boʻyicha soliq davri ham, hisobot davri ham kalendar yilidir. Yer soligʻi har bir soliq davrining 1-yanvarida boʻlgan holatga koʻra hisoblab chiqariladi va yer soligʻining hisob-kitobi (shakllari quyida keltirilgan) yer uchastkasi joylashgan joydagi soliq organiga hisobot yilining 15-fevraliga qadar taqdim etiladi. Yer soligʻini hisoblab chiqarish soliq solinadigan baza va belgilangan stavkadan kelib siqqan holda amalga oshiriladi.

Joriy soliq davrining 1 yanvardagi holati boʻyicha qishloq xoʻjaligi ahamiyatiga molik boʻlgan yerlar uchun toʻlanadigan yer soligʻi hisob-kitobi

Koʻrsatkichlar	Satr kodi	May doni, ga	Yuridik shaxslardan olinadigan yer soligʻining 1 ga uchun stavkasi, soʻm	Yuridik shaxslardan olinadigan yer soligʻining summasi
Jami yerlar- mazkur hisob-kitobga 1-ilovaning 010 satri yoki 020 satri	010			
shu jumladan:				
Sugʻoriladigan jamoa qishloq xoʻjaligi yerlari – jami:	011			
1 klass (0-10 ball)	0111			
2 klass (11-20 ball)	0112			
3 klass (21-30 ball)	0113			
4 klass (31-40 ball)	0114			
5 klass (41-50 ball)	0115			
6 klass (51-60 ball)	0116			
7 klass (61-70 ball)	0117			
8 klass (71-80 ball)	0118			
9 klass (81-90 ball)	0119			
10 klass (91-100 ball)	0120			
Baholanmagan yerlar	0121			
Lalmikor ekinzorlar, qoʻriq yerlar va sugʻorilmaydigan	013			

ko`p yillik daraxtzorlar – jami:				
tekislik (yog`inlar bilan ta`minlanmagan) zonada	0131			
tekislik-tepalik (yog`inlar bilan ta`minlangan) zonada	0132			
tog` oldi va tog`li (yog`inlar bilan ta`minlangan) zonada	0133			
Sug`orilmaydigan pichanzorlar va yaylovlar – jami:	014			
Cho`l mintaqasida	0141			
Adir mintaqasida	0142			
Tog` mintaqasida	0143			
Qishloq va o`rmon xo`jaligi ishlab chiqarishida foydalanilmaydigan boshqa yerlar - jami	015			
Suv havzalari, kanallar, kollektorlar, yo`llar bilan band bo`lgan yerlar	0151			
Jamoat imoratlari va hovlilari bilan band bo`lgan yerlar	0152			
Qishloq xo`jaligida foydalanilmay-digan boshqa yerlar	0153			
Soliq solinmaydigan yerlar – jami (mazkur hisob-kitobning 2-ilovasi 010-satri)	020			
Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig`ining umumiy summasi, shu jumladan:	040			
1 iyulgacha (20%)	0401			
1 sentabrgacha (30%)	0402			
1 dekabrgacha (qolgan soliq summasi)	0403			

**Joriy soliq davrining 1 yanvardagi holati bo'yicha
qishloq xo'jaligi ahamiyatiga molik bo'lmagan yerlar uchun
to'lanadigan yer solig'i hisob-kitobi**

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	O'lchov birligi	Yer maydoni	Summa
Yer uchastkasining umumiy maydoni- mazkur hisob-kitobga 1-ilovanning 010satr 3-ustuni yoki 020satr 3-ustuni	010	ga		x
Soliq solinmaydigan yer maydoni- mazkur hisob-kitobga 1-ilovanning 010satr 4-ustuni yoki 020satr 4-ustuni	020	ga		x
Soliq solinadigan baza - mazkur hisob-kitobga 1-ilovanning 010satr 5-ustuni yoki 020satr 5-ustuni	030	ga		x
Yil uchun budjetga to'lanishi lozim bo'lgan jami soliq summasi- mazkur hisob-kitobga 1-ilovanning 010satr 7-ustuni yoki 020satr 7-ustuni	040	so'm	x	
Shu jumladan:				
I chorak uchun - 15 fevralgacha	0401	so'm	x	
I I chorak uchun - 15 maygacha	0402	so'm	x	
I I I chorak uchun - 15 avgustgacha	0403	so'm	x	
I V chorak uchun - 15 noyabrgacha	0404	so'm	x	

Yil mobaynida yuridik shaxslarda yer uchastkalariga bo'lgan mulk huquqi, ulardan foydalanish huquqi yoki ijara huquqi vujudga kelganida (tugatilganida), shuningdek, ular foydalanayotgan yer maydoni ko'paygan (kamaygan) yoki yer solig'i bo'yicha imtiyoz huquqi tugatilgan (vujudga kelgan) taqdirda, yuridik shaxslar soliq organlariga yer solig'ining aniqlashtirilgan hisob-kitobini bunday o'zgarishlar yuz bergan kundan e'tiboran bir oy ichida, yagona yer solig'i to'lashga o'tmagan qishloq xo'jaligi korxonalari esa 1-dekabrga qadar taqdim etadilar.

Yer solig'ini to'lash yuridik shaxslar tomonidan yilning har choragida, yil choragi ikkinchi oyining 15-kuniga qadar teng ulushlarda amalga oshiriladi. Yagona yer solig'i to'lashga o'tmagan qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan:

- hisobot yilining 1 iyuliga qadar yillik soliq summasining 20 foizi;
- hisobot yilining 1 sentyabriga qadar yillik soliq summasining 30 foizi;
- hisobot yilining 1 dekabariga qadar soliqning qolgan summasi to'lanadi.

10.3. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq fuqarolarga beriladigan yerlar me'yori quyidagicha belgilangan (bir oila uchun):

- yakka tartibda uy-joy qurish uchun 0,06 ga;
- shaxsiy tomorqa (dehqon xo'jaligi) yuritish uchun 0,25 ga sug'oriladigan va 0,50 ga lalmikor yerlar.

Mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi

asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan jismoniy shaxslar, shuningdek, yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari yer solig'i to'lovchilaridir. Ijaraga berilgan yer uchastkalari uchun to'lanadigan ijara haqi yer solig'iga tenglashtiriladi. Yer uchastkalarini ijaraga olgan jismoniy shaxslarga yer solig'i to'lovchilari uchun belgilangan imtiyozlar, hisoblab chiqarish, hisob- asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan jismoniy shaxslar, shuningdek, yuridik shaxs kitoblarni taqdim etish va to'lash tartibi tadbiriq etiladi.

Uy-joy, yashash uchun mo'ljallanmagan imorat va inshootlar meros bo'yicha o'tishi bilan birgalikda mulk huquqi, egalik qilish huquqi va foydalanish huquqi o'tgan yer uchastkalari uchun yer solig'i meros qoldiruvchining soliq majburiyatlari hisobga olingan holda merosxo'rlardan undiriladi.

Jismoniy shaxslar uchun quyidagi yer uchastkalari soliq solish ob'yektidir:

- dehqon xo'jaligini yuritish uchun meros qilib qoldiriladigan, umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari ;

- yakka tartibda uy-joy qurilishi uchun meros qilib qoldiriladigan, umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari ;

- jamoat bog'dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligini yuritish uchun berilgan, shuningdek, yakka tartibdagi garajlar egallagan yer uchastkalari;

- xizmat yuzasidan berilgan chek yerlar;

- meros bo'yicha hadya qilinishi yoki olinishi natijasida uy-joy va imoratlar bilan birgalikda mulk huquqi ham o'tgan yer uchastkalari;

- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mulk qilib olingan yer uchastkalari;


- tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun foydalanishga yoki ijaraga berilgan yer uchastkalari.

Ko'p kvartirali uylar egallagan yer uchastkalari soliq solish ob'yekti bo'lmaydi.

Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazadigan organning yer uchastkalari maydoniga doir ma'lumotlari soliq solinadigan baza hisoblanadi. Jamoat bog'dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligini yuritish uchun fuqarolarga berilgan, shuningdek, yakka tartibdagi garajlar egallagan yer uchastkalarining maydonlari bo'yicha soliq solinadigan baza ushbu yer uchastkalarini bergan tashkilotlar ma'lumotlari bo'yicha aniqlanadi .

Xizmat yuzasidan berilgan chek yerlarning maydonlari bo'yicha soliq solinadigan baza o'z xodimlariga yer uchastkalarini bergan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning ma'lumotlari bo'yicha aniqlanadi.

Jismoniy shaxslarning yer solig'i to'lovchilari, ob'yektlari va bazasi 10.3-chizmada aks ettirilgan.



10.3-chizma. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i to'lovchilari, ob'yektlari va bazasi.

Yer solig'idan quyidagi jismoniy shaxslar ozod qilinadilar:

-yaylov chorvachiligining cho'ponlari, yilqiboqarlari, mexanizatorlari, veterinariya vrachlari va texniklari, boshqa mutaxassislari va ishchilari;

-O'zbekiston Qahramoni, Sovet Ittifoqi Qahramoni unvonlariga sazovor bo'lgan, uchala darajali "Shuhrat" ordeni bilan taqdirlangan fuqarolar;

-1941-1945 yillardagi urush nogironlari va qatnashchilari hamda ularga tenglashtirilgan shaxslar;

-I va II-guruh nogironlari;

-yolg'iz pensionerlar (yolg'iz yoki voyaga yetmagan bolalari bilan yohud nogiron bolasi bilan alohida uyda, kvartirada yoki yotoqxonada birga yashovchi pensionerlar yolg'iz pensionerlar deb tushiniladi);

-boquvchisini yo'qotgan ko'p bolali oilalar (ota-onasi yoki ulardan biri vafot etgan hamda oilada 16 yoshga to'lmagan 5 ta va undan ortiq bolalari bo'lgan oilalar boquvchisini yo'qotgan ko'p bolali oilalar hisoblanadi);

-Chernobil AES dagi avariya oqibatlarini tugatishda ishtirok etgan shaxslar;

-shaxsiy pensiya tayinlangan fuqarolar;

-ko'chirib keltirilgan fuqarolar-kelib joylashgan yer uchastkalari berilgan paytdan e'tiboran 5 yilgacha;

-yakka tartibdagi uy-joy qurilishi va dehqon xo'jaligini yuritish uchun belgilangan me'yorlar doirasida berilgan yer uchastkalari - berilgan oydan keyingi oydan boshlab ikki yil muddatda;

-jismoniy shaxslarning soliq solinmaydigan yer uchastkalari (ular birinchi paragrafda ko`rsatilgan).

Imtiyozlar yer uchastkalariga bo`lgan huquqlarni davlat ro`yxatidan o`tkazuvchi organda ro`yxatdan o`tgan jismoniy shaxslarga ularning tanlovi bo`yicha faqat bitta yer uchastkasiga beriladi.

Tadbirkorlik faoliyatida foydalaniladigan yohud uylar, dala hovli imoratlari, yakka tartibdagi garajlar va boshqa imoratlar, joylar ijaraga berilganda yer solig`i yuridik shaxslardan olinadigan yer solig`i stavkalari bo`yicha undiriladi hamda imtiyozlar tadbiriq etilmaydi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig`i stavkalari quyidagicha belgilangan;

1.Qishloq joylarida joylashgan yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun stavka bir gektar maydonga so`mlarda belgilangan:

- a) dehqon xo`jaligini yuritish uchun berilgan yerlar;
- aholi punktlaridagi sug`oriladigan yerlar;
- aholi yashamaydigan joylardagi sug`oriladigan yerlar;
- lalmikor yerlar ;

b) jamoat bog`dorchiligi va polizchiligini yuritish uchun ajratilgan yerlar .

2.Shahar va qo`rg`onlarda yakka tartibda uy-joy qurish uchun berilgan yerlar uchun stavka bir kv. m yer maydoniga so`mlarda belgilangan.

- a) Toshkent shahrida 14 ta zona bo`yicha ;
- b) boshqa yirik shaharlarda 4 ta zona bo`yicha ;
- d) kichik shaharlarda 3 ta zona bo`yicha;
- e) tuman markazlari va qishloq aholi punktlarida 2 ta zona bo`yicha.

Soliq organlari yer solig`i to`lovchilari bo`lgan jismoniy shaxslarning hisobini muntazam yuritadilar va soliqni hisoblab chiqaradilar. Yer solig`i summasi, uni to`lash muddatlari ko`rsatilgan to`lov xabarnomalari jismoniy shaxslarga soliq organlari tomonidan har yili birinchi maydan kechiktirmay topshiriladi. Yil mobaynida yer uchastkasi maydoni o`zgarganda va imtiyoz huquqi vujudga kelganida (tugatilganida) soliq organlari mazkur o`zgarishlardan keyin bir oy ichida yer solig`ini qayta hisob-kitob qilishlari va yangi yoki qo`shimcha to`lov xabarnomasini taqdim etishlari kerak.

Misol.Tuman markazidan 8 km uzoqlikda sug`oriladigan zonada joylashgan qishloqda fuqaroning foydalanishida 0,11ga yer uchastkasi bor. Bu zonadagi aholi punktlarida joylashgan yer uchastkalariga belgilangan soliq stavkasi 0,01ga uchun 1234,8 so`m bo`lib, yer uchastkasi tuman markazi atrofida 10 km radius doirasida joylashganligi uchun 1,15 koeffitsiyent qo`llaniladi. Fuqaroning yer solig`i summasi  $0,11 \cdot 1234,8 \cdot 1,15 = 15620$  so`mni tashkil etadi.

Yer solig`i yer uchastkasining mulkdori, yerga egalik qiluvchi, yerdan foydalanuvchi yoki ijarachining yashash joyidan qat`iy nazar, yer uchastkasi joylashgan hududdagi tuman yoki shaharning mahalliy byudjetiga to`lanadi. Yil mobaynida ajratilgan yer uchastkalari uchun yer solig`i jismoniy shaxslar tomonidan yer uchastkasi ajratilgandan keyingi oydan e`tiboran to`lanadi.

Soliq davri uchun yer solig`i to`lash jismoniy shaxslar tomonidan yiliga ikki

marta teng ulushlarda-hisobot yilining 15 iyuniga va 15 dekabriga qadar amalga oshiriladi.

Qisqacha xulosalar

1.O'zbekistonda Yer kodeksiga asosan yer davlat mulki, umummilliy boylik bo'lib, davlat tomonidan muhofaza etiladi va oldi-sotdi qilinmaydi. Faqat undan oqilona foydalanish zarur. Yerdan foydalanganlik uchun haq to'lash kerak. U yer solig'i va ijara haqi ko'rinishda bo'ladi. Yer solig'i bevosita hamda mahalliy soliq bo'lib, mahalliy byudjetga to'lanadi. Uni yuridik shaxslar ham, jismoniy shaxslar ham to'laydilar.

2.Mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi norezidentlari yer solig'i to'lovchilari hisoblanadilar (notijorat tashkilotlari va soliq solishning soddalashtirilgan tartibini qo'llaydigan yuridik shaxslardan tashqari). Soliq solish ob'yekti yuridik shaxslarda bo'lgan yer uchastkalari, bazasi esa ularning maydonidir. Aholi punktlari hududidagi maydonlar, ko'chalar, dam olish va kommunal-maishiy maqsadlarga mo'ljallangan yerlar, zahira yerlar soliq solish ob'yekti hisoblanmaydi. Bundan tashqari, ayrim yuridik shaxslar va ayrim yer uchastkalari soliqdan ozod qilingan. Yuridik shaxslarning yer solig'i stavkalari juda murakkab bo'lib, yerlardan asosiy foydalanish maqsadlari, ularning turlari, toifalari, joylashgan joylari hamda viloyatlar va aholi punktlarining toifalari va zonolari bo'yicha yer uchastkalarining har bir gektar maydoni uchun so'mlarda belgilangan. Yer solig'ini yagona yer solig'i to'lashga o'tmagan qishloq xo'jaligi korxonalari bir yilda uchga bo'lib, boshqa yuridik shaxslar esa har chorakda to'laydilar.

3.Mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan jismoniy shaxslar yer solig'i to'lovchilaridir. Jismoniy shaxslarning yer solig'i ob'yekti bo'lib uy-joy qurish, dehqon xo'jaligi va tadbirkorlik faoliyatini, jamoat bog'dorchiligi va polizchiligini yuritish uchun berilgan, uy-joylar bilan birgalikda olingan, garajlar egallagan va boshqa yer uchastkalari, bazasi esa ularning maydoni hisoblanadi. Soliq to'lovchilarning ayrim toifalari yer solig'idan ozod qilingan. Jismoniy shaxslarning yer solig'i bir yilda ikki marotaba teng ulushlarda – 1- iyulgacha va 1- dekabrgacha to'lanishi kerak.

Tayanch iboralar va tushunchalar: yer resurslari, yerdan foydalanuvchi, yerdan doimiy va muddatli foydalanish, yerga egalik qilish, doimiy egalik qilish, umrbod egalik qilish, yerni meros qilib qoldirish, yerga mulk huquqi, yer toifalari, yer kadastri, yer bahosi, yer qiymati, yerni ijaraga olish, ijara haqi, yer solig'i, yagona yer solig'i, qishloq xo'jaligi yerlari, o'rmon xo'jaligi yerlari, soliq solinmaydigan yerlar, chek yerlar, zahira yerlar, lalmikor yerlar, sug'oriladigan yerlar, yaylovlar, pichanzorlar.

Nazorat va muhokama uchun savollar

- 1.O`zbekistonda yerdan foydalanish tartibi.
- 2.O`zbekistonda yer toifalari.
- 3.O`zbekistonda yerdan foydalanish uchun haq to`lash.
- 4.Yuridik shaxslarning yer solig`i to`lovchilari, ob`yektlari, bazasi.
- 5.Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig`i bo`yicha imtiyozlar.
- 6.Yuridik shaxslarning yer solig`i stavkalari.
- 7.Yuridik shaxslarning yer solig`ini hisoblab chiqarish va to`lash tartibi.
- 8.Jismoniy shaxslarning yer solig`i to`lovchilari, ob`yektlari, bazasi.
- 9.Jismoniy shaxslarning yer solig`i bo`yicha imtiyozlar.
- 10.Jismoniy shaxslarning yer solig`i stavkalari.
- 11.Yagona soliq to`lovi hisob-kitobi va hisoboti.
- 12.Yagona yer solig`i hisob-kitobi va hisoboti.

Mustaqil ish uchun topshiriqlar

- 1.Foydalaniladigan yer uchun soliq yoki ijara haqi to`lash tartibini o`rganish.
- 2.Yer solig`ining ta`rifi va tavsifini izohlash.
- 3.Yer solig`ining vazifalarini aniqlash.
- 4.Yer solig`ining o`rni va rolini baholash.
- 5.Yer solig`ining yer resurslaridan foydalanishga ta`sirini o`rganish.
- 6.Yer solig`i bo`yicha hisob-kitoblar shakli va uni to`ldirish tartibini o`rganish.
- 7.Yer solig`ini takomillashtirish imkoniyatlarini baholash.

Test topshiriqlari

1. Yer solig`i-bu:

- a) umumdavlat solig`i;
- b) mahalliy soliq;
- d) umumdavlat va mahalliy soliq;
- e umumiy soliq;
- f) mintaqaviy soliq.

2. Yer solig`i – bu:

- a) bevosita soliq;
- b) bilvosita solq;
- d) ikkilamchi soliq;
- e) birlamchi soliq;
- f) to`g`ri javob yo`q.

3.Yer solig`i – bu:

- a) bevosita soliq;
- b) resurs solig`i;
- d) mahalliy soliq;
- e) proporsional soliq;

f) barcha javoblar to'g'ri.

4. Yer solig'ini quyidagilardan kimlar to'laydi?

- a) yer uchastkalariga ega bo'lgan barcha yuridik shaxslar;
- b) yer uchastkalariga ega bo'lgan barcha yuridik shaxslar, qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilaridan tashqari;
- d) fermer xo'jaliklari;
- e) agrofimlar;
- f) barchasi.

5. Yer solig'ini to'lashlari kerak:

- a) ishlab chiqarish korxonalari;
- b) dehqon xo'jaliklari;
- d) yer uchastkasiga ega bo'lgan jismoniy shaxslar;
- e) yerdan foydalanuvchi tadbirkorlar;
- f) barchasi.

6. Yer solig'i to'lamaydi:

- a) dehqon xo'jaligi;
- b) yuridik shaxs bo'lmagan dehqon xo'jaligi;
- d) yuridik shaxs bo'lgan dehqon xo'jaligi;
- e) fermer xo'jaligi;
- f) to'g'ri javob yo'q.

7. Yer solig'i ob'yektiga kirmaydi:

- a) aholi punktlaridagi maydonlar va ko'chalar egallagan yerlar;
- b) aholining dam olishiga mo'ljallangan bog'lar, xiyobonlar, sayilgohlar yerlari;
- d) kommunal – maishiy maqsadlarga mo'ljallangan yerlar;
- e) zahira yerlar;
- f) barchasi.

8. Qaysi yuridik shaxslar yer solig'idan azod qilingan?

- a) madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash muassasalari;
- b) tijorat tashkilotlari;
- d) yuridik shaxs bo'lgan dehqon xo'jaliklari;
- e) uy – joy – kommunal xo'jaliklari;
- f) barchasi.

9. Qanday yerlar soliqdan ozod qilingan?

- a) sog'lomlashtirish ahamiyatiga molik yerlar;
- b) umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari egallagan yerlar;
- d) konservatsiya qilib qo'yilgan ob'yektlar egallagan yerlar;
- e) tarixiy – madaniy ahamiyatga ega yerlar;
- f) barchasi.

10. Yuridik shaxslarning yer solig'i ob'yekti hisoblanadi:

- a) barcha yer uchastkalari;
- b) barcha yer uchastkalari maydoni;
- d) yuridik shaxslarning soliq solinadigan yer uchastkalari;
- e) yuridik shaxslarning soliq solinadigan yer uchastkalari maydoni;
- f) yuridik shaxslarning sug'oriladigan yer uchastkalari maydoni.

11. Yuridik shaxslarning yer solig`i bo`yicha soliq solish bazasi:

- a) barcha yer uchastkalari;
- b) barcha yer uchastkalari maydoni;
- d) yuridik shaxslarning soliq solinadigan yer uchastkalari;
- e) yuridik shaxslarning soliq solinadigan yer uchastkalarining maydoni;
- f) yuridik shaxslarning sug`oriladigan yer uchastkalari maydoni;

12. Jismoniy shaxslarning yer solig`ini to`lovchisi hisoblanadi:

- a) yer uchastkalariga ega bo`lgan fuqarolar;
- b) dehqon xo`jaliklari;
- d) yuridik shaxs bo`lgan dehqon xo`jaliklari;
- e) oddiy shirkatlar;
- f) barcha javoblar to`g`ri;

13. Jismoniy shaxslarning yer solig`i ob`yektiga kiradi:

- a) uy – joy qurish uchun berilgan yerlar;
- b) dehqon xo`jaligini yuritish uchun berilgan yerlar;
- d) meros yoki hadiya qilingan uy-joylar bilan birga o`tgan yerlar;
- e) tadbirkorlik faoliyatida foydalaniladigan yerlar;
- f) barchasi.

14. Jismoniy shaxslarning yer solig`i bazasi hisoblanadi:

- a) jismoniy shaxslar ega bo`lgan barcha yerlar;
- b) jismoniy shaxslar ega bo`lgan soliq solinadigan barcha yerlar;
- d) jismoniy shaxslar yer uchastkalarining maydoni;
- e) jismoniy shaxslar yer uchastkalarining qiymati;
- f) to`g`ri javob yo`q.

15. Jismoniy shaxslarning yer solig`idan kimlar ozod qilingan?

- a) yaylov chorvachiligi cho`ponlari, mexanizatorlari, veterinariya vrachlari;
- b) yolg`iz pensionerlar;
- d) shaxsiy pensiya oladiganlar;
- e) boquvchisini yo`qotgan ko`p bolali onalar;
- f) barchasi.

11. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi


11.1. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi va uni qo'llash

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi soliq to'lovchilarning ayrim toifalari uchun qo'llaniladi va yagona soliq to'lovi, yagona yer solig'i, qat'iy belgilangan soliqni hisoblab chiqarish va to'lash maxsus qoidalari qo'llanilishini nazarda tutadi. Qat'iy belgilangan soliq to'lash belgilangan faoliyat turlarini amalga oshuruvchi yagona soliq to'lovi to'lovchilari va yagona yer solig'i to'lovchilari ushbu faoliyat turlari bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishlari hamda qat'iy belgilangan soliq to'lashlari shart. Ushbu soliqlar jami umumbelgilangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning o'rnida to'lanadi. Lekin quyidagilarni to'lash majburiyati saqlanib qoladi:

- to'lov manbaida yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig'i;
- O'zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan bajariladigan ishlar va ko'rsatiladigan xizmatlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i;
- aksiz to'lanadigan tovar ishlab chiqarganda aksiz solig'i;
- yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar;
- bojxona to'lovlari;
- yagona ijtimoiy to'lov ;
- davlat bojlari;
- tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun yig'im ;
- byudjetdan tashqari jamg'armalarga majburiy ajratmalar (yagona soliq to'lovi to'lovchilaridan tashqari);
- avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) vaqtinchalik olib kirganlik uchun Respublika yo'l jamg'armasiga yig'im.

Quyidagi soliqlar soddalashtirilgan tartibda amalga oshiriladi (11.1-chizma):

- 1) yagona soliq to'lovi;
- 2) yagona yer solig'i.
- 3) qat'iy belgilangan soliq.



11.1-chizma. Soddalashtirilgan tartibda undiriladigan soliq turlari.

Soliq davri mobaynida soliq solish tartibi o'zgargan taqdirda, solq to'lovchi bu haqda soliq organini yozma ravishda xabardor etadi. Bunda o'tgan davr uchun soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni o'sha davrda amal qilgan soliq solish tartibidan kelib chiqqan holda to'lash majburiyati saqlanib qoladi.

11.2.Yagona soliq to'lovi


Yagona soliq to'lovi quyidagi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar o'rnida to'lanadi:

- yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i;
- yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;
- yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i;
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i;
- Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar;
- Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratma;
- Ta'lim muassasalarini rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va johozlash jamg'armasiga majburiy ajratma.

Yagona soliq to'lovini to'lovchi yuridik shaxslarda quyidagilarni to'lash majburiyati saqlanib qoladi:

- aksiz solinadigan tovarlar ishlab chiqarganda aksiz solig'i;
- yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar;
- to'lov manbaida undiriladigan foyda solig'i;
- yagona ijtimoiy to'lov;
- bojxona to'lovlari;
- davlat bojlari;
- ayrim tovarlarni chakana sotish va ayrim xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun yig'im;
- avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im;
- Respublika yo'l jamg'armasiga yig'im.

Yagona soliq to'lovi ob'yekti, bazasi va to'lovchilari 11.2-chizmada ko'rsatilgan.



11.2-chizma. Yagona soliq to'lovi to'lovchilari, ob'yekti va bazasi.

Yagona soliq to'lovi to'lovchilari quyidagilardir.

1. Mikrofirmalar va kichik korxonalar. Mikrofirma va kichik korxonalar jumlasiga xodimlarning soni bo'yicha qonun hujjatlarida belgilangan mezonga mos keladigan yuridik shaxslar kiradi.

Mikrofirma-ishlovchilarining o'rtacha yillik soni:

-ishlab chiqarish sohasida 20 kishigacha;

-savdo, xizmat ko'rsatish va boshqa noishlab chiqarish sohalarida 5 kishigacha bo'lgan mo'jaz korxonalar.

Kichik korxona-ishlovchilarining o'rtacha yillik soni:

-sanoatda 100 kishigacha;

-qurilish, qishloq xo'jaligi va boshqa ishlab chiqarish sohalarida 50 kishigacha;

-savdo, xizmat ko'rsatish va boshqa noishlab chiqarish sohalarida 25 kishigacha bo'lgan korxonalar.

Yagona soliq to'lovi quyidagi mikrofirmalar va kichik korxonalarga tadbiq etilmaydi;

-aksiz solig'i to'lanadigan mahsulot ishlab chiqaruvchi va yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solinadigan foydali qazilmalarni qazib oluvchi mikrofirmalar va kichik korxonalarga;

-yagona yer solig'i va qat'iy belgilangan soliq to'lash nazarda tutilgan faoliyat doirasidagi mikrofirma va kichik korxonalarga;

-mahsulot taqsimotiga oid bitimlar ishtirokchisi bo'lgan mikrofirma va kichik korxonalarga.

2.Xodimlar sonidan qat'iy nazar:

-savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari;

-xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslar;

-lotereyalar tashkil qiish bo'yicha faoliyatni amalra oshiruvchi yuridik shaxslar.

3.Oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan ishonchli shaxs-yakka tartibdagi tadbirkor.

Mikrofirmalar va kichik korxonalar soliq solishning soddalashtirilgan tartibini yoki umumiy tartibini tanlab olishlari mumkin. Faoliyat ko'rsatayotgan mikrofirmalar va kichik korxonalar belgilangan tartibda yagona soliq to'lovini to'lashga ixtiyoriy ravishda o'tishlari va undan voz kechishlari mumkin. Soliq solishning umumiy tartibini qo'llashga o'tgan soliq to'lovchilar kamida o'n ikki oydan so'ng yagona soliq to'lovi to'lashga qayta o'tishlari mumkin.

Turli soliq solish ob'yektlari va (yoki) yagona soliq to'lovi stavkalari belgilangan bir necha faoliyat turlari bilan shug'ullanadigan yagona soliq to'lovi to'lovchilari shu faoliyat turlari bo'yicha alohida-alohida hisob yuritadilar hamda soliq to'lovchilarning tegishli toifalari uchun belgilangan stavkalar bo'yicha yagona soliq to'lovi to'laydilar.

Yagona soliq to'lovi ob'yekti yalpi tushum hisoblanadi. Soliq solish maqsadida yalpi tushum tarkibiga tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni sotishdan tushgan tushum (qo'shilgan qiymat solig'ini chegirgan holda) va boshqa daromadlar kiradi. Shuning bilan birga bir qator sotish, topshirish, berish operatsiyalari soliq solish ob'yektiga kirmaydi (ularning ro'yxati Soliq kodeksida keltirilgan).

Yagona soliq to'lovi bazasi yalpi tushumdan quyidagilar chegirib tashlangandan keyingi qoldiq hisoblanadi:

1) davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha daromadlar;

2) to'lov manbaida soliq solinadigan dividendlar va foizlar tariqasida olingan daromadlar;

3) dividendlar tariqasida olingan va ularni bergan yuridik shaxsning ustav jamg'armasi (kapitali)ga yo'naltirilgan daromadlar;

4) to'liq amortizatsiya qilingan asosiy vositalarni sotishdan olingan daromadlar;

5) hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillardagi daromadlar;

6) ko'p aylanmali qaytariladigan taraning qiymati;

7) yetkazib beruvchilarning siylovi (chegirmasi) tariqasida va asosiy vositalarni tugatish (hisobdan chiqarish) natijasida olingan boshqa daromadlar.

Bundan tashqari soliq solinadigan baza quyidagilarga kamaytiriladi:

-avtomobillarga yoqilg'i quyish shaxobchalari uchun jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq summasiga;

-lotereya o'yinlarini tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar uchun yutuq (mukofot) jamg'armasining summasiga;

-brokerlik tashkilotlari uchun bitim summasidan birjaga o'tkaziladigan

vositachilik yig`imi summasiga;

-vositachilik xizmatlari ko`rsatuvchi yuridik shaxslar uchun tovarlarni import qilishda to`langan bojxona to`lovlari summasiga;

-yangi texnologik jihozlar olishga yo`naltirilgan summaga;

-yosh oilalar jumlasidan bo`lgan xodimlarga ipoteka kreditlari bo`yicha badallar to`lashga va (yoki) mulk qilib uy-joy olishga tekin yo`naltirilgan mablag`lar summasiga.

Yalpi tushumga yuridik shaxslarning foyda solig`idagidek hollarda tuzatish kiritish mumkin.

Yagona soliq to`lovini to`lashdan nogironlarning jamoat birlashmalari, “Nuroni” jamg`armasi va “O`zbekiston chernobilchilari” assotsiatsiyasi mulkida bo`lgan hamda ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941-1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil etadigan yuridik shaxslar ozod qilinadi (savdo, vositachilik, ta`minot-sotish va tayyorlov korxonalaridan tashqari). Yagona soliq to`lovi stavkalari quyidagicha belgilangan.

11.1-jadval

Mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq to`lovi stavkalari

T/r	To`lovchilar	Stavka, yalpi tushumga nisbatan, foizda
1.	Iqtisodiyot barcha tarmoqlari korxonalari (quyidagilardan tashqari)	6
2.	Mahsulot sotish umumiy hajmining 80 foizi va undan ko`pini kompyuter dasturiy mahsulotlarini ishlab chiqish va tadbiq etish tashkil qiluvchi korxonalar	5
3.	Qishloq xo`jaligi korxonalari asosiy faoliyatidan (yagona yer solig`i to`lovchilaridan tashqari)	6
4.	Ommaviy-tomosha tadbirlarini tashkil etishdan daromad oladigan korxonalar	30
5.	Tayyorlov va ta`minot-sotish korxonalari, brokerlik idoralari (quyidagidan tashqari)	33
6.	Qimmatli qog`ozlar bozorida brokerlik faoliyatini amalga oshiruvchi korxoanlar	13
7.	O`zi ishlab chiqargan mahsulotni erkin almashtiriladigan valyutaga eksport qilish ulushi: a) 15 foizdan 30 foizgacha bo`lganda b) 30 foiz va undan yuqori bo`lganda	belgilangan stavka 30 foizga pasaytiriladi belgilangan stavka 50 foizga pasaytiriladi
8.	Xizmatlar ko`rsatuvchi korxonalar uchun plastik kartochkalar bilan to`langan xizmatlar hajmi bo`yicha	belgilangan stavka 10 foizga pasaytiriladi

11.2-jadval

**Savdo, umumiy ovqatlanish va ayrim boshqa toifadagi korxonalar uchun
yagona soliq to'lovi stavkalari**

T/r	To'lovchilar	Stavka, yalpi tushumga nisbatan, foizda
1.	Lotereyalar tashkil etuvchi korxoanlar	33
2.	Xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslar	50
3.	Umumiy ovqatlanish korxonalari Ulardan umumta'lim maktablari, maktab-internatlar, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlariga xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan umumiy ovqatlanish korxonalari	10 8
4.	Chakana savdo korxonalari, joylashgan joyiga qarab: a) aholi soni 100 ming kishi va undan ko'p bo'lgan shaharlarda b) boshqa aholi punktlarida d) borish qiyin bo'lgan va tog'li joylarda	4 2 1
5.	Ulgurji savdo korxonalari	5
6.	Ulgurji va chakana dorixona tashkilotlari, joylashgan joyiga qarab: a) aholi soni 100 ming kishi va undan ko'p bo'lgan shaharlarda b) boshqa aholi punktlarida d) borish qiyin bo'lgan va tog'li joylarda	3 2 1
7.	3,4,5-bandlarda ko'rsatilgan korxonalar uchun plastik kartochkalarni qo'llab to'langan xizmatlar hajmi bo'yicha	belgilangan stavka 10 foizga pasaytiriladi

Yagona soliq to'lovi davri kalendar yili, hisobot davri esa quyidagicha belgilangan:

- mikrofirma va kichik korxonalar uchun yil choragi;
- mikrofirma va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar uchun bir oy.

Yagona soliq to'lovi soliq solinadigan baza va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi. Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilar uchun yagona soliq to'lovi summasi byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i summasiga, lekin yagona soliq to'lovi summasining 50 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda kamaytiriladi. Qo'shilgan qiymat solig'ini ixtiyoriy ravishda to'lashga kalendar yil boshidan e'tiboran o'tmagan to'lovchilar yagona soliq to'lovi summasini qo'shilgan qiymat solig'i hisoblab chiqarilgan hisobot davriga to'g'ri keladigan summaga kamaytiradilar.

Misol. 1. Qurilish materillari ishlab chiqaruvchi mikrofirmaning bir chorakda mahsulot sotish hajmi (sof tushumi) 240,0 mln. so'm bo'lgan. U 12,0 mln. so'mga yangi texnologik jihozlar sotib olib o'rnatgan va eskilarini ijaraga berib, 7 mln. so'm ijara haqi olgan hamda sotib olgan aksiyalariga 3,0 mln. so'm dividend olgan. Mikrofirmaning yalpi tushumi 250,0 mln. so'm ($240,0 + 3,0 + 7,0$) bo'lgan. Dividend to'lagan aksiyadorlik jamiyati undan soliqni ushlab qolgan va shuning uchun dividend summasi umumiy yalpi tushumdan chegirib tashlanadi. Qolgan yalpi tushum soliq solinadigan baza bo'lib, 247,0 mln. so'm ($250,0 - 3,0$)ga teng bo'ladi. Mazkur baza sotib olingan yangi texnologik jihozlar qiymatiga kamaytiriladi (imtiyozlarga qarang) va shundan so'ng soliq solinadigan yalpi tushum qoladi-235,0 mln. so'm ($247,0 - 12,0$). Bu korxona uchun soliq to'lovi stavkasi 7% bo'lib, summasi 16,45 mln. so'm ($235,0 \cdot 7$):100 ni tashkil etadi.

2. Tumanda joylashgan chakana savdo firmasining bir chorakdagi sof tushumi 790,0 mln. so'm bo'lib, shundan 320,0 mln. so'm plastik kartochkalar yordamida kelib tushgan-ana shu tushum bo'yicha soliq stavkasi 10 foizga pasaytiriladi. Belgilangan stavka 2 foiz, pasaytirilgan (tuzatilgan) stavka esa 1,8 foiz bo'ladi. Yagona soliq to'lovi summasi:

- 1) $790,0 - 320,0 = (470,0 \cdot 2):100 = 9,4$ mln. so'm;
- 2) $(320,0 \cdot 1,8):100 = 5,76$ mln. so'm;
- 3) jami summasi $9,4 + 5,76 = 15,16$ mln. so'mni tashkil etadi.

Yagona soliq to'lovining hisob-kitobi soliq organiga ortib boruvchi yakun bilan quyidagi muddatlarda va shaklda taqdim etiladi:

-mikrofirma va kichik korxonalar tomonidan yilning har choragida hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda;

-boshqa korxonalar tomonidan har oyda hisobot daridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda.

Yagona soliq to'lovi hisob-kitobi

Ko`rsatkichlar	Satr Kodi	Jami	Shu jumladan, yagona soliq to`lovi to`lovchisi to`g`risida ma`lumotda ko`rsatilgan faoliyat turlari bo`yicha (01-varaq)					
			asosiy faoliyat turi-1	2	3	4	5	6
Tovar (ish, xizmat) larni sotishdan sof tushum	010							
Faoliyat turlari bo`yicha tushumning tovar (ish, xizmat) larni sotishdan jami tushumdagi salmog`i, % da	020	100						
Boshqa daromadlar (Yagona soliq to`lovi hisob-kitobi 1-ilovasining 010-satri)	030			X	X	X	X	X

Soliqqa tortiladigan yalpi tushum (010-satr + 030-satr)	040							
Imtiyozlar -jami (0501-satr + 0502-satr)	050							
Shu jumladan:								
soliq solish ob`yekti sifatida qaralmaydigan daromadlar (Yagona soliq to`lovi hisob-kitobi 2-ilovasining 010-satri)	0501			X	X	X	X	X
soliq solinadigan yalpi tushumni kamaytirish (Yagona soliq to`lovi hisob-kitobi 3-ilovasining 010-satri)	0502							
Soliq solinadigan baza - jami (040-satr - 050-satr)	060							
Shu jumladan hisoblangan:								
plastik kartochkalar qo`llanilib ko`rsatilgan xizmatlar hajmidan olingan tushumdan (Yagona soliq to`lovi hisob-kitobi 5-ilovasining 030-satri x 060-satr)	0601							
0601-satr bo`yicha olingan tushum chegirilgan holdagi tushumdan (060-satr - 0601-satr)	0602							
Yagona soliq to`lovining belgilangan stavkasi	070	X						
Yagona soliq to`lovining tuzatilgan stavkasi:	080	X						
eksport qiluvchi korxonalar uchun eksport ulushiga nisbatan, %da (Yagona soliq to`lovi hisob-kitobi 6-ilovasining 060-satri)	0801	X						
xizmat ko`rsatish sohasi korxonalari uchun plastik kartochkalar qo`llanib to`langan ko`rsatilgan xizmatlar hajmidan olingan tushumga nisbatan, %da	0802	X						
Yagona soliq to`lovi summasi - jami (0901-satr + 0902-satr)	090							
shu jumladan hisoblangan:								
0601-satrdagi ko`rsatilgan tushumdan (0601-satr x 0802-satr)	0901							
0602- satrdagi ko`rsatilgan tushumdan (0602-satr x 0801-satr)	0902							
Byudjetga to`lanadigan qo`shilgan qiymat solig`i summasi (Qo`shilgan qiymat solig`i hisob-kitobining 030-satri)	100		X	X	X	X	X	X

Yagona soliq to'lovi summasini kamaytiradigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi (100-satr, biroq 090-satr x 50 foizdan ko'p emas)	110		X	X	X	X	X	X
Hisob-kitob bo'yicha hisoblangan yagona soliq to'lovi summasi (090-satr-110-satr)	120		X	X	X	X	X	X
O'zbekiston yoshlarining "Kamolot" ijtimoiy harakatini rivojlantirish jamg'armasiga chegirilgan holdagi yagona soliq to'lovi summasi (120-satr-(120-satr x 5%))	130		X	X	X	X	X	X
Avvalgi davr uchun hisob-kitob bo'yicha yagona soliq to'lovining hisoblangan summasi (130-satr)	140		X	X	X	X	X	X
Umumbelgilangan soliqlar bo'yicha qayta hisob-kitob qilishdagi qo'shimcha to'lanadigan yagona soliq to'lovi	150		X	X	X	X	X	X
O'zbekiston yoshlarining "Kamolot" ijtimoiy harakatini rivojlantirish jamg'armasiga chegirilgan holdagi yagona soliq to'lovi summasi [120-satr-(120-satr x 5%)]	160		X	X	X	X	X	X

Izox: Yagona soliq to'lovi summasining 5 foizi "Kamolot" ijtimoiy harakatini rivojlantirish jamg'armasiga o'tkaziladi.

11.3. Yagona yer solig'i

Yagona yer solig'i soliq solishning soddalashtirilgan tartibi bo'lib hisoblanadi. Yagona yer solig'i quyidagi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar o'rnida to'lanadi:

- yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i;
- yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;
- yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i;
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i.

Yagona yer solig'i to'lovchilari yagona yer solig'idan tashqari quyidagilarni ham to'lashlari kerak bo'ladi:

- to'lov manbaida undiriladigan foyda soligi;
- aksiz to'lanadigan tovarlar ishlab chiqarganda aksiz solig'i;
- yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar;
- bojxona to'lovlari;
- yagona ijtimoiy to'lov;
- davlat bojlari;
- byudjetdan tashqari boshqa jamg'armalarga majburiy ajratmalar.

Yagona yer solig'i to'lovchilari quyidagilar:

1) qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari:

-qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish va qayta ishlash asosiy faoliyat turi bo'lgan yuridik shaxslar (fermer xo'jaliklari);

-qishloq xo'jaligini yuritish uchun berilgan yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar;

-qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish va qayta ishlash ulushi sotilgan yoki qayta ishlangan mahsulot umumiy hajmida kamida 50 foizni tashkil etadigan yuridik shaxslar (shirkat xo'jaliklari, agrofirmalar);

2) qishloq xo'jaligi yo'nalishdagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining tajriba-eksperimental xo'jaliklari va ta'lim muassasalarining o'quv-tajriba xo'jaliklari.

Quyidagilar yagona yer solig'i to'lovchilari hisoblanmaydilar:

-o'rmon va ovchilik xo'jaliklari;

-yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari.

Yagona yer solig'ini qo'llash uchun soliq to'lovchi har yili joriy soliq davrining 1-fevraliga qadar soliq organiga o'tgan soliq davrida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlashning umumiy hajmida qishloq xo'jaligi mahsulotining o'zi yetishtirgan va qayta ishlagan ulushi ko'rsatilgan ma'lumotnomani taqdim etishi lozim. O'tgan soliq davri yakunlari bo'yicha yagona yer solig'i to'lovchi belgilangan shartlarga javob bermasa, u joriy soliq davrining boshidan e'tiboran umumiy belgilangan soliqlarni yoki yagona soliq to'lovini to'lashga o'tishi kerak.

Belgilangan shartlarga javob beradigan qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari, shuningdek, qishloq xo'jaligi yo'nalishdagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining tajriba-eksperimental xo'jaliklari va ta'lim muassasalarining o'quv-tajriba xo'jaliklari faoliyatining yagona yer solig'i to'lash tadbiriq etiladigan qismi bo'yicha soliq solishning boshqacha tartibini tanlashi mumkin emas. Qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish va qayta ishlash bilan bog'liq bo'lmagan faoliyat turlarini amalga oshirishda yagona yer solig'i to'lovchi mazkur faoliyat turlari bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishi kerak. Yagona yer solig'i to'lovchilarining boshqa daromadlari (ular foyda solig'i to'lovchi yuridik shaxslarning boshqa daromadlariga o'xshash) qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish va qayta ishlash bilan bog'liq daromadlar sifatida qaraladi hamda ularga soliq solinmaydi. Birgalikdagi faoliyatdan olinadigan daromadlarga yagona yer solig'i to'lovchida dividendlarga soliq solish uchun belgilangan stavkalar bo'yicha soliq solinadi. Yer uchastkalari ijara (shu jumladan, ichki xo'jalik pudratiga) berilganida yagona yer solig'ini to'lash majburiyati ijaraga beruvchining zimmasida qoladi.

Qishloq xo'jaligini yuritish uchun egalik qilish, foydalanish yoki ijaraga berilgan yer uchastkasi soliq solish ob'yektidir. Soliq solinadigan yer uchastkalarining belgilangan me'yoriy qiymati soliq solinadigan baza hisoblanadi. Yer uchastkalarining me'yoriy qiymati belgilanmagan qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yer uchastkalarining maydoni soliq solinadigan baza bo'ladi. Soliq solinadigan baza yer uchastkalariga bo'lgan huquq vujudga kelgan oydan keyingi oydan e'tiboran hisoblab chiqariladi. Yer uchastkasi maydoni kamaytirilganda yoki imtiyoz huquqi vujudga kelganda soliq solinadigan baza shunday o'zgarishlar yuz bergan oydan e'tiboran kamaytiriladi.

Yagona yer solig'i to'lovchilari, ob'yekti va bazasi 11.3-chizmada ko'rsatilgan.

$$Y_{ys} = (Y_m \cdot S_s) \quad \text{yoki} \quad Y_{ys} = (Y_m \cdot S_s \cdot T_k),$$

buyenda: Y_m – yer uchastkalarining maydoni;

S_s – yer solig'i stavkasi (10.2-paragrafga qarang);

T_k – tuzatish koeffitsiyenti (joylashgan joyi va sifati-bohitet balliga qarab belgilanadi).

Misol. Fermer xo'jaligining yer uchastkalari va ularning ko'rsatkichlari quyida keltirilgan.

T/p	Yer uchastkalari turlari	Maydoni, Ga	Tuproq boniteti, ball	Bazoviy me'yoriy qiymati, 1 ga uchun ming so'm	Joyning holati koeffitsiyenti	Haqiqiy me'yoriy qiymati, 1ga uchun ming so'm	Umumiy qiymati, ming so'm
1.	Sug'oriladigan ekin maydonlari	15 20 12 10	64 50 40 32	3685,0 562,0 217,0 126,0	1,47 1,47 1,47 1,47	5417,0 826,0 319,0 185,0	81255,0 16520,0 3828,0 1850,0
2.	Uzumzorlar	2		320,0			640,0
3.	Yaylovlar	30		8,5			255,0
	Jami						104348,0

Yagona yer solig'i stavkasi 6,0 foiz, summasi 6260,88 ming so'm $(104348,0 \cdot 6,0):100$ ni tashkil etadi.

Yagona yer solig'ining hisob-kitobi yer uchastkasi joylashgan joydagi soliq organiga joriy soliq davrining 1-mayigacha, ayrim o'zgarishlar bo'lgan taqdirda 1-dekabrigacha yagona yer solig'ining aniqlik kiritilgan hisob-kitobi taqdim etiladi.

Yagona yer solig'i uch muddatda-hisobot yilining 1-iyuligacha soliq summasining 20 foizi, 1-sentyabrigacha 30 foizi va 1-dekabrigacha qolgan summasi to'lanadi. Yagona yer solig'i hisob-kitobi quyidagi shaklda amalga oshiriladi va taqdim etiladi.

**Joriy soliq davrining 1 yanvardagi holati bo'yicha yagona yer solig'i
hisob-kitobi**


Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Maydon, ga	Yerning me'yoriy qiymati, ming so'm		Summa
			1ga uchun	jami yer maydoni uchun (3-ustun x 4-ustun)	
1	2	3	4	5	6
Jami yer maydoni,shu jumladan:	010				x
Ekin yerlar:	011				x
sug'oriladigan	0111				x
Lalmi	0112				x
Bog'lar:	012				x
sug'oriladigan	0121				x
Lalmi	01				x
Uzumzorlar:	013				x
sug'oriladigan	0131				x
Lalmi	0132				x
Boshqa ko'p yillik daraxtzorlar:	014				x
sug'oriladigan	0141				x
Lalmi	0142				x
Bo'z yerlar:	015				x
sug'oriladigan	0151				x
Lalmi	0152				x
Pichanzor va yaylovlar:	016				x
sug'oriladigan	0161				x
sug'orilmaydigan	0162				x
Ijtimoiy imoratlar va hovlilar	017				x
Jami soliq solinmaydigan yerlar - mazkur Hisob-kitob ilovasining 010-satri	020				x
Soliq solinadigan baza (010-satr-020-satr)	030				x
Yagona yer solig'i uchun belgilangan stavka,%	040	x	x	x	
Soliq davri uchun to'lanadigan soliq summasi, shu jumladan, to'lash muddatlari bo'yicha: (5- ustun 030-satr x 040-satr)	050	x	x	x	

1- iyulgacha (20%)	0501	x	x	x	
1- sentabrgacha (30%)	0502	x	x	x	
1- dekabrgacha (soliqning qolgan miqdori)	0503	x	x	x	

Izoh. Fermer xo'jaliklari jami soliq summasining 97,5 foizini davlat byudjetiga va 2,5 foizini-Dehqon va fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasiga to'laydilar.

11.4. Qat'iy belgilangan soliq

Qat'iy belgilangan soliq-bu faoliyatning ayrim turlari uchun hamda yakka tadbirkorlar uchun soliq miqdori aniq belgilab qo'yiladigan soliqlardir. Uning to'lovchilari, ob'yektlari va bazasi 11.4-chizmada keltirilgan.



11.4-chizma. Qat'iy belgilangan soliq to'lovchilari, ob'yekti va bazasi.

Qat'iy belgilangan soliq solinadigan faoliyat turlarining ro'yxati, shuningdek, faoliyatning mazkur turlarini tavsiflovchi fizik ko'rsatkichlar qonun hujjatlarida belgilanadi. Bunday soliq to'lovchilar soliq solishning boshqa tizimini tanlash

huquqiga ega emas. Qat'iy belgilangan soliq to'lash tadbiriq etiladigan faoliyat bilan bir qatorda faoliyatning boshqa turlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar faoliyat turlari bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishlari va umumbelgilangan yoki soddalashtirilgan soliqlarni to'lashlari shart.

Qat'iy belgilangan soliq to'lovchi yuridik shaxslarning boshqa daromadlariga soliq solinmaydi (dividendlar va foizlar, birgalikdagi faoliyatdan va ijaradan olingan daromadlaridan tashqari). Mazkur soliq belgilangan faoliyat turini tavsiflovchi fizik ko'rsatkich soliq solinadigan ob'yektdir. Soliq solinadigan baza fizik ko'rsatkichlarning sonidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Qat'iy belgilangan soliq summasi soliq solinadigan baza va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Qat'iy belgilangan soliq stavkasi eng kam ish haqining karrali miqdorida belgilangan. Soliq davri bir oy.

11.4-jadval

Faoliyatning ayrim turlarini amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslarga qat'iy belgilangan soliq stavkalari

T/r	Faoliyat turi	To'lovchilar	Faoliyat turini tavsiflovchi fizik ko'rsatkich	Fizik ko'rsatkich birligiga qat'iy belgilangan soliq stavkasi (eng kam ish haqining karrali miqdorida)		
				Toshkent sh.	Viloyatlar-dagi shahar-lar	Tuman-lar, shu jumladan, qishloq joylari
1.	Avtotransportni qisqa muddat saqlash joylari	Yuridik shaxslar	1 kv.m maydon	0,1	0,09	0,06
2.	Bolalar o'yin avtomatlari	Yuridik va jismoniy shaxslar	Jihozlangan o'yinlar soni	3,0	2,0	1,0

Qat'iy belgilangan soliq hisob-kitobi soliq organlariga:

-yangi tashkil qilinayotgan (ish boshlovchi) soliq to'lovchilar tomonidan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan e'tiboran o'n kundan kechiktirmay;

-faoliyat yuritayotgan soliq to'lovchilar tomonidan hisobot yilining 15 yanvarigacha taqdim etiladi.

Hisob-kitob shakllari quyida keltirilgan.

Yuridik shaxslar uchun qat'iy belgilangan soliq hisob-kitobi

Faoliyat turi	Fizik ko'rsatkichlar		Qat'iy belgilangan soliq stavkasi (eng kam ish haqiga nisbatan karra miqdorda)	Eng kam ish haqi miqdori	Byudjetga to'lanadigan qat'iy belgilangan soliq summasi (3-ust. x 4-ust. x 5-ust.)
	o'lchov birligi	jihozlangan joylar soni (birligi), egallangan maydon			
1	2	3	4	5	6

Soliq solish ob'yekti va ish haqining eng kam miqdori o'zgargan taqdirda, soliq to'lovchilar aniqlik kiritilgan hisob-kitobni novbatdagi to'lovni to'lash muddatidan kechiktirmay taqdim etishlari lozim. Qat'iy belgilangan soliqni to'lash har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar o'z faoliyatini amalga oshirish doirasida qat'iy belgilangan soliq to'lash bilan bir qatorda quyidagilarni to'laydilar:

- 1) bojxona to'lovlari;
- 2) yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar;
- 3) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (suv resurslaridan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanilganda);
- 4) aksiz solig'i-aksiz to'lanadigan tovarlar ishlab chiqarganda;
- 5) Pensiya jamg'armasiga ijtimoiy sug'urta badallari;
- 6) davlat boji;
- 7) avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar soliq solinadigan mol-mulkka va (yoki) yer uchatskasiga ega bo'lsalar ularga jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk soliqi va (yoki) yer solig'ini to'lash majburiyati saqlanib qoladi.

Savdo faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar tegishli registrilarida daromadlar va amalga oshirilgan tovar operatsiyalari hisobini yuritishlari kerak. Bunday registrilarga quyidagilar kiradi:

- chakana savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorning daromadlari va tovar operatsiyalarini hisobga olish daftari;
- tovar cheklari daftari.

Daromadlarini va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrilari soliq organlari tomonidan yakka tartibdagi tadbirkorning arizasi asosida ro'yxatdan o'tkaziladi. Mazkur registrilar oxirgi yozuv kiritilgan paytdan e'tiboran besh yil mobaynida yakka tartibdagi tadbirkorda saqlanadi va ular raqamlangan, ip o'tkazib bog'langan hamda tegishli soliq organining muhri bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Yakka tartibdagi tadbirkor faoliyati to'g'risidagi hisobotlar soliq organlariga:

- savdo faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan yilning har bir choragi yakunlari bo'yicha hisobot choragidan keyingi oyning 10-

kunidan kechiktirmay;

-tijorat faoliyati uchun mo`ljallangan tovarlarni chetdan olib kiradigan yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan har oyning yakunlari bo'yicha hisobot oyidan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay taqdim etiladi.

Qat'iy belgilangan soliq tadbirkorlik faoliyatining turi va soliq to'lovchining faoliyat yuritish joyiga qarab belgilangan stavkalar bo'yicha joriy oyning 25-kunigacha to'lanadi. Faoliyatning bir necha turi bilan shug'ullanuvchi soliq to'lovchilar qat'iy belgilangan soliqni faoliyatning har bir turi uchun belgilangan stavkalar bo'yicha alohida-alohida to'laydilar. Mazkur soliqni soliq organi xodimlari hisoblab chiqaradilar.

11.5-jadval

Yuridik shaxs tashkil etmay tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan jismoniy shaxslardan qat'iy belgilangan soliq stavkalari

T/r	Faoliyat turi	Qat'iy belgilangan soliqning bir oydagi stavkasi (eng kam ish haqining karrali miqdorida)		
		Toshkent sh.	Viloyatlardagi shaharlar	Tumanlar, shu jumladan, qishloq joylari
1.	Chakana savdo:			
	oziq-ovqat tovarlari sotish	9,0	5,5	3,0
	dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari sotish	5,0	4,0	2,0
	nooziq-ovqat tovarlari sotish	10,0	6,5	3,0
	aralash tovarlar sotish	10,0	6,5	3,0
2.	Maishiy xizmatlar	5,5	2,0	1,0
3.	Sartaroshlik xizmatlari	6,5	3,0	2,0
4.	O'z mahsulotini ishlab chiqarish va sotish	3,5	2,5	1,5
5.	Boshqa faoliyat turlari (mol-mulkni ijaraga berishdan tashqari)	5,0	3,0	2,0
6.	Avtomobil transportida yuk tashish xizmatlari: 3 tonnagacha yuk ko'tarish quvvaga ega bo'lgan avtomobil	5,5	4,0	3,0
7.	8 tonnagacha yuk ko'rsatish quvvaga ega bo'lgan avtomobil	9,0	7,5	6,0
8.	8 tonnadan ortiq yuk ko'tarish quvvatiga ega bo'lgan avtomobil	13,0	9,0	8,0

Yakka tartibdagi tadbirkor uchun qat'iy belgilangan soliqhisob-kitobi

Faoliyat turi	Fizik ko'rsatkichlar		Qat'iy belgilangan soliq stavkasi (eng kam ish haqiga nisbatan karra miqdorda)	Eng kam ish haqi miqdori	Byudjetga to'lanadigan qat'iy belgilangan soliq summasi (3-ust.x 4-ust. x 5-ust.)
	o'lchov birligi	jihozlangan joylar soni (birligi), egallangan maydon			
1	2	3	4	5	6

Qisqacha xulosalar

1.Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi barcha soliqlar va ayrim majburiy to'lovlar o'rnida yagona soliqni nazarda tutadi. Bunday tartibni soliq to'lovchilarning ayrim toifalari qo'llaydilar, xolos. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi yagona soliq to'lovi, yagona yer solig'i, qat'iy belgilangan soliq turlarini o'z ichiga oladi va ularni hisoblab chiqarish hamda to'lash maxsus soddalashtirilgan qoidalarini belgilab beradi.

2.Yagona soliq to'lovini ishlovchilar soni bilan aniqlanadigan mikrofirm va kichik korxonalar hamda ishlovchilar sonidan qat'iy nazar savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari, xususiy notariuslar, lotereya o'yinlarini tashkil etuvchi yuridik shaxslar to'laydilar. Bulardan faqat mikrofirm va kichik korxonalarga ikki tartibdan birini–soddalashtirilgan tartib yoki umumiy tartibni tanlab olish huquqi berilgan, qolganlari esa faqat soddalashtirilgan tartibni qo'llashlari shart.

3.Yagona soliq to'lovi ob'yekti bo'lib yalpi tushum, bazasi esa yalpi tushumdan ayrim daromadlar chegirib tashlangandan keyin qolgan qoldiq hisoblanadi. Yagona soliq to'lovi uchun mikrofirm va kichik korxonalarning faoliyat sohalari va turlari bo'yicha, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari hamda dorixonalarning joylashgan joylari bo'yicha turlicha stavkalar belgilangan.

5.Qat'iy belgilangan soliqni faoliyatning ayrim turlarini amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar (avtotransportni qisqa muddatda saqlash, bolalar o'yin avtomatlari, bilyardxonalar) hamda yakka tadbirkorlar to'laydilar. Mazkur soliq stavkasi faoliyat turlari bo'yicha Toshkent shahri, viloyat shaharlari, tumanlar (shu jumladan, qishloq joylari) kesimida eng kam ish haqining karrali miqdorida qat'iy qilib belgilangan.

4.Yagona yer solig'i soddalashtirilgan soliq solish tartibiga kiradi va barcha soliqlar o'rnida to'lanadi. Uni qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari (fermer xo'jaliklari, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi agrofimalar hamda tajriba-eksperimental va o'quv-tajriba xo'jaliklari) to'laydilar. Yagona yer solig'i ob'yekti bo'lib qishloq xo'jaligini yuritish uchun berilgan yer uchastkalari, bazasi esa ularning me'yoriy qiymati hisoblanadi. Yagona yer solig'ini hisoblab

chiqarishda yer uchastkalarining me'yoriy qiymatiga bir qator koeffitsiyentlar ham qo'llaniladi. Bu soliq bir yilda uch muddatda-1 iyulgacha 20 foizi, 1-sentyabrgacha 30 foizi va 1-dekabrgacha qolgan qishmi to'lanadi.

Tayanch iboralar va tushunchalar: soliq solishning soddalashtirilgan tartibi, soliq solishning umumiy (umumbelgilangan) tartibi, soddalashtirilgan soliqlar, yagona soliq to'lovi, yagona yer solig'i, qat'iy belgilangan soliq, mikrofirma, kichik korxona, yakka tartibdagi tadbirkor, savdo korxonalari, umumiy ovqatlanish korxonalari, xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslar, tavakkalchilikka asoslangan o'yinlar, lotereyalar tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish doirasidagi yuridik shaxslar, siylov (chegirma), chakana savdo, ulgurji savdo, bilyardxonalar, brokerlik idoralari, plastik kartochkalar.

Nazorat va muhokama uchun savollar

- 1.Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi va uning xususiyatlari.
- 2.Soliq solishning soddalashtirilgan tartibini qo'llovchi soliq to'lovchilar.
- 3.Yagona soliq to'lovi va uning to'lovchilari.
- 4.Yagona soliq to'lovi ob'yektlari va bazasi.
- 5.Yagona soliq to'lovi stavkalari.
- 6.Yagona soliq to'lovini to'lash tartibi.
- 7.Yagona yer solig'i va uning to'lovchilari.
- 8.Yagona yer solig'i ob'yektlari va bazasi.
- 9.Yagona yer solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash.
- 10.Qat'iy belgilangan soliq va uning to'lovchilari.
- 11.Faoliyatning ayrim turlarini amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslarga qat'iy belgilangan soliq va uning stavkalari.
- 12.Yakka tartibdagi tadbirkorlarga qat'iy belgilangan soliq va uning stavkalari.
- 13.Qat'iy belgilangan soliqni hisoblash va undirish tartibi.

Mustaqil ish uchun topshiriqlar

- 1.Soliq solishning soddalashtirilgan tartibining xususiyatlari va afzalliklarini aniqlash.
- 2.Soliq solishning ikki tartibidan birini tanlab olish imkoniyatlarini aniqlash.
- 3.Yagona soliq to'lovining xususiyatlarini aniqlash.
- 4.Yagona soliq to'lovi bo'yicha hisob-kitob shakli va uni to'ldirish tartibi bilan tanishish.
- 5.Yagona yer solig'ining xususiyatlarini aniqlash.
- 6.Yagona yer solig'i bo'yicha hisob-kitob shakli va uni to'ldirish tartibini o'rganish.
- 7.Qat'iy belgilangan soliqning xususiyatlarini aniqlash.
- 8.Soliq solishning soddalashtirilgan tartibini takomillashtirish imkoniyatlarini o'rganish.

Test topshiriqlari

1. O'zbekistonda o'rnatilgan soliq solish tartiblari qaysilar?

- a) umumbelgilangan (umumiy) soliq solish tartibi;
- b) soddalashtirilgan soliq solish tartibi;
- d) bevosita soliqlar tartibi;
- e) bilvosita soliqlar tartibi;
- f) a) va b) bandlarda ko'rsatilganlar.

2. Soliq solishning umumiy (umumbelgilangan) tartibini kimlar qo'llaydi?

- a) barcha yuridik shaxslar;
- b) soliq solishning soddalashtirilgan tartibini qo'llamaydigan yuridik shaxslar;
- d) mikrofirma va kichik korxonalar;
- e) savdo korxonalari;
- f) barchasi.

3. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibini kimlar qo'llaydi?

- a) mikrofirma va kichik korxonalar;
- b) savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari;
- d) ulgurji va chakana dorixona tashkilotlari;
- e) fermer xo'jaliklari va agrofimalar;
- f) barchasi.

4. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibining mohiyati nimadan iborat?

- a) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlardan xohlagan birini to'lash;
- b) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning bir qismini to'lash;
- d) boshqa majburiy to'lovlarni to'lamay, faqat solig'larni to'lash;
- e) barcha soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar o'rnida yagona soliq to'lash;
- f) to'g'ri javob yo'q.

5. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi yoki umumbelgilangan tartibidan birini tanlab olish huquqiga ega:

- a) mikrofirma va kichik korxonalar;
- b) savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari;
- d) ulgurji va chakana dorixona tashkilotlari;
- e) tavakkalchilikka asoslangan o'yinlar tashkil etuvchi korxonalar;
- f) barchasi.

6. Yagona soliq to'lovi to'lovchilari:

- a) fermer xo'jaliklari;
- b) dehqon xo'jaliklari;
- d) mikrofirma va kichik korxonalar;
- e) yakka tadbirkorlar;
- f) barchasi.

7. Yagona soliq to'lovi to'lovchisi hisoblanadi:

- a) savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari;
- b) yirik ishlab chiqarish korxonalari;
- d) yirikroq qurilish korxonasi;
- e) o'rta xizmat ko'rsatish korxonalari;
- f) barchasi.

8. Yagona soliq to'lovi to'lovchisi hisoblanmaydi:

- a) mikrofirmalar;
- b) kichik korxonalari;
- d) savdo korxonalari;
- e) yakka tadbirkorlar;
- f) to'g'ri javob yo'q.

9. Yagona soliq to'lovi to'lovchilari qatoriga kiradi:

- a) yakka tadbirkorlar;
- b) dehqon xo'jaliklari;
- d) fermer xo'jaliklari;
- e) agrofirmalar;
- f) to'g'ri javob yo'q.

10. Yagona soliq to'lovi ob'yekti hisoblanadi:

- a) yalpi foyda;
- b) yalpi daromad;
- d) yalpi tushum;
- e) yalpi aylanma;
- f) barchasi.

11. Yagona soliq to'lovi bazasi hisoblanadi:

- a) yalpi daromaddan xarajatlar chegirib tashlangandan keyin qoladigan qoldiq;
- b) yalpi tushumdan ayrim daromadlar chegirib tashlangandan keyin qoladigan qoldiq;
- d) yalpi tushumdan xarajatlar ajratib tashlangandan keyin qoladigan qoldiq;
- e) yalpi daromaddan ayrim daromadlar ajratib tashlagandan keyin qoladigan qoldiq;
- f) to'g'ri javob yo'q.

12. Mikrofirma va kichik korxonalarga qachon yagona soliq to'lovi stavkasi pasaytiriladi?

- a) bozorga kerakli tovarlarni ishlab chiqarganda;
- b) ular qishloqlarda joylashganda;
- d) eksportga mo'ljallangan tovarlar ishlab chiqarganda;
- e) ishlab chiqargan tovarlarini eksport qilganda;
- f) barcha javoblar to'g'ri.

13. Yagona soliq to'lovi qanday to'lov?

- a) barcha soliqlar va ayrim majburiy to'lovlar o'rnida to'lanadigan yagona to'lov;
- b) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning bir qismi o'rnida to'lanadigan yagona to'lov;
- d) barcha to'lovlar o'rnida to'lanadigan yagona to'lov;
- e) barcha majburiy to'lovlar o'rnida to'lanadigan yagona to'lov;
- f) barcha javoblar to'g'ri.

14. Qat'iy belgilangan soliq – bu:

- a) to'lash qat'iy majburiy qilingan soliq;
- b) to'lash tartibi qat'iy belgilab qo'yilgan soliq;
- d) to'lanishi kerak bo'lgan soliq summasi qat'iy belgilab qo'yilgan soliq;
- e) to'lash muddatlari qat'iy belgilab qo'yilgan soliq;
- f) to'lovchilari qat'iy belgilab qo'yilgan soliq.

15. Qat'iy belgilangan soliq to'lovchilari:

- a) barcha yuridik va jismoniy shaxslar;
- b) ayrim faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar;
- d) tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar;
- e) tadbirkorlik bir turi bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar;
- f) ro'yxatdan o'tmay tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar.

16. Qat'iy belgilangan soliq to'lovchisi hisoblanadi:

- a) yakka tartibdagi tadbirkorlar;
- b) mikrofirmalar;
- d) xususiy korxonalar;
- e) kichik korxonalar;
- f) barchasi.

17. Quyidagilardan qaysilari qat'iy belgilangan soliq to'laydilar?

- a) mahsulot ishlab chiqaruvchi yakka tadbirkorlar;
- b) xizmatlar ko'rsatuvchi yakka tadbirkorlar;
- d) savdo-sotiq bilan shug'ullanuvchi yakka tadbirkorlar;
- e) transportda yo'lovchi tashish bilan shug'ullanuvchi yakka tadbirkorlar;
- f) barchasi.

18. Qat'iy belgilangan soliq bazasi:

- a) ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hajmi;
- b) ishlab chiqarilgan tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlar qiymati;
- d) savdo aylanmasi;
- e) eng kam oylik ish haqi;
- f) faoliyat turini tavsiflovchi fizik ko'rsatkichlar.

19. Yakka tadbirkorlar uchun qat'iy belgilangan soliq stavkalari qanday ko'rinishga ega?

- a) o'rtacha oylik ish haqi miqdorida;
- b) o'rtacha oylik ish haqining karrali miqdorida;
- d) eng kam oylik ish haqining karrali miqdorda;
- e) daromadga nisbatan foizda;
- f) tushumga nisbatan foizda.

20. Qat'iy belgilangan soliq stavkalari qanday davrga mo'ljallangan?

- a) bir yilga;
- b) yarim yilga
- d) bir chorakka;
- e) bir oyga;
- f) yarim oyga.

21. Yagona yer solig'i – bu:

- a) barcha soliqlar va majburiy to'lovlar o'rnida tolanadigan yagona soliq turi;
- b) barcha soliqlar o'rnida to'lanadigan yagona soliq turi;
- d) barcha majburiy to'lovlar o'rnida to'lanadigan yagona to'lov;
- e) yer solig'i o'rnida to'lanadigan yagona soliq;
- f) soliq solinadigan yerlar uchun to'lanadigan soliq turi.

22. Yagona yer solig'i to'lovchilari hisoblanadilar:

- a) agrosanoat majmuasi korxonalari ;
- b) barcha yerdan foydalanuvchilar;
- d) qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari;
- e) o'z yer uchastkalariga ega bo'lgan shaxslar;
- f) yer solig'i to'lamaydigan yuridik shaxslar.

23. Yagona yer solig'i to'lovchisi:

- a) dehqon xo'jaliklari ;
- b) fermer xo'jaliklari;
- d) oddiy shirkatlar;
- e) tadbirkorlik xo'jaliklari;
- f) barchasi.

24. Yagona yer solig'i ob'yekti hisoblanadi:

- a) yuridik shaxslar ega bo'lgan yer uchastkalari;
- b) sug'oriladigan ekin maydonlari;
- d) o'rmon xo'jaligi yerlari;
- e) qishloq xo'jaligini yuritish uchun berilgan yer uchastkalari;
- f) barcha javoblar to'g'ri.


25. Yagona yer solig'i bazasi hisoblanadi:

- a) barcha yer uchastkalari maydoni;
- b) sug'oriladigan yer uchastkalari maydoni;
- d) sug'oriladigan yer uchastkalarining qiymati;
- e) qishloq xo'jaligini yuritish uchun berilgan yer uchastkalari maydoni;
- f) qishloq xo'jaligini yuritish uchun berilgan yer uchastkalarining me'yoriy qiymati.

12. Mahalliy soliqlar va yig`imlar. Soliq to`lovchilarning ayrim toifalariga soliq solish

12.1. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig`i

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig`i asoslari 12.1-chizmada aks ettirilgan.



12.1-chizma. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig`i asoslari.

Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi O`zbekiston Respublikasi resident bo`lgan yuridik shaxslar obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig`i to`lovchilari hisoblanadilar, quyidagilardan tashqari:

-notijorat tashkilotlari (ayrimlari tadbirkorlik faoliyati bilan shug`ullanib foyda olsa, shu foydadan soliq to`lovchi hisoblanadilar);

-soliq solishning soddalashtirilgan tartibini qo`llaydigan yuridik shaxslar.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig`ini to`lashdan nogironlarning jamoat birlashmalari, “Nuroni” jamg`armasi va “O`zbekiston chernobilchilari” assotsiatsiyasi mulkida bo`lgan hamda ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941-1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil etadigan yuridik shaxslar ozod qilinadi (savdo, vositachilik, ta`minot-sotish va tayyorlov korxonalaridan tashqari). Soliq davri kalendar yili, hisobot davri esa yil choragi hisoblanadi.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig`i ob'yekti yuridik shaxslarning foydasi, soliq solinadigan baza esa foyda solig`i chegirilgandan

keyin ular ixtiyorida qoladigan sof foyda hisoblanadi. Bunda olingan dividendlar soliq solinadigan bazadan chegirib tashlanadi.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i soliq solinadigan baza hamda belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi. Soliq stavkasi yuridik shaxslar ixtiyorida qoladigan sof foydadan 8 foiz qilib belgilangan.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i quyidagi tartibda hisoblab chiqariladi:

1) o'z balansida va qaramog'ida ijtimoiy infratuzilma ob'yektlari bo'lmagan yuridik shaxslar uchun:

$$I_{ts} = \frac{Sf \cdot Ss}{100};$$

2) o'z balansida va qaramog'ida ijtimoiy infratuzilma ob'yektlari bo'lgan yuridik shaxslar uchun:

$$I_{ts} = \frac{(Sf + Isx - SXfx) \cdot Ss}{100},$$

buyerde : I_{ts} - ijtimoiy infratuzilma solig'i summasi;

Sf - korxona ixtiyorida qoladigan sof foyda;

Ss - soliq stavkasi;

Isx - korxonaning ijtimoiy infratuzilma sohasiga xarajatlari (ular foyda solig'ini hisoblashda soliq bazasidan chiqarilgan);

$SXfx$ - ijtimoiy infratuzilma sohasi xarajatlariga to'g'ri keladigan foyda solig'i summasi.

Buyerde korxonaning ijtimoiy infratuzilma ob'yektlari deganda ularning qaramog'ida bo'lgan sog'liqni saqlash va xalq ta'limi ob'yektlari hamda bolalar dam olish oromgohlari tushiniladi.

O'z balansida va qaramog'ida ijtimoiy infratuzilma ob'yektlari bo'lgan yuridik shaxslar uchun ikki holat bo'lishi mumkin:

1) ijtimoiy infratuzilma sohasiga qilingan xarajatlari hisoblab chiqarilgan soliq summasiga teng yoki undan ortiq bo'lsa, bu soliqni to'lamaydi;

2) ijtimoiy infratuzilma sohasiga qilingan xarajatlari hisoblab chiqarilgan soliq summasidan kam bo'lsa, ikkalasi o'rtasidagi farqni to'laydi.

Misol. Korxona qaramog'ida tibbiyot maskani mavjud bo'lib, uni ta'minlash uchun bir chorakda 1,2 mln. so'm xarajat qilgan. Shu davrda korxona 8 mln. so'm sof foyda olgan. Foyda solig'ini hisoblaganda soliq solinadigan bazadan ijtimoiy infratuzilma sohasi xarajatlari chegirib tashlangan edi. Shu (1,2 mln. so'm) xarajatlar qayta qo'shib, ularga to'g'ri keladigan foyda solig'i summasi 120 ming so'm ($1,2 \times 10\%$):100 chegirib tashlanadi. Demak, soliq solinadigan baza 8 mln. so'm + 1,2 mln.so'm-120 ming so'm=9,08 mln.so'm bo'ladi. Bu summadan (bazadan) hisoblangan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i (8%) 726,4 ming so'mni tashkil etadi. Korxonaning ijtimoiy infratuzilma sohasiga qilgan xarajatlari (1,2 mln. so'm) soliq summasi (726,4 ming so'm) dan ko'p bo'lganligi sababli bu korxona mazkur soliqni to'lamaydi. Xarajatlar soliq summasidan kam bo'lganda edi korxona ularning farqini soliq sifatida to'lashi kerak bo'lardi.

Soliq to'lovchilar hisobot davri mobaynida obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i bo'yicha joriy to'lovlar to'laydilar. Joriy to'lovlar taxmin qilinayotgan sof foyda summasi va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi. Joriy to'lovlar hisoblab chiqarilgan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining yil choragidagi summasining uchdan bir qismi miqdorida har oyning 15-kunidan kechiktirmay to'lanadi.

Quyidagilar joriy to'lovlar to'lamaydilar:

-hisobot davrida soliq solinadigan bazasi eng kam ish haqining 200 baravarigacha bo'lgan soliq to'lovchilar;

-yagona soliq to'lovini to'lashga o'tmagan mikrofirmalar va kichik korxonalar.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining hisob-kitobi (uning shakllari quyida keltirilgan) ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda taqdim etiladi, soliq ham shu muddatda to'lanadi.

Balansida ijtimoiy infratuzilma ob'ektlari bo'lgan to'lovchilarning obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i hisob-kitobi


Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Summa
Tuzatish kiritilgan sof foyda (020-satr+030-satr-040-satr)	010	
Shu jumladan hisoblangan:		
Sof foyda (Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot 2-son shaklining 240-satri-250-satri)	020	
Soliq to'lovchi balansida bo'lgan ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarini saqlab turishning haqiqiy xarajatlari – jami (030-satr+032-satr+033-satr), shu jumladan:	030	
sog'liqni saqlash	031	
xalq ta'limi	032	
bolalar dam olish oromgohlari	033	
Soliq to'lovchi balansida bo'lgan ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarini saqlab turish xarajatlarida yuridik shaxslar foyda solig'ining hisoblangan summasi ulushi (030-satr x foyda solig'i stavkasi)	040	
Olingan dividendlar	050	
Soliq solinadigan baza (010-satr-050-satr)	060	
Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining belgilangan stavkasi, %da	070	
Hisoblangan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i summasi (060-satr-070-satr)	080	
Byudjetga to'lanadigan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i summasi (080-satr-030-satr)	090	
Avvalgi davr uchun hisob-kitob bo'yicha obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining hisoblangan summasi (avvalgi hisob-kitobning 090-satr)	100	

Balansida ijtimoiy infratuzilma ob'yektlari bo'lmagan to'lovchilarning obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i hisob-kitobi

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Summa
Sof foyda (Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot 2-son shaklining 240-satri-250-satri)	010	
Olingan dividendlar	020	
Soliq solinadigan baza (010-satr-020-satr)	030	
Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining belgilangan stavkasi, %da	040	
Budjetga to'lanadigan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i summasi (030-satr x 040-satr)	050	
Avvalgi davr uchun hisob-kitob bo'yicha obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining hisoblangan summasi (avvalgi hisob-kitobning 050-satr)	060	

12.2. Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq

Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq asoslari 12.2-chizmada keltirilgan.



12.2-chizma. Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq asoslari.

Jismoniy shaxslarga transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gazni chakana sotuvchi yuridik shaxslar yoqilg'i ishlatganlik uchun olinadigan soliq to'lovchilari hisoblanadi. Jismoniy shaxslarga transport vositalari uchun benzin,

dizel yoqilg`isi va gazni chakana sotish hajmi soliq solish ob`yekti, ularning natura holida sotish hajmi esa soliq solinadigan bazadir. Mazkur soliq bo`yicha soliq davri quyidagicha belgilangan:

- mikrofirma va kichik korxonalar uchun yil choragi;
- mikrofirma va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to`lovchilar uchun bir oy.

Soliq summasi soliq solinadigan baza va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi. 2009 yilda belgilangan stavka quyidagicha:

- benzin va dizel yoqilg`isining 1 litri uchun 175 so`m;
- siqilgan gazning 1 kg uchun 175 so`m.
- suyultirilgan gazning 1 litri uchun 140 so`m.

Soliq summasi chakana narxga qo`shimcha ravishda belgilanadi, sotib oluvchiga beriladigan chekda alohida qatorda ko`rsatiladi hamda jismoniy shaxslardan sotilayotgan benzin, dizel yoqilg`isi va gaz uchun mablag`larni olish bilan bir vaqtda olinadi. Mazkur soliqning joriy o`n kunlik to`lovlar hisobga olingan holdagi hisob-kitobi yoqilg`i quyish shaxobchasi joylashgan yerdagi soliq organiga:

-mikrofirma va kichik korxonalar tomonidan yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo`yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda;

-mikrofirma va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to`lovchilar tomonidan har oyda hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo`yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda taqdim etiladi.

Hisob-kitob shakli quyida keltirilgan.

Mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan yuridik shaxslar uchun jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg`isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq hisob-kitobi

Ko`rsatkichlar	Satr kodi	Hisobot davri (oy)			
		Jami	shu jumladan		
			1 o`n kunlik	2 o`n kunlik	3 o`n kunlik
Sotishning haqiqiy hajmi:	010				
benzin (litrlarda)	0101				
dizel yoqilg`isi (litrlarda)	0102				
gaz (kg larda)	0103				
Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg`isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq stavkasi, so`mlarda:	020				
benzin bo`yicha	0201				
dizel yoqilg`isi bo`yicha	0202				
gaz bo`yicha	0203				

Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqning hisoblangan summasi-jami	030				
shu jumladan:					
benzin bo'yicha (0101-satr x 0201-satr)	0301				
dizel yonilgisi bo'yicha (0102-satr x 0202-satr)	0302				
gaz bo'yicha (0103-satr x 0203-satr)	0303				
Hisobot davri uchun byudjetga to'langan o'n kunlik to'lovlar bo'yicha jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq summasi - jami	040				
shu jumladan:					
benzin bo'yicha	0401				
dizel yoqilg'isi bo'yicha	0402				
gaz bo'yicha	0403				
Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq summasi-jami (030-satr-040-satr)	050				
Qo'shimcha to'lashga	0501				
Kamaytirishga	0502				

Jismoniy shaxslardan transport vositalariga yoqilg'i ishlatganlik uchun soliqni to'lash mazkur yoqilg'i chakana sotilgan oyning o'n kunligi tugaganidan keyingi uchinchi kundan kechiktirmay har 10 kunda amalga oshiriladi.

12.3 Tovarlarining ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun yig'im

Yig'im joriy qilingan tovarlar savdosini va xizmatlar ko'rsatishni belgilangan tartibda amalga oshirayotgan yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun yig'im to'lovchilaridir. Tovarlar va xizmatlarning qonun hujjatlarida belgilangan ro'yxati tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlar ko'rsatish uchun yig'im ob'yekti hisoblanadi.

Tovarlarining ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun yig'im mazkur yig'im stavkalarining qonun hujjatlarida belgilangan oylik miqdori doirasida hisoblab chiqiladi. Yig'imlarning aniq stavkasi mahalliy davlat hokimiyatining vakillik organlari tomonidan belgilanadi va qonun hujjatlarida belgilangan eng yuqori stavkalardan (12.1-jadvalga qarang) ortiq bo'lishi mumkin emas.

Tovarlar sotish va xizmatlar ko'rsatish uchun yig'im stavkalari

T/r	Yig'im turlari	Eng yuqori stavkalari, eng kam ish haqining
1.	Alkogolli mahsulotlarni chakana sotish	5 barobari 1 oy uchun
2.	Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan buyumlarni chakana sotish	3,5 barobari 1 oy uchun
3.	Avtotransportni saqlash bo'yicha pulli xizmatlarni ko'rsatish uchun yig'im	8 barobari 1oy uchun

Tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun, avtotranspotni qo'yish joyiga joylashtirish (parkovka) xizmatidan yig'imlar har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmasdan to'lanadi.

Mahalliy soliqlar va yig'imlar to'g'risida gap ketganda shuni aytib o'tish kerakki, ayrim viloyatlarda tarixiy yodgorliklarni tiklash, ta'mirlash, saqlash xarajatlarini qoplash maqsadida Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda viloyat hokimligi tomonidan maxsus jamg'arma tashkil etilgan (masalan, Buxoro viloyatida «Buxoroi sharif» jamg'armasi) va unga majburiy to'lov belgilangan. Bundan tashqari, ayrim yirik tadbirlar (universiada, barkamol avlod, umid nihollari va boshqalar)ni o'tkazish bilan bog'liq xarajatlarni qoplash uchun tegishli viloyatlarda vaqtinchalik maxsus yig'im (soliq) ham joriy etilishi mumkin.

12.4.Soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga soliq solish xususiyatlari

To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi yuridik shaxslarga soliq solish. To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar deyilganda chet el fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar va O'zbekiston Respublikasining doimiy ravishda chet elda yashovchi fuqarolari bo'lgan jismoniy shaxslar, shuningdek, chet ellik nodavlat yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan investitsiyalar tushiniladi. To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qiluvchi va qonun hujjatlarida tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yuridik shaxslar uchun soliqlar bo'yicha imtiyozlarni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari nazarda tutiladi. Yuridik shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq kiritilgan investitsiya hajmidan kelib chiqqan holda yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, yagona soliq to'lovi, Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lashdan muayyan muddatga ozod qilinadilar.

Oddiy shirkatlarga soliq solish. Oddiy shirkat ikki yoki undan ortiq shaxs tomonidan birgalikda tadbirkorlik faoliyatini olib borish maqsadida tuziladigan yuridik shaxs bo'lmagan birlashmadir. Oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha sheriklar

(ishtirokchilar) ning biriga ishonchli shaxs maqomi beriladi. Sheriklarning biri yuridik shaxs bo'lsa, faqat yuridik shaxs ishonchli shaxs bo'lishi mumkin. Ishonchli shaxs birgalikda chiqariladigan mahsulotni ishlab chiqarish va sotish hisobini yuritadi, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'laydi.

Birgalikdagi faoliyat natijasida olingan daromad har bir sherikning hissasi, (ulushi) asosida yoki oddiy shirkat shartnomasiga muvofiq taqsimlanadi hamda har bir sherikning boshqa daromadlari tarkibiga kiritilib, umumiy daromadidan soliq hisoblanadi.

Oddiy shirkat shartnomasi ishtirokchilari faqat yakka tadbirkorlar bo'lsa, birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulotni sotuvchi ishonchli shaxs olingan tushumdan mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun belgilangan stavkalar bo'yicha yagona soliq to'lovi, shuningdek, aksiz to'lanadigan mahsulot ishlab chiqarilganda, aksiz solig'i to'laydi.

Dehqon xo'jaliklariga soliq solish. Yuridik shaxs tashkil etgan holda va tashkil etmasdan tuzilgan dehqon xo'jaliklari jismoniy shaxslar uchun belgilangan soliqlar hamda boshqa majburiy to'lovlarni to'laydilar. Ular quyidagilardan iborat:

- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i;
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;
- bojxona to'lovlari;
- davlat boji;
- avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im;
- Pensiya jamg'armasiga ijtimoiy sug'urta badallari.

Dehqon xo'jaligi a'zolari qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtirish, o'zlari yetishtirgan mahsulotni qayta ishlash va sotish bilan bog'liq bo'lmagan faoliyat bilan shug'ullangan taqdirda, ular yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tishlari hamda ular uchun belgilangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashlari shart.

Bozorlarga soliq solish. Bozor qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yuridik shaxs shaklida tashkil etiladi. Bozorlarning daromadlariga quyidagilar kiradi:

- patta to'lovi tushumlari;
 - boshqa tushumlar.
- Bozorlar quyidagilarni to'lashlari kerak:
- daromadining 50 foizini mahalliy byudjetga o'tkazadi-har oy;
 - to'lov manbaida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni undirish;
 - bojxona to'lovlari;
 - yagona ijtimoiy to'lov;
 - davlat boji;
 - tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun yig'im;
 - byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarga majburiy ajratmalar;
 - avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im.

Gastrol-konsert faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslarga soliq solish. Yuridik va jismoniy shaxslar gastrol-konsert faoliyatini litsenziya asosida amalga oshirishlari va quyidagilarni to'lashlari kerak:

- davlat boji;
- to'lov manbaida ushlab qolinadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar;
- bojxona to'lovlari;
- yagona ijtimoiy to'lov;
- byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarga majburiy ajratmalar.
- Pensiya jamg'armasiga ijtimoiy sug'urta badallari (jismoniy shaxslar).

Yuridik shaxslar gastrol-konsert faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lmagan faoliyat turlari bilan shug'ullanganlarida faoliyatning mazkur turlari bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishlari hamda belgilangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashlari shart.

Advokatlik tuzilmalariga soliq solish. Advokatlar hay'atlari, advokatlik firmalari va byurolari nodavlat notijorat tashkilotlari sifatida faoliyatning advokatlar tomonidan yuridik yordam (xizmat) ko'rsatib gonorar oladilar va quyidagilarni to'lashlari lozim:

- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- bojxona to'lovlari;
- avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im;
- yagona ijtimoiy to'lov;
- to'lov manbaida ushlab qolinadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar.

Advokatlar hay'atlari, advokatlik firmalari va byurolari tomonidan yuridik yordam ko'rsatish bilan bog'liq bo'lmagan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirgan taqdirda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni yuridik shaxslar uchun nazarda tutilgan tartibda to'laydilar.

Qisqacha xulosalar

1.Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i mahalliy soliq bo'lib, mahalliy byudjetga to'lanadi. U ham bevosita proporsional soliq hisoblanadi. Uning to'lovchilari O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan barcha yuridik shaxslardir (notijorat tashkilotlari va soliq solishning soddalashtirilgan tartibini qo'llaydigan yuridik shaxslardan tashqari). Ayrim yuridik shaxslar bu soliqdan ozod qilingan. Soliq solish ob'yekti yuridik shaxslar foydasi, bazasi esa ular ixtiyorida qoladigan sof foyda hisoblanadi. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i uchun yagona stavka belgilangan-sof foydadan 8 foiz. O'z qaramog'ida va balansida ijtimoiy infratuzilma ob'yektlari bo'lgan yuridik shaxslar shu ob'yektlar uchun qilingan xarajatlar bilan mazkur soliqning hisoblangan summasi (xarajatlardan katta bo'lsa) o'rtasidagi farqni to'laydilar, qolgan soliq to'lovchi yuridik shaxslar bu soliqni to'liq to'laydilar.

2.Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun soliq undiriladi. U narx ustiga qo'shiladigan va iste'molchilardan undiriladigan bilvosita soliq bo'lib, mahalliy byudjetga tushadi. Mazkur soliqni yoqilg'i quyish shaxobchalari iste'molchilardan undirib, mahalliy byudjetga

o`tkazadilar.

3.Soliq to`lovchilarning ayrim toifalariga soliq solish o`z xususiyatlariga ega. Buyerda to`lanishi nazarda tutilgan barcha soliqlarni undirish xususiyatlari to`g`risida gap boradi. Bunday soliq to`lovchilarga quyidagilar kiradi: to`g`ridan – to`g`ri xususiy xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi yuridik shaxslar; oddiy shirkatlar; dehqon xo`jaliklari; bozorlar; gastrol-konsert faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar; advokatlik tuzilmalari. Ularning har biriga soliq solish xususiyatlari Soliq kodeksida batafsil ko`rsatib o`tilgan.

Tayanch iboralar va tushunchalar: ijtimoiy infratuzilma, ijtimoiy infratuzilma ob`yektlari, obodonlashtirish, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig`i, soliq to`lovchilarning ayrim toifalariga soliq solish, bozorlar, oddiy shirkatlar, dehqon xo`jaligi, advokatlik tuzilmalari, to`g`ridan-to`g`ri xususiy xorijiy investitsiyalar, foyda, sof foyda.

Nazorat va muhokama uchun savollar

- 1.Ijtimoiy infratuzilma va uni rivojlantirishning ahamiyati.
- 2.Ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun soliq.
- 3.Obodonlashtirish uchun soliq.
- 4.Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig`ini hisoblab chiqarish va to`lash.
- 5.Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig`i hisob-kitobi va hisoboti.
- 6.To`g`ridan-to`g`ri xususiy xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi yuridik shaxslarga soliq solish.
- 7.Oddiy shirkat va unga soliq solish.
- 8.Bozorlarga soliq solish xususiyatlari.
- 9.Gastrol-konsert faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslarga soliq solish.
- 10.Advokatlik tuzilmalariga soliq solish.

Mustaqil ish uchun topshiriqlar

- 1.Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig`ining ta`rifi va tavsifini izohlash.
- 2.Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig`ining vazifalarini aniqlash.
3. Korxonalarda ijtimoiy infratuzilma ob`yektlari va ularning ahamiyatini baholash.
- 4.Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig`i bo`yicha hisob-kitob shakli va uni to`ldirish tartibi bilan tanishish.
- 5.Soliq solishda alohida xususiyatlarga ega bo`lgan to`lovchilar va ularni soliqqa tortish xususiyatlarini tavsiflash.

Test topshiriqlari

1. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i – bu:

- a) bilvosita soliq;
- b) bevosita soliq;
- d) birlamchi soliq;
- e) ikkilamchi soliq;
- f) barcha javoblar tog'ri.

2. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i – bu:

- a) umumiy soliq;
- b) umumdavlat solig'i;
- d) mavsumiy soliq;
- e) mahalliy soliq;
- f) hududiy soliq.

3. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i – bu:

- a) umumiy soliq;
- b) umumdavlat solig'i;
- d) regressiv soliq;
- e) progressiv soliq;
- f) proporsional soliq.

4. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i qaysi byudjetga to'lanadi?

- a) umumdavlat byudjetiga;
- b) respublika markaziy byudjetiga;
- d) mahalliy byudjetga;
- e) markaziy va mahalliy byudjetga;
- f) mahallalar byudjetiga.

5. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini kimlar to'laydi?

- a) O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan barcha yuridik shaxslar, ayrimlaridan tashqari;
- b) qaramog'ida ijtimoiy infratuzilma ob'yektlari bo'lgan korxonalar;
- d) qaramog'ida ijtimoiy infratuzilma ob'yektlari bo'lmagan korxonalar;
- e) qaramog'ida ijtimoiy infratuzilma ob'yektlari xizmatlaridan foydalanuvchilardan haq oladigan korxonalar;
- f) barchasi.

6. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini kimlar to'laymaydi?

- a) qaramog'ida ijtimoiy infratuzilma ob'yektlari bo'lgan korxonalar;
- b) qaramog'ida ijtimoiy infratuzilma ob'yektlari bo'lmagan korxonalar;
- d) ijtimoiy infratuzilma ob'yektlari xizmatlaridan foydalanmaydigan korxonalar;
- e) soliq solishning soddalashtirilgan tartibini qo'llaydigan korxonalar;
- f) barchasi.

7.Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i ob'yekti:

- a) korxonalarining daromadi;
- b) korxonalarining yalpi tushumi;
- d) korxonalarining yalpi foydasi;
- e) korxonalarining umumiy foydasi;
- f) korxonalar ixtiyorida qoladigan sof foyda.

8.Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i bazasi:

- a) korxonalarining umumiy foydasi;
- b) korxonalarining umumiy daromadi;
- d) korxonalar ixtiyorida qoladigan sof foyda;
- e) korxonalarining yalpi tushumi;
- f) korxonalarining yalpi foydasi.

9.Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i stavkasi:

- a) 8 foiz;
- b) 10 foiz;
- d) 12 foiz;
- e) 15 foiz;
- f) 17 foiz.

10.To'g'ridan-to'g'ri xususiy investitsiyalar ishtirokidagi yuridik shaxs muayyan muddatga qaysi soliqlardan ozod qilinadi?

- a) foyda solig'i;
- b) yagona soliq to'lovi;
- d) obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i;
- e) Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar;
- f) barchasidan.

11.Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holga tuzilgan dehqon xo'jaliklariga qanday soliq solinadi?

- a) barcha soliqlar va majburiy to'lovlarni to'laydilar;
- b) yuridik shaxs bo'lganlari yuridik shaxslarga belgilangan soliqlar va majburiy to'lovlarni to'laydilar;
- d) yuridik shaxs bo'lmaganlari jismoniy shaxslarga belgilangan soliqlar va majburiy to'lovlarni to'laydilar;
- e) barcha dehqon xo'jaliklari jismoniy shaxslarga belgilangan soliqlar va majburiy to'lovlarni to'laydilar;
- f) dehqon xo'jaliklariga fermer xo'jaliklari singari soliq solinadi.

12. Bozorlar qanday soliq to'laydilar:

- a) mahalliy byudjetga daromat solig'i to'laydilar;
- b) mahalliy byudjetga daromadlarining hammasini o'tkazadilar;
- d) mahalliy byudjetga daromadlarining yarmini o'tkazadilar;
- e) mahalliy byudjetga daromadlarining uchdan birini o'tkazadilar;
- f) mahalliy byudjetga foyda solig'i to'laydilar.

13. Transport vositalariga yoqilg`i ishlatganlik uchun olinadigan soliqni byudjetga kim to`laydi?

- a) jismoniy shaxslar;
- b) iste'molchilar;
- d) xaridorlar;
- e) yoqilg`i quyish shaxobchalari;
- f) barchasi.

14. Qaysi tovarlarni chakana sotish huquqi uchun yig`im undiriladi?

- a) import qilingan qimmatbaho toshlar;
- b) eksport qilingan qimmatbaho toshlar;
- d) qimmatbaho metallar va toshlardan yasalgan buyumlar va alkagolli ichimliklar;
- e) alkagolli ichimliklar va tamaki mahsulotlari;
- f) import qilingan tovarlarni maxsus diler orqali sotganda.

13. Bojlar va maqsadli jamg`armalarga majburiy to`lovlar

13.1. Ijtimoiy jamg`armalarga majburiy to`lovlar

O`zbekiston Respublikasida ijtimoiy jamg`armalarga Pensiya jamg`armasi, Davlat Bandlikka ko`maklashish jamg`armasi, Respublika kasaba uyushmalari federatsiyasi jamg`armasi kiradi. Bu jamg`armalarga quyidagi to`lovlar amalga oshiriladi:

- 1) yuridik shaxslarning yagona ijtimoiy to`lovi;
- 2) yuridik shaxslarning majburiy ajratmalari;
- 3) ishchi-xodimlarning ijtimoiy sug`urta badallari;
- 4) ishchi-xodimlarning kasaba uyushmasiga a`zolik badallari.

Yagona ijtimoiy to`lovni quyidagilar to`laydilar:

-O`zbekiston Respublikasi rezidenti bo`lgan yuridik shaxslar;
-O`zbekiston Respublikasida faoliyatini doimiy muassasa, chet ellik yuridik shaxslarning vakolatxonolari va filiallari orqali amalga oshiruvchi O`zbekiston Respublikasi norezidentlari.

Jismoniy shaxslar-O`zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek, O`zbekistonda doimiy yashovchi va ishlovchi fuqaroligi bo`lmagan shaxslar Pensiya jamg`armasiga ijtimoiy sug`urta badallari to`lovchilari hisoblanadilar.

Yagona ijtimoiy to`lov va ijtimoiy sug`urta badallari ob`yekti mehnatga haq to`lash tarzidagi daromad hisoblanadi. To`lov undiriladigan baza yagona ijtimoiy to`lov uchun korxonaning ish haqi fondi, ijtimoiy sug`urta badallari uchun esa fuqarolarning ish haqi bo`ladi.

Yagona ijtimoiy to`lov va ijtimoiy sug`urta badallarini hisoblash bazasiga quyidagilar kiritilmaydi:

- 1) ishchi-xodimlarga kompensatsiya to`lovlari;
- 2) xodimga hisoblanadigan va uning roziligi bilan tegishli byudjet yoki xayriya fondlariga (shanbaliklar, yakshanbaliklar va shu kabilar uchun) o`tkaziladigan ish haqi;
- 3) yosh mutaxassislariga oliy o`quv yurtini tamomlaganlaridan so`ng ta`til vaqti uchun yuridik shaxslar hisobidan to`lanadigan nafaqalar.

Yagona ijtimoiy to`lov va sug`urta badallari bo`yicha to`lov davri kalendar yili, hisobot davri esa quyidagicha belgilangan:

-mikrofirma va kichik korxonalar uchun yil choragi;
-mikrofirma va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan to`lovchilar uchun bir oy.

Yagona ijtimoiy to`lov va sug`urta badallari har oyda to`lov bazasidan hamda belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi. Yagona ijtimoiy to`lov stavkasi korxonaning mehnatga haq to`lash fondiga nisbatan 25 foiz etib belgilangan. Bu to`lov uchta jamg`armaga quyidagicha taqsimlanadi:

- Pensiya jamg`armasiga 24,8 foiz;
- Bandlikka ko`maklashish jamg`armasiga 0,1 foiz;
- Kasaba uyushmalari federatsiyasi jamg`armasiga 0,1 foiz.

Sug`urta badallari stavkasi fuqarolarning hisoblangan ish haqidan 4,5 foiz miqdorida belgilangan.

Yagona ijtimoiy to`lov yuridik shaxsalarning mablag`lari hisobidan to`lanadi, sug`urta badallari esa xodimlarning ish haqidan ushlab qolinadi va soliq agentlari tomonidan tegishli jamg`armalarga o`tkaziladi. Yagona ijtimoiy to`lovning hisob-kitobi soliq organiga korxona tomonidan ortib boruvchi yakun bilan:

-mikrofirma va kichik korxonalar tomonidan yilning har choragida hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo`yicha esa, yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda;

-mikrofirma va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan to`lovchilar tomonidan har oyda hisobot davridan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo`yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Yagona ijtimoiy to`lov hisob-kitobi shakllari quyida keltirilgan.

**Ma'lumotnoma – Yagona ijtimoiy to`lovning bazaviy miqdori hisob-kitobi
(mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun)**

Ko`rsatkichlar	Satr kodi	Summa
1	2	3
Barcha xodimlarning haqiqatda ishlagan kunlari	010	
chorakning birinchi oyi uchun	0101	
chorakning ikkinchi oyi uchun	0102	
chorakning uchinchi oyi uchun	0103	
Hisobot davrida ish kunlari soni	020	
chorakning birinchi oyi uchun	0201	
chorakning ikkinchi oyi uchun	0202	
chorakning uchinchi oyi uchun	0203	
yagona ijtimoiy to`lov me'yori	030	
chorakning birinchi oyi uchun	0301	
chorakning ikkinchi oyi uchun	0302	
chorakning uchinchi oyi uchun	0303	
Yagona ijtimoiy to`lovning bazaviy miqdori (0401-satr) (0402-satr) (0403-satr)	040	
chorakning birinchi oyi uchun (0101-satr/0201-satr x 0301-satr)	0401	
chorakning ikkinchi oyi uchun (0102-satr/0202-satr x 0302-satr)	0402	
chorakning uchinchi oyi uchun (0103-satr/0203-satr x 0303-satr)	0403	
Avvalgi hisobot davri oxiridagi YaIT ning bazaviy miqdori (avvalgi hisobot davri uchun Ma'lumotnoma-Hisob-kitobning 060-satri)	050	
Hisobot davri oxirida YaITning bazaviy miqdori (040-satr 050-satr)	060	

**Yagona ijtimoiy to'lov hisob-kitobi
(mikrofirma va kichik korxonalar uchun)**

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Summa		
1	2	3	4	5
Mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 172-moddasi)	010			
Yagona ijtimoiy to'lov va fuqarolarning budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari hisoblanmaydigan to'lov turlari (hisob – kitobga Ilovaning 010-satri)	020			
Soliq solinadigan baza (010-satr-020-satr),shu jumladan :	030			
Chorakning birinchi oyi uchun	0301			
Chorakning ikkinchi oyi uchun	0302			
Chorakning uchinchi oyi uchun	0303			
Yagona ijtimoiy to'lov stavkasi	040			
Hisoblangan yagona ijtimoiy to'lov summasi (030-satr x 040-satr), shu jumladan :	050			
birinchi oy uchun	05011			
ikkinchi oy uchun	05012			
uchinchi oy uchun	05013			
Avvalgi hisob-kitob bo'yicha hisoblangan yagona ijtimoiy to'lov summasi	060			

**Yagona ijtimoiy to'lov hisob-kitobi
(mikrofirma va kichik korxonalardan tashqari yuridik shaxslar uchun)**

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Summa		
1	2	3	4	5
Mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 172-moddasi)	010			
Yagona ijtimoiy to'lov va fuqarolarning budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari hisoblanmaydigan to'lov turlari (hisob – kitobga Ilovaning 010-satri)	020			
Soliq solinadigan baza (010-satr-020-satr)	030			
Yagona ijtimoiy to'lov stavkasi, %	040			X
Hisoblangan yagona ijtimoiy to'lov summasi (030-satr x 040-satr)	050			
Avvalgi hisob-kitob bo'yicha hisoblangan yagona ijtimoiy to'lov summasi	060			

Sug'urta badallarining hisob-kitobi soliq organalariga korxona tomonidan ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay taqdim etiladi. To'lov esa quyidagi muddatlarda amalga oshiriladi:

- yagona ijtimoiy to'lov har oyda, keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay;
- sug'urta badallari ish haqiga pul mablag'lari olish uchun bankka hujjatlarni taqdim etish bilan bir vaqtda.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar sug`urta badallarini majburiy tartibda oyiga eng kam ish haqidan kam bo`lmagan miqdorda, dehqon xo`jaliklarining a`zolari esa ixtiyoriylik asosida yiliga eng kam ish haqining to`rt yarim baravaridan kam bo`lmagan miqdorda to`laydilar.

Pensiya jamg`armasiga majburiy ajratmalar to`lovchilari bo`lib O`zbekiston Respublikasi rezidenti bo`lgan yuridik shaxslar va oddiy shirkat ishonchli shaxsi bo`lgan yuridik shaxs hisoblanadilar. Quyidagilar majburiy ajratma to`lovchisi hisoblanmaydilar:

- notijorat tashkilotlari (tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olgan daromadlari bo`yicha to`lovchi bo`ladilar);

- yagona soliq to`lovi to`lovchisi bo`lgan yuridik shaxslar.

Majburiy ajratmalar ob`yekti va ularni hisoblash bazasi korxonalarining mahsulot sotishdan sof tushumi hisoblanadi. Majburiy ajratmalar to`lovchilari turlicha to`lov ob`yektlariga ega bo`lgan hollarda, ular ob`yektlarning alohida-alohida hisobini yuritishlari va tegishli ob`yektlar uchun belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda majburiy ajratmalarni to`lashlari kerak. Pensiya jamg`armasiga majburiy ajratmalar bo`yicha to`lov davri kalendar yili, hisobot davri esa quyidagilardir:

- mikrofirma va kichik korxonalar uchun yil choragi;

- mikrofirma va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan to`lovchilar uchun bir oy.

Majburiy ajratmalar har oyda to`lov bazasidan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi. Uning stavkasi sof tushumdan 1,5 foiz miqdorida belgilangan. Mazkur ajratmalarning hisob-kitobi ortib boruvchi yakun bilan:

- mikrofirma va kichik korxonalar tomonidan yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo`yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda;

- mikrofirma va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan to`lovchilar tomonidan har oyda, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo`yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi. Pensiya jamg`armasiga majburiy ajratmalarni to`lash hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Misol. Korxonaning mart oyida mahsulot sotishdan tushgan sof tushum 32,4 mln. so`mni, ish haqi fondi 13,1 mln. so`mni, ishchi-xodimlarga hisoblangan ish haqi 11,7 mln. so`mni tashkil etgan. Yagona ijtimoiy to`lov stavkasi 25 foiz, summasi 3275 ming so`m  $(13,1 \cdot 25):100$  bo`ladi. Bu summa 3ta jamg`armaga quyidagicha taqsimlanadi:

- Pensiya jamg`armasiga  $(13,1 \cdot 24,8):100=3248,8$  ming so`m;

- Bandlikka ko`maklashish jamg`armasiga $(13,1 \cdot 0,1):100=13,1$ ming so`m;

- Kasaba uyushmalari federatsiya jamg`armasiga  $(13,1 \cdot 0,1):100=13,1$  ming so`m.

Pensiya jamg`armasiga sof tushumdan 1,6 foiz majburiy ajratma  $(32,4 \cdot 1,6):100=518,4$  ming so`m va ishchi-xodimlarning ish haqidan 4,5 foiz ijtimoiy sug`urta badallari  $(11,7 \cdot 4,5):100=526,5$  ming so`m bo`ladi.

13.2. Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovlar

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni va Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan 2003 yil 1 oktyabrdan boshlab yo'l xo'jaligini boshqarish tizimidagi Respublika, viloyat va mahalliy yo'l jamg'armalari o'rnida O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzurida Respublika yo'l jamg'armasi tuzildi. Bu jamg'armaga mablag'larni yig'ish va tushumlarning to'liqligini nazorat qilish soliq va bojxona organalari zimmasiga yuklatilgan.

Respublika yo'l jamg'armasiga ikki xil to'lov amalga oshiriladi:

-majburiy ajratmalar;

-yig'imlar.

O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan yuridik shaxslar Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lovchilaridir, quyidagilardan tashqari:

-notijorat tashkilotlari (tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olgan daromadlari bo'yicha to'lovchi bo'ladi);

-yagona soliq to'lovi to'lovchisi bo'lgan yuridik shaxslar;

-ixtisoslashtirilgan yo'l xo'jaligi boshqaruvi organi tuzilmasiga kiradigan korxonalar (Respublika yo'l jamg'armasi mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladigan umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini saqlash, ta'mirlash, rekonstruktsiya qilish va qurish bo'yicha ishlarni bajarganlik uchun olingan daromadlar qismi bo'yicha).

Yuridik shaxslarning Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalari ob'yekti, bazasi va ularni ayrim korxonalarda aniqlash, hisob-kitoblarini taqdim etish va to'lash tartibi, yuridik shaxslarning Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalari singari belgilangan (oldingi paragrafga qarang).

Respublika yo'l jamg'armasi yig'imlariga quyidagilar kiradi:

1) avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im-ularning qiymatidan;

2) chet davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali o'tib ketishi (tranziti) uchun yig'im-har bir avtotransport vositasidan.

Avtotransport vositalarini olish va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirish uchun yig'im bo'yicha bir qator imtiyozlar berilgan.

Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar va yig'imlarning to'lovchilari, ob'yektlari, stavkalari 13.1-13.2-13.3-jadvallarda keltirilgan.

Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar

T\r	To'lovcholar	To'lov ob'yekti	To'lov ob'yektiga nisbatan stavka, foizda
1.	Vositachilik (topshiriq) shartnomalari va vositachilik xizmatlarini ko'rsatishga doir boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatadigan korxona va tashkilotlar	QQSni chegirgan holda vositachilik haqi summasi	1,0
2.	Tayyorlov, ta'minot-sotish tashkilotlari	QQSni chegirgan holda tovar oboroti hajmi	1,0
3.	"O'zdonmahsulot" AK korxonalari (g'alla qabul qilish korxonalari va g'alla qabul qilish faoliyatini amalga oshiruvchi donni qayta ishlash korxonalari)	QQSni chegirgan holda ta'minot-sotish ustamasi va chegirmasi	1,0
4.	Kredit va sug'urta tashkilotlari	daromad	1,5
5.	Moliyaviy ijara (lizing) xizmatlarini ko'rsatadigan korxonalar	Foizli daromad	1,5
6.	Kommunal xo'jalik tizimining issiqlik, suv ta'minoti korxonalari	mahsulot (ishlar, xizmatlar) sotilishi hajmi, QQSni va tegishincha issiqlik ta'minoti korxonalari uchun – issiqlik energiyasi, suv ta'minoti korxonalari uchun-suvning xarid qiymatini chegirgan holda	1,5
7.	Qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari	QQSni chegirgan holda o'z kuchlari bilan bajarilgan ishlar hajmi	1,5
8.	Avtotransport korxonalari	QQSni chegirgan holda mahsulot (ishlar, xizmatlar) realizatsiyasi hajmi	1,5
9.	"O'zbekenergo" DAK va unga qarashli korxonalar, shuningdek "O'zbekneftgaz" MXK korxonalari	mahsulot sotilishi hajmi, elektr energiyasi va tabiiy gaz bo'yicha esa-pirovard iste'molchiga sotilishi hajmi, QQS va aksiz solig'ini chegirgan holda	1,5
10.	Iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari korxonalari	mahsulot (ishlar, xizmatlar) sotilishi hajmi, QQS va aksiz solig'ini chegirgan holda	1,5

Respublika yo'l jamg'armasiga yig'imlar va majburiy ajratmalar

T\r	Yig'imlar va ajratmalar turlari	Stavka
1.	Avtotransport vositalari olinganligi va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirilganligi uchun yig'im (foydalanish muddatiga qarab har bir ot kuchi eng kam ish haqiga nisbatan foizda) ¹	
	Foydalanish muddati 3 yilgacha	10
	Foydalanish muddati 3 yildan 7 yilgacha	7
	Foydalanish muddati 7 yildan ortiq	5
2.	"O'zavtoyo'l" DAK korxona va tashkilotlari mol-mulkini sotib olishdan tushgan mablag'larning byudjetga tushishi lozim bo'lgan umumiy summasidan ajratmalar, foiz	50

**Respublika yo'l jamg'armasiga xorijiy davlatlar
avtotransport vositalarini O'zbekiston Respublikasi hududiga
olib kirish va tranzit qilishdan yig'imlar**

T\r	Yig'imlar turlari	Yig'imlar stavkalari (AQSh dollarida)
1.	O'zbekiston Respublikasi hududiga xorijiy davlatlardan avtotransport vositalarini olib kirganlik va tranzit qilish uchun yig'im, bir avtotashuvchini olib kirganlik uchun (2-5-bandlarda ko'rsatilgan mamlakatlar bundan mustasno)	400
2.	O'zbekiston Respublikasi hududi orqali Tojikiston Respublikasining har bir yuk avtotransport vositasi va avtobusini olib kirganlik va tranzit qilganlik uchun yig'imlar:	
	bitta yuk avtotransport vositasi va avtobusdan	130
	Yuk avtotransport vositasi va avtobus O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan, 8 sutkadan oshgan har bir kun uchun	50
	Yuk avtotransport vositalari va avtobuslarni O'zbekiston Respublikasi hududi orqali uchinchi mamlakatlarga (MDH mamlakatlariidan tashqari) tranzit olib o'tganlik uchun	90
3.	O'zbekiston Respublikasi hududiga Qozog'iston Respublikasi yuk avtotransport vositalari va avtobuslarini olib kirganlik uchun yig'imlar, O'zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit qilish bundan mustasno, bir yuk avtotransport vositasini olib kirganlik	300

¹ Yig'im miqdori:

-o'rindiqlar soni 40 tagacha bo'lgan avtobuslar va yuk ortish hajmi 20 tonnagacha bo'lgan yuk avtotransport vositalaribo'yicha-xarid qiymatining 20 foizidan;

-qolgan avtotransport vositalari bo'yicha -xarid qiymatining 6 foizidan kam bo'lmasligi kerak.

	uchun	
4.	O'zbekiston Respublikasi hududi orqali Qirg'iziston Respublikasining yuk avtotransport vositalari va avtobuslarini olib kirish va tranzit qilish uchun yig'imlar	300
5.	O'zbekiston Respublikasi hududi bo'ylab Turkmaniston Respublikasi avtotransport vositalarini olib kirish va tranzit qilish uchun yig'imlar, avtotransport vositalari turlari bo'yicha:	
	Quyidagi hajmdagi yuklarni ko'taradigan yuk avtotransport vositalari:	
	10 tonnagacha	50
	10 tonnadan 20 tonnagacha	100
	20 tonnadan ko'p	150
	o'rindiqlar soni quyidagicha bo'lgan avtobuslar:	
	12 o'rindiqqacha	25
	13 o'rindiqdan 30 o'rindiqqacha	50
	30 o'rindiqdan ko'p	100
	tranzit yo'nalishi yengil avtotransport vositalari	30
	tranzit o'tayotgan motosikllar	15

*Agar O'zbekiston Respublikasining halqaro shartnomasida boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, halqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

I z o h l a r :

1.O'zbekiston Respublikasi hududi bo'ylab xorijiy davlatlarning og'ir yuk tashuvchi va yirik gabaritli transport vositalari o'tganligi uchun mazkur ilovada nazarda tutilgan stavkalar bo'yicha yig'im to'lanishi bilan bir vaqtda qo'shimcha ravishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 11 yanvardagi 11-son qarori bilan belgilangan miqdorlarda to'lov undiriladi.

2.Gumanitar yuklarni olib o'tishda avtotransport vositalarining olib kirilishi va tranzitida undiriladigan yig'imlar stavkasiga nisbatan 0,5 kamayuvchi koeffitsiyenti qo'llaniladi.

Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar hisob-kitob shakli quyida keltirilgan.

Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar hisob-kitobi

To'lovchilar va soliq solish ob'yekti	Satr kodi	Soliq solinadigan baza	Stavka, %	Ajratma Summasi
Vositachilik, topshiriq shartnomalari va vositachilik xizmatlarini ko'rsatishga doir boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxslar-QQS chegirilgan holda, vositachilik haqi summasi	010			
Tayyorlov, ta'minot-sotish tashkilotlari - QQS chegirilgan holda tovar aylanmasi (oboroti) hajmi	020			
Qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari - QQS chegirilgan holda, o'z kuchlari bilan bajargan ishlari hajmi	030			
Kredit va sug'urta tashkilotlari-daromad	040			
Kommunal xo'jalik tizimining issiqlik, suv va gaz ta'minoti korxonalari uchun-tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning sotish hajmi, QQS va tegishincha issiqlik ta'minoti korxonalari uchun issiqlik quvvatining, suv ta'minoti korxonalari uchun suvning, gaz ta'minoti korxonalari uchun tabiiy gazning xarid qiymatini chegirilgan holda	050			
Ulgurji savdo korxonalari uyushmasi tizimiga kiradigan respublika ixtisoslashtirilgan ulgurji baza-kontoralari va ularning hududiy bazalari - yalpi daromad	060			
"O'zdonmahsulot" AK korxonalari (g'alla qabul qilish korxonalari va don qabul qilish faoliyatiga ega bo'lgan donni qayta ishlaydigan korxonalar)-QQS chegirilgan holda ta'minot-sotish ustamasi va siylovi (chegirma)	070			
Asosiy faoliyati mol-mulknli lizingga berishdan iborat bo'lgan yuridik shaxslar - foiz ko'rinishidagi daromad summasi	080			
Avtotransport korxonalari-QQS chegirilgan holda tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotish hajmi	090			
Iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari korxonalari-QQS va aksiz solig'i chegirilgan holda, tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotish hajmi	100			
Respublika yo'l jamg'armasiga jami hisoblangan majburiy ajratmalar (010+020+030+040+050+060+070+080+090+100)	110		X	
O'tgan davr uchun hisob-kitob bo'yicha Respublika yo'l jamg'armasiga hisoblangan majburiy ajratmalar summasi	120		X	

13.3. Ta'lim muassasalarini rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratma

2011 yil 1 yanvardan boshlab O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida byudjetdan tashqari maktab ta'limi jamg'armasi tugatilib, uning o'rniga Ta'lim muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi tashkil etildi. Bu jamg'armaga barcha korxona va tashkilotlar 1 yanvardan boshlab tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotish hajmidan, ya'ni aylanmasidan, (QQS va aksiz solig'i chegirilgan holda) 0,5 foiz miqdorida mablag' to'lashlari lozim (aniq ob'yektlari 13.4-jadvalda keltirilgan).

13.4-jadval

Pensiya jamg'armasiga va Ta'lim muassasalarini rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalarga tortish ob'yektlari

№	To'lovchilar	Ajratmalarga tortish ob'yekti
1.	Vositachilik (topshiriq) shartnomalari va vositachilik xizmatlarini ko'rsatishga doir boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar	QQS chegirilgan holda vositachilik haqi summasi
2.	Tayyorlov ta'minot-sotish tashkilotlari	QQS chegirilgan holda tovar aylanmasi hajmi
3.	"O'zdonmahsulot" AK korxonalari (g'alla qabul qilish korxonalari va g'alla qabul qilish faoliyatini amalga oshiruvchi donni qayta ishlash korxonalari)	QQS chegirilgan holda ta'minot-sotish ustamasi va chegirmasi
4.	Kredit va sug'urta tashkilotlari	Daromad
5.	Moliyaviy ijara (lizing) xizmatlarini ko'rsatadigan korxonalar	Foizli daromad
6.	Kommunal xo'jalik tizimining issiqlik, suv ta'minoti korxonalari	Mahsulot (ishlar, xizmatlar) sotilishi hajmi, QQSni va tegishincha issiqlik ta'minoti korxonalari uchun-issiqlik energiyasi, suv ta'minoti korxonalari uchun-suvning xarit qiymatini chegirgan holda
7.	Qurilish, qurilish-montaj, tamirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha qidiruv va ilmiy-tatqiqot tashkilotlari	QQS ni chegirgan holda o'z kuchlari bilan bajarilgan ishlar hajmi
8.	"O'zbekenergo" DAK va uning korxonalari, shuningdek "O'zbekneftgaz" MXK korxonalari	Mahsulot sotilish hajmi, elektr energiyasi va tabiiy gaz bo'yicha esa-pirovard iste'molchiga sotilish hajmi, QQS va aksiz solig'ini chegirgan holda
9.	Iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari korxonalari	Mahsulot (ishlar, xizmatlar) sotilish hajmi, QQS va aksiz solig'ini chegirgan holda

Ta'lim muassasalarini rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga to'lovni hisoblab chiqarish bazasi quyidagilar:

- aptekalar uchun- yalpi daromad;
- vositachi korxonalar, dilerlar uchun-komission taqdirlash summasi;
- qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari-o'z kuchlari bilan bajargan ishlari hajmi;
- tijorat banklari, kredit ittifoqlari, sug'urta tashkilotlari, videosalonlar, auksionlar, kazino, video va audiokassetalarni ko'paytirish va ijaraga berish, pul yutuqli o'yin avtomatlaridan foydalanish, lotereya va boshqa o'yinlar, konsert-tomosha o'tkazuvchi korxonalar uchun-daromad;
- lizing tashkilotlari uchun-lizing beruvchining daromadi (marja);
- savdo va umumiy ovqatlanish, tayyorlov, ta'minot-sotish korxonalari uchun-tovar aylanmasi;
- kommunal xo'jalik korxonalari uchun-tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotish hajmi (xarid qilgan issiqlik, suv, gaz qiymatini chegirib tashlagan holda)
- iqtisodiyotning boshqa sohalaridagi korxonalar uchun-tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotish hajmi (QQS va aksiz solig'i chegirilgan holda).

13.4.Tabiatni muhofaza qilish jamg'armasiga kompensatsiya to'lovi

Tabiatni muhofaza qilish jamg'armasiga O'zbekiston Respublikasi hududida atrof tabiiy muhit ifloslantirilganligi va chiqindilar joylashtirilganligi uchun kompensatsiya to'lovi to'lovchilari O'zbekiston Respublikasi hududida ifloslantiruvchi moddalarni atrof tabiiy muhitga chiqarib tashlovchi (oqizuvchi) va chiqindilarni joylashtiruvchi yuridik shaxslar hisoblanadi.

Kompensatsiya to'lovlari ob'yektlari quyidagilar:

- 1) maxsus saqlanayotgan va maxsus jihozlangan to'plash joylarida joylashtirilgan xom ashyo resurslari toifasiga tegishli rudalar;
- 2) vaqtincha (olti oygacha) maxsus ajratilgan maydonlarda joylashtiriladigan va so'ngra ikkilamchi xom ashyo sifatida foydalaniladigan ishlab chiqarish chiqindilari;
- 3) tabiatni muhofaza qilish organlari bilan kelishuv bo'yicha texnika ekinlari va dov-daraxtlarni sug'orish uchun foydalaniladigan tozalangan oqava suvlari;
- 4) konlar ichida joylashtirilgan yuzasi ochilgan jinslar uyumlari;
- 5) atrof tabiiy muhitga chiqarib tashlanadigan (oqiziladigan) ifloslantiruvchi moddalar va joylashtiriladigan chiqindilar.

Ifloslantiruvchi moddalarni me'yoriy va me'yoridan ortiq hamda halokatli va zarbli massasi to'lov bazasi bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- turg'un va ko'chma manbalardan ifloslantiruvchi moddalarni atmosfera havosiga chiqarib tashlash massasi;
- ifloslantiruvchi moddalarni suv ob'yektlariga va joylarning relyefiga oqizish massasi;
- O'zbekiston Respublikasi hududiga joylashtiriladigan zaharli va zaharli

bo'lmagan chiqindilar massasi.

Ular bo'yicha bir oyda hisoblab chiqilgan kompensatsiya to'lovlari eng kam ish haqining kamida besh barobari miqdorini tashkil etadi.

Kompensatsiya to'lovlarida ifloslantiruvchi moddalarni chiqarib tashlash (oqizish) va chiqindilarni joylashtirishning tasdiqlangan me'yorlari bo'lmagan taqdirda va bu ishlar uchun ruxsatnoma bo'lmaganda kompensatsiya to'lovlari 10 ko'effitsiyent qo'llab hisoblanadi. Moddalarni ifloslantiruvchi halokatli (me'yoridan karrali miqdorda oshib ketishi) miqdorda chiqarib tashlashda, oqizishda va chiqindilarni joylashtirishda ham kompensatsiya to'lovi 10 barobar miqdorida to'lanadi.

Atrof tabiiy muhit ifloslantirilganligi va chiqindilar joylashtirilganligi uchun kompensatsiya to'lovi summasi quyidagicha aniqlanadi:

1) ifloslantiruvchi moddalar me'yorida bo'lganda ,

$$K_t = M_{mm} \times K_s ;$$

2) ifloslantiruvchi moddalar me'yoridan ortiq bo'lganda ,

$$K_t = (M_{mm} \times K_s) + (M_{om} \times K_s \times T_k) ;$$

3) ifloslantiruvchi moddalar me'yoridan kam bo'lganda,

$$K_t = \frac{M_{hm} \times K_s}{T_k} ,$$

buyerd: K_t - kompensatsiya to'lovi summasi;

M_{mm} - moddalarning me'yoriy miqdori (t);

M_{om} - moddalarning me'yoridan ortiq miqdori (t);

M_{hm} - moddalarning haqiqiy miqdori (t);

K_s - kompensatsiya stavkasi, 1 t uchun;

T_k -moddalarni me'yoridan ko'paytirilganligi yoki kamaytirilganligi uchun tuzatish ko'effitsiyenti.

Belgilangan tuzatish ko'effitsiyentlari 13.2-jadvalda keltirilgan.

13.2- jadval

Tuzatish ko'effitsiyentlari

T/r	Ifloslantiruvchi moddalarni me'yoridan ko'payganlik yoki kamayganlik ko'effitsiyenti	Kompensatsiyani tuzatish ko'effitsiyenti
1.	1,05 dan 1,059 gacha	1,1
2.	1,06 dan 1,1 gacha	1,25
3.	1,11dan 1,2 gacha	1,7
4.	1,21 dan 1,3 gacha	2,2
5.	1,31 dan 1,5 gacha	3,0
6.	1,51 dan 2,0 gacha	4,0
7.	2,1 va undan yuqori	5,0

Misol. Shahar 1-isitish qozonxonasi havoga chiqargan zaharli moddalari fevral oyida 3,1 tonna va mart oyida 1,6 tonnani tashkil etgan. Me`yori 2 tonna. Kompensatsiya haqiqiy summasi fevral oyi uchun  $(2 \cdot 5) + (1,1 \cdot 5 \cdot 4) = 32$  eng kam ish haqiga va mart oyi uchun  $(1,6 \cdot 5) : 2,2 = 3,64$  eng kam ish haqiga teng bo`ladi.

Kompensatsiya to`lovlari bo`yicha hisob-kitoblarning bir nusxasi moliyaviy hisobot topshirish muddatida to`lovhchi joylashgan hudud bo`yicha tabiatni muhofaza qilish mahalliy organiga yil choragida bir marta taqdim etiladi. Choraklik to`lov summasi eng kam oylik ish haqining 10 barobaridan ko`p bo`lganda har oyning 25-kunigacha o`tgan chorak to`lovlaridan kelib chiqib avans (bo`nak) to`lab boriladi. Choraklik to`lov eng kam ish haqining 10 barobaridan kam bo`lganda hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunigacha bir chorakda bir marta to`lanadi. To`lovlar Tabiatni muhofaza qilish jamg`armasiga o`tkaziladi.

13.5. Bojlar, ularning turlari va undirilishi

Bojlar davlat boji va bojxona boji ko`rinishlariga ega. Davlat boji yuridik ahamiyatga molik harakatlarni amalga oshirganlik va (yoki) bunday harakatlar uchun vakolatli muassasalar va (yoki) mansabdor shaxslar tomonidan hujjatlar berganlik uchun olinadigan to`lovdir. O`zbekiston Respublikasi konsullik muassasalari tomonidan konsullik harakatlarini amalga oshirganlik uchun davlat boji konsullik yig`imi tariqasida undiriladi.

Davlat boji undiriladigan yuridik ahamiyatga ega bo`lgan harakatlar va hujjatlar (davlat boji ob`yektlari) quyidagilar.

1. Sudlarga beriladigan da`vo arizalari, vakolatli organlar va ularning mansabdor shaxslari hatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyatlar, alohida tartibda yuritiladigan ishlarga doir arizalar, sudlarning qarorlari ustidan beriladigan apellyatsiya va kassatsiya shikoyatlari va arizalarini ko`rib chiqish, korxonalar va fuqarolarni bankrot deb topish, yuridik ahamiyatga ega bo`lgan faktlarni aniqlash, shuningdek, sudlar tomonidan hujjatlarning nusxalarini berish va boshqalar.

2. Davlat notarial idoralari, O`zbekiston Respublikasining konsullari va shaharchalar, qishloqlar, ovullarning fuqarolar yig`ini raislari (oqsoqollari) tomonidan notarial harakatlarni amalga oshirish.

3. Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etganlik uchun, shuningdek, qayd etganlik to`grisidagi takroriy guvohnoma berganlik uchun hamda fuqarolik holati dalolatnomalarini yozuviga o`zgartishlar, qo`shimchalar, tuzatishlar kiritilishi va uning qayta tiklanishi munosabati bilan guvohnoma berganlik uchun.

4. Chet eldan O`zbekiston Respublikasiga kelish huquqini beruvchi hujjatlarni, O`zbekiston Respublikasiga taklif qilish hujjatlarini berganlik uchun, yashash guvohnomasi berganlik yoki uning muddatini uzaytirganlik uchun, respublika hududiga kelish va undan chet elga chiqish huquqini beradigan chet el pasportiga yoki uning o`rnini bosuvchi hujjatga viza berganlik uchun, shuningdek, O`zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish va fuqaroligidan chiqish to`grisida beriladigan

arizalardan.

5. O'zbekiston Respublikasining fuqarosi pasportini yoki uning o'rnini bosuvchi hujjatlarni, O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga chet elga chiqish huquqi uchun hujjatlar berganlik uchun.

6. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet davlatlar fuqarolari hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni turar joyga qayd etganlik va ro'yxatdan chiqarganlik uchun.

7. Yuridik shaxslarni va yakka tartibdagi tadbirkorlarni davlat ro'yxatidan o'tkazganlik uchun.

8. Faoliyatning ayrim turlarini amalga oshirishga litsenziya berganlik uchun;

9. Ov qilish huquqiga ega ekanligi to'g'risida ruxsatnoma berganlik uchun.

Shuni takidlab o'tish lozimki, yuqorida ko'rsatib o'tilgan yo'nalishlarning har biri bo'yicha qator imtiyozlar ko'zda tutilgan. Ular Soliq kodeksining XVII bo'limida batafsil va to'liq keltirilgan.

Davlat boji tegishli harakatlar amalga oshirilguniga qadar naqd pul yoki pulsiz shaklda to'lanadi. Davlat boji tushumlari bo'yicha hisobot davlat bojini undiruvchi davlat organlari va tashkilotlari tomonidan o'zlari joylashgan yerdagi soliq organlariga yilning har choragida hisobot choragidan keyingi oyning o'ninchi kunidan kechiktirmay taqdim etiladi. Davlat boji ayrim hollarda qisman yoki to'liq qaytarilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida davlat ichki va tashqi siyosatining tarkibiy qismi hisoblanadigan yagona bojxona siyosati amalga oshiriladi. Bojxona siyosatining asosiy maqsadlari O'zbekiston Respublikasi bojxona hududida samarali bojxona nazoratini tashkil etish, tovar ayirboshlashni tartibga solishni ta'minlash, iqtisodiyotning rivojlanishini rag'batlantirish, ichki bozorni himoya qilish hisoblanadi. Bu maqsadlarni ro'yobga chiqarishda bojxona to'lovlari muhim rol o'ynaydi.

Tovarlar va transport vositalarini bojxona chegarasi orqali olib o'tishda va Bojxona kodeksida nazarda tutilgan boshqa hollarda quyidagi bojxona to'lovlari undiriladi:

- bojxona boji;
- qo'shilgan qiymat solig'i;
- aksiz solig'i;
- litsenziya berganlik uchun yig'im;
- bojxona rasmiylashtiruv bo'yicha mutaxassis degan malaka attestati berganlik uchun yig'im;
- bojxona rasmiylashtiruv uchun yig'im;
- dastlabki qaror qabul qilganlik uchun haq;
- tovarlarni bojxona kuzatuviga olganlik uchun yig'im;
- qonun hujjatlarida belgilangan boshqa to'lovlar.

Bojxona to'lovlari va ularning turlari, stavkalarini qo'llash va hisoblash tartibi O'zbekiston Respublikasining "Boj tarifi to'grisida"gi qonuni va Bojxona kodeksida belgilab berilgan. Boj tarifi-bojxona chegarasidan olib o'tiladigan tovarlarga

nisbatan qo'llaniladigan boj stavkalari to'plamidir. Bojxona boji - O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan tovarlar olib o'tilayotganda bojxona organlari tomonidan undiriladigan to'lov. O'zbekistonda import boji, eksport boji, mavsumiy va alohida (maxsus, dempingga qarshi, kompensatsiya) bojlari qo'llaniladi.

Bojxona tarifini qo'llash va to'lovlarini hisoblab chiqarish asosida tovarlarning bojxona qiymati yotadi. Shuning uchun bojxona qiymatini aniqlash muhim jarayon hisoblanadi. Tovarining bojxona qiymati-bu bojxona boji va bojxona boshqa to'lovlarini undirishda asos qilib olinadigan tovar qiymatidir. Bir tovar turli mamlakatlarda turlicha narxlarda sotiladi va sotib olinadi. Bojxona rasmiylashtiruv va to'lovlari uchun narxlarni bir xillashtirish zarur bo'ladi. Tovarlarini olib kirishda bojxona qiymatini aniqlash maqsadlari quyidagilar :

- bojxona boji va yig'implari, jarimalar, soliqlar va boshqa to'lovlarni hisoblashda real, haqiqiy bazani (asosni) aniqlash;
- tovarlar qiymatini sun'iy kamaytirish yoki ko'paytirish hollarini bartaraf etish;
- bojxona statistikasini yuritish;
- valyuta nazoratini amalga oshirishda zarur ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish.

Jahonda tovarning bojxona qiymatini aniqlashga umumiy yondashuvni ta'minlash maqsadida tovarning bojxona qiymatini aniqlash xalqaro tizimi ishlab chiqilgan va 1950 yildan boshlab amal qilib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasida tovarning bojxona qiymatini aniqlash tartibi "Boj tarifi to'grisida" gi qonunda belgilab berilgan.

Bojxona to'lovlari quyidagicha hisoblab chiqariladi:

$$Bt=(Tbq \cdot Ts):100,$$

buyesda: Bt-bojxona to'lovi summasi;

Tbq-tovarning bojxona qiymati;

Ts- to'lov stavkasi.

Misol. O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasida Rossiyadan keltirilayotgan bir vagon gugurtni rasmiylashtirish kerak. Mazkur gugurtning kontraktga ko'rsatilgan umumiy qiymati 6150,0 ming so'mni, bojxona maskanida hisoblab chiqarilgan bojxona qiymati esa 6300,0 ming so'mni tashkil etadi. Gugurtni import qilish bilan bog'liq quyidagi bojxona to'lovlari aniqlanadi va undiriladi:

- 1) bojxona olib kirish boji-gugurt uchun uning stavkasi 20 foiz, summasi $(6300,0 \cdot 20):100=1260,0$ ming so'm;
- 2) aksiz solig'i – uning stavkasi (gugurt uchun) 30 foiz, summasi $(6300,0 \cdot 30):100= 1890,0$ ming so'm;
- 3) qo'shilgan qiymat solig'i – uning stavkasi (hamma tovarlar uchun) 20%, summasi $(6300,0+1260,0+1890,0) \cdot 20:100=1890,0$ ming so'm;
- 4) bojxona rasmiylashtiruv uchun yig'im-u eng kam ish haqining to'rt barobari miqdorida belgilangan.

Bojxona to'lovlari bojxona deklaratsiyasi qabul qilungunga qadar yoki qabul qilinishi bilan bir vaqtda deklarant tomonidan to'lanadi. Bojxona to'lovlari bojxona organiga, xalqaro pochta jo'natmalarida yuborilgan tovarlar uchun to'lovlar esa aloqa korxonalariga to'lanadi.

Qisqacha xulosalar

1.O'zbekistonda bir qator byudjetdan tashqari jamg'armalar tuzilgan bo'lib, ularga belgilangan to'lovlar ham soliqlar kabi majburiy tusga ega. Ulardan eng yiriklari ijtimoiy jamg'armalar-Pensiya jamg'armasi, Bandlikka ko'maklashish jamg'armasi va Kasaba uyushmalari federatsiyasi jamg'armasi hisoblanadi. Bu jamg'armalarga yuridik shaxslarning yagona ijtimoiy to'lovi va majburiy ajratmalari, jismoniy shaxslarning ijtimoiy sug'urta badallari to'lanadi.Yagona ijtimoiy to'lov bazasi korxonalarning ish haqi fondi bo'lib, stavkasi esa 25 foizdir. Yagona ijtimoiy to'lov uchta ijtimoiy jamg'armaga taqsimlanib o'tkaziladi. Yuridik shaxslarning Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalari bazasi sof tushum bo'lib, stavkasi esa 1,5 foiz. Jismoniy shaxslarning ijtimoiy sug'urta badallari bazasi xodimlarning ish haqi va stavkasi 4,0 foiz. Bu to'lovlar har oyda to'lab boriladi.

2.Respublika yo'l jamg'armasiga ikki xil to'lov-majburiy ajratma va yig'imlar tushadi. Majburiy ajratmalarni O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan yuridik shaxslar (notijorat tashkilotlari va soliq solishning soddalashtirilgan tartibini qo'llaydigan yuridik shaxslar hamda ixtisoslashgan yo'l xo'jaligi korxonalaridan tashqari) to'laydilar. Majburiy ajratmalar uchun turli soha va korxonalarga turlicha stavkalar belgilangan. Respublika yo'l jamg'armasiga ikki xil yig'im olinadi: birinchisi, avtotransport vositalarini olganlik (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im; ikkinchisi, chet davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va tranziti uchun yig'im.

3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 26 maydagi farmoniga muvofiq Maktab ta'limi jamg'armasi tashkil etilib, unga barcha yuridik shaxslar (notijorat tashkilotlaridan tashqari) mahsulot sotishdan tushgan sof tushumdan 0,5 foiz o'tkazishlari kerak.

4.O'zbekiston Respublikasi hududida ifloslantiruvchi moddalarni atrof muhitga chiqarib tashlovchi (oqizuvchi) va chiqindilarni joylashtiruvchi yuridik shaxslar kompensatsiya to'laydilar. Ifloslantiruvchi maddalarning me'yoriy va me'yoridan ortiq hamda halokatli va zarbli massasi kompensatsiya to'lovlari ob'yekti va bazasi hisoblanadi. Kompensatsiya summasi to'lov bazasi, stavkasi va tuzatish koeffitsiyentlari asosida hisoblab chiqariladi.

5.Vakolatli muassasalar va mansabdor shaxslar tomonidan yuridik ahamyatga molik harakatlarni amalga oshirganlik va tegishli hujjatlar berganlik uchun davlat boji undiriladi: sudlarga beriladigan turli arizalardan va sudlar tomonidan hujjatlarning nusxalarini berganlik, notarial idoralar tomonidan notarial harakatlarni amalga oshirganlik, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilganlik, vizalar,

litsenziyalar va fuqarolik pasportini berganlik, yuridik shaxslar va yakka tadbirkorlarni davlat ro`yxatidan o`tkazganlik va boshqa harakatlar uchun undiriladi.

6.Bojxona organlari bojxona ishini amalga oshirishda bojxona to`lovlari undiradilar. Ularning to`lovchilari O`zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlar va transport vositalarini olib o`tuvchi yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadilar. Bojxona to`lovlari bojxona boji, qo`shilgan qiymat solig`i, aksiz solig`i va turli bojxona yig`imlaridan iborat bo`ladi.

Tayanch iboralar va tushunchalar: byudjetdan tashqari jamg`armalar, maqsadli jamg`armalar, yagona ijtimoiy to`lov, majburiy ajratma, ijtimoiy sug`urta badallari, Respublika yo`l jamg`armasi, Pensiya jamg`armasi, Bandlikka ko`maklashish jamg`armasi, kompensatsiya to`lovi, boj, davlat boji, bojxona boji, boj tarifi, tovarning bojxona qiymati, deklarant, deklaratsiya, tarif imtiyozlari, bojxona preferensiyalari, eng ko`p qulaylik berish tartibi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Byudjetdan tashqari jamg`armalar va ularga to`lovlar.
2. Ijtimoiy jamg`armalar va ularga to`lovlar.
3. Yagona ijtimoiy to`lov, uning tarkibi va stavkasi.
4. Ishchi-xodimlarning Pensiya jamg`armasiga ijtimoiy sug`urta badallari.
5. Yuridik shaxslarning Pensiya jamg`armasiga majburiy ajratmalari.
6. Respublika yo`l jamg`armasiga majburiy ajratmalar.
7. Respublika yo`l jamg`armasiga yig`imlar.
8. Maktab ta`limini ivojlantirish jamg`armasiga ajratma.
9. Tabiatni muhofaza qilish jamg`armasiga kompensatsiya to`lovi.
10. Davlat boji, uning ob`yektlari va undirilishi.
11. Bojxona boji, uning turlari va vositalari.
12. Bojxona boji ob`yekti, bazasi va uni aniqlash.
13. Bojxona boshqa to`lovlari.

Mustaqil ish uchun topshiriqlar

1. Ijtimoiy jamg`armalarga to`lovlar, ularning maqsadi va ahamiyatini baholash.
2. Fuqarolarning shaxsiy jamg`arib boriladigan pensiyasiga badal va uni o`tkazish tartibini o`rganish.
3. Byudjetdan tashqari maqsadli jamg`armalarga majburiy to`lovlar bo`yicha hisob-kitob shakli va uni to`ldirish tartibi bilan tanishish.
4. Bojxona to`lovlari bo`yicha imtiyozlarni aniqlash.
5. Davlat boji stavkalari va ularning qo`llanilishi bilan tanishish.

Test topshiriqlari

1. Byudjetdan tashqari ijtimoiy jamg'armalarga kiradi:

- a) Pensiya jamg'armasi, Respublika yo'l jamg'armasi, Bandlikka ko'maklashish jamg'armasi;
- b) Kasaba uyushmalari federatsiyasi jamg'armasi, Maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasi, Pensiya jamg'armasi;
- d) Pensiya jamg'armasi, Bandlikka ko'maklashish jamg'armasi, Kasaba uyushmalari federatsiyasi jamg'armasi;
- e) Pensiya jamg'armasi, Respublika yo'l jamg'armasi, Maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasi;
- f) barchasi.

2. Ijtimoiy jamg'armalarga to'lanadi:

- a) yuridik shaxslarning yagona ijtimoiy to'lovi;
- b) yuridik shaxslarning majburiy ajratmalari;
- d) jismoniy shaxslarning ijtimoiy sug'urta badallari;
- e) jismoniy shaxslarning kasaba uyushmasiga a'zolik badallari;
- f) barchasi.

3. Yagona ijtimoiy to'lov o'z ichiga oladi:

- a) Pensiya jamg'armasiga ajratmalarni;
- b) Bandlikka ko'maklashish jamg'armasiga ajratmalarni;
- d) Kasaba uyushmalari federatsiyasi jamg'armasiga to'lovni;
- e) barchasini.

4. Yagona ijtimoiy to'lov tarkibiga kirmaydi:

- a) Pensiya jamg'armasiga ajratmalar;
- b) Bandlikka ko'maklashish jamg'armasiga ajratmalar;
- d) Kasaba uyushmalari federatsiyasiga to'lov;
- e) yuridik shaxslarning majburiy ajratmalari;
- f) to'g'ri javob yo'q.

5. Yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallari ob'yekti nima?

- a) korxonning mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadi;
- b) korxonaning ish haqi fondi;
- d) korxona xodimlarining hisoblangan ish haqi;
- e) korxonaning umumiy daromadi;
- f) korxonaning mahsulot sotishdan olgan daromadi.

6. Yagona ijtimoiy to'lov hisoblanadigan baza nima?

- a) korxonada to'lanadigan mehnat haqi;
- b) korxonaning mahsulot sotishdan olgan daromadi;
- d) korxonaning umumiy daromadi;
- e) korxonaning ish haqi fondi;
- f) korxona xodimlarining hisoblangan ish haqi.

7. Korxona xodimlarining sug'urta badallari hisoblanadigan baza nima?

- a) korxonaning ish haqi fondi;

- b)korxona xodimlarining hisoblangan ish haqi;
- d)korxonaning mehnatga haq to`lash tarzidagi daromadi;
- e)korxonaning mahsulot sotishdan olgan daromadi;
- f)korxonaning umumiy daromadi.

8.Korxonaning Pensiya jamg`armasiga majburiy ajratmasi ob'ekti va bazasi nima?

- a)korxonaning sotishdan olgan daromadi;
- b)korxonaning mahsulot sotishdan tushgan sof tushumi;
- d)korxonaning mehnatga haq to`lash tarzidagi daromadi;
- e)korxonaning ish haqi fondi;
- f)korxonaning umumiy daromadi.

9.Yagona ijtimoiy to`lov stavkasi:

- a)25 foiz;
- b)24 foiz;
- d)15 foiz;
- e)3,5 foiz;
- f)0,7 foiz.

10.Korxonaning Pensiya jamg`armasiga majburiy ajratmasi stavkasi:

- a)25 foiz;
- b)24 foiz;
- d)15 foiz;
- e)2,5 foiz;
- f)0,7 foiz

11.Korxona xodimlarining ijtimoiy sug`urta badali stavkasi:

- a)25 foiz;
- b)24 foiz;
- d)15 foiz;
- e)3,5 foiz;
- f)0,7 foiz.

12.Respublika yo`l jamg`armasiga majburiy to`lovni to`lovchilari:

- a)O`zbekiston Respublikasidagi barcha yuridik shahslar;
- b)O`zbekiston Respublikasi rezidenti bo`lgan barcha yuridik shahslar;
- d)O`zbekiston Respublikasi rezidenti bo`lgan yuridik shahslar, ayrimlaridan tashqari;
- e)O`zbekiston Respublikasi rezidenti bo`lgan va bo`lmagan yuridik shahslar;
- f)O`zbekiston Respublikasi rezidenti bo`lmagan yuridik shahslar.

13.Respublika yo`l jamg`armasiga majburiy to`lov ob'ekti va bazasi nima?

- a)korxonaning umumiy daromadi;
- b)korxonaning umumiy xarajatlari;
- d)korxonaning mahsulot sotishdan olgan daromadi;
- e)korxonaning mahsulot sotishdan tushgan sof tushumi.
- f)korxonaning mahsulot sotishdan olgan foydasi.

14. Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovni kimlar to'lamaydi?

- a) notijorat tashkilotlari;
- b) yagona soliq to'lovchilar;
- d) yo'l xo'jaligi korxonalari;
- e) oddiy shirkatlar;
- f) barchasi.

15. Maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasiga majburiy ajratma to'lovchilar:

- a) barcha yuridik shahslar;
- b) ayrim yuridik shahslar;
- d) yuridik shahs bo'lgan va bo'lmagan tadbirkorlik sub'ektlari;
- e) barcha yuridik va jismoniy shahslar;
- f) maktabda ishlovchi barcha xodimlar.

16. Maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasiga majburiy ajratma ob'yekti va bazasi:

- a) korxonalarining umumiy daromadi;
- b) korxonalarining mahsulot sotishdan sof tushumi;
- d) korxonalarining mahsulot sotishdan tushgan yalpi tushumi;
- e) korxonalarining yalpi foydasi;
- f) korxonalarining sof foydasi.

17. Maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasiga to'lov stavkasi:

- a) 2,5 foiz;
- b) 2,0 foiz;
- d) 1,5 foiz;
- e) 1,0 foiz;
- f) 0,7 foiz.

18. Davlat boji-bu:

- a) davlat organlari amalga oshirgan harakatlar va ular to'g'risida hujjat berganlik uchun to'lov;
- b) vakolatli muassasalar va mansabdor shaxslar tomonidan yuridik ahamyatga molik harakatlarni amalga oshirganlik va ular to'g'risida hujjat berganlik uchun to'lov;
- d) yuridik ahamyatga molik bo'lmagan harakatlar uchun to'lov;
- e) yuridik ahamyatga molik harakatlarni ro'yxatga olganlik uchun to'lov;
- f) barcha javoblar to'g'ri.

19. Davlat boji to'lovchilari kimlar?

- a) davlat organlariga murojaat qiladigan shaxslar;
- b) davlat organlaridan hujjatlar oladigan shaxslar;
- d) davlat vakolatli organlari va mansabdor shaxslariga murojaat qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar;
- e) vakolatli muassasalar va mansabdor shaxslarga yuridik ahamyatga molik harakatlarni amalga oshirish va hujjatlar berish uchun murojaat qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar;

f) barcha javoblar to'g'ri.

20.Davlat boji undiriladigan ob'yektlar hisoblanadi:

- a) sudlarga beriladigan turli arizalar;
- b) sudlar tomonidan hujjatlarning nusxalarini berish;
- d) vizalar, ruxsatnomalar, litsenziyalar berish;
- e) fuqarolik pasportini berish;
- f) barchasi.

21.Davlat boji undiriladigan ob'yektlarga kiradi;

- a) notarial idoralari tomonidan amalga oshiriladigan notarial harakatlari;
- b) fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish va guvohnomalar berish;
- d) fuqarolarni va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni turar joyga qayd etish va ro'yxatdan chiqarish;
- e) tadbirkorlik sub'yektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish;
- f) barcha javoblar to'g'ri.

22.Bojxona to'lovlari –bu:

- a) tovarlar va transport vositalarini bojxona chegarasi orqali olib o'tish uchun to'lovlar;
- b) fuqarolarning bojxona chegarasi orqali o'tishlari uchun to'lovlar;
- d) tovarlar va transport vositalarini davlat chegarasidan o'tkazish uchun to'lovlar;
- e) fuqarolarning davlat chegarasidan o'tishlari uchun to'lovlar;
- f) barcha javoblar to'g'ri.

23.Bojxona to'lovlarini kimlar to'laydilar?

- a) bojxona chegarasidan o'tuvchi fuqarolar;
- b) bojxona chegarasidan o'tuvchi fuqaroligi bo'lmagan shaxslar;
- d) bojxona chegarasi orqali tovarlar va transport vositalarini olib o'tuvchi yuridik va jismoniy shaxslar;
- e) bojxona postini chetlab o'tuvchi shaxslar;
- f) O'zbekiston Respublikasi hududida bojxona chegarasi orqali kirib keluvchi shaxslar;

24.Bojxona to'lovlariga nimalar kiradi?

- a) bojxona boji;
- b) qo'shilgan qiymat solig'i;
- d) aksiz solig'i;
- e) bojxona yig'implari;
- f) barchasi.

25.Bojxona boji –bu:

- a) tovarlar va transport vositalarini bojxona chegarasida tekshirish uchun majburiy to'lov;
- b) tovarlar va transport vositalarini chegaradan o'tkazish uchun majburiy to'lov;
- d) tovarlar va transport vositalarini bojxona chegarasi orqali olib o'tish uchun majburiy to'lov;
- e) tovarlar, transport vositalari, fuqarolarni chegaradan o'tkazish uchun to'lov;

f) barcha javoblar to'g'ri.

26.Bojxona boji undiriladi:

- a) tovarlar faqat eksport qilinganda;
- b) tovarlar inport qilinganda;
- d) tovarlar barter qilinganda;
- e) tovarlar eksport qilinganda ham, inport qilinganda ham;
- f) tovarlarning faqat tranziti uchun.

27.Bojxona boji- bu;

- a) bevosita to'lov;
- b) bilvosita to'lov;
- d) ikki yoqlama to'lov;
- e) bir yoqlama to'lov;
- f) barcha javoblar to'g'ri.

28.Bojxona organlari qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'ini qachon undiradilar?

- a) tovarlar import qilinganda;
- b) tovarlar eksport qilinganda;
- d) tovarlar barter qilinganda;
- e) tovarlar eksport qilinganda ham, import qilinganda ham;
- f) tovarlarning faqat tranziti uchun.

O`zbekistonda amal qilayotgan soliqlar va boshqa majburiy to`lovlarning umumlashtirilgan tavsifnomasi

T/r	Soliq (to`lov) turi	Xususiy belgilari	T o`lovchilari	Ob`yekti	Bazasi	Soliq (to`lov) davri	Hisobot davri	To`lash tartibi
I. S o l i q l a r								
1.	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig`i	Bevosita, proporsional, umumdavlat solig`i	O`R rezidenti bo`lgan yuridik shaxslar va O`zbekistonda faoliyatini doimiy muassasa orqali amalga oshiradigan norezident yuridik shaxslar	Yuridik shaxslarning jami daromadlari	Yuridik shaxslarning jami daromadlari bilan chegiriladigan xarajatlari o`rtasidagi farq	Kalendar yili	Yil choragi	Soliq solinadigan foydaga qarab har oy yoki chorak
2.	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig`i	Bevosita, progressiv, umumdavlat solig`i	O`zbekistonda soliq solinadigan daromadga ega bo`lgan rezident va norezident jismoniy shaxslar	Jismoniy shaxslarning jami daromadlari	Jismoniy shaxslarning jami daromadlari bilan soliq solinmaydigan daromadlari o`rtasidagi farq	Kalendar yili	Yil choragi	Korxona ishchi-xodimlari uchun bankdan ish haqi oladigan paytda
3.	Qo`shilgan qiymat solig`i	Bilvosita, proporsional, umumdavlat soligi	O`zbekistonda soliq solinadigan aylanmaga ega bo`lgan rezident va norezident yuridik shaxslar, O`zbekistonga mahsulotlarni import qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar	Soliq solinadigan aylanma (oborot) va soliq solinadigan import	O`zbekistonda ishlab chiqarilgan tovarlarning qiymati, import qilinayotgan tovarlarning bojxona qiymati, import qilinayotgan ishlar, xizmatlarning dalolatnoma qiymati	Kalendar yili	Mikrofirma va kichik korxonalar uchun chorak, boshqa yuridik shaxslar uchun oy	Soliq hisob-kitobini taqdim etish muddatigacha
4.	Aksiz solig`i	Bilvosita, proporsional, umumdavlat solig`i	O`zbekistonda aksiz solig`i solinadigan tovarlarni ishlab chiqaruvchi va import qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar	Aksiz solig`i solinadigan tovarlar	Tovarlarning natural miqdori yoki qiymati (import qilishda bojxona qiymati)	Mikrofirma va kichik korxonalar uchun chorak, boshqa yuridik shaxslar uchun oy	Mikrofirma va kichik korxonalar uchun chorak, boshqa yuridik shaxslar uchun oy	Har 10 kunda

5.	Yer qaʼridan foydalanganlik uchun soliq	Bevosita, proporsional, umumdavlat soligʻi	Foydali qazilmalarni qazib oluvchi va ularni qayta ishlovchi yuridik va jismoniy shaxslar	Qazib olingan xom ashyo yoki tayyor mahsulot	Qazib olingan xom ashyo yoki tayyor mahsulot qiymati	Kalendar yili	Jismoniy shaxslar uchun yil, mikrofirma va kichik korxonalar uchun chorak, boshqa yuridik shaxslar uchun oy	Soliq hisob-kitobini taqdim etish muddatigacha
6.	Qoʻshimcha foyda soligʻi	Bevosita, proporsional, umumdavlat soligʻi	Ayrim foydali qazilmalarni qazib oluvchi va ulardan tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslar	Mazkur soliq toʻlovchilar daromadlarining bir qismi	Mahsulotning hisob-kitob narxi bilan sotish narxi oʻrtasidagi farq	Kalendar yili	Oy	Soliq hisob-kitobini taqdim etish muddatigacha
7.	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Bevosita, proporsional, umumdavlat soligʻi	Suvdan foydalanuvchi yuridik shaxslar, dehqon xoʻjaliklari, yakka tadbirkorlar	Foydalanilgan suv resurslari	Foydalanilgan suvning hajmi	Kalendar yili	Dehqon xoʻjaliklari uchun yil, boshqa toʻlovchilar uchun soliq summasiga qarab chorak yoki oy	Soliq hisob-kitobini taqdim etish muddatigacha
8.	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Bevosita, proporsional, mahalliy soliq	Oʻzbekistonda soliq solinadigan mol-mulkka ega boʻlgan rezident va norezident yuridik shaxslar	Asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, muddatida qurilishi tugallanmagan obʼyektlar va ishga tushirilmagan asbob-uskunalar	Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning oʻrtacha yillik qoldiq qiymati, muddatida qurilishi tugallanmagan obʼyektlar va ishga tushirilmagan asbob-uskunalarining oʻrtacha yillik qiymati	Kalendar yili	Chorak	Mikrofirma va kichik korxonalar chorakda, boshqa yuridik shaxslar har oyda
9.	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Bevosita, proporsional, mahalliy soliq	Oʻzbekistonda soliq solinadigan mol-mulkka ega boʻlgan jismoniy shaxslar (shu jumladan, chet el fuqarolari) va dehqon xoʻjaliklari	Turar joylar, kvartiralar, dala hovlilar, garajlar va boshqa imoratlar	Soliq obʼyektlarining inventarizatsiya qiymati	Kalendar yili	Kalendar yili	15- iyun va 15-dekabr-gacha
10.	Yuridik shaxslardan olinadigan yer soligʻi	Bevosita, proporsional,	Oʻzbekistonda yer uchastkalariga ega	Yuridik shaxslarda mulk, egalik,	Yer uchastkalarining maydoni	Kalendar yili	Kalendar yili	Har chorak oʻrtasida

		mahalliy soliq	boʻlgan rezident va norezident yuridik shaxslar	foydalanish, ijara huquqi asosida boʻlgan yer uchastkalari				
11.	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer soligʻi	Bevosita, proporsional, mahalliy soliq	Oʻzbekistonda yer uchastkalariga ega boʻlgan jismoniy shaxslar va dehqon xoʻjaliklari	Jismoniy shaxslar va dehqon xoʻjaliklarida mulk, egalik, foydalanish, ijara huquqi asosida boʻlgan yer uchastkalari	Yer uchastkalarining maydoni	Kalendar yili	Kalendar yili	15-iyun va 15-dekabrgacha
12.	Yagona soliq toʻlovi	Bevosita, proporsional, umumdavlat soligʻi	Mikrofirma va kichik korxonalar, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari, xususiy notariuslar va lotereya oʻyinlari tashkil etuvchi yuridik shaxslar	Yalpi tushum	Yalpi tushumdan ayrim daromadlar chegirib tashlangandan keyin qolgan tushum	Kalendar yili	Mikrofirma va kichik korxonalar uchun chorak, boshqa yuridik shaxslar uchun oy	Soliq hisob-kitobini taqdim etish muddatigacha
13.	Yagona yer soligʻi	Bevosita, proporsional, mahalliy soliq	Fermer xoʻjaliklari va agrofimlar, qishloq xoʻjaligi yoʻnalishidagi tajriba-eksperimental va oʻquv –tajriba xoʻjaliklari	Qishloq xoʻjaligini yuritish uchun berilgan yer uchastkalari	Yer uchastkalarining meʼyoriy (normativ) qiymati	Kalendar yili	Joriy yil 1 mayigacha	1 iyul, 1 sentyabr, 1 dekabr-gacha
14.	Qatʼiy belgilangan soliq	Bevosita, teng, umumdavlat soligʻi	Faoliyatning ayrim turlarini amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar, yakka tadbirkorlar	Faoliyat turlari va hajmi	Faoliyatni tavsiflovchi fizik koʻrsatkichlar	Oy	Joriy yil 15 yanvarigacha	Har oy
15.	Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish soligʻi	Bevosita, proporsional, mahalliy soliq	Rezident yuridik shaxslar	Yuridik shaxslar foydasi	Yuridik shaxslar ixtiyorida qoladigan sof foyda	Kalendar yili	Chorak	Soliq hisob-kitobini taqdim etish muddatigacha
16.	Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilgʻisi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq	Bilvosita, proporsional, mahalliy soliq	Benzin, dizel yoqilgʻisi va gazni chakana sotuvchi yuridik shaxslar	Yoqilgʻini chakana sotish hajmi	Yoqilgʻini chakana sotish natural miqdori	Mikrofirma va kichik korxonalar uchun chorak, boshqa yuridik shaxslar uchun oy	Mikrofirma va kichik korxonalar uchun chorak, boshqa yuridik shaxslar uchun oy	Har 10 kunda

II. Boshqa majburiy to'lovlar

1.	Ijtimoiy jamg'armalarga yagona ijtimoiy to'lov	Bevosita, proporsional, umumdavlat to'lovi	O'R rezidenti bo'lgan yuridik shaxslar, O'zbekistonda faoliyatini doimiy muassasa orqali amalga oshiradigan norezident yuridik shaxslar	Yuridik shaxslarning mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadi	Yuridik shaxslarning ish haqi fondi	Kalendar yili	Mikrofirma va kichik korxonalar uchun chorak, boshqa yuridik shaxslar uchun oy	Har oy
2.	Pensiya jamg'armasiga yuridik shaxslarning majburiy ajratmasi	Bevosita, proporsional, umumdavlat to'lovi	Rezident yuridik shaxslar	Mahsulot sotishdan tushgan tushum	Sof tushum	Kalendar yili	Mikrofirma va kichik korxonalar uchun chorak, boshqa yuridik shaxslar uchun oy	Har oy
3.	Pensiya jamg'armasiga ishchi-xodimlarning ijtimoiy sug'urta badali	Bevosita, proporsional, umumdavlat to'lovi	O'R fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar	Yuridik shaxslarning mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadi	Ishchi-xodimlarning hisoblangan ish haqi	Kalendar yili	Mikrofirma va kichik korxonalar uchun chorak, boshqa yuridik shaxslar uchun oy	Korxona ishchi-xodimlari uchun bankdan ish haqi oladigan paytda
4.	Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovlar	Bevosita, proporsional, umumdavlat to'lovi	Rezident yuridik shaxslar	Mahsulot sotishdan tushgan tushum	Sof tushum	Kalendar yili	Mikrofirma va kichik korxonalar uchun chorak, boshqa yuridik shaxslar uchun oy	To'lov hisob-kitobini taqdim etish muddatigacha
5.	Ta'lim muassasalarini rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratma	Bevosita, proporsional, umumdavlat to'lovi	Rezident yuridik shaxslar	Mahsulot sotishdan tushgan tushum, yalpi daromad	Sof tushum (daromad)	Kalendar yili	Mikrofirma va kichik korxonalar uchun chorak, boshqa yuridik shaxslar uchun oy	To'lov hisob – kitobini taqdim etish muddatigacha
6.	Tabiatni muhofaza qilish jamg'armasiga kompensatsiya to'lovi	Bevosita, progressiv, umumdavlat to'lovi	Atrof tabiiy muhitga ifloslantiruvchi moddalar chiqaradigan va	Chiqarib tashlanadigan (oqiziladigan)	Ularining hajmi	Kalendar yili	Chorak	To'lov summasiga qarab har oy

			chiqindilar joylashtiradigan yuridik shaxslar	ifloslantiruvchi moddalar va joylashtiriladigan chiqindilar				yoki chorak
7.	Tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim xizmatlar ko`rsatish huquqi uchun yig`im	Bevosita, teng, mahalliy yig`im	Ayrim tovarlar bilan chakana savdo qiluvchi va ayrim xizmatlar ko`rsatuvchi yuridik shaxslar va yakka tadbirkorlar	Ayrim tovarlar va xizmatlar	Shunday yig`im uchun stavka belgilangan tovarlar va xizmatlar	Kalendar yili	Oy yoki chorak	Har oy
8.	Yer qa`ridan foydalanish huquqi uchun bonus	Bevosita, teng, umumdavlat to`lovi	Yer qa`ridan foydalanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar	Qazib olinadigan foydali qazilmalar zahirasi	Qazib olinadigan foydali qazilmalar zahirasi qiyamati			Bir marta to`lanadi
9.	Davlat boji	Bevosita, proporsional, umumdavlat to`lovi	Yuridik va jismoniy shaxslar	Yuridik ahamiyatga ega bo`lgan harakatlar va hujjatlar	Ularning hajmi		Chorak	Tegishli harakatlarni amalga oshirish va hujjatlarni berishdan oldin
10.	Bojxona to`lovlari	Bilvosita, proporsional, umumdavlat to`lovlari	Tovarlar va transport vositalarini bojxona chegarasi orqali olib o`tuvchi yuridik va jismoniy shaxslar	Bojxona chegarasi orqali olib o`tiladigan tovarlar va transport vositalari	Ularning bojxona qiyamati			Bojxona rasmiylashtiru vi paytida

Asosiy tushunchalar lug`ati

Akkord soliqlar-ayrim xorijiy mamlakatlarda davlat tomonidan daromad yoki sotish hajmidan qat'iy nazar belgilanadigan soliq.

Aksiz–fransuz tilidan kelib chiqqan bo`lib, kesib tashlash, ajratib olish degan ma'noni anglatadi.

Aksiz markalari-alkogolli ichimliklar va tamaki mahsulotlariga yopishtiriladigan va aksiz solig`i to`langanligini tasdiqlaydigan marka-hujjat.

Aksiz solig`i-tovarlar narxiga kiritiladigan va xaridorlar tomonidan to`lanadigan hamda tovarlar sotilganda ajratib olib, byudjetga o`tkaziladigan bilvosita soliq.

Aksiz to`lanadigan (aksizli) tovarlar-aksiz solig`i qo`llaniladigan tovarlar bo`lib, ularning ro`yxati O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Amortizatsiya-asosiy vositalar eskirish qiymatining ishlab chiqariladigan mahsulot tannarxiga o`tib, mahsulot sotilganda pul shaklida qaytib kelish jarayoni.

Amortizatsiya ajratmasi–asosiy vositalar eskirish darajasi (me'yori) ning puldagi ifodasi.

Asosiy vositalarning boshlang`ich qiymati-asosiy vositalarning qabul qilib olingan yoki sotib olingan qiymati.

Asosiy vositalarning qoldiq qiymati-asosiy vositalarning boshlang`ich qiymatidan eskirish (amortizatsiya) summasi chegirib tashlagandan keyin qolgan qiymati.

Bevosita soliqlar-soliq to`lovchi aholi va korxonalarning daromadlari, boyligi, faoliyatiga bevosita ta'sir etadigan soliqlar.

Bilvosita soliqlar-soliq to`lovchi aholi va korxonalarning daromadlari, boyligi, faoliyatiga bilvosita ta'sir etadigan soliqlar.

Boj–davlat organlari va boshqa vakolatli organlar tomonidan muayyan funksiyalarni bajarganlik uchun undiriladigan to`lov.

Boj tarifi–O`zbekiston Respublikasi Bojxona chegarasidan tovarlar va transport vositalarini olib o`tishda qo`llaniladigan boj stavkasi.

Bojxona boji–O`zbekiston Respublikasi Bojxona chegarasidan tovarlar va transport vositalarini olib o`tish uchun to`lov.

Bojxona organlari–zimmasiga O`zbekiston Respublikasi Bojxona chegarasidan tovarlar va transport vositalarini olib o`tish va fuqarolarning o`tishlarini nazorat qilish hamda bojxona to`lovlarini undirish vazifalari yuklangan davlat organlari.

Bonus–yer qa'ridan foydalanuvchilar tomonidan amalga oshiriladigan bir martalik maxsus to`lov.

Boshqa majburiy to`lovlar–byudjetga va byudjetdan tashqari jamg`armalarga to`lanadigan soliqlarga tenglashtirilgan to`lovlar.

Byudjet–ma'lum davrda kutilayotgan daromadlar va xarajatlar o`zaro bog`liq ravishda aks ettiriladigan moliyaviy reja.

Byudjet defitsiti–byudjet xarajatlarning daromadlaridan ortiq bo`lishi.

Byudjet profitsiti–byudjet daromadlarining xarajatlardan ortiq bo`lishi.

Byudjetdan ajratiladigan subsidiya–davlat tomonidan muayyan maqsadlar uchun byudjet hisobidan beriladigan pul mablag`lari.

Byudjetdan tashqari jamg`armalar – davlat tomonidan aniq maqsadlar uchun tashkil etiladigan jamg`armalar (Pensiya jamg`armasi, Bandlikka ko`maklashish jamg`armasi, Respublika yo`l jamg`armasi, Maktab ta`limini rivojlantirish jamg`armasi va boshqalar).

Davlat byudjeti–ma`lum davrda kutilayotgan davlat daromadlari va xarajatlari o`zaro bog`liq ravishda aks ettiriladigan moliyaviy reja.

Davlat qarzi–hukumatning obligatsiyalar va qisqa muddatli qarzar shaklidagi qarz majburiyatlari umumiy summasi.

Daromad–tovarlar sotish, ishlar bajarish, xizmatlar ko`rsatish natijasida kelib tushadigan sof tushum.

Daromadlar to`g`risida deklaratsiya–soliq to`lovchining ma`lum davr mobaynida olgan daromadlari to`g`risida yozma arizasi.

Departament (solisqlarga oid)–O`zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlar va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti.

Doimiy muassasa–O`zbekiston Respublikasi rezidenti bo`lmagan shaxslar tomonidan O`zbekistonda tadbirkorlik faoliyati amalga oshiriladigan har qanday joy (ishlab chiqarish, ish bajarish, xizmat ko`rsatish, sotish, boshqarish faoliyatlari amalga oshiriladigan korxona, ssex, laboratoriya, ombor, do`kon, vakolatxona, filial, idora va hokazolar).

Eksport–import saldosi–ma`lum davrda mamlakat bo`yicha eksport umumiy hajmining import umumiy hajmidan farqi.

Foyda–jami daromadlarning shu daromadlarni olish uchun qilingan jami xarajatlardan ortiqcha qismi.

Foydali qazilmalar–iqtisodiyot va sog`lomlashtirish uchun ahamiyatga ega bo`lgan geologik hosilalar.

Gerb boji–Buyuk Britaniyada qo`llaniladigan davlat boji.

Hisobot davri–belgilab qo`yilgan davr bo`lib, u tugagandan keyin soliq (to`lov) bo`yicha soliq hisobotlari taqdim etiladi.

Hisobvara-q-faktura–tovarlarni jo`natish, ishlar va xizmatlarni topshirishda rasmiylashtiriladigan hamda qo`shilgan qiymat solig`i alohida aks ettiriladigan qat`iy hisobot hujjati.

Ijtimoiy infratuzilma ob`yektlari–soliq solish maqsadida ularga korxonalarda mavjud bo`lgan sog`liqni saqlash va xalq ta`limi ob`yektlari, bolalar dam olish oromgohlari kiritilgan.

Ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig`i–ijtimoiy infratuzilma ob`yektlarini saqlash va ta`minlash uchun undiriladigan soliq.

Ijtimoiy jamg`armalar–ularga Pensiya jamg`armasi, Bandlikka ko`maklashish jamg`armasi va Respublika kasaba uyushmalari federatsiyasi jamg`armasi kiradi.

Ijtimoiy sug`urta badallari–xodimlar ish haqidan Pensiya jamg`armasi va Respublika kasaba uyushmalari federatsiyasiga to`lanadigan mablag`lar.

Imzoli bonus–yer qa'ridan foydalanuvchilar tomonidan tegishli litsenziya asosida foydali qazilmalarni aniqlash, razvedka qilish va kavlab olish huquqi uchun bir martalik to'lov.

Investitsiya–daromad (foyda) ko'rish maqsadida mablag'larni tegishli ishlarga joylashtirish.

Jismoniy shaxs–soliq solish ob'yektlariga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, boshqa davlatlar fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar.

Kameral nazorat–soliq organi idorasidan chiqmasdan kerakli hujjatlarni to'plab, ularni tekshirib chiqish.

Kapital–nemischadan kelib chiqqan bo'lib, eng muhim narsa, asosiy mulk degan ma'noni anglatadi va iqtisodiyotda ishlab chiqarish omilini bildiradi.

Kichik korxona-ishlovchilarining o'rtacha yillik soni sanoatda 100 kishigacha, qurilish, qishloq xo'jaligi va boshqa ishlab chiqarish sohaslarida 50 kishigacha, savdo, xizmat ko'rsatish va boshqa noishlab chiqarish sohaslarida 25 kishigacha bo'lgan korxona.

Korporatsiya–jamo'a boshqaruvi ostidagi kompaniya, firma.

Korporativ soliq–korporatsiyalar foydasidan undiriladigan soliq.

Korxona ixtiyorida qoladigan sof foyda – sof foydadan to'lanadigan soliqlar va to'lovlar chiqarib tashlangandan keyin qoladigan foyda.

Mahalliy soliqlar–mahalliy byudjetlar (viloyat, shahar, tuman byudjetlari) ga tushadigan soliqlar.

Mikrofirma-ishlovchilarining o'rtacha yillik soni ishlab chiqarish sohasida 20 kishigacha, savdo, xizmat ko'rsatish va boshqa noishlab chiqarish sohaslarida 5 kishigacha bo'lgan mo'jaz korxona.

Mineral xom ashyo–tarkibida mineral moddalar bo'lgan qayta ishlash korxonalari uchun xom ashyo.

Moliyaviy sanksiyalar-soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarga oid huquqbuzarliklar uchun jarimalar.

Mol-mulkning inventarizatsiya qiymati–mol-mulkning vakolatli davlat organlari tomonidan ma'lum paytda aniqlangan haqiqiy qiymati.

Mol-mulkning o'rtacha yillik qoldiq qiymati - yilning har oyi oxirgi kunidagi qoldiq qiymatlari yigindisining o'n ikkidan bir qismi.

Mol-mulk solig'i-yuridik va jismoniy shaxslarning moddiy va nomoddiy boyliklariga solinadigan soliq.

Mulkdan foydalanish huquqi-ashyodan xo'jalik yoki boshqa maqsadlarda foydalanish, uni o'z manfaatlari yo'lida ishlatib, foydali xossalarini chiqarib olish huquqi.

Mulkka egalik qilish huquqi-qonunlarga asoslangan (yoki yuridik jihatdan ta'minlangan) holda muayyan ashyoga ega bo'lish imkoniyati.

Mulkni tasarruf etish huquqi–ashyoning mansubligi, holati yoki vazifasini o'zgartirish (boshqa shaxsga berish, yo'q qilish va hokazo) huquqi.

Munitsipal soliqlar–ayrim xorijiy mamlakatlarda mahalliy soliqlar.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i-shaharlar va boshqa aholi punktlarini tozalash va obodonlashtirish hamda ijtimoiy infratuzilma ob'yektlarini saqlash, ta'minlash va rivojlantirish uchun undiriladigan soliq.

Ob'yektlarning boshlang'ich qiymati–yangi ob'yektlarni topshirish-qabul qilish qiymati yoki ob'yektlarning sotib olish qiymati.

Ob'yektlarning qoldiq qiymati–ob'yektlarning boshlang'ich qiymatidan eskirish (amortizatsiya) summasi chegirib tashlangandan keyin qoladigan qiymati.

Oddiy shirkat–ikki va undan ortiq shaxs tomonidan birgalikda tadbirkorlik faoliyatini olib borish maqsadida tuziladigan yuridik shaxs bo'lmagan birlashma.

Prefektura soliqlari-ayrim xorijiy mamlakatlarda mahalliy soliqlar.

Progressiv soliq–soliq solish bazasi ortib borishi bilan soliq stavkasi ham ko'tarilib boradigan soliq.

Proporsional soliq–soliq stavkasi o'zgarmagan holda soliq summasi soliq solish bazasining o'zgarishiga proporsional o'zgaradigan soliq.

Qo'shilgan qiymat- ma'lum davr mobaynida yangidan yaratilgan qiymat.

Qo'shilgan qiymat solig'i–tovarlar (ishlar, xizmatlar) ni ishlab chiqarish, import qilish va sotish jarayonlarida yaratilgan (qo'shilgan) qiymatning bir qismini davlat byudjetiga o'tkazish vositasi.

Qo'shimcha foyda solig'i–ayrim yer qa'ridan foydalanuvchilar muayyan turdagi mahsulotlar ishlab chiqarganda to'laydigan soliq.

Regressiv soliq–soliq bazasi ortib borishi bilan soliq stavkasi pasayib boradigan soliq.

Sof foyda–yalpi foydadan foyda solig'i summasi chegirib tashlangandan keyin qoladigan foyda.

Sof tushum-tovarlar, ishlar, xizmatlarni sotishdan tushgan yalpi tushumdan uning tarkibida bo'lgan bilvosita soliqlar, bojlar va boshqa to'lovlar chegirib tashlangandan keyin qoladigan tushum.

Soliq–davlat byudjetiga majburiy to'lov, davlat tomonidan korxonalar, tashkilotlar, fuqarolardan majburan undiriladigan pul mablag'i.

Soliqlar–muayyan miqdorda majburan undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan, byujetga yo'naltirilgan pul mablag'lari.

Soliq agenti–zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish va undirish, byudjetga va byudjetdan tashqari jamg'armalarga o'tkazish majburiyati yuklangan yuridik va jismoniy shaxs.

Soliq imtiyozlari–soliq to'lovchilar uchun qonunlarda nazarda tutilgan yengilliklar.

Soliqlarning huquqiy asoslari–mamlakatda soliq munosabatlarini tartibga solib turadigan qonunlar va boshqa me'yoriy–huquqiy hujjatlar majmui.

Soliq munosabatlari–davlat va soliq to'lovchilar o'rtasidagi soliqlar bilan bog'liq pul munosabatlari majmui.

Soliq munosabatlari sub'yektlari–soliq organlari, ularning xodimlari, soliq agentlari va soliq to'lovchilar.

Soliqlarning iqtisodiy mohiyati–jamiyatda yaratilgan mahsulotning bir qismini davlat byudjetiga olishdir.

Soliqlarni unifikatsiya qilish–soliqlarni hisoblab chiqarish va to`lash, soliqlar bo`yicha hisobotlar tuzish va taqdim etish tartib-qoidalarini va muddatlarini bir xillashtirish.

Soliq siyosati–mamlakatda soliq munosabatlari, fuqarolar va xo`jalik yurituvchi sub'yektlar bilan davlatning o`zaro manfaatlari, soliqlar va byudjet munosabatlarining eng maqbul muvozanatini ta'minlaydigan huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy asoslarini shakllantirish, amalga oshirish, takomillashtirib borish ishlarini yo`naltiruvchi g`oyalar, qarashlar, yondashuvlar tizimi.

Soliqqa tortish–korxonalar, tashkilotlar, fuqarolarga soliq belgilash, uni hisoblash, undirish jarayonlari majmui.

Soliq solish–davlat tomonidan korxonalar, tashkilotlar, fuqarolarga majburiy soliq to`lovini belgilash.

Soliq solishning adolatlilik tamoyili–har bir soliq to`lovchining davlat xarajatlarini qoplashda o`zining daromadi, mulki, to`lash qobiliyatiga mos ravishda ishtirok etishini bildiradi.

Soliq solishning aniqlilik tamoyili–to`lovchilar uchun to`lanadigan soliq turi va miqdori, uni hisoblab chiqarish va to`lash tartibi hamda muddatlari oldindan aniq bo`lishini taqozo etadi.

Soliq solishning mutanosiblik tamoyili–soliq solish shartli nuqtasi (soliq chegarasi), ya'ni milliy mahsulotning byudjetga yo`naltiriladigan qismi soliq to`lovchilar uchun ham, davlat xazinasini uchun ham maqbul bo`lishini taqozo etadi.

Soliq solishning samaradorlik tamoyili–qabul qilingan soliq rejimi mavjud resurslarni taqsimlashni yaxshilashi va ulardan foydalanish samaradorligini oshirishi zarur.

Soliq solishda to`lovchilarning haqligi tamoyili–soliq qonunchiligida uchraydigan barcha qarama-qarshiliklar, noaniqliklarning soliq to`lovchi foydasiga talqin qilinishini bildiradi.

Soliq solishning tejamlilik tamoyili–soliqlarni undirish bilan bog`liq sarf – xarajatlarning mumkin qadar oz bo`lishini taqozo etadi.

Soliq solishning qulaylilik tamoyili–soliqlarni undirish usullari, to`lash tartibi va muddatlarining to`lovchilar uchun qulay bo`lishini talab qiladi.

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi–soliq solishning soliq to`lovchilarning ayrim toifalari uchun belgilanadigan yagona soliqlarni hisoblab chiqarish, to`lash va hisobotlarini taqdim etishning maxsus soddalashtirilgan qoidalarini qo`llashni nazarda tutadigan tartib.

Soliq solishning umumiy (umumbelgilangan) tartibi–barcha soliqlarni belgilash, hisoblab chiqarish, undirish umumiy, to`liq tartib–qoidalarini nazarda tutadigan soliq solishning asosiy tartibi.

Soliq solinadigan aylanma (oborot)–muayyan davr mobaynida tovarlar, ishlar, xizmatlar sotish hajmining puldagi ifodasi.

Soliqni daromad manbaida ushlab qolish– daromadni beradigan korxonada uni to`lashgacha soliqni hisoblab, ushlab qolish.

Soliqlarning fiskal funksiyasi- davlat byudjetini to'ldirishdan iborat.

Soliqlarning nazorat funksiyasi- soliqlarning byudjetga to'liq va o'z vaqtida tushishini nazorat qilish hamda ularni pulga bo'lgan talab bilan taqqoslashdan iborat.

Soliqlarning tartibga solish (iqtisodiy) funksiyasi–iqtisodiyot sohalari, tarmoqlari, majmualari, jabhalarining rivojlanish yo'nalishlari va sur'atlarini belgilashga xizmat qilishi.

Soliqlarning taqsimlash (ijtimoiy) funksiyasi–daromadlarni taqsimlash va qayta taqsimlashdan iborat.

Soliq nazorati–soliq organlari tomonidan soliq qonunchiligini amalda bajarilishini nazorat qilish hamda soliq (to'lov) larni to'liq va o'z vaqtida to'lanishi (undirilishi) ni ta'minlash vositasi.

Soliqni undirish (to'lash) usuli–soliqni undirish (to'lash) tartibi.

Soliq yuki–soliq to'lovchilarning daromadlari, foydalari, boyliklarining davlat byudjetiga undiriladigan qismining ulushi.

Soliq tizimi-davlat tomonidan belgilab qo'yilgan va byudjetga majburiy undiriladigan soliqlar, bojlar, yig'imlar hamda byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarga majburiy ajratmalar, badallar va to'lovlar, soliq qonunchiligi, majburiyati, nazorati majmuidir.

Soliq to'lovi–davlat tomonidan korxonalar, tashkilotlar, fuqarolarga belgilangan soliq uchun to'lov.

Soliq to'lovchilar–zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati yuklangan yuridik va jismoniy shaxslar.

Soliq (to'lov) bazasi (soliq solinadigan baza)–soliq (to'lov) ob'yektining soliq (to'lov) summasi hisoblab chiqariladigan miqdori bo'lib, so'mlarda yoki natural birliklarda ifodalanadi.

Soliq (to'lov) davri–belgilab qo'yilgan davr bo'lib, u tugagandan keyin soliq (to'lov) bazasi va summasi hisoblab chiqariladi.

Soliq (to'lov) ob'yekti–soliq va boshqa majburiy to'lovlar to'lovchisida hisoblab chiqarish va to'lash majburiyatini keltirib chiqaradigan aylanma (oborot), qiymat, mol-mulk, resurs, boylik, harakat va uning natijasi.

Soliq (to'lov) stavkasi–soliq (to'lov) bazasining muayyan birligi uchun belgilangan soliq (to'lov) miqdori.

Soliqqa tortish tizimi-soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni aniqlash, belgilash, hisoblab chiqarish va undirish, byudjetga va tegishli jamg'armalarga o'tkazish tartib-qoidalari va jarayonlari majmui.

Soliqqa tortish usuli–soliq (to'lov) bazasining o'zgarishiga bog'liq holda soliq stavkasining o'zgarish xarakteriga asoslangan usul.

Soliq (to'lov) ni hisoblash mexanizmi–soliq (to'lov) davri uchun soliq (to'lov) bazasi, stavkasi, imtiyozlaridan kelib chiqqan holda uning summasini hisoblab chiqarish tartib-qoidasi.

Soliq rejimi–mamlakatdagi muayyan ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat va maqsadga muvofiq qabul qilingan soliqqa tortishning asosiy tartib-qoidalari tizimi.

Soliq xizmati organlari (soliq organlari)–zimmasiga soliq qonunchiligining

bajarilishi, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar undirilishi hamda soliq nazoratini tashkil etish va amalga oshirish vazifalari yuklangan davlat organlari.

Sotishdan soliq–ayrim xorijiy mamlakatlarda qo'shilgan qiymat solig'i o'rnida qo'llaniladigan soliq.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq – faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan va ishlatiladigan suv uchun to'lanadigan soliq.

Suv resurslarining yer usti manbalari–daryolar, ko'llar, suv omborlari, turli kanallar va hovuzlar, yer ustidagi boshqa suv havzalari va manbalari.

Suv resurslarining yer osti manbalari- artezian quduqlari va skvajinalari, vertikal va gorizontal drenaj tarmoqlari hamda suv chiqaradigan boshqa inshootlar.

Ssuda-qaytarib berish va haq to'lash sharti bilan beriladigan (olinadigan) mablag` (kredit).

Tavakkalchilikka asoslangan o'yinlar-lotereya o'yinlari, totalizatorida o'yinlar va boshqa o'yinlar.

Tannarx-tovar ishlab chiqarish, ish bajarish, xizmat ko'rsatishda foydalanilgan moddiy va mehnat resurslari hamda zarur bo'lgan boshqa xarajatlarning qiymat (pul) ifodasi.

Teng soliqlar–barcha to'lovchilar uchun bir xil summada belgilanadigan soliqlar.

Tovarlarni eksport qilish–O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan tovarlarni chetga, ya'ni xorijiy davlatlarga chiqarish.

Tovarlarni import qilish–O'zbekiston Respublikasi hududida sotish va iste'mol qilish uchun tovarlarni chetdan olib kirish.

Tovarlarning bojxona qiymati–tovarlarning bojxona boji va boshqa bojxona to'lovlarini hisoblash va undirishda asos qilib olinadigan qiymati.

To'lov manbai–soliq to'lovchiga to'lovlarni amalga oshiradigan yuridik shaxs.

To'g'ridan–to'g'ri investitsiyalar–aksiyalar nazorat paketini sotib olish uchun amalga oshiriladigan investitsiyalar.

To'g'ridan–to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar–chet el fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar va chet elda doimiy yashaydigan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek, chet ellik nodavlat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan investitsiyalar.

Ulgurji savdo-tovarlarni katta–katta partiyalarda oldi-sotdi qilish.

Umumdavlat (respublika) soliqlari–davlat (respublika) markaziy byudjetiga tushadigan soliqlar.

Xorijiy investitsiyalar–xorijiy davlatlar, kompaniyalar, fuqarolar, nodavlat tashkilotlari va jamg'armalari tomonidan mamlakatga kiritiladigan investitsiyalar.

Yerdan asosiy foydalanish maqsadi–yerdan yer kadastrida aks ettiriladigan aniq maqsadlarni ko'zlab, foydalanishning qonunchilikda belgilangan tartibi va shartlari.

Yer solig'i–yuridik va jismoniy shaxslar ega bo'lgan yer uchastkalaridan foydalanganliklari uchun undiriladigan soliq.

Yer qa'ri–yer qobig'ining yuqori qismini qamrab oladigan hamda foydali qazilmalarni izlash va qazib olish mumkin bo'lgan makon.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq–barcha yer qa'ridan foydalanuvchilar byudjetga to'laydigan asosiy soliq.

Yer qa'ridan foydalanuvchilar-konlarni aniqlash va razvedka qilish, foydali qazilmalarni kavlab olish va texnogen mineral hosilalardan ajratib olish, ulardan foydali komponentlarni ajratib olish uchun ularni qayta ishlashni amalga oshiradigan yuridik va jismoniy shaxslar.

Yer uchastkasi – yer fondining qayd etilgan chegaraga, maydonga, joylashish manziliga, huquqiy rejimga hamda davlat yer kadastri va ro'yxatga olish hujjatlarida aks ettiriladigan boshqa xususiyatlarga ega bo'lgan qismi.

Yoqilg'i iste'moli solig'i–jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq.

Yagona ijtimoiy to'lov–ijtimoiy jamg'armalar hisoblangan Pensiya jamg'armasi, Bandlikka ko'maklashish jamg'armasi, Kasaba uyushmalari federatsiyasi jamg'armasiga to'lanadigan uchta to'lovni o'z ichiga oladigan yagona to'lov.

Yagona soliq to'lovi–soliq solishning soddalashtirilgan tartibiga kiradigan soliq bo'lib, to'lovchilarning ayrim toifalari uchun ko'pchilik soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar o'rnida belgilangan yagona soliq turi.

Yagona yer solig'i–soliq solishning soddalashtirilgan tartibiga kiradigan soliq bo'lib, qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun ko'pchilik soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar o'rnida belgilangan yagona soliq turi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar (yakka tadbirkorlar)-yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar.

Yalpi ichki mahsulot (YaIM)–kimga tegishli bo'lishidan qat'iy nazar mamlakat hududida joylashgan ishlab chiqarish omillari yordamida yaratilgan jami mahsulot.

Yalpi tushum–tovarlar, ishlar, xizmatlar sotishdan tushadigan mablag'lar umumiy summasi.

Yuridik shaxs–egaligida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida mol-mulkka ega bo'lgan va o'z majburiyatlari bo'yicha shu mol-mulk bilan javob beradigan hamda o'z mustaqil balansiga ega bo'lgan korxona, tashkilot, muassasa va ularning mustaqil bo'linmalari.

O'zbekiston Respublikasi rezidenti hisoblanadigan yuridik shaxs (yuridik shaxs-rezident)–O'zbekiston Respublikasida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan yuridik shaxs.

O'zbekiston Respublikasi rezidenti hisoblanmaydigan yuridik shaxs (yuridik shaxs-norezident)–chet elda ro'yxatdan o'tkazilgan, lekin O'zbekistonda faoliyat yuritib, daromad oladigan yuridik shaxs.

O'zbekiston Respublikasi rezidenti hisoblanadigan jismoniy shaxs (jismoniy shaxs-rezident)–O'zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan yoki joriy soliq davrida yakunlanayotgan har qanday ketma-ketlikdagi 12 oylik davr ichida jami 183 kun va undan ortiq muddat turgan jismoniy shaxs.

O'zbekiston Respublikasi rezidenti hisoblanmaydigan jismoniy shaxs (jismoniy shaxs-norezident)–O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamaydigan yoki joriy

solliq davrida yakunlanayotgan har qanday ketma ketlikdagi 12 oylik davr ichida jami 183 kundan oz muddat turgan jismoniy shaxs.

Chakana savdo-tovarlarni bevosita oxirgi iste'molchilarga, ya'ni aholi va boshqa jamoa iste'molchilariga dona-dona yoki oz-oz miqdorda sotish.

Chegirma (siylov) – solliq solinadigan bazadan chegirib tashlanadigan uning ayrim elementlari.

|

Адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Т., Ўзбекистон, 1992.
2. Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси, 1998.
3. Ўзбекистон Республикасининг Солиқ кодекси, 2008.
4. Ўзбекистон Республикасининг Божхона кодекси, 2009.
5. Давлат солиқ хизмати тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси қонуни, 1997 йил 29 август.
6. Бож тарифи тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси қонуни, 1997 йил 29 август.
7. Каримов И.А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. Т., Ўзбекистон, 2009.
8. Каримов И.А. Ўзбекистон: бозор муносабатларига ўтишнинг ўзига хос йўли. Т., Ўзбекистон, 1996.
9. Каримов И.А. Ўзбекистон иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш йўлида. Т., Ўзбекистон, 1995.
10. Каримов И.А. Янгиланиш ва барқарор тараққиёт йўлидан янада изчил ҳаракат қилиш, халқимиз учун фаровон турмуш шароити яратиш – асосий вазифамиздир. Халқ сўзи, 2007 йил 13 феврал.
11. Каримов И.А. Инсон манфаатлари устуворлигини таъминлаш – барча ислохот ва ўзгаришларимизнинг бош мақсадидир. Халқ сўзи, 2008 йил 9 феврал.
12. Каримов И.А. Мамлакатимизни модернизация қилиш ва янгилашни изчил давом эттириш – давр талаби. Халқ сўзи, 2009 йил 14 феврал.
13. Микрофирмалар ва кичик корхоналарни ривожлантиришни рағбатлантириш борасидаги чора-тадбирлар тўғрисида”. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. “Халқ сўзи”, 2005 йил 20 июн.
14. Бозор ислохотларини чуқурлаштириш ва иқтисодиётни янада эркинлаштириш соҳасидаги устувор йўналишлари амалга оширилишини жадаллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони “Халқ сўзи”, 2005 йил 20 июн.
15. Молия-иқтисодий, солиқ соҳасидаги жинойтларга, жиноий фаолиятдан олинган даромадларни легаллаштиришга қарши курашишни кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори, 2006 йил 21 апрел.
16. Ўзбекистон Республикаси давлат солиқ қўмитаси фаолиятини ташкил этиш масалалари тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори, 1998 йил 12 январ.
17. Ўзбекистон Республикаси Давлат Солиқ қўмитаси тўғрисида Низом. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан 1998 йил 12 январда тасдиқланган.

18. Давлат солиқ хизмати органлари фаолиятини ташкил этишни такомиллаштириш тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори, 2000 йил 13 март.
19. Маҳсулот (ишлар, хизматлар) ишлаб чиқариш ва сотиш харажатлари таркиби ва молиявий натижаларни шакллантириш тартиби тўғрисида Низом. Ўзбекистон Республика Вазирлар Маҳкамаси томонидан 1999 йил 5 февралда тасдиқланган.
20. Давлат солиқ хизмати органлари фаолиятини ҳуқуқий тартибга солишни такомиллаштириш тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори, 2000 йил 5 май.
21. Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси ҳузуридаги Солиқ, валютага оид жиноятларга ва жиноий даромадларни легаллаштиришга қарши курашиш департаменти тўғрисида Низом. 2006 йил 21 апрел.
22. Абдуллаев Ё., Яхёев К. Солиқ мавзусида 100 савол ва 100 жавоб. Т., Мехнат, 1997.
23. Алимардонов М.И., Тўхсанов К.Н. "Солиқлар ва солиққа тортиш" фанидан электрон дарслик.-Т., ТДИУ, 2005.
24. Боймуродов Т., Ражабов У. Солиқ менежменти. Ўқув қўлланма. Т., Иқтисод-Молия, 2005.
25. Жўраев А. Солиқ назарияси. Ўқув қўлланма. Т., Иқтисод-Молия, 2004.
26. Жўраев А. Марказий Осиё давлатлари солиқ тизими. Ўқув қўлланма. Т., Иқтисод-Молия, 2005.
27. Жўраев А. ва бошқалар. Солиқлар ва солиққа тортиш. Ўқув қўлланма. Т., Норма, 2009.
28. Завалишина И.А. Солиқлар: назария ва амалиёт. Т., Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 2005.
29. Зайниддинов М., Агзамов А. "Жисмоний шахсларни солиққа тортиш" фанидан электрон дарслик.-Т., ТДИУ, 2005.
30. Исроилов Б.И. Солиқлар ҳисоби ва таҳлили: муаммолар ва уларнинг ечими. Т., Ўзбекистон, 2006.
31. Йўлдошев А. Солиқ ва солиққа тортиш. Ўқув қўлланма. Т., Фан ва технология, 2007.
32. Латипов А. Ердан фойдаланиш ва уни солиққа тортиш. Т., Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 2005.
33. Маликов Т. Солиқлар ва солиққа тортишнинг долзарб муаммолари. Т., Академия, 2002 .
34. Маманазаров А. Солиқ сиёсати. Т., Молия, 2003.
35. Мирзаев Т. ва бошқалар. Солиқ ва солиққа тортиш. Касб-хунар коллежлари учун ўқув қўлланма. Т., Мехнат, 2003.
36. Soliqqa oid qonun hujjatlaridagi yangiliklar, 2010 yil. Т., Norma, 2010.
37. Тошмуродов Т. Солиқлар (изоҳли луғат). Т., Мехнат, 2003.
38. Тошмуродова Б. Солиқ муносабатларини оптималлаштириш. Т., Иқтисод-Молия, 2005.

- 39.Тошмуродова Б. Солиқ назорати. Ўқув қўлланма. Т., Иқтисод-Молия, 2007.
- 40.Ҳамроев Ҳ.Р. Солиқлар ва солиққа тортиш. Маъруза матнлари. Бухоро, БухДУ, 2009.
- 41.Ҳамроев Ҳ.Р., Туробова Ҳ.Р. Солиқлар ва солиққа тортиш. Масалалар тўплами. Бухоро, БухДУ, 2009.
- 42.Юсупов О.А. "Юридик шахсларни солиққа тортиш" фанидан электрон дарслик. Т. ТДИУ, 2005.
- 43.Яҳёев Қ.А. Солиққа тортиш назарияси ва амалиёти. Дарслик Т., Адабиёт ва санъат, 2002 .
- 44.Яҳёев Қ.А. Ўзбекистонда солиқ тизими. Т., Меҳнат, 1998.
- 45.Александров И.М. Налоги и налогообложение: Учебник.-3-е изд. перераб. и доп. М, Издко-торговая корпорация «Дашков и К», 2005.
- 46.Евстигнеев Е.И. Налоги и налогообложение. М., Инфра-М, 2001.
- 47.Завалишина И.А. Налоги: теория и практика. Т., Мир экономики и права, 2004.
- 48.Кочергов Д.С., Устинова Е.Е. Упрощенная система налогообложения-М. Омега, 2006.
49. Макконнелл К.А., Брю С.Л. Экономикс. Пер. с англ. Таллин, Т.1, 1993.
- 50.Налоги и налогообложение: Учебник.-5-е изд., перераб. и доп. М., ИНФРА, 2006 с.
- 51.Налоги и налогообложение в России. Учебник.-2-е изд., перераб. и доп.-М., Дело, 2006.
- 52.Налоги и налоговая система Российской Федерации: Учебник. М., Финансы и статистика, 2006.
- 53.Налоги и налогообложение: курс-минимум, решение задач. М., Экономист, 2006.
- 54.Налоги и налогообложение: Учебное пособие.2-е изд., испр. и доп. М.: ФОРУМ: ИНФРА-М, 2006.
- 55.Налоги и налогообложение: Учебное пособие. и /Под ред. Б.Х.Алиева. М., Финансы и статистика, 2006.
- 56.Основы таможенного дела. Т., Мир экономики и права, 1998.
- 57.Самуэльсон П.А., Нордхаус В.Д. Экономика. Пер. с англ. М., ЛБЗ, 2000.
- 58.Сборник задач по налогам и налогообложению: Учебное пособие. М.В.Владыка, В.Ф.Тарасова, Т.В.Сапрыкина; под общ. ред. В.Ф.Тарасовой. М., КНОРУС, 2006.
- 59.Юткина Г.Ф. Налоги и налогообложение. М., ИНФРА-М, 2001.
- 60.Солиқлар ва божхона хабарлари» газетаси. 2007-2009 йил сонлари
61. «Солиқ тўловчининг журнали». 2007-2009 йил сонлари.
- 62.«Бозор, пул ва кредит» журнали. 2007-2009 йил сонлари.
- 63.«Ўзбекистон иқтисодий ахборотномаси» журнали. 2007-2008 йил сонлари.
- 64.«Налоговые и таможенные вести» газета 2007-2009 йил сонлари
- 65.«Ўзбекистон иқтисодиёти». Статистик маълумотлар тўплами. Ўзбекистон Республикаси иқтисодиёт вазирлиги, 2005-2008 йиллар.

- 66. Интернет-сайт: <http://wwwnalog.ru>
- 67. Интернет-сайт: <http://www/soliq.uz>
- 68. Интернет-сайт: <http://www> mf.uz
- 69. Интернет-сайт: <http://www> budgetrf.ru

MUNDARIJA

Kirish	3
1.“Soliqlar va soliqqa tortish” maxsus kursi to`g`risida. Soliqlarning mohiyati, ahamiyati va huquqiy asoslari	5
1.1.“Soliqlar va soliqqa tortish” maxsus kursini o`qitishning zaruriyati va maqsadi, kursning predmeti va vazifalari	5
1.2 Soliqlarning mohiyati, xususiyatlari va ahamiyati	8
1.3 Soliqlarning funksiyalari va soliqqa tortish tamoyillari	12
1.4 O`zbekistonda soliq siyosati va soliqlarning huquqiy asoslari	17
Qisqacha xulosalar	20
Nazorat va muhokama uchun savollar	20
Test topshiriqlari	21
2. Soliq tizimi va soliqqa tortishning tashkil etilishi	26
2.1. O`zbekiston Respublikasining soliq tizimi va uning xususiyatlari	26
2.2. Soliqlar va boshqa majburiy to`lovlarning tasnifi	32
2.3. O`zbekistonda soliq xizmati va ishlarining tashkil etilishi	37
2.4. O`zbekistonda soliq tizimini modernizatsiya qilish yo`llari	43
2.5. Rivojlangan mamlakatlar soliq tizimlari va ularning xususiyatlari	45
Qisqacha xulosalar	50
Nazorat va muhokama uchun savollar	52
Test topshiriqlari	53
3.Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig`i	58
3.1.Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig`i, uning to`lovchilari va ob`yektlari	58
3.2.Yuridik shaxslarning jami daromadlari va xarajatlari, ularni aniqlash	60
3.3.Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig`i bo`yicha imtiyozlar	67
3.4.Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig`ini hisoblab chiqarish va to`lash tartibi	68
3.5.Ayrim yuridik shaxslarning daromadlariga soliq solish xususiyatlari	71
Qisqacha xulosalar	74
Nazorat va muhokama uchun savollar	75
Test topshiriqlari	76
4. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig`i	80
4.1.Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig`i, uning to`lovchilari va ob`yekti	80
4.2.Jismoniy shaxslarning jami daromadlari va ularning tarkibi	81
4.3.Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig`i bo`yicha imtiyozlar	84
4.4.Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig`ini hisoblab chiqarish va undirish tartibi	87
4.5.Daromadlar to`g`risida deklaratsiya asosida soliq solish	91

Qisqacha xulosalar	92
Nazorat va muhokama uchun savollar	94
Test topshiriqlari	94
5.Qo`shilgan qiymat solig`i	99
5.1.Qo`shilgan qiymat solig`i, uning to`lovchilari va ob`yektlari	99
5.2.Qo`shilgan qiymat solig`i bo`yicha imtiyozlar	102
5.3.Qo`shilgan qiymat solig`ini hisoblab chiqarish va to`lash tartibi	104
5.4.Qo`shilgan qiymat solig`ini hisoblash va to`lashda hisobvaraq-faktura	109
Qisqacha xulosalar	111
Nazorat va muhokama uchun savollar	112
Test topshiriqlari	113
6.Aksiz solig`i	117
6.1.Aksiz solig`i va uning xususiyatlari	117
6.2.Aksiz solig`i to`lovchilari, ob`yektlari va bazasi	118
6.3.Aksiz solig`ini hisoblab chiqarish va to`lash tartibi	120
Qisqacha xulosalar	127
Nazorat va muhokama uchun savollar	128
Test topshiriqlari	128
7.Yer qa`ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to`lovlar	131
7.1.Yer qa`ridan foydalanganlik uchun soliq	133
7.2.Yer qa`ridan foydalanuvchilar uchun qo`shimcha foyda solig`i	137
7.3.Yer qa`ridan foydalanish huquqi uchun bonus	138
Qisqacha xulosalar	140
Nazorat va muhokama uchun savollar	141
Test topshiriqlari	141
8. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	143
8.1.Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to`lovchilari, ob`yekti va bazasi	143
8.2. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarish va to`lash tartibi	145
Qisqacha xulosalar	147
Nazorat va muhokama uchun savollar	148
Test topshiriqlari	148
9. Mol-mulk solig`i	150
9.1. O`zbekistonda mulkchilik va mulk huquqi	150
9.2.Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	152
9.3.Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	158
Qisqacha xulosalar	161
Nazorat va muhokama uchun savollar	162

Test topshiriqlari	162
10. Yer solig`i	166
10.1.O`zbekistonda yerdan foydalanish va uning uchun to`lov	166
10.2.Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig`i	167
10.3.Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig`i	173
Qisqacha xulosalar	177
Nazorat va muhokama uchun savollar	178
Test topshiriqlari	178
11. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi	181
11.1.Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi va uni qo`llash	181
11.2.Yagona soliq to`lovi	182
11.3.Yagona yer solig`i	189
11.4.Qat`iy belgilangan soliq	194
Qisqacha xulosalar	198
Nazorat va muhokama uchun savollar	199
Test topshiriqlari	200
12.Mahalliy soliqlar va yig`imlar. Soliq to`lovchilarning ayrim toifalariga soliq solish	204
12.1.Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig`i	204
12.2. Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg`isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq	207
12.3. Tovarlarining ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlar ko`rsatish huquqi uchun yig`im	209
12.4. Soliq to`lovchilarning ayrim toifalariga soliq solish xususiyatlari	210
Qisqacha xulosalar	212
Nazorat va muhokama uchun savollar	213
Test topshiriqlari	214
13.Bojlar va maqsadli jamg`armalarga majburiy to`lovlar	217
13.1.Ijtimoiy jamg`armalarga majburiy to`lovlar	217
13.2.Respublika yo`l jamg`armasiga majburiy to`lovlar	221
13.3. Ta`lim muassasalarini rekonstruksiya qilish, ta`mirlash va jihozlash jamg`armasiga majburiy ajratma	226
13.4.Tabiatni muhofaza qilish jamg`armasiga kompensatsiya to`lovi	227
13.5.Bojlar, ularning turlari va undirilishi	229
Qisqacha xulosalar	232
Nazorat va muhokama uchun savollar	233
Test topshiriqlari	234
O`zbekistonda amal qilayotgan soliqlar va boshqa majburiy to`lovlarning umumlashtirilgan tavsifnomasi	239

Asosiy tushunchalar lug`ati	244
Adabiyotlar ro`yxati	253